**Tadqiqot metodologiyasi.** Ushbu tadqiqotda badiiy tarjimada pragmatik potentsialni ta'minlash masalasi tahlil qilindi. Tadqiqot davomida sifatli va chuqur tahliliga asoslangan usullar qo'llanildi. Jumladan, quyidagi metodologik yondashuvlardan foydalanildi:

Nazariy tahlil – tarjima nazariyasiga oid ilmiy adabiyotlar, olimlarning fikrlari va ilgari surilgan konsepsiylar o'rganildi.

Taqqoslash usuli – turli olimlarning qarashlari va nazariyalari solishtirilib, ularning o'xshash va farqli jihatlari tahlil qilindi.

Pragmatik tahlil – tarjima jarayonida pragmatik potentsialning ta'minlanishi uchun qanday usullar qo'llanilishi o'rganildi.

Empirik tahlil – tarjima qilingan badiiy matnlarning misollari asosida tarjimonning stilistik va lingistik qarorlari o'rganildi.

**Tahlil va natijalar.** Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, badiiy tarjimada pragmatik potentsialni to'liq ta'minlash uchun quyidagi omillar muhim ahamiyatga ega:

#### ADABIYOTLAR

1. Baker M. In Other Words: A Coursebook on Translation. Routledge. 2018. 372 bet.
2. Bassnett S. Translation Studies. Routledge. 2002. 176 bet.
3. Chesterman A. Memes of Translation. John Benjamins Publishing. 1997. 224 bet.
4. Eco U. Experiences in Translation. University of Toronto Press. 2001. 136 bet.
5. Gutt E. A. Translation and Relevance: Cognition and Context. Basil Blackwell. 1991. 265 bet.
6. House J. Translation Quality Assessment: Past and Present. Routledge. 2015. 240 bet.
7. Jakobson R. On Linguistic Aspects of Translation. Harvard University Press. 1959. 45 bet.
8. Koller W. Einführung in die Übersetzungswissenschaft. Quelle & Meyer. 1979. 320 bet.
9. Newmark P. A Textbook of Translation. Prentice Hall. 1988. 292 bet.
10. Nida E. Contexts in Translating. John Benjamins Publishing. 2001. 240 bet.
11. Nord C. Translating as a Purposeful Activity: Functional Approaches Explained. St. Jerome Publishing. 1997. 160 bet.
12. Pym A. Exploring Translation Theories. Routledge. 2012. 192 bet.
13. Toury G. Descriptive Translation Studies and Beyond. John Benjamins Publishing. 1995. 12 bet.
14. Venuti L. The Translator's Invisibility: A History of Translation. Routledge. 1995. 368 bet.

Tarjimon madaniy konteksti chuqur tushunishi lozim. Madaniy tafovutlar tarjima jarayonida pragmatik moslikni buzishni mumkin.

Stilistik mahorat va ijodiy yondashuv muhim hisoblanadi. Asarning muallif uslubini saqlash tarjimaning sifatiga ta'sir qiladi. Lingistik moslik va konnotativ ma'nolarni to'g'ri yetkazish badiiy matnning o'quvchi tomonidan qanday qabul qilinishiga ta'sir ko'rsatadi.

Tarjimon faqat semantik to'g'rilikka emas, balki maqsadli auditorianing madaniy xususiyatlarni inobatga olishga ham e'tibor qaratishi lozim.

Badiiy tarjima jarayonida pragmatik potentsialni ta'minlash uchun tarjimon lingistik va kontekstual tafovutlarni moslashtirish strategiyalarini bilishi zarur.

Ushbu tadqiqot natijalari badiiy tarjima jarayonida yuqori sifatli va pragmatik mos tarjima yaratish uchun muhim amaliy tavsiyalarni ilgari suradi.

**Xulosa va takliflar.** Badiiy tarjimada tarjimonning pragmatik potentsialini ta'minlash juda muhim ahamiyatga ega. Tarjimon nafaqat ikki til orasidagi semantik bog'liqlikni tushunishi, balki madaniy kontekst va auditorianing kutishlarini ham inobatga olishi lozim. Maqolada ko'rib chiqilgan olimlarning fikrlari shuni ko'rsatdiki, tarjimaning sifatini belgilovchi muhim omillardan biri bu tarjimonning bilim va ko'nikmalaridir. Nida, Gutt, Baker, Venuti, Bassnett kabi olimlarning qarashlari badiiy tarjima jarayonining turli jihatlarini yoritib, tarjimonning vazifalari va yondashuvlarini tushunishga yordam beradi.

Shuningdek, tarjimon quyidagi jihatlarga e'tibor qaratishi lozim:

Madaniy bilimlar: Tarjimon tarjima qilayotgan til jamiyatining madaniy hodisalarini bilishi shart.

Kontekstual idrok: Tarjima jarayonida so'zlarning bevosita ma'nosidan tashqari, ularning konnotativ, stilistik va emotsiyonal yuklamalarini anglash lozim.

Stilistik kompetensiya: Asl asarning uslubiy xususiyatlarni saqlab qolish muhim.

Leksik va grammatick moslik: Tarjima jarayonida til birliklarining pragmatik jihatdan to'g'ri qo'llanilishi lozim.

O'quvchi auditoriyasini inobatga olish: Maqsadli auditorianing madaniy xususiyatlarga mos keluvchi tarjima yaratish.



Xolida IMAMOVA,

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti dotsenti, PhD

E-mail: x.imamova@uvwed.uz / imamova.h68@gmail.com / imam\_muhammad@mail.ru

TashDShU professori Q. Sodiqov taqrizi asosida

## TURKOLOGIYA FANINIG RIVOJLANISH TARIXI HAQIDA

Annotatsiya

Ushbu maqolada turkologiya sohasidagi ba'zi masalalar ko'tarilib tahlilga tortildi. Bu masalalarga tilshunoslik, tilga oid ta'riflar, Turkiy tillar oilasining geneologik kelib chiqishi Oltoy tillar oilasiga, Ural-oltoy tillari va Turkiy tillar oilasi, Turkiy tillarning tasniflanishi, Turkiy tillar oilasiga mansub O'zbek va Turk tilining XV-XX asrlar oraliq'idagi o'zaro munosabatlari haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** Turkologiya, o'zbekcha, turkcha, termin.

## НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ ТЮРКОЛОГИИ

Аннотация

В данной статье поднимаются и анализируются некоторые вопросы в тюркологии. К этим вопросам относятся лингвистика, определения языков, генеалогическое происхождение тюркской языковой семьи от алтайской языковой семьи, урало-алтайских языков и тюркской языковой семьи, классификация тюркских языков, принадлежности узбекских и тюркских языков к Тюркская языковая семья в XV-XX веках, взаимоотношения и влияния.

**Ключевые слова:** Туркология, узбекский язык, турецкий язык, термин.

## SOME ISSUES OF TURKOLOGY

Annotation

This article raises and analyzes some issues in Turkology. These issues include linguistics, definitions of languages, genealogical origin of the Turkic language family from the Altaic language family, Ural-Altaic languages and the Turkic language family, classification of Turkic languages, affiliation of Uzbek and Turkic languages to the Turkic language family in the 15th-20th centuries, relationships and influences.

**Key words:** Turkology, Uzbek, Turkish, terminologies.

**Kirish.** Tilshunoslik yoki lingvistika - tilning paydo bo'lishi va rivojlanishi, uning tafakkur bilan bog'liqligi, jamiyatdagi o'rni va munosabati, tilning ichki qurilishi, tasniflanishi, tahlil qilish yo'llari kabi muhim masalalar bilan shug'ullanuvchi fanning turlaridan biri ekanligi manbalarda ta'kidlanadi [5].

Tilshunoslikning predmeti bo'lgan til haqida juda ko'p tariflar berilgan: - "Til tafakkurni ifoda qiluvchi ishoralar majmuidir" (F.de Sossyur). - "Til fikrni ifoda qilishga mo'ljalangan, talaffuz qilinadigan, chegaralangan tovushlar majmuidir" (B.Grosse), degan fikrlar mavjud [5].

Bu kabi tariflar ham sharq olimlari tomonidan, hamda g'arb olimlari tomonidan berilgan. Ikki qutb olimlari tomonidan turli-tuman ta'riflar berilgan bo'lishiga qaramasdan tilshunoslар bugunga qadar aniq bir tarif ustida to'xtalmagan. Sababi, barcha keltirilgan tariflar to'g'ri va hammasi til xususiyatining ma'lum tomonlarinigina qamrab oladi. Ammo til ko'rinishidan juda sodda va shuning bilan birga juda murakkab hodisaki, bugunga qadar tilga ta'rif xususida bir to'xtamga kelinmadi.

Dunyo tilshunoslari til haqida qancha tariflar bermasin, til - bu har bir xalqning ruhiyatiga taaluqli ekanligi, uning ma'naviyati va madaniyatini aks ettiruvchisi ko'zgu bo'lib kelgan va shunday bo'lib qolaveradi.

Dunyo tilshunosligida Turkologiya yoki Turkiyshunoslik juda murakkab fan sanaladi. U avvalo zamonaviy sharqshunoslikning bir muhim bo'g'ini hisoblanadi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Turkiyshunoslik fani – turkiy elatlarning yashash xududi yani geografiyasini, tarixini, tilini, adabiyotini va madaniyatini o'rganadi. Turkiy elatlarning yashash xududi juda katta bo'lib nafaqat O'rta Osiyoda, balki Rossiya va uning Sibir o'lkasi, Turkiya, Eron, Ozarbayjon, Iroq, Pokiston, Afg'oniston, Xitoy va h.k.larni qamrab oladi. Demak, turkiyshunoslik barcha turkiy elatlari, ularning geografiysi, tarixi, tili, adabiyoti va madaniyatiga taaluqli sanaladi.

Sharq tillaridan sanaluvchi turkiy tillar haqida olimlarning qarashlari farqli. Olimlar E.D. Polivanov va G.Ramstedt turkiy

tillarni Oltoy tillar oilasiga kiritsa, O.Betling va G.Vinkler esa Ural-oltoy tillari deb nomlaydi. N.A. Baskakov esa o'zining "Vvedeniye v izucheniiye tyurkskix yazikov" [1] kitobida Turkiy tillar oilasi deb qayd etadi va unga kiruvchi jonli tillarni:

A. G'arbiy xun tarmog'i,  
Bulg'or guruhi: chuvash tili;  
O'g'uz guruhi bir necha kichik bo'limlardan tashkil topgan:

o'g'uz-turkman guruhi: turkman va truxman tillari;  
o'g'uz-bulg'or: gagauz va bolqon turklari tillari;  
o'g'uz-saljuq: ozarbayjon, turk, qirim-tatar tilining janubiy qirg'oq shevasi va urum tili;

Qipchoq guruhi ham bir necha kichik bo'limlardan tashkil topgan:

qipchoq-polovetsk bo'limi; qaray, qo'miq, qarag'ay-balqar, qirim-tatar tillari;  
qipchoq-bulg'or bo'limi: tatar va boshqird tillari;  
qipchoq-no'g'ay bo'limi: no'g'ay, qoraqalpoq, qozoq, o'zbek tilining qipchoq shevasi;

Qorluq guruhi: o'zbek va yangi uyg'ur tillari.  
B. Sharqiy xun tarmog'i

1. Uyg'ur-o'g'uz guruhi:  
1) uyg'ur-tukuy bo'limi: tuva va tofa tillari;  
2) yoqut bo'limi: yoqut tillari;  
3) xakas bo'limi: xalas, shor, cho'lim tatar, qamashi, oltoy tilining shimoliy shevasi, sariq-uyg'ur tillari;

2. Qirg'iz-qipchoq guruhi: qirg'iz va oltoy tillari, deya ajratadi.

O'zbek tilshunos olimi M.T. Iriskulov ham N.A. Baskakovning shu tasnifga o'zining "Tilshunoslikka kirish" kitobida qo'shiladi [5].

Demak, turkiy tillarning geniologik tasnifi borasida ham tilshunoslari orasidagi fikrlar bir-biridan farq qiladi. Yani turkiy tillarni geniologik jihatdan uchga; Oltoy tillar oilasiga, Ural-oltoy tillari va Turkiy tillar oilasiga taaluqli deb qarash mavjud.

Turkiyshunoslik fani – turkiy tillarning rivojlanishini, qadimgi davrdan bugunga qadar bo'lgan holatining dinamik shaklini tadqiq etadi. Shu shaklda xalq va millatning tarixiy taraqqiyotini uning tarixiy arealiga qo'shib o'rganadi. Har doim arealning o'zgarishi, kengayib torayishi lingvistik faktorlar asosida aniqlanadi. Bu faqat turkiy tillar uchun emas, balki har bir til shu jumladan, o'zbek va turk tili uchun ham muhimdir.

Demak, agar turkiy xalqlar uzoq tarixiy davrni bosib o'tgan bo'lsa, qadimdan bugunga qadar, turkiyshunoslik fani – bu tillar taraqqiyotininig tarixiy bosqichlaridagi etaplarini sanab o'tadi.

Mantiq jihatdan fan – turkiy tillarni va unda qayd etilgan adapiyotlarni: qadimgi turkiy tillar, o'rta turkiy tillar, yangi(hozirgi) turkiy tillarga ajratish mumkin. Ular: tosh bitiglar, qo'lyozmalar va toshbosmalar va h.k.larni tashkil etadi.

Bu bo'linish tillarning qat'iy bo'linishini ifodalamaydi. Tilshunoslikda qayd etilganidek, til sakrashlar orqali rivojlanmaydi, balki asta-sekinlik bilan o'zgarib boradi. Shu sababli, qadimgi turkiy tillar, o'rta turkiy tillar, yangi(hozirgi) turkiy tillar orasida keskin bir chegara yo'q, ularning hammasi tahminiy ajratish hisoblanadi. Ular koproq ajodolar tomonidan qoldirilgan toshga, qoyaga, taxtaga, teriga, turli idishlarga, devorlarga, matoga va qog'ozga bitilgan turli uslubdagi matnlardan tashkil topgan manbalarga tayanadi.

Tarixiy manbalar ko'p bo'lsa, tadqiqot chegaralanadi: tarix, til, madaniyat, adapiyot; yozma adapiyot va og'zaki adapiyot uslublari kabi. Tilni chuqur o'rganadigan bo'lsak chegaralanish torayib boradi. Dunyoda tillarning tarixiy imkoniyati o'zgaradi. Yozma uslublar buni o'zida aks ettiradi.

Har bir davr adapiyoti va tili o'z shakliga ega. Zamonaviy o'zbek va turk tilining tarixi XV asrdan boshlanadi. XV asrgacha bo'lgan davr barcha turkiy tillar uchun umum davr sanaladi desak mubolog'a bo'limasa kerak.

Yevropa adapiyotida Usmonli turk tilining dastlabki tafsifi XV-XVI asrlarga mansubligi manbalarida qayd etiladi. Buning asosi sifatida Ieronim Megizerning 1533 yildagi dastlabki "Turk tili" qo'llanmasining qo'lyozma nushasi tayyorlanganligi va 1612 yilda esa ilk "Turk tili grammatikasi"ning bosma shakli nashr etilanganligi aytiladi [13].

O'rta Osiyoda Temuriylar davrida ilm-fan taraqqiy etti. Qo'shni davlatlar bilan iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalar kengaydi. Davlatchilik rivojlangan sari, temuriylar davlati tilining tadqiq etilishiga ham e'tibor qaratildi. Buni ikki turdag'i lug'atlarda ko'rish mumkin:

Chig'atoycha so'zlarning usmonli turkiyicha izohi bo'lgan lug'atlar; "Abushqa" (XVI asr), "Lug'ati Navoiy" (XVI asr), Sulaymon Buxoriyning "Lug'ati chig'atoiy va turki usmoniy" (XIX asr) va boshqalar.

Turkiy so'zlarning forscha izohi bo'lgan lug'atlar; Tole Imoni Hiraviyning "Badoe ul-lug'at" (XV asr), Muhammad Yoqub Chingiyuning "Kelurnoma" (XVII asr), Mirzo Mahdixonning "Sangloh" (XVIII asr) va boshqalar shular jumlasidandir [2]

Yuqoridagi qatorlarni yana uzaytirish mumkin. Bu lug'atlar uchun tuzilishidan ko'zlangan maqsad chig'atoiy tilini o'granishga bo'lgan e'tibor edi.

Turkiyshunos olim E.Umarov: Turkiy xalqlar ichida o'zbeklarning madaniy merosi eng boy hisoblanishi, mayjud qo'lyozmalarining bir qismini qadimgi qomuslar tashkil etishini, Tibilisi, Leningrad (hozirgi Sankt-Peterburg), Boku, Toshkent shaharlari qo'lyozma xazinalaridagi Fatx Alixonning "Kitobi lug'ati atrokiya", Tole Xisraviyning "Badoe-ul-lug'at", Muhammad Xuyinning "Xulosai Abbosiy" va boshqa lug'atlar shular jumlasidandir [9:6; 10:36], – deya ta'kidlaydi. Bularidan tashqari, Istanbul, Vena, London, Tehron, Qohira va boshqa chet el kutubxonalarida ham ko'plab merosimiz saqlanmoqda.

XV asr ilmiy va madaniy aloqalar rivojlanib, chig'atoychani o'rganishga bo'lgan e'tiborni yana bir asarda "Oqqyunli muxlislar devoni" (XV asr)da ham ko'rishimiz mumkin. Bu devon Oqqyunlilar saltanati xududidagi Navoiy she'riyati ixlosmandlari tomonidan tuzilib, Oqqyunlilar saltanatida yoyilgan o'g'uz turkchasiga moslashtirilganligi aytiladi va quyidagi g'azaldan misol keltiriladi:

Mehir čox görსatdim, ammā mehribānē dapmadim,

Jān basē qıldım fidā, ārām-i jānē dapmadim.

Ğam bilä jānīma yetdim, ğamgasārē görmädim,  
Hajr ilä dilihasta oldum dilsitānē dapmadim [4].

O'zbek adapiy tilininig taraqqiyot bosqichlari haqida o'zbek tilshunos olimi Sh.Shoabdurahmonov o'zininig "Hozirgi o'zbek adapiy tili" nomli kitobida uch katta davrni ta'kidlaydi:

1. Qadimgi turkiy adapiy til;
2. Eski o'zbek adapiy til;
3. Hozirgi o'zbek adapiy til [8].

Turk tilshunos olimi S.Eker Turk tilining taraqqiyot bosqichlari haqida "Çağdaş Türk Dili" nomli kitobida ham uch katta davrni ta'kidlaydi:

- Eski Onadolu turkchasi;  
Usmonli turk tili;  
Zamonaviy turk tili [3].

Turkiyshunos olim Q.Sodiqov esa O'zbek adapiy tilininig taraqqiyot bosqichlarini V-XXI asrlar oralig'ida sakkizga ajratadi: Oltoy va Hun davri, Qadimgi turkiy til, Eski turkiy til yoki Hoqoniya turkchasi, İlk chig'atoiy davri, Chig'atoiy turkiysi, O'zbek klassik yozma adapiy til, Eski o'zbek adapiy til, Hozirgi o'zbek adapiy til, kabilar [6: 14-16].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Demak, barcha turkiy tillarning diaxron klassifikasiysi mavjud. Ularning har birida tasnifni yana ichki bo'linishlarga ajratish va tafsiflash mumkin. Bu tasniflar doirasida O'zbek va Turk tilining bo'linishi umumiy tasnifning ichidan joy oladi. Shunga qaramay har bir turkiy til o'z tasnifiga ega bo'lib qolaveradi.

Yana har bir davr tilshunosligininig o'ziga xos maxsus leksikasi mavjud. Maxsus leksikaga asosan terminlar (atamalar) kiradi. Terminlar – bu tor doirada ishlatalidigan va faqat mutaxassislar tomonidan tushuniladigan so'z yoki so'z birikmasidan tashkil topadi.

O'zbek tilshunosligida turkologiya fani uchun asosan uch xil atama yuritiladi. Bular: 1) "Turkiyshunoslik" atamasi; 2) "Turkologiya" atamasi; [11] 3) "Turkiyot" atamasiidir.

Turk tilshunosligida ham turkologiya fani uchun asosan uch xil atama yuritiladi: 1) "Türklik bilimi" atamasi 2) "Türkoloji" atamasi; 3) "Türkiyat" atamalaridir [7].

Demak, o'zbek va turk tilidagi atamalar aynan son va mazmun jihatidan bir-biri bilan to'la uyg'unlik hosil qilmoqda: turkiyshunoslik=türklik bilimi, turkologiya=türkoloji, turkiyot=türkiyat. Bu fan bilan shug'ullanuvchi mutaxassislar uchun ham uch xil atama qo'llaniladi: turkiyshunos, turkshunos va turkolog. Bundan tashqari, mutaxassis bo'lmaseda turkiy tilda so'zlovchi yoki ijod qiluvchi kishi uchun turkona va turkigo'y sho'ir (yozuvchi) atamalari qo'llanilgan va qo'llanishda davom etmoqda.

Ko'rinishidan va tuzilishidan bu atamalar bir-biriga juda o'xshaydi. Turkiyshunoslik atamasi ot+fe'l strukturasidagi o'zbekcha+forscha so'zlarning qo'shilishidan tashkil topgan gibrid qo'shma so'z sanalsa =TÜRKÜK bilimi esa sof turkcha ot+ot strukturasidagi so'z birikmasidan tashkil topgan, turkologiya atamasi esa, ot+ot strukturasidagi o'zbekcha+yunoncha so'zlarning qo'shilishidan tashkil topgan gibrid qo'shma so'z hisoblanadi. Turkiyot=türkiyat atamasi esa, ot+so'z yasovchi qo'shimcha+ so'z yasovchi qo'shimcha strukturasidagi yasama so'z sanaladi.

Ular o'zbek tilida ham, turk tilida ham bitta gumanitar kompleks fanning uch turli nomlanishi bo'lgan to'la sinomim so'zlardir. Agar ma'lum tushunchani ifodalovchi so'zlar yoki atamalar sinomik qatorni tashkil etsa, ular ichida bittasi albatta dominantlik qiladi. O'zbek tilida ham, turk tilida ham bitta gumanitar kompleks fanning nomida turkiyshunoslik=türklik bilimi termini o'miga turkologiya=türkoloji dominantlik vazifasini o'taydi. Demak, yunoncha atama ilmiy terminda dominantlik qilishini sababi, balki dunyo tilshunosligida universaliya hosil qilishida bo'lishi mumkin.

Yana shu uch atama doirasida turkolog, turkiyshunos, turkshunos, turkiyot, turkona, turkiyogo'y kabi terminlar ham o'zbek tilshunosligida qo'llanilib kelinmoqda. Vaholanki, O'zbek tilining izohli lug'atida turkshunos, turkiyot atamalari qayd

etilmaydi. Lug'atning so'z maqolalarida faqat turkolog, turkiyshunos, turkona, turkiyo'y atamalari uchraydi [11].

Demak, O'zbek tilshunosligining so'z boyligi va atamashunosligiga XX asrning oxiri va XXI asrning boshlarida ikki yangi termin: turkshunos, turkiyot kirib keldi deyish mumkin.

O'zbek tilida bugun qo'llanilayotgan turkiyshunos va turkshunos atamalarinin qo'llanilishiga e'tibor qarataylik. Bu atamalar sinonimdek tuyuladi. Aslida, turkiyshunos atamasi haqida izohli lug'atda – turkiyshunoslik bo'yicha mutaxassis, olim – deya qayd etiladi [11]. Butun turkiy tillar va ularning tarihi, adabiyoti, tili, madaniyatni va boshqa ularga oid bilimlarni qamrab olgan olim. Turkshunos atamasi esa XX asrning 80-yillardan paydo bo'ldi. Bu - turkshunos atamasi turk tili mutaxassisligiga ega tilshunoslar uchun qo'llanilmoqda, nazarimizda. Termin nuqtayi nazaridan turkiyshunos kengroq atama bo'lib- umumturkiy tillarga taaluqli sanaladi. Turkshunos esa torroq bo'lib, faqar turk tili va adabiyoti mutaxassisliklari uchun ishlatalidi. Turkiyshunoslik turkshunoslikni o'z ichiga oлади va qamraydi, ammo turkshunoslik turkiyshunoslikni o'z ichiga sig'dirolmaydi. Balki vaqt kelib bu ikki atama lug'at tarkibidagi ma'no torayishi va kengayishi hodisasiga ko'ra sinonimlikni hosil qilishi mumkindir. Uning uchun ma'lum vaqt, mutaxassislar tushunchasida o'zgarish bo'lishi kerak. Shunday bo'lgani taqdirda bu o'zbek tilimiz uchun bir yo'qotish sanaladi.

O'zbek va turk tilida ishlatalayotgan ikkinchi atamamiz turkiyot=türkiyat'dir. O'zbek tilining izohli lug'atida turkiyot atamasi uchramasligini yuqorida qayd etgan edik. Turk tilining izohli lug'atida va internet taqmoqlarida türkiyat atamasi usmonli turk tilidan olinganligi va türkoloji= türklük bilimi bilan aynan sinonim sifatida ishlataladigan kompleks fanning nomi sifatida qayd etiladi [7]. Yuqorida türkiyat atamasini ot+so'z yasovchi

qo'shimcha+so'z yasovchi qo'shimcha strukturasi dagi yasama so'z türk + i + y + at shaklida ajratdik. -at yasovchi qo'shimchasining tovush uyg'unligi hodisasiga moslashmasligi diqqatni tortadi. Emin+i+y+et=emniyet so'zining yasalishida turk tilidagi tovush uyg'unligi va tovush tushushi hodisalariga to'liq moslashadi. Diqqatni tortadigan jihatni o'zak turkcha bo'lgan türk + i + y + at shaklida singormonizm hodisasi buziladi, o'zak arabcha bo'lgan emin+i+y+et shaklida singormonizm hodisasiga amal qilinadi.

Ma'lumki, termin aniq, konkret tushunchani ifodalab, emotsiyonal-ekspressiv, modal funksiyalardan holi bo'ladi [12]. Umuman har qanday fanda termin borasida sinonimlik bo'lmasligi talab etiladi. Sababi, sinonimlik bo'lgan joyda hoh terminlarda va hoh so'zlarda bo'lsin, farqliylikni ifodalaydi. Ma'nodagi shu farqlilik tushunchada chalkashlikni yuzaga chiqarishi mumkin. Ammo bugun o'zbek va turk tilshunosligida, turkologiya fanida ko'rib turganimizdek sinonimlikning ishlatalishi kuzatilmoqda.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa qilib aytganda, dunyoda turkiyshunoslik fani o'zining ichki imkoniyatlari, xususiyatlari va qoldirilgan yozma asarlar asosida rivojlanib borar ekan, turkiyshunoslik ichida turkshunoslik ham alohida ildamlamoqda. Turkiy tillari tasnifi, qoldirilgan yozma manbalarning o'rganilishi, o'zbek va turk tilshunosligidagi fanga oid terminlar turkiyshunoslik=türklük bilimi, turkologiya=türkoloji, turkiyot=türkiyat va mutaxassislikka doir turkolog, turkiyshunos, turkshunos, turkiyot, turkona, turkiyo'y atamalari borasidagi turli-tumanliklarning bartaraf etilishida vaqt asosiy vazifani bajaradi. Davlatchilik yoki davlatchiliklar rivojlansa, o'sha davlatlar tilining tadqiq etilishi ham kengayadi. Asta-sekinlik bilan fandagi muammolar ham hal etiladi albatta.

#### ADABIYOTLAR

- Баскаков, Н. А. (1968). Введение в изучение тюркских языков. Москва: "Высшая школа". С. 350-354
- Bozkurt, B (1999). Türklerin Dili. Ankara: T.C. Kültür Bakanlığı Yayınları. S. 226-238.s.
- Eker, S (2006). Çağdaş Türk Dili. Ankara: Grafiker Ofset. 156.s.
- Эркинов, А. (2015). "Оккуюнли муҳлислар девони", Tokyo: Research Institute for Languages and Cultures of Asia and Africa (ILCAA) Tokyo University of Foreing Studies, 3-11-1 Asahicho Fuchu-shi. 22-6.
- Ирискулов, М.Т. (1992). Тилшуносликка кириш. Тошкент: Ўқитувчи. 4-5 б.; 177-178 б.
- Содиков, Қ. (2020). Эски ўзбек ёзма адабий тили. Тошкент: Akademnashr. 14-16 б.
- Türkçe Sözlük 2. (1988). Ankara: Türk Tarih Kurumu Basım Evi. 1504.s.
- Шоабдурахмонов, Ш. (1980). ва б.к., Ҳозирги ўзбек адабий тили. Тошкент: Ўқитувчи. 7-б.
- Умаров, Э. (1990). "Комуслар – маданий бойлигимиз", "Гулистон" журнали, 6-сон.
- Умаров, Э. (1992). "Эски ўзбек лугатлари" Тошкент: Ўзбекистон Фанлар Академияси Тилшунослик институти. 36-б.
- Ўзбек тилининг изохли лугати-Т., (2005), Тошкент: Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. 196-б.
- Ўзбек тили лексикологияси. (1981) Тошкент: Фан. 28-б.
- Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси, Т ҳарфи. (2005). Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси нашриёти. 733-б.



**Nigora ISRAILOVA,**

Andijon davlat chet tillari instituti tayanch doktoranti

E-Mail: [israilova.n@gmail.com](mailto:israilova.n@gmail.com)

NamDU dotsenti D.Sarimsakova taqrizi asosida

## NEMIS YOSHLARI NUTQIDA TILNING ETNOLEKTAL SHAKLLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada yoshlar nutqida nemis tilining etnolektal shakllari chuqur tahlil qilinib, ushbu til hodisasi identifikatsiya va ijtimoiy muloqot jarayonlari bilan qanday bog'liq ekani o'rganilgan. Tadqiqotda etnolekt tushunchasi, uning turli avlod migrant yoshlar tomonidan qanday shakllarda qo'llanilishi va bu jarayonning ijtimoiy hamda madaniy jihatlari atroflicha muhokama qilingan. Shuningdek, maqolada etnolektal shakllarning ijtimoiy chegaralarni belgilash yoki aksincha, yangi muloqot imkoniyatlarini yaratish vositasи sifatida qanday ishlatalishi muhokama qilingan. Kelgusida etnolektlarning rivojlanishi, ularning yoshlar identifikatsiyasiga ta'siri va migrant avlodlar o'rtasida qanday o'zgarishlarga uchrayotganini yanada chuqurroq tadqiq qilish zarurligini ta'kidlab o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** Etnolekt, migratsiya, ko'p tillilik, yoshlar nutqi, Türkendeutsch, lingvistik o'zgarishlar, identifikatsiya, madaniy xilmallik, Kiezdeutsch, sotsiolekt.

## ЭТНОЛЕКТАЛЬНЫЕ ФОРМЫ НЕМЕЦКОГО ЯЗЫКА В РЕЧИ НЕМЕЦКОЙ МОЛОДЕЖИ

Аннотация

В данной статье глубоко анализируются этнолектные формы немецкого языка в речи молодежи, исследуется, как это языковое явление связано с процессами идентификации и социального общения. В исследовании подробно рассматриваются понятие этнолекта, формы его использования среди различных поколений мигрантской молодежи, а также социальные и культурные аспекты этого процесса. Кроме того, в статье обсуждается, как этнолектные формы используются либо для определения социальных границ, либо, наоборот, как средство создания новых возможностей общения. Подчеркивается необходимость дальнейшего углубленного изучения развития этнолектов, их влияния на идентификацию молодежи и изменений, происходящих среди поколений мигрантов.

**Ключевые слова:** Этнолект, миграция, многоязычие, речь молодежи, Türkendeutsch, лингвистические изменения, идентификация, культурное разнообразие, Kiezdeutsch, социолект.

## ETHNIC FORMS OF GERMAN IN YOUNG PEOPLE'S SPEECH

Annotation

This article provides an in-depth analysis of the ethnolinguistic forms of German in adolescent speech, exploring how this linguistic phenomenon is related to processes of identification and social interaction. It examines the concept of ethnolect, the ways in which it is used by different generations of migrant youth, and the social and cultural aspects of this process. It also discusses how ethnolectal forms are used either to define social boundaries or, conversely, as a means of creating new opportunities for communication. The need for further in-depth research into the development of ethnolects, their impact on youth identity and the changes taking place among migrant generations is emphasised.

**Key words:** Ethnolect, migration, multilingualism, youth language, Turkish language, linguistic change, identification, cultural diversity, neighbourhood language, sociolect.

**Kirish.** So'nggi o'n yilliklarda sodir bo'lgan migratsion jarayonlar va demografik o'zgarishlar Germaniyaning yirik shaharlarida ko'p tillilik va ko'p madaniyatatlilikning keng tarqalishi natijasida nemis tilining yangi nutq va interaksiya uslublarining shakllanishiga olib keldi. Germaniada lingvistik-kommunikativ ko'p tillilik til ozchiligi va til ko'pchiligining o'zaro murakkab ta'siri bilan tavsiflanadi. Shu jarayonda aynan yoshlar guruhi ushbu ko'p tillilik naqshlari va til aralashish jarayonlarining turli shakllarini ommalashtirish va rivojlantirishda yetakchi rol o'ynaydi. Shunday lingvistik o'zgarishlarning rivojlanishida, ayniqsa, "Türkenslang" deb ataluvchi nutq uslubining shakllanishida, asosan, turk millatiga mansub yoshlar hamda umuman, nemis bo'limgan kelib chiqishga ega bo'lgan

yoshlar muhim omil sifatida ishtirot etadi. Ushbu yoshlarningaksariyati Germaniyada voyaga yetgan bo'lib, nemis tili va madaniyatiga o'z ajdodlarining ona tilisidan va madaniyatidan ko'ra ko'proq yaqindirlar. Ular o'z ona tili va ota-onalarining to'liq shakllanmagan nemis tilisidan iborat bo'lgan lingvistik muhitda ulg'ayadi. Shu sababli, ushbu yoshlarning o'z nemis tilidagi kundalik nutqlarini ona tillaridan kirib kelgan elementlar bilan boyitishi kutilgan holatdir. Biroq, faqatgina ikki tildan iborat lingvistik aralashma bilan cheklanib qolmay, ko'plab yoshlar o'ziga xos etnolektal ko'rinishlardan foydalanadi. Ushbu hodisa tarkibida nemis tilining grammatik, leksik hamda fonetik-prosodik jihatdan o'ziga xos xususiyatlari mavjud bo'lib, bu o'z navbatida ushbu til shaklini standart nemis tilidan farqlantiradi va

so'zlashuvchilarni nemis bo'limgan shaxslar sifatida ajratib ko'rsatadi. Ushbu nisbatan yangi lingvistik shakl turlicha nomlar bilan yuritiladi: "Türkendeutsch", "Türkenslang" kabi atamalardan tashqari, "Kanak Sprak", "Ghettosprache", "Mischsprache" va "Lan-Sprache", „Kiezdeutsch“ kabi atamalar ham ishlataladi. Shu kungacha olib borilgan empirik tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, ushbu lingvistik shakl nafaqat migrantlar avlodlarining til xatti-harakatini aks ettiradi, balki nemis jamiyatining til amaliyotiga ham sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi. Ko'p tillilikning keng tarqalishi va madaniy hamda lingvistik aloqalarning kuchayishi natijasida migrantlar hamda mahalliy aholi lingvistik repertuarida o'zgarishlar yuz beradi. Ayniqa, yoshlar orasida ko'p tarqalgan ushbu gibrildi, ko'p qirrali til aralashish jarayonlari ijodiy tarzda shakllantiriladi va ma'lum kommunikativ maqsadlarga yo'naltirilgan holda ishlataladi.

Ko'plab jamiyat vakillari ushbu til o'zgarishlarini tildagi degeneratsiya (lingvistik buzilish) sifatida baholab, unga nisbatan shubha bilan qarashadi. Biroq, ushbu yangi lingvistik shakllar va ko'rinishlarning qo'llanilishi yoshlar orasida identifikatsiya jarayonlari bilan ham bog'liq bo'lib, shaxsiy va ijtimoiy o'zlikni shakllantirish va qayta tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etishi e'tibordan chetda qolmasligi lozim.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Axborot va til materiallарини iloji boricha tizimli hamda maqsadga yo'naltirilgan tarzda toplash uchun tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan intervyu usuli samarali bo'ldi. Bu jarayonda tadqiqotchi oldindan belgilangan savollar va ochiq mavzularidan tashkil topgan yo'naltirilgan intervyu (Leitfadeninterview) tamoyiliga amal qilgan [1]. Ayniqa, individual intervyularning asosiy afzalligi ularning tizimli, nazorat qilinadigan va nisbatan kam resurs talab qiladigan shaklda o'tkazilishidir. Biroq, bunday intervyular respondentlarning tabiiy nutq xatti-harakatlarini optimal darajada aks ettirmasligi mumkin, chunki suhbat jarayoni intervyu oluvchining kutilmalari ta'sirida bo'ladi va shu sababli ma'lum darajada modifikatsiyaga uchrashi ehtimoli mavjud. Bunday ta'sirlarni kamaytirish uchun bir necha kishidan iborat guruh intervyularini o'tkazish maqsadga muvofiqdir.

Guruh intervyusi, ayniqa, guruh dinamikasi ta'sirida ishtiroychilarning ochiqroq muloqot qilishiga va shaxsiy mavzularni muhokama qilishiga imkon beradi. Shu bilan birga, bu usul boshqaruvning qiyinligi va ma'lumot yig'ish jarayonining murakkabligi kabi kamchiliklarga ham ega [1]. Tadqiqotda kuzatuvchi paradoksini – tilshunoslar insonlar qanday gaplashishini o'rganishga intiladi, biroq aynan kuzatilayotgan holatda ularning nutqi tabiiy bo'lmaydi – iloji boricha kamaytirish uchun suhbat va yozib olish jarayonini maksimal darajada norasmiy va majburlovsiz muhitda o'tkazish tavsija etiladi. Buning uchun respondentlar shaxsiy hayotlari bilan bog'liq bo'lgan mavzularni muhokama qilishga jalb qilinishi lozim, bu esa ularni intervyu vaziyatidan chalg'itadi va tabiiy nutqiy xatti-harakatlarini namoyon qilish imkonini beradi [2]. Shunday qilib, tadqiqotga jalb qilingan xususiyatlar oldindan belgilangan gipoteza va kategoriyalarga emas, balki bevosita ma'lumotlar materialiga asoslangan holda tahlil qilinishi lozim. Suhbat tahlilining maqsadi muayyan ijtimoiy guruhlar yoki qatlamlarning umumiyligi kommunikativ xususiyatlari va suhbat amaliyotlari haqida umumlashtirilgan xulosalar chiqarish emas, balki kuzatilgan individual nutqiy faoliyat va lingvistik amaliyotlar asosida maxsus tuzilmalarni tavsiflashdan iborat.

Deppermannga ko'ra, "suhbat tahlili" atamasi "konversatsiya tahlili" atamasiga nisbatan ustun qo'yilishi lozim, chunki suhbat tahlili nafaqat lingvistik jihatlarni, balki tematik va faoliyatga oid omillarni ham, shuningdek, etnografik ma'lumotlarni ham qamrab oladi. Etnografik bilimlarni egallash asosan ishtiroychisi kuzatuv orqali amalga oshiriladi. Ushbu usulda tadqiqotchi subyektlar bilan uzoq muddatli aloqa o'rnatib, ularning kundalik hayotida ma'lum darajada ishtiroy etidi va shu orqali ularning til odatlari hamda kommunikativ munosabat shakllari haqida chuqurroq tasavvur hosil qiladi [3].

Suhbat davomida yuzaga kelgan erkin va tabiiy muhit hamda muayyan mavzulardagi muloqotlar yoshlarning asosan o'zaro guruh ichidagi interaksiyalariغا e'tibor qaratishlariga imkon yaratadi. Bu esa ijtimoiy vaziyatlarda yuzaga keladigan maxsus nutqiy va xulq-atvoriy odatlarni kuzatish imkoniyatini beradi. Etnolektlar, asosan, ikki muhim nuqtai nazardan tadqiq qilingan: standart tilning yangi variatsiyalari sifatida hamda "nutq sohiblari o'zaro interaktiv va ijtimoiy vazifalarini hal qilishda qo'llaydigan ijtimoiy uslublar" sifatida [4]. Variatsion lingvistika tadqiqotlari yangi til shakllarini tavsiflash va ularni standart til bilan taqqoslash bilan shug'ullanadi. Ular ushbu etnolektlarning dialect, o'rganilayotgan til shakli yoki yoshlar uslubi sifatida qaralishi mumkinmi, degan savolga javob izlaydi. Masalan, Wiese va Auer kabi tilshunoslar etnolektlarni nemis tilining mustaqil variatsiyalari sifatida ko'rib chiqadilar. Soziostistik va interaktiv tadqiqotlar esa etnolektlar ma'lum bir guruhga mansublikni yoki aksincha, undan ajralib chiqishni ifodalovchi vosita ekanligini ta'kidlaydi. Shunday qilib, etnolektlar identifikatsiya ramzi sifatida qaralishi mumkin [4].

**Natijalar va muhokama.** Til va muloqotning yangi shakllarining shakllanishi, xususan, nemis tilida so'zlashuvchi ko'pchilik va muhojir tillarida so'zlashuvchilar o'rtaSIDAGI aloqa natijasida yuzaga keladigan o'zgarishlar masalasini Volker Hinnenkamp ham o'rganadi. U allaqachon 1980-yillarda oxirida etniklik va etnik tasniflash masalalariga murojaat qilib, etniklik, shuningdek, madaniyat, millat va din kabi parametrlar muloqot orqali ishlab chiqilishini va asosan til vositasida shakllantirilishini ta'kidlaydi [5].

Nemis va turk tillarining etnik tasnifi va stilizatsiyasiga doir tadqiqotlarida Hinnenkamp nemis tili taraqqiyot va integratsiya bilan bog'liq bo'lib, nufuzli til hisoblanishini, turk tilining esa nisbatan pastroq maqomga ega ekanligini qayd etadi. Biroq, keyinchalik Hinnenkamp yozib olingen suhbatlarni tahlil qilib, turk tili ayniqa etnik jihatdan aralash yoshlik submadaniyatlarida nufuzli tilga aylanganini va ko'p tillilikning turli shakllarida namoyon bo'lishini aniqlaydi [6]. Til, madaniyat va identifikatsiyaning nisbatan yangi shakllarining rivojlanishi hamda til va madaniy tizimlarning o'zaro aralashuvni Hinnenkamp [7] tomonidan gibriddlik diskursi (Hybriditätsdiskurs) deb ataladi. Ayniqa, yoshlar guruhi ularga mavjud bo'lgan lingvistik resurslardan foydalaniib, o'zlariga xos til shakllarini va shunday qilib, o'z kommunikativ uslublarini yaratadilar. Bu jarayonda kod almashtirish (Code-Switching) shakllaridan tashqari, Hinnenkamp tomonidan o'r ganilgan yoshlar "aralash nutq" (Gemischtsprechen) deb ataydigan uslub ham rivojlanadi. Ushbu nutq shaklida nafaqat gap darajasida, balki ayrim so'zlarning ichida ham til bir necha marta almashtiriladi. Yoshlarning ushbu variatsiyani o'z nomi bilan atashi va boshqa nutq shakllaridan ajratib ko'rsatishi ularning o'ziga xos o'tish davri ijtimoiy identifikatsiyasini ifodalashga xizmat qiladi.

Hinnenkamp bu gibridolektal We-Codening o‘z nomi bilan aytishi va ishlatalishini identifikatsiya harakati (act of identity) sifatida baholaydi. Bu jarayon yoshlar guruhi ichida o‘zini interaktiv ravishda joylashtirish va identifikatsiyani shakllantirishga xizmat qiladi. Etnik chegaralar, roller va identifikatsiyalar til aralashmalari orqali o‘yinqaroq tarzda almashinadi, stilizatsiya qilinadi va “harakatning ko‘ngilochar resursi” sifatida xizmat qiladi [8]. Peter Auer va Inci Dirim asosan chet elliklar istiqomat qiladigan Gamburgning ayrim hududlarida nemis ko‘philik jamiyatiga mansub shaxslar yoki boshqa migrant guruhlarga mansub kishilar tomonidan migrant tillarining o‘zlashtirilishi kabi kutilmagan hodisalarni kuzatgan [9]. Ayniqsa, turk tili ushbu hududlardagi ko‘plab yoshlar orasida, hatto turk millatiga mansub tengdoshlari bilan bevosita aloqasi bo‘lmagan hollarda ham, muayyan ikkinchi standart til sifatida shakllangan. Ushbu tilni o‘zlashtirishning o‘z-o‘zidan yuzaga kelishi turli savollarni keltirib chiqaradi va turk tili hech bo‘lmaganda muayyan ijtimoiy guruhlar orasida obro‘siz til sifatida qaralmasligini ko‘rsatadi. Auer va Dirimning fikricha, turk tilidan foydalanishning bunday shakllari aynan yoshlarning ijtimoiy muhitni va ko‘p etnik tarkibga ega jamiyatda birga yashash tajribasi bilan bog‘liq. Nemis-turk aralash kodidan va turkcha terminlardan foydalanish yoshlar orasida amaliy ko‘p tillilikni, umumiylayotiy bog‘liqlikni va guruhga mansublikni anglatadi [9]. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, aynan turkcha murojaat shakllari va diskurs markerlari yoshlar tilida identifikatsion va ijtimoiy munosabatlarni shakllantirish vositasini bo‘lib xizmat qiladi va turk tilining ijtimoiy-simvolik qiymatini namoyon qiladi. Bu yoshlarning kundalik muloqot shakli bo‘lganligi sababli, bu holat etnik chegaralarni kesib o‘tish yoki Language Crossing hodisasi emas, balki nemis yoshlariga birlamchi etnolektning bevosita ta’siri sifatida qaraladi.

Turk millatiga mansub bo‘lmagan yoshlar tomonidan qo‘llanilgan turkcha formulalar va etnolektal belgilari bilingval spikerlar tomonidan ishlatalidigan kod-almashish (Code-Switching) va kod-aratashish (Code-Mixing) shakllariga mos keladi. Auerning fikriga ko‘ra, kod-almashish ikki til yoki variantning ketma-ket ishlatalishini anglatadi, kod-aratashish esa, aksincha, ikki til orasida uzlusiz o‘tish bo‘lib, u ko‘pincha diskurs markerlari yoki undov so‘zlar shaklida yuzaga chiqadi [10]. Bundan tashqari, Auer kod-almashishning ikki shaklini farqlaydi: Diskursga asoslangan kod-almashish – bu kontekstualizatsiya belgisi bo‘lib, u suhbat ishtiroychilar va muloqot sharoitimi belgilaydi yoki qayta shakllantiradi. Ishtiroychilariga asoslangan kod-almashish – bu suhbat ishtiroychilarining lingvistik kompetensiyalari va tilga bo‘lgan afzallikkari haqida ma’lumot beradi.

Hamburgning etnik jihatdan aralash yoshlar guruhida sodir bo‘layotgan til hodisalari bilingval jamoalarda kuzatiladigan til hodisalari bilan o‘xshashliklarga ega: turli tillar yoki ularning variantlari turli vazifalar bilan va turli shakllarda ishlataladi, biroq bu jarayonda etnik chegaralar buzilmaydi. Auer va Dirim) turk tilining ushbu qo‘llanilishini act of identity (identifikatsiya akti) sifatida tavsiflaydilar. Bu til vositasida spikerlarning ramziy qo‘shilish yoki ajralib turish ehtiyojlari ifoda etiladi. Turk tili nemis va turk bo‘lmagan yoshlar tomonidan o‘zlashtiriladi va qo‘llaniladi, bu esa ijtimoiy va ramziy ahamiyatga ega bo‘lgan identifikatsiya aktlarini amalga oshirishga xizmat qiladi va oddiygina muloqot uchun ham ishlatalishi mumkin. Bu tilni o‘zlashtirishning sababi turk tili va madaniyatiga to‘liq

identifikatsiya qilish emas, balki muayyan madaniy va ijtimoiy jihatlarga mansublik hamda turk tilining yirik shahar yoshlari va submadaniy getto madaniyatining bir qismi sifatidagi ramziy ahamiyatidir. Turkcha iboralar va nutq formulalaridan foydalanishning qaysi maqsadda amalga oshirilishidan qat‘i nazar, bu jarayon yoshlarning ijtimoiy uslubining bir qismiga aylanadi va ularning o‘z-o‘zini ifodalash akti sifatida xizmat qiladi. Auer va Dirimning tadqiqotlari shuni ko‘rsatadi, turk tili ayniqsa etnik jihatdan aralash tarmoqlarda, norasmiy muhitda va turli etnik kelib chiqishga ega yoshlar orasida o‘ziga xos ovozga aylanishi mumkin. Bu til o‘z jamoasi ichida o‘ziga ishonch bilan ishlataladi, yuqori baholanadi va shu bilan birga submadaniy nufuz kasb etadi.

Germaniyada boshlang‘ich maktab o‘quvchilari etnolektal va standart tilga yaqin shakllarni farqlashni boshlaydilar hamda o‘z o‘qituvchilari va sinfdoshlari tomonidan bildirilgan munosabatlar orqali qaysi shakldan foydalanish qanday ta’sir ko‘rsatishini tushunib yetadilar. Shahar hududidagi birinchi sinf o‘quvchilari etnolektal shakllardan o‘zlarini "sovug gangster" sifatida namoyon qilish (o‘z-imidjini shakllantirish) maqsadida ham foydalanadilar. Kelib chiqishi turk bo‘lgan o‘g‘il bolalar o‘z tashqi qiyofalari (katta o‘lchamdagisi jinsi shimplar, orqaga taralgan va jeldan foydalanilgan soch turmagi), yurish-turishlari (yoqoni keng yoygan holda yurish, bo‘shashgan, loqayd holatda harakat qilish, haddan tashqari harakatli va tajovuzkor imo-ishoralar) hamda tillari (etnolektal shakllardan foydalanish, standart tilga yaqin shakllarni rad etish) orqali ommaviy axborot vositalarida o‘zlariga namuna sifatida olgan obrazlarga, ayniqsa, Bushido kabi rep ijomohilariga taqlid qiladilar. Nemis tilidagi zamonaviy rep qo‘shiqlari hamda an‘anaviy turk xalq qo‘shig‘idan foydalanish orqali yoshlar o‘z ijodiy salohiyatlarini namoyish etadilar va shu orqali o‘z guruhiga xos uslub shakllantiradilar. Bu o‘ziga xos ijtimoiy va madaniy ajratish jarayoni faqat nemis yoki uchinchi etnik guruh vakillariga emas, balki mahalliy muhitdagi yoshlar va hatto o‘z etnik guruhining vakillariga, ayniqsa, birinchi avlod mehnat muhojirlari (Gastarbeiter)ga ham qaratilgan. Shu ma’noda, polifoniya hodisasi, ya’ni, begona ovozlarni istehzoli kod almashtirish yoki ikkiyoqlama (varidireksional) nutq texnikalari orqali o‘yin tariqasida iqtibos keltirish jarayoni alohida ajralib turadi. Turli xil kommunikatsiya shakllari, jumladan, til variantlari va tillardan foydalanish, ritual haqoratlar, ommaviy axborot vositalari orqali o‘z ifodasini topish va guruhlarni tasniflash kabi usullar ijtimoiy-ramziy va uslubiy elementlar sifatida xizmat qiladi. Yoshlar ana shu usullar orqali o‘zlarini muayyan submadaniyatga mansubligini ko‘rsatadilar hamda begonalarga nisbatan ajratish jarayonini namoyon qilib, o‘z identifikatsiyasini interaktiv shakllantiradilar.

**Xulosa.** Etnolektal xususiyatlarning fonetik-prosodik, morfosintaktik va leksik jihatdan qo‘llanilishi nuqtai nazaridan, ilmiy adabiyotda tasvirlangan “turkcha slang”, “Kanak Sprak” yoki “mahalla tili” deb nomlangan til o‘ziga xosliklar kuzatildi. Bu borada ayniqsa ba’zi gap bo‘laklarining, asosan artikllar, predloglar va olmoshlarning tushib qolishi va umuman, juda qisqa va minimalistik so‘zlashuv uslubi e’tiborga molikdir. Ba’zi minimal konstruksiyalar va noodatiy shakllar barqarorlashgan bo‘lib, yoshlarning kundalik hayotiga oid ma’lum bir atamalar bilan doimiy ravishda uchrasa-da, ba’zilari esa faqat vaqt-i-vaqti bilan ishlataladi. Ayrim etnolektal xususiyatlarning ma’lum bir ijtimoiy belgi sifatida ongli ravishda qo‘llanilishining aniq dalillari yo‘qligi yoki ularning grammatik va idiomatik noaniqlik

belgisi ekanligi noma'lumligicha qolmoqda. Masalan, akkusativ o'rniga dativ shakllarning ishlatalishi va artikellar bilan predloglarning birikmasining yo'qligi og'zaki nutqda ancha tez-tez uchrasa ham, bu grammatik bilimsizlik belgisi sifatida talqin qilinishi mumkin. Ayniqsa, kelishik va rod kategoriyalaridagi o'zgarishlar shu qadar "notabiiy" va "g'alati" eshitiladiki, ularning ona tilidagi interferensiya natijasi ekanligi haqida savol tug'iladi. Bir ijtimoiy guruhga mansublik va o'z uslubiga bo'lgan moyillik ayniqsa muayyan murojaat shakllari va guruh atamalarining qo'llanilishida yaqqol namoyon bo'ladi, bu atamalar asosan Amerika hip-hop sahnasidan olingan. Hip-hop madaniyati global fenomen bo'lib, til bilan ijodiy ishlash va ijtimoiy aloqalar uchun keng imkoniyatlarni taqdim etadi. Etnolektal xususiyatlarni muayyan etnik guruhlarga bog'lash yoki ularni faqat ona tilidan

maqsad tilga bo'ladigan interferensiylar va nazoratsiz til o'zlashtirish natijasi sifatida izohlash yetarli bo'lmaydi. Yoshlar o'z etnik kelib chiqishidan qat'i nazar, mavjud media resurslaridan foydalanadilar va ularni o'z guruh ichidagi muloqotga turlicha yo'sinda integratsiya qiladilar, bu esa yoshlar tiliga xos bo'lgan brikolaj (turli resurslarni ijodiy tarzda aralashtirish) tamoyiliga mos keladi. Fonetik-prosodik, morfosintaktik va leksik xususiyatlarning o'zgaruvchanligi esa shuni ko'rsatadi, bu yoshlar nemis tilining qoidalarini odatda yaxshi bilishadi va ushbu til variantidan faqat muayyan holatlarda foydalanadilar. Bu ularning yagona nutq shakli emas, balki ular bir necha xil tilda yoki tildagi variantlarda muloqot qila olish qobiliyatiga ega ekanliklarini bildiradi.

#### ADABIYOTLAR

1. Schlobinski, Peter (1996): Empirische Sprachwissenschaft. Opladen: Westdeutscher Verlag, 46-48.
2. Labov, William (1972): Sociolinguistic Patterns. Philadelphia: UPP, 209.
3. Deppermann, Arnulf (2001): Gespräche analysieren. Eine Einführung. Opladen: Leske und Budrich, 10-22.
4. Keim, Inken (2002): Die Verwendung von Formen der Mannheimer Stadtsprache in einer jugendlichen Migrantinnengruppe. In: Bateman, John/ Wildgen, Wolfgang (Hrsg.): Sprachbewusstheit im schulischen und sozialen Kontext. Frankfurt a.M.: Lang, 117-137.
5. Hinnenkamp, Volker (1989): Die Stilisierung von Ethnizität. In: Hinnenkamp, Volker/Selting, Margret (Hrsg.): Stil und Stilisierung. Arbeiten zur interpretativen Soziolinguistik. Tübingen: Niemeyer, 253-291.
6. Hinnenkamp, Volker (1998): Mehrsprachigkeit in Deutschland und deutsche Mehrsprachigkeit. Szenarien einer migrationsbedingten Nischenkultur der Mehrsprachigkeit. In: Kämper, Heidrun/Schmidt, Hartmut (Hrsg.): Das 20. Jahrhundert: Sprachgeschichte – Zeitgeschichte. Berlin: de Gruyter, 137-162.
7. Hinnenkamp, Volker (2005): Einleitung. In: Hinnenkamp, Volker/Meng, Katharina (Hrsg.): Sprachgrenzen überspringen. Sprachliche Hybridität und polykulturelles Selbstverständnis. Tübingen: Narr, 7-16.
8. Hinnenkamp, Volker (2000): „Gemischt sprechen“ von Migrantjugendlichen als Ausdruck ihrer Identität. In: Der Deutschunterricht 5, 96-107.



E'zoza QURBONOVA,

Guliston davlat universiteti doktoranti, PhD

E-mail: ezozasabirova118@gmail.com

Toshkent amaliy fanlar universiteti dotsenti, DSc Sh.Gulyamova taqrizi asosida

## SEMANTIC CHARACTERISTICS OF LEGAL TERMINOLOGY UNITS

### Annotation

This article analyzes the semantic properties of legal terms through their expression of special meaning through common units or international units. The article uses descriptive, semantic-pragmatic, and structural analysis methods to analyze the semantic properties of terminological units in the field of jurisprudence in a descriptive and descriptive manner, and explores their content in terms of their use in various regulatory legal documents.

**Key words:** Legal terminological system, term, semantics, lexical unit, special lexicon, polysemy, multifunctionality.

## СЕМАНТИЧЕСКИЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ ЕДИНИЦ ЮРИДИЧЕСКОЙ ТЕРМИНОЛОГИИ

### Аннотация

В данной статье анализируются семантические свойства юридических терминов путем выражения их специального значения посредством общеупотребительных единиц или международных единиц. В статье с помощью методов описательного, семантико-прагматического и структурного анализа проанализированы семантические свойства терминологических единиц в сфере юриспруденции в описательно-описательном ключе, а также изучено их содержание с учетом использования в различных нормативно-правовых документах.

**Ключевые слова:** Юридическая терминосистема, термин, семантика, лексическая единица, специальная лексика, полисемия, полифункциональность.

## YURIDIK TERMINOSISTEMA BIRLIKLARINING SEMANTIK O'ZIGA XOSLIGI

### Annotatsiya

Ushbu maqolada huquqshunoslikka oid terminlarning semantik xususiyatlari uning umumiste'mol birliklari yoki baynalmilal birliklar orqali maxsus ma'no ifodalashi orqali tahlil qilinadi. Maqolada deskriptiv, semantik-pragmatik, struktur tahlil metodlari qo'llanilib, yurisprudensiya sohasiga oid terminologik birliklarning mazmuniy xususiyatlari tasviri, tavsifiy tahlil qilindi, turli moyoriy-huquqiy hujjatlarda qo'llanishiga ko'ra mazmuniy tadqiq etildi.

**Kalit so'zlar:** Yuridik terminosistema, termin, semantika, leksik birlik, maxsus leksika, polisemija, polifunktionallik.

**Kirish.** Terminologiya – leksikaning eng faol so'z o'zlashtiriladigan qismi. Chunki fan sohalari taraqqiyoti global ahamiyat kasb etadi: dunyoning bir chetida amalgalashirilgan kashfiyat, yangiliklar barcha mamlakatlarga yoyiladi. Tabiiyki, fan sohasidagi yangi tushunchalarga qo'yilgan nom boshqa xalqlar leksikasiga ham kirib boradi. Natijada dunyoning juda ko'p mamlakatlarda bir xil ma'noda qo'llanadigan leksik birliklar tizimi shakllanadi. Huquqshunoslik terminologiyasida ham baynalmilal leksika salmoqli qismni tashkil etadi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Ba'zi mutaxassislar "o'zga tillardan termin o'zlashtirish shunchaki nusxa ko'chirish shaklida bo'lmasligi lozim"<sup>[1]</sup> ligini ta'kidlashadi. Bunda baynalmilal terminlarning turli xalqlarda bir xil ma'no ifodalashi qayd etilgan holda har bir til fonetik va morfologik meyorlariga moslashtirilishi lozimligiga e'tibor qaratiladi. Konstitutsiya (constitution), diktatura (dictature) kabi huquqshunoslikka oid terminlarning shakllanishida shunday holatni ko'rishimiz mumkin. Umuman, baynalmilal terminlar shaklan ayanlikka ega bo'ladimi, biroz farqlanadimi, semantik jihatdan bir xil tushunchalarini ifodalaydi. Shu nuqtayi nazardan zamonaviy mutaxassis bo'lish uchun fanning xalqaro holatidan, shu jumladan, terminologik tizimidan ham xabardor bo'lishi talab etiladi. Terminlarning semantik xususiyatlari tadqiq qilingan ishlarda yurisprudensiya kabi ochiq sistema ichida mavjud bo'lgan terminlar mazmuniy jihatdan o'zgarishi mumkinligi ta'kidlanadi <sup>[14]</sup>. Malyukova E. V. yuridik terminologiyani sistemasentrik va antroposentrik jihatdan tadqiq qilib, yuridik terminologiyaning semantik xususiyatlari asosida terminlarni turlarga ajratgan <sup>[15]</sup>. Martishko N.Y. qonunchilik sohasida terminlarning mazmuniy modifikatsiyasini tadqiq qilib, yuridik terminlarning qo'llanishida terminologik manipulyatsiyasi hodisasini tafsiflaydi <sup>[16]</sup>. Bu borada xalqaro va milliy tilshunoslikda amalgalashirilgan tadqiqotlar yuridik

terminologiyani turli jihatdan tafsiflaydi. Umuman olganda yuridik terminologik birliklarning semantik xususiyatlari tadqiq qilish sohaning bir qator muammolariga yechim bera oladi, natijada qonunchilik, huquqiy munosabatlari, shuningdek, jamyatda huquqiy ong va madaniyatning yuksalishiga hissa qo'shamdi. Tadqiq qilayotganimiz o'zbek yuridik terminlarning o'ziga xos xususiyatlari orqali ham shu kabi masalalarga ijobji yechim taklif qilish maqsad qilingan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Yuridik terminologik birliklarning mazmuniy xususiyatlari tadqiq qilishda deskriptiv, struktur tahlil metodlaridan foydalanildi.

**Tahlil va natijalar.** Huquqshunoslikka oid prokuror termini etimologik jihatdan lotin tiliga mansub bo'lib, "g'amxo'rlik qilmoq" ma'nosini anglatadi. Mazkur leksema o'zlashgan barcha tillarda u "qonunlarga to'la amal qilinishi va ularning to'g'ri qo'llanishi ustidan davlat nazorati olib boruvchi mansabdor; sud jarayonida davlat qoralovchisi" <sup>[2]</sup> ma'nosida qo'llanadi. Shu kabi terminlarning xalqaro ahamiyatini hisobga olgan holda, milliy muqobilini topish va qo'llash maqsadga muvofiq bo'lmaydi. Boshqacha aytganda, "baynalmilal xarakterdagi ko'pgina terminlar tarkibani o'ta rang-barang bo'lib, texnika, ilm-fan, madaniyat, san'atning hamma sohalarini qamrab olgan. Bunday yuzaga kelishni ifodalovchi hamda muttasil rivojlantiruvchi terminlar qatlami o'zbek tilining mulkiga aylangan. Hozirgi paytda ham tayyor terminlarni o'zlashtirish jarayoni o'z faolligini saqlab qolmoqda" <sup>[3]</sup>. O'zbek huquqshunoslik terminologiyasida demokrat, demokratiya, impichment, respublika, prezident, parlament, amnostiya, deputat, kriminologiya, konstitutsiya kabi leksik birliklar shunday leksik-semantik va struktur xususiyatlarga ega.

Shu o'rinda terminlarning fan sohalaridan biriga yoki bir nechtafiga tegishli bo'lishi, ularning leksik-semantik qamrovi mutaxassislar tomonidan belgilanishi, ma'nodoshlar mavjud

bo'lganda ular orasidan bittasi tanlanishini ta'kidlab o'tish lozim. Shu sababli sohaga doir terminlar orasida ma'nodoshlik kam kuzatiladi. Kriminalistika, tergovchi, jinoyat, huquqbazarlik kabi terminlarning termin sifatida ma'nodoshlari mayjud emasligi fikrимизни dalillaydi. Terminologik sinonimlarning mayjud bo'lishi tilda vaqtinchalik hodisa sanaladi. Terminologik sinonimlardan biriga soha mutaxassislari tomonidan ustuvorlik berilishi va shu terminning sohaga doir matnlarda faol qo'llana boshlashi natijasida leksemaning terminologik ma'nosi kuchayadi. Masalan, prokuror – qoralovchi, ayblanuvchi – aybdor, gumondor – gumon qilinuvchi, advokat – oqlovchi kabi sinonim juftliklardan birinchisi huquqshunoslikka doir matnlarda faol qo'llanishi bilan ajralib turadi. Terminlar orasida sinonim leksemalar mayjudligi muammo, albatta. Zero, boshqa sohalarda bo'lganligi kabi, huquqshunoslikda ham ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda terminlarning tartibga solinganligi dolzarb masalalardandir. Mukammal terminlar tizimisiz qonunchilik matni ham aniq bo'lmaydi. Terminlar aniqligi qonunlar, shuningdek, ular bilan bog'liq bo'lgan hujjatlarni meyoriy holga keltiradi, ixchamlashtiradi va ortiqcha tavsiy, ta'riflardan xalos etadi. "Mamlakatda qonunlarning mukammal ishlab chiqilishida, huquqiy tartibotning ta'minlanishida, fuqarolarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatining yuksalishida yuridik atamashunoslik ham muhim ahamiyat kasb etadi" [4]. Shunday ekan, terminlarda sinonimlik hodisasi bo'lmasligi, sinonim juftga ega bo'lganda ham, ulardan birida terminologik ma'noning ustuvor bo'lishi ilmiy matndagi aniqlikni ta'minlaydi.

Terminologiyada sohaga doir leksik birliklarning birma'noliligi muhim shartlardan biri sifatida ajratiladi. Tadqiqotlarda terminning monosemantiklik va birvazifalilik xususiyati quyidagicha talqin qilinadi:

- 1) termin umuman faqat bir ma'noli bo'ladi;
- 2) termin muayyan bir sohada bir ma'noda qo'llanadi" [5].

Shu nuqatayi nazardan birinchi bandda qayd etilgan terminlarda asosiy semantik belgi birma'nolilik hisoblanadi. Advokat, affekt, aksept, aliment, amnistiya, anarxizm, anklav, anneksiya, aparteid, apellyatsiya, apostil, arbitraj, attashe, besoqolbozlik, bipatrid, byurokratiya, benefitsiar, daktiloskopiya, suverenitet, davlatchilik, de-yure, delimitatsiya, demokratiya, demarkatsiya, denonsatsiya, deputat, determinatsiya, diskriminatsiya, dispozitsiya, ekotsid, alibi, aristokratiya, auditor, saylov, senzura, vakolat, votum, veto, xayfsan kabi huquqshunoslikka oid terminlar monosemantiklik xususiyatiga ega. Terminning muayyan sohada bir ma'noda qo'llanishi umumiste'moldagi leksik birliklarning muayyan sohada qo'llanishida namoyon bo'ladi. Bunday leksemalar guruhi umumiste'mol birligi sifatida muayyan ma'noga ega bo'lsa-da, terminologik ma'noda yagona tushunchani ifodalaydi. Boshqacha aytganda, bunday leksemalar, aslida polisemantik bo'lib, ularning terminologik ma'nosi bir tushunchani ifodalaydi xolos. Shunday leksemalar sirasiga huquqshunoslikka oid semasi mavjud bo'lgan afv, ayb, ayblanuvchi, jazo, afv etish, ajrim, aldash, tuhmat, qamoq, ariza, arz qilish, ayblov, bankrotlik, bandlik, beparvolik, harakatsizlik, da'vo, hadya, guvoh, da'vogar, haqorat qilish, huquq, taklif, vakil, vakillik, yo'riqnoma, yollanish, zo'rlik, kabi terminlarni kiritish mumkin. Sanalgan leksemalar o'z semantik tuzilishiga ko'ra o'rni bilan umumiste'mol birligi sifatida ham, terminologik ma'noda ham qo'llanadi. Shunday bo'lsa-da, sanalgan leksemalar huquqiy terminologik tizimda ma'noda doimo birgina tushunchani ifodalaydi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi milliy huquqiy internet portalida joylashtirilgan va 1332 ta terminni qamrab olgan "Yuridik lug'at"da da'vogar leksemasi quyidagicha izohlangan:

"Da'vogar – fuqarolik protsessining taraflaridan biri, ishda ishtirok etuvchi shaxs. Da'vogar – o'zining buzilgan yoki nizolashayotgan huquqlari yoxud qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish maqsadida sudga murojaat etgan yoinki manfaatini ko'zlab ish qo'zg'atilgan shaxs" [6].

Mazkur izohda da'vogar leksemasining "o'z manfaatini ko'zlab murojaat qilgan shaxs" terminologik ma'nosiga ega ekanligi namoyon bo'ladi. Ammo O'TILDA bu leksemaning huquqshunoslikka daxlidor ekanligi e'tirof etilgan holda, uning umumiste'mol birligi sifatida qo'llanishi mumkinligiga ishora qiluvchi izohi ham keltirilgan. YA'ni leksemaning jami uchta

ma'nosi O'TILDA izohlangan bo'lib, shulardan ikkitasi huquqshunoslik sohasiga aloqador terminologik ma'nolarni aks etirsa, qolgan bir ma'no uning umumiste'mol birligi sifatida qo'llanishini ta'minlaydi: "Musobaqa, tanlov, sport o'yinlarida yuqori o'rinn uchun kurashuvchi" [7]. Izohli lug'atda keltirilgan bu ma'no huquqiy munosabatlarni emas, balki muayyan tadbirda ishtirok etayotgan va g'alaba qozonishni maqsad qilgan shaxsni ifodalaydi.

Sanalgan leksik-semantik xususiyatlar nafaqat so'z shaklidagi terminlar, balki birikma shaklidagi terminlarga ham aloqador ekanligini ta'kidlash lozim. YA'ni birikma shaklidagi terminlarda ham umumiste'mol birligi sifatida qo'llana olish yoki faqat muayyan soha bilan bog'liqlik holati kuzatiladi. Qayd etib o'tish kerakki, birikma shaklidagi terminlarning umumiste'mol birligi vazifasida qo'llanishi so'z shaklidagi terminlarga nisbatan kamroq kuzatiladi. Zero, termin birikma tarzida shakllantirilar ekan, bu ilmiy tushunchani bir so'z bilan ifodalash qiyin bo'lganligini anglatadi. Nominativ birlik sifatida qaraladigan bunday birikmalar aksariyat hollarda faqat shu sohaga oid matnlardagina qo'llanadi xolos. Huquqshunoslik sohasi ham bundan mustasno emas, albatta. Dastlabki tergov, dastlabki sud muhokamasi, davlat tuzumi, da'vo arizasi, davomli jinoyat, dengiz huquqi, demokratik davlat, ekspert xulosasi, hadya shartnomasi, guvohning advokati, harbiy jinoyatlar, harbiy sir, haqiqatni aniqlash prinsipi, hakamlik sudi, ozodlikni cheklash, hadyani bekor qilish, harbiy holat, hokimiyat vakili, hodisa joyini ko'zdan kechirish, jazoni ijro etish muassasasi, dastlabki sud instansiysi, da'veni ta'minlash, delikt majburiyatlar, deputat so'rovi, deputatlar palatasi, diplomatik korpus, dunyoviy davlat, dualistik respublika, kassatsiya shikoyati, saylov byulleteni, saylov kampaniyasi, shaxsxiy daxlsizlik, tabiiy huquq, yillik mehnat ta'tili, yo'l harakati xavfsizligi, yo'l-transport hodisisi, yosh senzi, yopiq sud majlisi, yuridik shaxs, yuridik amaliyot, yuridik ahamiyatga ega bo'lgan faktlarni aniqlash kabi huquqshunoslikka oid birikmali terminlar faqat sohada qo'llanadigan nominativ birliklardir, deyishimiz mumkin. Bunday terminlar huquqshunoslik sohasi uchun yaratilgan va shu sohaga oid matnlardagina qo'llanadi. Tabiiyki, bunday birikmalarning umumiste'moldagi birikmalar bilan ma'nodoshlik, shakldoshlik hosil qilishi haqida gapirish noo'rin.

Huquqshunoslik sohasining inson faoliyati, turmush tarzi, jamiyat a'zosi sifatidagi xatti-harakatlarini ham qamrab olishi uning terminologiyasida umumiste'mol birligi sifatida qo'llanishi mumkin bo'lgan birikmali terminlar mavjudligini izohlaydi. Ancha miqdor, ko'p miqdor, jazoni ijro etish, aqli rasolik, aqli zaiflik, asosiy jazo, avtonom tuzilma, dam olish vaqt, himoyalish huquqi, kam ahamiyatli qilmish, savdo faoliyati, yaroqsiz mahsulot, yashash joyi, yashirin shirkat, yukni oluvchi, yuridik fakt, yuridik tajriba, zararni qoplash, zaxira yerlar, yer uchastkasi, shartnomalar shakkari, chet el banki, chet el fuqarolar, chin ko'ngildan pushaymon bo'lish kabi huquqshunoslikka doir birikmali terminlar umumiste'mol birligi sifatida o'zbekcha matnlarda faol qo'llanadi.

Huquqshunoslik terminologik tizimi axloq, urf-odat va qadriyatlar bilan bog'liq leksik birliklarni ham qamrab oladi. Bu borada N.D.Golevning quyidagi fikrlarini keltirish maqsadga muvofiq: "kamsitish", "yerga urish", "qadr-qimmat", "tuhmat", "zarar", "ma'naviy zarat" kabi leksemalar yuridik metatilda bo'liq terminologik ma'no anglatadi, deb bo'lmaydi" [8]. Jahon tilshunosligida ba'zi olimlar huquqshinoslik meyorlariga mos keladigan, huquqiy munosabatlarni tartibga soladigan har qanday so'z va birikmani yuridik terminlar sirasiga kiritish mumkinligini qayd etadilar [9]. Bunda huquqshunoslikka oid terminlarning leksik-semantik xususiyatlari asosiy o'rinn tutadi. Huquqiy terminologiya bilan shug'ullangan olimlar huquqshunoslikka oid leksik birliklarning "terminlashish" darajasini uch guruhga ajratishni taklif qiladilar:

umumiste'mol birligi bo'la oladigan terminlar (bunday terminlar mutaxassis bo'lmagan shaxslar uchun ham tushunarli bo'ladi – E.S.);

maxsus huquqshunoslik terminlari (faqat huquqiy ifodadan tarkib topgan terminlar);

d) maxsus sohaviy terminlar (muayyan sohaga doir huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi terminlar) [10].

Huquqiy terminlarning boshqa sohalarda, shuningdek, umumiste'mol birligi sifatida ham faol qo'llanishi mumkinligi, terminologik ma'noning o'ziga xosligi masalasida A.S.Gerd quyidagicha fikr bildiradi: "Terminologik ma'no so'zning ilmiy tushunchani ifodalashni natijasida yuzaga chiqadi va so'z leksik ma'nolaridan biri sifatida gavdalananadi. Shu bilan birga termin ifodalaydigan ma'no hech qachon ilmiy tushuncha mohiyatini to'liq qamrab ololmaydi. Chunki ilmiy tushuncha har doim termin ma'nosidan kengroq" [11]. Bu terminlar ifodalaydigan mohiyat to'liq ochilishi uchun definitsiyaga ehtiyoj tug'ilishiga olib keladi. Bu definitsiya huquqshunoslikka oid terminlarda aksariyat hollarda sahxs, uning faoliyati va obyektlar vositasida beriladi. Masalan, "haqorat qilish" leksemasi maxsus lug'atda quyidagicha izohlangan: "Haqorat qilish – shaxsning sha'ni va qadr-qimmatini bedoblik bilan qasddan tahqirlash" [12]. Mazkur izohda shaxs, uning faoliyati, boshqa shaxslarga bo'lgan munosabti o'z aksini topgan. Huquqshunoslik terminlarining leksik-semantik xususiyatlari qonun, kodeks va boshqa hujjat matnlari yordamida ham ohib berilishi mumkin. Yuqorida keltirilgan "haqorat qilish" termini O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga ham aynan lug'atdagi shaklda kiritilgan [13]. Faqat hujjatda ma'muriy javobgarlikda ko'zda tutilgan jazo chorasi ham yoritib berilgan. YA'ni jazo turi va qanday hollarda qo'llanishi haqidagi ma'lumotlar ilova qilingan xolos. Xuddi shuningdek, tuhmat leksemasining terminologik ma'nos'i zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksida quyidagicha izohlangan: "Tuhmat, ya'ni bila turib yolg'on, boshqa bir shaxsni sharmanda qiluvchi uydirmalarini tarqatish" [13]. Huquqshunoslikka doir terminlar semantikasidagi o'ziga xosliklar muayyan leksemaning sohaga doir matnlarda (nutqiy parchalarda) kengroq yoki torroq tushunchani ifodalashida ham namoyon bo'ladi. Masalan,

coralovchi leksemasi keng ma'noda da'vogar, da'vogarning yaqinlari, jabrlanuvchi, jabrlanuvchining yaqinlari, prokuror kabilarni ifodalandi. Xuddi shu leksema torroq ma'noda prokurorni anglatadi. Albatta, bunday leksik-semantik xususiyatlar polisemantik va sinonim terminlarda namoyon bo'ladi. Shu o'rinda ba'zi huquqshunoslik terminlari ma'no tarraqqiyotiga egaligi, konnotativ ma'noda qo'llanishi mumkinligini ham ta'kidlab o'tish lozim. Masalan, advokat terminining sud jarayonidan tashqari bo'lgan nutqiy vaziyatlarda boshqa bir shaxsning xatti-harakatini oqlashga urinayotgan shaxsga nisbatan qo'llanishida ham shunday holat namoyon bo'ladi. Ta'kidlanganidek, bu tilning lakoniklik qonuniyati asosida yuzaga keladi.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa qilib aytganda, huquqshunoslikka oid terminlar semantik jihatdan o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Bu, avvalo, huquqshunoslik sohasining jamiyatda yurish-turish qoidalarni tizimlashtirish, shaxslararo munosabatlarni tartibga solishda ahamiyatli ekanligi bilan belgilanadi. Har qanday sohada shaxslar orasida munosabatlar bor ekan, huquqshunoslikka oid terminlarga ehtiyoj tug'ilaveradi. Shu jihatdan yuridik terminologiya boshqa sohalar terminologiyasidan farqlanadi. Shu bilan birga huquqshunoslikka oid leksik birliklar terminlar uchun qo'yilgan talablar nuqtayi nazaridan ham umumiste'mol leksikasidan farqlanadi. Shunday qilib, huquqshunoslik terminlari umumiste'mol birliklari bilan muayyan umumiylilik va farqlarga ega. Boshqacha aytganda, terminologik ma'no ham leksik ma'noning bir turi, ammo unda rasmiylik, muayyan sohaga mansublik belgisi kuchliroq. Huquqshunoslik terminlarida umumtil leksikasiga nisbatan yaqinlik sohaning jamiyat hayotining barcha jabhalarini qamrab olishi bilan belgilanadi.

#### ADABIYOTLAR

- Молчанова К.Е. Интернационализмы в юридической терминологии // Интернет-конференция Сибирского юридического университета, 2017. <http://conf.omua.ru/content/internacionalizmy-v-yuridicheskoy-terminologii> [Электрон манба:] Murojaat sanasi: 10.11.2024.
- O'zbek tilining izohli lug'ati: 6 jildlik, 3-jild. – Toshkent: G'afur G'ulom, 2022. – 844 b.
- Dadaboyev H. O'zbek terminologiyasi. – Toshkent: Nodirabegim, 2019. – 117 b.
- Кўчимов Ш. Хуқукий нормаларни ўзбек тилида ифодалашнинг илмий-назарий муаммолари (лингво-юридик таҳлил): Филол. фанл. д-ри дисс. – Тошкент, 2004. – 271 б.
- Валиев Т. Ўзбек тили йўлсозлик терминларининг структур-семантик хусусиятлари ва лексикографик талқини: Филол. фанл. б. фалс. докт. (PhD) дисс. – Самарқанд, 2017. – 134 б.
- <https://huquqiportal.uz/dictionary> [Электрон манба:] Murojaat sanasi: 11.11.2024.
- O'zbek tilining izohli lug'ati: 6 jildlik, 1-jild. – Toshkent: G'afur G'ulom, 2022. – 894 b.
- Голев Н.Д. Юридизация естественного языка как лингвистическая проблема // Юрислингвистика-2. Русский язык в его естественном и юридическом бытии. – Барнаул, 2000. – С.8-40.
- Хижняк С.П. Юридическая терминология: формирование и состав. – Саратов: Изд-во Саратовского государственного университета, 1997. – 134 с.
- Барабаш О.В. Юридический термин: проблемы изучения // Юрислингвистика: Научно-практический журнал. №2(13). 2013. – С.5-11.
- Герд А.С. Формирование терминологической структуры русского биологического текста. – Ленинград: Изд-во Ленинградского университета, 1981. – С.13.
- <https://huquqiportal.uz/dictionary> [Электрон манба:] Murojaat sanasi: 11.11.2024.
- <https://lex.uz/docs/-97664?ONDATE=23.10.2018%2000> [Электрон манба:] Murojaat sanasi: 11.11.2024.
- Ибрагимов Ж. Ўзбек тилини субстанциал-прагматик тадқиқ килишининг методологик асослари: Филол. фанл. б. фалс. докт. дисс. – Қарши, 2019. – Б.65. – 121 б.
- Маликова Е. В. Юридическая терминология в системоцентрическом и антропоцентрическом аспектах: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Кемерова., 2005. – 18 с.;
- Мартышко Н.Ю. Смысловая модификация терминов в современном законодательном дискурсе: дис. ... канд. филол. наук. – Волгоград., 2015. – 201 с.;



**Madina MELIQULOVA,**

Termiz davlat muhandislik va agrotekhnologiyalar universiteti

E-mail: madinameliqulova93@gmail.com

PhD B.Shukurova taqrizi asosida

## KASB-HUNAR BO'YICHA SHAXSLARNI NOMLASHUDA G'ARBIY YEVROPA O'ZLASHMALARI ( UZBEK VA RUS TILLARI MISOLIDA)

Annotatsiya

Mazkur maqola kasb-hunar bo'yicha shaxslarni nomlashda g'arbiy Yevropa tillaridan (ayniqsa ingliz tilidan) o'zlashgan so'zlar va ularning O'zbek va Rus tillaridagi ta'siri haqida tahlilni o'z ichiga oladi. Kasb-hunar atamalari har bir jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy tuzilmasi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ularning o'zgarishlari va rivojanishi turli madaniy o'zgarishlar, jumladan, xalqaro aloqalar orqali amalga oshadi. G'arbiy Yevropa tillaridan, xususan ingliz tilidan o'zlashgan so'zlar, nafaqat yangi kasb-hunarlari, balki ularga bo'lgan yondashuvlarni ham ta'sir qiladi. Ushbu maqola o'zbek va rus tillaridagi o'zlashmalarni solishtirib, ularning etimologiyasi, leksik va semantik xususiyatlarini tahsil qiladi.

**Kalit so'zlar:** Kasb-hunar, o'zlashmalar, g'arbiy yevropa tillari, ingliz tili, o'zbek tili, rus tili, etimologiya, leksik xususiyatlar, semantika, xalqaro aloqalar.

## ЗАПАДНОЕВРОПЕЙСКИЕ ИЗМЕНЕНИЯ ИМЕН ЛИЦ ПО ПРОФЕССИИ (НА ПРИМЕРЕ УЗБЕКСКОГО И РУССКОГО ЯЗЫКОВ)

Аннотация

В данной статье проводится анализ слов, заимствованных из западноевропейских языков (особенно английского) и их влияние на узбекский и русский языки при наименовании людей по профессии. Профессиональные термины тесно связаны с экономической и социальной структурой каждого общества, а их изменение и развитие осуществляется посредством различных культурных изменений, включая международные отношения. Слова, заимствованные из западноевропейских языков, особенно английского, влияют не только на новые профессии, но и на подходы к ним. В данной статье сравниваются узбекские и русские заимствования, анализируются их этимология, лексические и семантические особенности.

**Ключевые слова:** Профессия, приобретения, западноевропейские языки, английский, узбекский, русский, этимология, лексические особенности, семантика, международные отношения.

## WESTERN EUROPEAN CHANGES IN THE NAMING OF PERSONS BY PROFESSION (ON THE EXAMPLE OF UZBEKISTAN AND RUSSIAN LANGUAGES)

Annotation

This article contains an analysis of words borrowed from Western European languages (especially English) in naming people by profession and their influence on the Uzbek and Russian languages. Professional terms are closely related to the economic and social structure of each society, and their change and development are carried out through various cultural changes, including international relations. Words borrowed from Western European languages, especially English, affect not only new professions, but also approaches to them. This article compares borrowings in the Uzbek and Russian languages, analyzing their etymology, lexical and semantic features.

**Key words:** Profession, borrowings, Western European languages, English, Uzbek, Russian, etymology, lexical features, semantics, international relations.

**Kirish.** Zamonaliv jamiyatda kasb-hunar atamalari, ularning tildagi ifodalanimi va yangi kasb turlarining vujudga kelishi ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy jarayonlar bilan shambershas bog'liq. Bugungi kunda globalizatsiya va xalqaro aloqalar tufayli, ko'plab tillar o'zga tillardan o'zlashmalarni qabul qilmoqda. G'arbiy Yevropa tillari, xususan ingliz tili, o'zgaruvshan dunyoda texnologiyalar va biznes sohalaridagi innovatsiyalar bilan birga yangi kasb-hunarlarni yaratishda muhim rol o'yanoqda.

O'zlashmalar tilga faqat yangi so'zlar kiritibgina qolmay, balki tilning strukturasini va semantikasi tomonida ham sezilarli o'zgarishlarga olib keladi. O'zbek va rus tillari ham G'arbiy Yevropa tillaridan, ayniqsa ingliz tilidan, o'zlashgan so'zlarini o'z ishiga olgan. Bu o'zlashmalar, ko'pinsha, yangi kasb-hunarlarni nomlashda qo'llaniladi va xalqaro amaliyotlar bilan uyg'unlashishga yordam beradi. Shuningdek, kasb-hunarlarni nomlashdagi o'zgarishlar, ijtimoiy o'zgarishlar va kasb turlarining rivojlanishini ham aks yettiradi.

Ushbu maqolada, G'arbiy Yevropa tillaridan, ayniqsa ingliz tilidan, o'zlashgan so'zlarining o'zbek va rus tillariga qanday ta'sir qilganligi, bu ta'sirlarning leksik va semantik jihatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, kasb-hunar bo'yisha shaxslarni nomlashda yuzaga kelgan o'zgarishlar va yangi so'zlar atamalarining ijtimoiy-ma'naviy ahamiyati ko'rib shiqiladi.

Maqola, o'zlashmalar va ularning tilga kiritilishi, shuningdek, kasb-hunar atamalarining madaniy va iqtisodiy rivojlanishdagi o'rnni shuqurroq tushunishga qaratilgan.

**Asosiy qism.** G'arbiy Yevropa o'zlashmalarning o'zbek tiliga ta'siri

O'zbek tiliga ingliz tilidan kirgan o'zlashmalar ko'plab sohalarda, xususan, iqtisodiyot, biznes, texnologiya va ilm-fanda o'z aksini topgan. G'arbiy Yevropa tillaridan kirgan so'zlar, yangi kasb-hunarlarni nomlashda, yangi terminlarni yaratishda keng qo'llanilmoqda. Ingliz tilidan o'zlashgan so'zlar, nafaqat yangi kasblarni, balki yeski kasb nomlarining yangi ma'nolarini ham taqdim yetadi.

Masalan, "menedjer" (inglizsha "manager"), "dizayner" (inglizsha "designer"), "marketing mutaxassis" (inglizsha "marketing spesialist") kabi atamalar o'zbek tilida keng tarqalgan. Bu atamalar ilgari o'zbek tilida mavjud bo'lgan an'anaviy kasb nomlari o'rniha ishlataladi. Bular, ayniqsa, zamonaliv ishbilarmonlik va texnologiya sohalaridagi yangi kasblarni ifodalash ushun foydalilanadi. O'zbek tilida "menedjer" atamasi kompaniya rahbari yoki boshqaruvsisini ifodalovshi umumiy bir so'z sifatida ishlataladi. Shuningdek, "designer" (dizayner) so'zi o'zbek tilida avvalgi "badiiy rassom" yoki "rasm shizuvshi" atamalarining o'rnni bosgan.

Shuningdek, "IT-mutaxassis" yoki "dasturshi" kabi yangi kasb nomlari ham ingliz tilidan o'zlashgan so'zlar orqali shakllangan. Bu so'zlar, ingliz tilidagi "programmer" va "IT spesialist" kabi terminlarning o'zbek tiliga moslashgan shakllaridir.

G'arbiy Yevropa o'zlashmalarining rus tiliga ta'siri

Rus tiliga ingliz tilidan o'zlashgan so'zlar ko'p jihatdan savdo, texnologiya, marketing va sport sohalarida qo'llaniladi. "Menedjer" (menedjer), "marketolog" (marketolog), "bloger" (bloger), "trener" (trener) kabi so'zlar rus tilida keng tarqalgan. Bu so'zlar, ingliz tilidagi dastlabki shakllariga mos ravishda, rus tilida o'zbek tiliga nisbatan ko'proq ishlataladi.

Misol ushun, rus tilidagi "menedjer" atamasi nafaqat rahbarni ifodalash, balki jamoa boshqaruvsisini ham ifodalovshi keng ma'nolarda ishlataladi. Shuningdek, "marketolog" (marketing mutaxassisisi) va "trener" (mashg'ulot o'tkazuvshi) kabi so'zlar rus tilida eng ko'p ishlataladigan kasblardan bo'lib, ularning ishlatalishi ilgari "savdo menejeri" yoki "sport murabbiyi" kabi an'anaviy atamalarni almashgan.

Bundan tashqari, rus tilida inglizsha o'zlashmalar ko'plab sohalarda tilga kiritilgan bo'lib, ular yangi kasb-hunarlarini ta'riflash bilan birga, yeski kasblar ushun yangi yondashuvlarni ham keltirib shiqarmoqda. Masalan, "bloger" (blogger) so'zi rus tilida yeski "jurnalist" yoki "yazuvshi" so'zlarini yangi semantik yondashuvda almashtiradi. Bunday o'zgarishlar, tilning zamon bilan moslashishini va yangi kasblar va sohalar bilan bog'lanishini ko'rsatadi.

O'zbek va rus tillarida o'zlashmalarining semantik o'zgarishi

O'zlashmalar nafaqat tilga yangi so'zlarini olib keladi, balki ular yeski atamalarni yangi ma'nolar bilan yangilaydi. O'zbek va rus tillarida ingliz tilidan o'zlashgan so'zlar ko'pinsha yangi kasb-hunarlarini nomlashda qo'llaniladi. Bu o'zgarishlar, kasb-hunarlarining rivojlanishini va ijtimoiy talablarga moslashuvini aks yettiradi.

Misol ushun, ingliz tilidagi "designer" so'zi o'zbek va rus tillarida "dizayner" shaklida o'zlashgan va yeski "rasm shizuvschi" yoki "badiiy rassom" so'zlarining o'rnini bosgan. Bu, o'z navbatida, dizayn sohasidagi yangi mutaxassisliklarning rivojlanishini ifodalaydi. Xuddi shunday, "IT mutaxassis" (inglizsha "IT spesialist") yoki "programmer" (dasturshi) so'zlar, o'zbek va rus tillarida texnologiyalar sohasida yangi kasb-hunarlarini yaratishda ishlatalmoqda.

Shuningdek, rus tilida "bloger" (blogger) so'zi yangi ijtimoiy faoliyatni ifodalovshi atama sifatida shakllanib, "yazuvshi" yoki "jurnalist" kabi yeski kasb nomlarining o'rnini olishga intilmoqda. Bu o'zgarishlar, nafaqat til tizimida, balki madaniyat va jamiyatdagagi yangi ijtimoiy talablar va o'zgarishlarni aks yettiradi. G'arbiy Yevropa tillaridan o'zlashgan so'zlar, ayniqsa ingliz tilidan, o'zbek va rus tillarida yangi kasb-hunarlarini nomlashda katta rol o'ynaydi. Ushbu o'zlashmalar, yangi ijtimoiy va iqtisodiy sohalarning rivojlanishini aks yettiradi va til tizimida yangi semantik qatlamlarni yaratadi. O'zbek va rus tillaridagi o'zlashmalar, jamiyatdagagi globalizatsiya jarayonini va xalqaro aloqalarning ta'sirini ko'rsatadi. Bu so'zlar, o'zbek va rus tilida yangi kasb-hunarlarini nomlashga yordam beradi va yeski atamalarni yangilashga xizmat qiladi. Shunday qilib, o'zlashmalar nafaqat tilga yangi so'zlarini kiritadi, balki tilning ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy rivojlanishidagi o'rnini haqidagi ham ma'lumot beradi.

Bugungi kunda globalizatsiya jarayonlari dunyoning turli burshaklarida tildagi o'zgarishlar va madaniy aloqalarning kushayishiga olib kelmoqda. Xususan, G'arbiy Yevropa tillari, ayniqsa ingliz tili, dunyo miqyosida eng keng tarqalgan va ta'sirshan til bo'lib, ko'plab sohalarda yangi kasb-hunarlarini yaratishda va nomlashda asosiy rol o'yamoqda. Bu o'zgarishlar O'zbekistonda va Rossiyada, jumladan, o'zbek va rus tillarida sezilarli ravishda aks yetmoqda. Kasb-hunarlarini nomlashda ingliz tilidan kirgan o'zlashmalar nafaqat yangi kasb va sohalarini ifodalaydi, balki jamiyatda iqtisodiy va ijtimoiy o'zgarishlarni ham aks yettiradi.

O'zbek va rus tillaridagi inglizsha o'zlashmalar, o'z navbatida, tilni yangilash, modernizatsiya qilish va xalqaro mehnat bozoriga moslashtirishda muhim vosita sifatida

ishlatilmoqda. Ayniqsa, texnologiya, biznes, marketing va kreativ sohalarda yangi kasb-hunarlar va mutaxassisliklar paydo bo'lishi, yeski kasb nomlarining o'zgarishi, til tizimida yangi leksik birliliklarning vujudga kelishiga olib keldi.

Bundan tashqari, o'zlashmalarini o'rganish nafaqat tilshunoslik, balki madaniyatshunoslik, ijtimoiy antropologiya va iqtisodiy sohalarda ham muhim. G'arbiy Yevropa tillarining o'zlashmalarini kasb-hunarlarini nomlashda global madaniyatning ta'sirini ko'rsatib beradi, shuningdek, tilning vaqt o'tishi bilan qanday rivojlanayotganini va ijtimoiy talablar bilan qanday uyg'unlashayotganini tushunishga yordam beradi.

Shu sababli, o'zbek va rus tillarida kasb-hunar bo'yisha shaxslarni nomlashda G'arbiy Yevropa o'zlashmalarining o'rnini va ta'sirini tahlil qilish, nafaqat tilshunoslar ushun, balki iqtisodshilar, madaniyatshunoslar va siyosatshilar ushun ham muhim va dolzarb masaladir. Bu mavzu, global aloqalar va tilshunoslikning o'zaro bog'liqligini shuqurroq tushunish, shuningdek, milliy va xalqaro mehnat bozoridagi o'zgarishlarga javob berish nuqtai nazaridan katta ahamiyatga yega.

**Muhokama.** G'arbiy Yevropa tillaridan, ayniqsa ingliz tilidan, o'zlashgan so'zlarining o'zbek va rus tillariga ta'siri hozirgi globalizatsiya davrida juda dolzarb mavzu hisoblanadi. Til nafaqat kommunikatsiya vositasi, balki jamiyatdagagi iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy jarayonlarning aks-sadosidir. Shuning ushun, tilga yangi o'zlashmalar kirishi, ayniqsa kasb-hunarlarini nomlashda, jamiyatning o'zgaruvshan yehtiyojlariha javob berish va yangi global talablarga moslashish jarayonlarini ko'rsatadi.

Birinshi navbatda, ingliz tilidan o'zlashgan so'zlar, asosan, zamonaviy texnologiyalar, biznes, ilm-fan va kommunikatsiya sohalaridagi o'zgarishlarga bog'liq. O'zbek va rus tillaridagi kasb-hunar atamalari, G'arbiy Yevropa tillaridan kirgan o'zlashmalar bilan to'ldirilgan. Bu atamalar, nafaqat yangi kasblarni nomlash, balki yangi ijtimoiy va iqtisodiy strukturalarni ifodalashda ham yordam beradi. Masalan, "menedjer", "dizayner", "programmer" kabi so'zlar o'zbek va rus tillarida yangi kasb nomlari sifatida ishlatalmoqda. Bu o'zlashmalar, o'zbek va rus tilidagi yeski, an'anaviy kasb nomlarining o'rnini bosib, jamiyatning yangi yehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, o'zlashmalarining leksik va semantik jihatlarini tahlil qilishda, ularning tilga qanday kirib kelishi va so'zlashuvda qanday ishlatalishi muhimdir. O'zlashmalar ko'pinsha ma'lum bir kontekstdan tashqari ishlataladi va ba'zi hollarda ularning ma'nolari bir oz o'zgaradi. Misol ushun, ingliz tilidagi "manager" so'zi o'zbek va rus tillarida ko'proq jamoa boshqaruvsisi yoki rahbar sifatida ishlataladi, lekin aslida bu so'zning ma'nosi kengroq bo'lib, turli sohalarida boshqaruvi anglatadi. Shunday qilib, o'zlashmalar nafaqat yangi so'zlarini olib keladi, balki mayjud atamalarga yangi semantik qatlamlar qo'shadi.

Bundan tashqari, o'zlashmalar tilning rivojlanishiga va global mehnat bozoriga moslashishga xizmat qiladi. O'zbek va rus tillarida ingliz tilidan kirgan so'zlar nafaqat kasb-hunarlarini nomlashda, balki xalqaro aloqalar va global iqtisodiyotga integratsiyalashishda ham muhim o'rinn tutadi. Ular, ayniqsa, xalqaro biznes va texnologiya sohalarida ishlayotgan shaxslar tomonidan keng qo'llaniladi. O'zbekistonda va Rossiyada bu so'zlar yangi kasblar va mutaxassisliklarni yaratishda va xalqaro mehnat bozorida raqobatbardosh bo'lishda yordam beradi.

Biroq, o'zlashmalarini ishlatisch ba'zan ijtimoiy va madaniy muammolarni ham keltirib shiqaradi. O'zbek va rus tillarida inglizsha o'zlashmalar ko'pinsha an'anaviy tilni zaiflashtirishi, ba'zi mahalliy so'zlarining unutilishiga olib kelishi mumkin. Bu, ayniqsa, milliy identifikasiya va tilni saqlash masalalarida jiddiy savollarni tug'diradi. Shunday qilib, o'zlashmalarining tilga kiritilishi va ularning semantik o'zgarishi faqat tilshunoslar ushun yemas, balki jamiyatning madaniy va ijtimoiy rivojlanishi ushun ham muhim hisoblanadi.

Shuningdek, o'zlashmalarini tilga kiritish, bir tomonidan, tilni global darajada rivojlanirishga yordam bersa, ikkinshi tomonidan, milliy tilni saqlash va rivojlanirishda yehtiyojkorlikni talab qiladi. Tilning globalizatsiyaga javoban o'zgarishi, jamiyatda ijtimoiy va iqtisodiy muammolarga olib kelishi mumkin. Shu sababli, o'zlashmalarini qabul qilishda tilni saqlash va rivojlanirish o'rtasidagi balansni saqlash zarur.

**Xulosa.** O'zbek va rus tillarida G'arbiy Yevropa o'zlashmalarining kasb-hunarlarini nomlashda qo'llanilishi, zamonaviy jamiyatdagi ijtimoiy va iqtisodiy o'zgarishlarni aks yettiradi. Globalizatsiya va xalqaro aloqalar tufayli inglez tilidan kirgan so'zlar, ayniqsa, texnologiya, biznes, marketing va ilm-fan kabi sohalarda yangi kasb-hunarlarini nomlashda keng qo'llanilmoxqda. O'zbek va rus tillarida bu o'zlashmalar, yangi mutaxassisliklarni yaratishda va kasb-hunarlarini ifodalashda

yordam beradi. Ular, shuningdek, tilni global talablarga moslashtirishda, xalqaro mehnat bozoriga integratsiyalashishda muhim rol o'yaydi. Biroq, inglez tilidan o'zlashgan so'zlarining semantik o'zgarishi, ba'zan mahalliy tilni zaiflashitish va yeski kasb nomlarini unutilishiga olib kelishi mumkin. Shuning ushun, o'zlashmalarni tilga kiritishda yehtiyoqkorlik zarur. O'zlashmalar tilning rivojlanishiga xizmat qilishi, lekin milliy tilning o'ziga xosligini saqlashga ham ye'tibor berilishi kerak.

#### ADABIYOTLAR

- Shodiev, A. (2018). "Tilshunoslikning asosiy tamoyillari va leksikologiya". Toshkent: O'qituvchi nashriyoti.
- Ziyaev, X. (2020). "O'zbek tilidagi o'zlashmalar: Leksik va semantik tahlil". Toshkent: Fan va texnologiya.
- Raxmatov, R. (2019). "O'zbek tilidagi inglezcha o'zlashmalar va ularning ta'siri". Tashkent: Xalqaro nashr.
- Muxtorov, B. (2021). "G'arbiy Yevropa tillaridan o'zlashmalar va ularning o'zbek tiliga ta'siri". Toshkent: Ma'naviyat.
- Jumanazarov, M. (2017). "Globalizatsiya jarayonida til o'zgarishlari". Toshkent: Sharq nashriyoti.
- Ismailov, K. (2022). "O'zbek tilidagi so'z o'zlashmalarini va ularning tilshunoslikdagi o'rni". Toshkent: O'zbekistan Milliy Universiteti nashriyoti.
- Yusupov, T. (2016). "Ingliz tilidan o'zlashmalar va ularning o'zbek tilidagi roli". Tashkent: O'quvchi nashriyoti.



Gulandom MIRXANOVA,

BuxDPI dotsenti, PhD

E-mail: [gulandommiranova99@gmail.com](mailto:gulandommiranova99@gmail.com)

Qarshi davlat universiteti professori, DSc N.Yuldasheva taqrizi asosida

## O'ZBEK TILIDA TERMINLARNING SHAKLLANISHI VA TADQIQIGA KONSEPTUAL YONDASHISH

Annotatsiya

O'zbek tilida terminlarning shakllanishi va tadqiqi murakkab lingvistik jarayon bo'lib, u konseptual yondashuv asosida tahlil qilinishi muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada o'zbek terminologiyasining shakllanish bosqichlari, uning ilmiy asoslari hamda rivojlanish qonuniyatları o'rGANILADI. Terminlar ijtimoiy-madanly taraqqiyot va ilm-fan sohalarining rivoji bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ularning tizimliligi va moyoriy qo'llanilishi muhim omillardan biri hisoblanadi. Shuningdek, maqolada terminlarning semantik xususiyatlari, ularning xalqaro terminologiya bilan uyg'unlashuvi va o'zbek tilidagi o'ziga xos rivojlanish yo'nalishlari tahlil qilinadi. Terminlarning shakllanishida konseptual yondashuv asosida ularning lingvistik xususiyatlari, leksik-semantik aloqalari va funksional qo'llanilishi muhokama qilinadi. O'zbek tilida yangi terminlarning paydo bo'lishi va ularni standartlashtirish masalalari ham yoritiladi.

**Kalit so'zlar:** Lug'at, leksik birliliklar, ijtimoiy-kommunikativ birlilik, termin, atama, leksik sath, semantik tasniflash.

## КОНЦЕПТУАЛЬНЫЙ ПОДХОД К ФОРМИРОВАНИЮ И ИССЛЕДОВАНИЮ ТЕРМИНОВ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ

Аннотация

Образование и исследование терминов в узбекском языке представляет собой сложный лингвистический процесс, и важно анализировать его на основе концептуального подхода. В данной статье рассматриваются этапы формирования узбекской терминологии, ее научные основы и закономерности развития. Термины тесно связаны с социокультурным развитием и развитием научных областей, и их систематическое и нормативное применение является одним из важных факторов. В статье также анализируются семантические особенности терминов, их совместимость с международной терминологией, а также конкретные направления развития в узбекском языке. На основе концептуального подхода к образованию терминов обсуждаются их лингвистические особенности, лексико-семантические отношения и функциональное употребление. Также освещено появление новых терминов в узбекском языке и вопросы их стандартизации.

**Ключевые слова:** Словарный запас, лексические единицы, социально-коммуникативная единица, термин, термин, лексический уровень, семантическая классификация.

## CONCEPTUAL APPROACH TO THE FORMATION AND RESEARCH OF TERMS IN THE UZBEKISTAN LANGUAGE

Annotation

The formation and study of terms in the Uzbek language is a complex linguistic process, and its analysis based on a conceptual approach is of great importance. This article studies the stages of formation of Uzbek terminology, its scientific foundations and development patterns. Terms are closely related to socio-cultural development and the development of scientific fields, and their systematic and normative use is one of the important factors. The article also analyzes the semantic properties of terms, their harmonization with international terminology, and specific development directions in the Uzbek language. Based on a conceptual approach to the formation of terms, their linguistic properties, lexical-semantic relations, and functional use are discussed. The emergence of new terms in the Uzbek language and their standardization are also covered.

**Key words:** Dictionary, lexical units, socio-communicative unit, term, term, lexical level, semantic classification.

**Kirish.** Bilim va tajribalar aniq moddiy unsur, hodisalarini atashi yoki mavhum tushunchalarini nomlashi mumkin. Terminlarni o'rGANUVCHI atamashunoslik sohasi "leksik birliliklar (ya'ni terminlarning kelib chiqishi, shakli, mazmuni, vazifasi, qo'llanishi, tartiblanishi va yaratilishini qiyoslash" maqsadini o'z oldiga qo'yadi. Qiyosiy tadqiq turli tillar doirasida, bir tilning turli davrlari kesimida yoki turli fan terminlarini tahlil qilishni o'z ichiga olishi mumkin.

Terminologiya ilmiy til asosini tashkil etib, qat'iy tizimga bo'ysundirilganligi, barcha so'zlashuvchilar ongida ayni ma'noma-zmunni ifodalashi bilan leksik sathning boshqa paradigmalaridan farqlanadi. Bir fan muammosini faqat qat'iy shakllangan an'anavuv yondashuvlar asosida yechish imkonis. Ba'zan muayyan muammo turli fan tarmoqlari kesimidagi tahlilni talab etadi. Shu sababdan lingvistika fani ham muntazam taraqqiy etib, unda yangi tadqiq usullari, yondashuvlar va tarmoqlar shakllana boradi. Bu esa bir tadqiq obyektiga turli prizmalardan qarab, yangi xulosalarni shakllantirish va serqirra amaliy natijalar olish imkonini yaratadi.

Ma'lumki, lingvistik nuqtayi nazardan leksik sath elementlarini denotativ, pragmatik va sintagmatik tamoyillar asosida tadqiq etish mumkin. Har bir yondashuv xulosalari bir-birini inkor etmasligi, aksincha biri boshqasini to'ldirib, tadqiqot natijalari tajridiy taraqqiy etishi maqsadga muvofiq. Ushbu

tamoyillarni leksikaning terminologik sathi misolida qisqacha izohlaymiz. Denotativ tadqiq tamoyili muyyan ma'no guruhi, morfologik turkumni tematik tasniflashni maqsad qiladi. Bunda turkum yoki yirik ma'no guruhi tarkibi oraliq va xususiy ma'no turlariga ajraladi, har bir leksema semantik strukturasi izchil tahlil qilinadi. Shuningdek, leksemalar orasidagi lisoniy ma'no munosabatlari aniqlanib, semantik ko'lam chegaralari belgilanadi. Terminologiyani denotativ jihatdan tasniflash ham shu andozada amalga oshiriladi. Shu o'rinda termin va atama farqini qat'iy belgilab olish shart. Atama morfologik turkum jihatidan faqat ot doirasida cheklangani bilan qamroviga ko'ra terminlardan anchaleng, umumiste'mol so'zlariga yaqin turadi.

**Mavzuga oid adabiyyotlar tahlili.** Ba'zan umumste'mol so'zi atama vazifasini ham bajarishi ma'lum. Terminlarni esa faqat fan-texnika doirasida qat'iy chegaralash lozim. Shu jihatdan barcha terminlarni umumlashtirib bir maydonga to'playdigan arxisema o'laroq "fan-texnika" ma'nosi tanlanadi. Dunyo terminologiyasi o'tgan asr boshlarida ilmiy-texnik atamalar tadqiqi va tahlili asosida shakllandı. Masalan, Ferdinand de Sossyur tilning sistem xarakteriga urg'u beradi, Alfred Sklomann terminlar tizmiliyi haqida fikrlarini bayon etgan. Alfred Sklomann fikriga ko'ra, tildagi barcha atamalar o'zarbo chambarchas bog'liq, bir-birini etuvchi butun qismalaridir. Ingliz atamashunos olimi J.Holmsdorm terminlarni

standartlashtirish zaruratini asoslab, sohada atamalarning unifikatsiya mezonlarini ishlab chiqdi. Yaratilgan baza asosida atamashunos A.Vuster termografik tajribadan kelib chiqib terminologiya nazariyasini shakllantirdi. Uning muallifligidagi "Asosiy tushunchalar lug'ati" ("Dictionary of Basic Concepts") fransuz va ingliz terminlarini aniq qonuniyatlar asosida tarjima yoki interpretatsiya qilganligi bilan ahamiyatlari bo'ldi. Manbada terminni o'zlashtirish shartlari, tarjima qilish texnikasi, adaptatsiya va transliteratsiya masalalari izchil yondashuv bilan

Tub	Yasama
Mahalla	Saylov
Deputat	to'qima
Kosmos	Taqdimot
Asteroid	Fazogir
Atom	manbleshunoslik
Kod	mechanizatsiyalash

#### Terminologiyaning struktur tasnifi

Qo'shma	So'z birikmasi
mikrobiologiya	molekulyar biologiya
open-byudjet	kvant fizi连si
Ongosti	sut emizuvchi
Saylovoldi	kognitiv tilshunoslik
Qaydnomma	sug'urta polisi
Elchixonha	kalit so'z

Struktur tasnif shunchaki "til – til uchun" aqidasi bilan amalga oshirilmaydi. Amalda bunday tasnifning dolzarb ahamiyati mayjud va bu zarurat hozirgi sun'iy intellekt rivoji davrida yanada aktuallashmoqda. Ma'lumki, sun'iy intellektning asosiy muloqot vositasi til, axborotni qabul qilish va tushunish uchun sun'iy intellekt algoritmlari muayyan til mukammal darajada singdirilishi kerak. Har bir leksik birlik, sintaktik qurilmani struktur jihatdan yaqqol tasniflanish shu jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi. Til materialidan foydalanish samaradorligini oshirish uchun til mashinalari va sun'iy intellektiga izchil struktur klassifikatsiyalar zarur. Leksik sathning struktur tasnifi huddi semantik klassifikatsiya kabi lingvistik korpus tuzishda dasturulamal bo'ldi. Demak, anglashilganidek, denotativ tasnidan avval struktur klassifikatsiya asoslarini shakllantirish maqsadga muvofiqdir.

Qo'llanish sohasiga ko'ra terminlarni uch yirik guruhga ajratish mumkin. Birinchi guruhga bir necha sohalar uchun umumkiy bo'lgan universal terminlar oid: quvvat, murvat, strukturna, morfologiya, teorema. Quvvat fizika, energetika va biologiya fan tarmoqlari uchun universal termin, murvat esa turli faoliyatlarda qo'llanishi mumkin bo'lgan farqli texnik vositalarning ajralmas qismi, morfologiya tilshunoslikda so'z turkumlari, so'z tarkibini o'rjanuvchi bo'lim, til sathi bo'lsa, biologiya anatomiya fanlarida inson ichki organlari morfologiyasi, o'simliklar morfologiyasi kabi termin birikmalar uchraydi. Bunday universaliyalar bir fan taraqqiyoti faqat shu fan doirasida yuz bermasligini, albatta, turli sohalar kesimidagi terminlar va shu qatorda yangidan yangi yondashuvlarni o'zlashtirish zaruratini asoslaydi. Ikkinci guruh terminlar faqat bir tor sohada qo'llanuvchi unikal terminlar: leksema, fonema, qo'shma gap. Ushbu terminlar faqat bir fanga oid bo'lib, uning obyektni o'rjanish, izohlash va yangi xulosalar berishda asosiy vosita bo'ldi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, har qanday fanni tadqiq obyekti, predmeti, vazifalarisiz tasavvur qilib bo'lmagan kabi o'ziga xos unikal terminologik leksikasiz ham tasavvur qilish imkonsiz. Uchinchi guruh terminlar yanada tor ko'lamga ega – bunda bir olim qo'llaydigan konseptual yangi terminlar o'rin oladi. Keyinchalik tadqiqot ommalashishiga qarab bu terminlar bir sohaga mansub unikal leksemalarga aylanishi mumkin. Bunday tashqari terminologiya muayyan davrlar doirasida xoslanib, tarixiy jihatdan ham davrlashtirishi mumkin – yuqorida fasllarda bu haqida to'xtaldik. Vaqt o'tgani sari tarixiy terminlar oddiy atama o'laroq tilning lug'aviy tarkibida qolishi, umumiste mol leksikasiga aylanishi yoki tarixiy/eskirgan leksika bo'lib qo'llanish doirasida cheklanishi mumkin. Sanab o'tilgan struktur va qo'llanish doirasiga ko'ra klassifikatsiyalar tematik (denotativ) tasnidan avval amalga oshirilishi lozim. Semantik jihatdan tasnidni zamonaliv terminologiya bilan cheklanamiz. Bunday tasnidni fan tarmoqlariga yoki texnik sohalar tarmoqlariga ko'ra amalga oshirish maqsadga muvofiq. Bunda universal terminlar turli sohalar kesimida takrorlanaveradi, unikal terminlar esa o'z sohasi doirasida tasniflanadi. Terminologiya muntazam

Amaliy jahhadagi terminlar  
Shudgorlash  
tomchilab sug'orish  
blits-so'rovnomma  
moliyaviy piramida  
Konsul  
Menejer  
Manikyur

mukammal shaklga keltirilgan. Ilmiy-texnik atamalar tahliliga tayanib jahon terminologiya nazariyasi shakllantirildi.

Aynan semantik tasnif, yoki boshqacha aytganda, tematik klassifikatsiya terminologik tuzilmaning mantiqiy-tushunchaviy strukturasini ochib beradi, undagi elementlarning ma'no chegaralarini, ma'no xususiyatlari va munosabatlarini yaqqlol namoyon qiladi.

Umuman olganda, har qanday tildagi terminologiyani tasniflashni struktur, semantik, qo'llanish doirasiga ko'ra amalga oshirish mumkin:

taraqqiyotda, kundan kunga fan xulosalari boyitilib, kengayib bormoqda – yangi fan tarmoqlari, faoliyat sohalarini yuzaga kelmoqda. Shu sababdan terminlarni denotativ guruh sifatida jonli, o'zgaruvechan ochiq tizim sifatida xarakterlash maqsadga muvofiq.

**Tahlil va natijalar.** Terminlar inson faoliyatining har qanday jabhasini fan sifatida baholash, ilmiy yondashuv belgisidir. Bunda diniy terminlar denga ilmiy tizmiylik bersa, san'at terminlari ham sohani fan miqyosiga ko'taradi. Shu jihatdan turli jabhalar, inson faoliyatining turli sohalarida uchraydigan terminlar uchun birlashtiruvchi arxisema sifatida "ilm-fan" istilohini olish muhim. Quyi pog'onalarda ushu arxisema fizika, kino, din, musiqa fani kabi xususiy ma'no guruhlariga ajralib ketadi. Demak, shu xususiy ma'no guruhlaridan asosiyalarini sanab o'tamiz:

Gumanitar fanlar terminologiyasi;  
Aniq fanlar terminologiyasi;  
Tabiiy fanlar terminologiyasi;  
Texnika fanlar terminologiyasi;  
Ish yuritish terminologiyasi;  
San'at terminologiyasi  
Teologik (diniy) terminologiya;  
Axborot-kommunikatsiyalari terminologiyasi;  
Siyosiy terminologiya;  
Harbiy terminologiya;  
Huquqiy terminologiya  
Iqtisodiy, moliyaviy terminologiya  
Noshirlik ishiga oid terminologiya  
Marketing terminologiyasi va h.k.

Bu klassifikatsiyani davom ettirib, yana qator sohalar terminologiyasini sanab o'tish mumkin, albatta. Batafsil tasniflarning turli talqinlarda har-xil tadqiqotlarda keltiriladi. Biroq hamma denotativ klassifikatsiyalarni bir umumiye semantik qonuniyat birlashtirib turadi deya olamiz. Tematik guruhlarning bari ikki turga – inson faoliyatining nazariy va amaliy jabhalariga ajraladi. YA'ni yuqorida sanab o'tilgan termin ma'no guruhlarining barchasi yo nazariy jabhaga, yo amaliy jabhaga oid. Ba'zi terminlar har ikki jabhada ham keng qo'llanishi mumkin. Demak, semantik tasnif iyerarxiyasi quyidagicha shakllantirish mumkin:

Terminologiya: 1) amaliy jabha terminologiyasi sohalarini: chorvachiik, dehqonchilik, oshpazlik.

2) nazariy jabha terminologiyasi sohalarini: mantiq, falsafa, sotsiologiya, politologiya.

Iyerarxiya pog'onalarida quyilashganimiz sari tasnif izchillashib, semantik ko'lam torayib boradi. Denotativ tamoyil asosida terinlarni ma'no turlariga tasniflash orqali ularning semantik chegarasini aniqlaymiz, turli oraliq va xususiy ma'no guruhlari orasidagi munosabatlar namoyon bo'ldi, shu bilan birga terminlarda uchraydigan graduoniymiya, polisemiya kabi hodisalar ochiqlanadi. Bu haqida semantik tahlilga bag'ishlangan keyingi fasllarda batafsil to'xtalamiz.

Nazariy jahhadagi terminlar  
hujayra  
to'qima  
metodologiya  
adamning ko'rinishmas qo'li  
stratosfera  
azon qatlami  
somon yo'li

Outsoring  
Fonogramma  
Audit

Ushbu jadvalda amaliy va nazariy sohalardagi terminlar ajratiladi, bunday tasnidfa ayrim leksemalar ham amaliy ham nazariy sohalarda birdek qo'llanishi mumkin.

Leksemalar tahliliga pragmatik tamoyilda yondashuv nutq konteksti bilan chambargas bog'liq. Zotan, leksemaning birikuv xususiyatlari, kontekstual semantik imkoniyatlari aynan muayyan nutq misolida yaqqol ko'zga tashlanadi. Nutqiy akt mobaynida presuppozitsiya, suppozitsiya kabi hodisalarda terminlarning ishtiroki pragmatik tamoyil asosida o'rGANILADI.

Leksemani sintagmatik tamoyilda tahlil qilish esa an'anaviy tilshunoslik xulosalariga asoslanadi. Bunda bir so'zning nutqdagi sintaktik aloqalari, vazifasi asosiy tadqiq obyektiga aylanadi.

**Xulosa va takliflar.** Umuman olganda, sanab o'tilgan uch tamoyil, uch yondashuv natijalari kognitiv-kommunikativ

akkord  
nota  
presuppozitsiya

terminshunoslik uchun muhim, ushbu xulosalarni inobatga olgan holda kognitiv yondashuv termin fenomeniga nutq va kommunikatsiya, nutqiy akt qatnashchilari tajribasi nuqtayi nazaridan qaraydi. Insonning kognitiv faoliyati va matn diskursini umumlashtirgan holda terminlarni o'zgacha nuqtayi nazaridan tavsiflash imkon mavjud. Kognitiv tamoyilda terminlarni tадqiq qilish insonning ilm-fanni tushunishi, izohlash qobiliyatidagi tajridiy o'zgarishlarni qayd etib borish imkonini yaratadi, kengroq aspektida inson tamadduni tarixini davrashtirish uchun lingvistik manba yaratib beradi. Bir leksema dastlab umumiste'molda bo'lib, keyinchalik lisoniy manzarada butkul boshqa vazifaga o'tgani, unikal termin sifatida fanning tor tarmog'ida qo'llanilgach, keyinchalik tarmoqlararo universal terminga aylanishi uzoq jarayon bo'lib, bu jarayon bosqichlari aynan kognitiv-semantik tahlil davomida yuzaga chiqadi.

#### ADABIYOTLAR

- Атанасова И. О характеристике термина // официальный сайт balkansk.ru русистики <http://www.russian.slavica.org/article1190.html>
- Винокур Г. О некоторых явлениях словообразования в русской технической терминологии. Труды МИФЛИ. Т.5. Сборник статей по языкоznанию. – М., 1961. – С. 3-10.
- Гринев-Гриневич С. Терминоведение – М.: Академия, 2008. – С. 304
- Dadaboyev H. O'zbek terminologiyasi. – T., 2019. – 118 b.
- Дадабаев Х. Лексико-генетические особенности узбекской терминологии. Лингвист. Илмий маколалар туплами – Тошкент, 2015. – С.4-10.
- Dadaboyev H. "Devonu lug'otit turk"ning til xususiyatlari. – Toshkent, 2017.
- Курилович Е. Заметки о значении слова – очерки по лингвистике. – М.: Прогресс, 1962. – С; Медникова Э. Значение слова и методы его описания. М.: Высшая школа, 1974. – 43 с; Шмелев Д. Проблемы семантического анализа лексики. М.: Наука, 1973. – 13 с.
- Реформатский А. Мысли о терминологии/Современные проблемы русской терминологии. – М.: 1966.- 297; Циткина Ф. Терминология и перевод. // К основам сопоставительного терминоведения. – Львов: 1988. – 213 с.



Azizaxon MULLABAYEVA,

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti magistranti

E-mail: mullaboyevaazizaxon99@gmail.com

Yulduz ARTIQOVA,

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti dotsenti

O'zMU dotsenti, filologiya fanlari nomzodi R. Abdusatarov taqrizi asosida

## URUSH JARAYONLARINI YORITISHDA AXLOQIY MEZONLAR

Annotatsiya

Ushbu maqola urush jarayonlarini yoritishda axloqiy mezonlarning qanday qo'llanilishi, tarixi va muhimligi haqida tahlil qildi. Urushlar insoniyat tarixida alohida o'rinn tutadi va ko'plab odamlarning hayotini o'zgartirgan, millatlar va xalqlarni tanlab o'tgan hodisalar sifatida qolgan. Biroq, har bir urushda axloqiy nuqtai nazar, inson huquqlari, adolat va gumanitar yondashuvlar, bir tarafdan, harbiy strategiya, siyosiy manfaatlар va geosiyosiy ko'rsatkichlar bilan mutanosib ravishda qiyoslanadi. Maqola tarixiy misollar, manbalar, faktlar va iqtiboslar orqali urushlarning axloqiy asosi va bu mezonlarning yoritilishidagi o'zgarishlarni o'rganadi. O'zbek olimlarining asarlari orqali, ayniqsa, mintaqaviy urushlar va ularning axloqiy mezonlari tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** Urush, axloq, tarixiy misollar, gumanitar qonunlar, urush jinoyatlari, inson huquqlari, harbiy etik, axloqiy mezonlar.

## ЭТИЧЕСКИЕ КРИТЕРИИ ПРИ ОСВЕЩЕНИИ ВОЕННЫХ ПРОЦЕССОВ

Аннотация

В данной статье анализируется использование, история и значение этических критериев при освещении военных процессов. Войны занимают особое место в истории человечества и остаются событиями, изменившими жизнь многих людей и избранных наций и народов. Однако в каждой войне моральные соображения, права человека, справедливость и гуманитарные подходы сопоставляются с военной стратегией, политическими интересами и geopolитическими соображениями, с одной стороны. На основе исторических примеров, источников, фактов и цитат в статье рассматриваются моральные основы войн и изменения в освещении этих критериев. Через труды узбекских ученых анализируются особенности региональных войн и их моральные критерии.

**Ключевые слова:** Война, мораль, исторические примеры, гуманитарные законы, военные преступления, права человека, военная этика, моральные критерии.

## ETHICAL CRITERIA IN ILLUMINATING WAR PROCESSES

Annotation

This article analyzes the use, history and importance of ethical criteria in the coverage of war processes. Wars occupy a special place in the history of mankind and remain events that have changed the lives of many people and chosen nations and peoples. However, in every war, moral considerations, human rights, justice, and humanitarian approaches are weighed against military strategy, political interests, and geopolitical considerations on the one hand. Through historical examples, sources, facts and quotations, the article examines the moral basis of wars and the changes in the coverage of these criteria. Through the works of Uzbek scientists, especially regional wars and their moral criteria are analyzed.

**Key words:** War, morality, historical examples, humanitarian laws, war crimes, human rights, military ethics, moral criteria.

**Kirish.** Urushlar insoniyat tarixida eng murakkab va og'reqli voqealar hisoblanadi. Harbiy operatsiyalar, qo'llanilgan qurollar va ularga olib keladigan halokatlar faqat siyosiy yoki iqtisodiy oqibatlarni emas, balki axloqiy muammolarni ham keltirib chiqaradi. Urush jarayonlaridagi axloqiy mezonlar har doim katta e'tiborga sazovor, chunki urushning olib borilishi va uning natijalari insoniyatning etik tamoyillari bilan chambarchas bog'liq. Shuning uchun ham urushlarning axloqiy jihatini tahlil qilish faqat harbiy tarixni o'rganish bilan cheklanmaydi, balki inson huquqlari, gumanitar qadriyatlarning asoslarini va adolatni ta'minlashga ham oiddir [1].

O'zbek olimlari urushlarni tahlil qilish va ularni yoritishda o'zgacha metodologiyalar ishlab chiqqan. O'zbekistondagi bir qancha olimlar urushlarni nafaqat harbiy, balki axloqiy, siyosiy va gumanitar nuqtai nazardan ham yoritishgan. Masalan, Abdulaziz Jumanov 2003-yillarda "Urushlar va milliy xavfsizlik" asarida urushlarning inson hayotidagi tarixiy, siyosiy va axloqiy tomonlarini ochib bergan[14]. Rustamxon Jumaev esa 2015-yilda "Urush va tinchlik: Insoniyatning jahon tarxi" nomli asarida urushlarning insoniyatning axloqiy qadriyatlari bilan qanday ajralmas darjada bog'langanini ko'rsatib bergan[15]. Sodikxon Rasulov 2019-yilda "Zamonaviy urushlarning axloqiy o'chovlari" degan asarni yozib, urushlardagi inson huquqlarining buzilishi va bu jarayonlarning axloqiy oqibatlarini atroflicha tushuntirib bergan[13]. Bu kabi olimlar

urushlarning tarixiy sabablari va ularning axloqiy oqibatlarini yangicha nigohlar bilan ochib berishgan.

Tarixiy misollar va urushlarni axloqiy nuqtai nazaridan yoritish. Antik davr va o'rta asrlardagi urushlar.

Antik davr va o'rta asrlarda urushlar ko'pincha imperatorlar, hukmdorlar yoki diniy tashkilotlar o'tasida sodir bo'lgan. Shu davrlarda urushlar "maqbul" yoki "muqaddas" deb tasniflangan – ya'n shaxsiy sharaf, dunyoviy yoki diniy huquqlarni himoya qilish maqsadida olib borilgan. Masalan, Rim imperiyasining urushlari yoki Xochli urushlar (1096-1270) diniy va siyosiy asosda amalga oshirilgan bo'lsa-da, ularning axloqiy jihatdan ham baholanishi mumkin edi[3]. Biroq, shu davrda urushlarning axloqiy mezonlari kamroq e'tiborga olinardi, chunki urushlar ko'pincha "adolat" deb hisoblanar edi va har qanday vositalar haq deb qaralardi.

O'zbek olimlari tarixiy urushlarni tahlil qilishda o'ziga xos usullar ishlab chiqqanlar. Abdulla Qodiriy[11] va Cholpon kabi yozuvchilar o'z asarlarida urushlarning axloqiy va madaniy jihatlarini chuqr yoritishgan. Ularning ishlari urushlarning xalq madaniyati va axloqiy qadriyatlari qanday ta'sir ko'rsatganligini chuqr tahlil qiladi.

Zamonaviy urushlar va axloqiy standartlar. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida, ayniqsa Birinchi va ikkinchi Jahon urushlarida urushning axloqiy asoslari yangi bosqichga ko'tarildi. Gumanitar qonunlar, inson huquqlari va urush jinoyatlari haqidagi

masalalar 1864-yilda Shveytsariyada tashkil topgan Xalqaro Qizil Koch Jamiyati tomonidan ishlab chiqilgan urush qonunlarining asoslariga asoslangan. Keyinchalik, 1949-yilda BMT tomonidan qabul qilingan Genf konvensiyasi urush jarayonlarini yanada qattiq axloqiy meyorlar bilan belgiladi[5].

O'zbek olimlarining fikricha, urushning axloqiy jihatlari butun dunyo miqqosida tahlil qilinishiga qaramay, har bir millatning axloqiy nuqtai nazariga o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Toshpulatov Bahrom va Akbar Shokirov o'z asarlarda Sovet Ittifoqi davridagi urushlarning axloqiy baholanishi, inson huquqlari va xalqaro huquqning tanqidiy tahlilini o'z ichiga olganlar.

Urush jinoyatlari va axloqiy baholash. Urush jinoyatlari axloqiy mezonlar nuqtai nazaridan alohida o'rIN tutadi. Bu jinoyatlар, bir tomondan, urush jarayonlarida inson huquqlarining buzilishini, ikkinchi tomondan esa xalqaro huquqlarga noto'g'ri munosabatni anglatadi. Birinchi Jahon Urushi va Ikkinci Jahon Urushi davomida bu jinoyatlар yanada keskinlashdi[6]. Masalan, Ikkinci Jahon Urushi davomida fashistlар tomonidan yahudiylar va boshqa etnik guruhlarga qarshi amalga oshirilgan "Holokost" huquqiy va axloqiy jihatdan katta tanqidga uchradi va keyingi avlodlar uchun model bo'ldi.

**Tahilar.** Shu davrgacha insoniyat tarixidagi urushlarning turli tuman jurnalistlar yoritgan. Ularning barchasi o'z

qarashlaridan kelib chiqan holda tahlil qilgan. Masalan ulardan biri mashhur yozuvchi Ernest Hemingweydir. Uning asl kasbi jurnalist edi. U ikkinchi jahon urushi va Ispaniyadagi fuqarolar urushida qatnashgan. Har bir urushda qatnashar ekan bu insoniyat tarixiga qanchalik ayanchli ta'sir ko'rsatayotganini his qilgan. Bu vaxshiyliklarni odamzot odob axloqidan mutlaqo tashqariga chiqib ketganini o'z asarlarda aks ettirgan. Bunday asarlardan eng mashhuri "Alvido, qurol" asaridir. Jurnalist urush haqida shunday deydi: "Urushning hech qanday sevgisi yoki merosi bo'lмаган kishilar boshqaradi. Urush – bu insonlarning hayotini inqirozga olib keladigan, ularni har doim achchiq yo'ldan olib boradigan bir noxushlikdir"[8].

Urushni yoritgan jurnalislari haqida so'z ketar ekan nafaqat muxbirlar balki fotojurnalistlar haqida ham aytib o'tish joiz. Bu jurnalistikada bu yo'nalishning ham o'rnı sezilarli darajada. Ular bizga bu daxshatli voqeani real rasmilar orqali ochib beradilar. Shunday jurnalislardan biri Robert Capadir. U taniqli fotojurnalist bo'lib II jaxon urushi, Ispaniya fuqarolar urushi hamda anchagina jangovar holatlarni o'z fotosuratlari orqali yoritgan. Uning fotosuratlari urushdagi eng qo'rinchli tomonlarini hamda urush o'z nihoyasiga yetganidan so'ng nima oqibatlarga olib kelishini ko'rsata olgan.



1-rasm. Saint Laurent-sur-Mer, Kalvados, Fransiya. Sana: 1944 yil iyun. Nemis harbiy asirlari D-Day desantlarida halok bo'lgan AQSH qo'shinlarini dafn etishyapti. D kunida kamida 2501 amerikalik halok bo'ldi[16].



2-rasm. Muhojirlar, Hayfa, Isroil, 1949 yil[12].

Bu suratlar orqali inson urushning oqibatlarini yanada yaxshiroq anglaydi va hech qachon unutilmas bo'lib xotirasiga muxirlanadi. Jurnalistikaning bu yo'nalishi insoniyatning axloqiy tamoyillaridan mutlaqo chiqib ketganini ochib bera oladi.

Urushni yoritishga jazm qila olgan jurnalistlardan yana biri bu John Reymond. U Amerika jurnalisti va sotsiologidir. Uning oktabr inqilobining ichida turib yorita olgan kam sonli jurnalistlardan biridir. Uning eng salmoqli asarlardan biri bu "Dunyonlar zanga keltirgan o'n kun" (That shook the world) deb nomlanadi. Uning bu asarida urush davrida yozgan barcha maqolalari joy olgan. U o'zining maqolalaridan birida shunday deydi: "Oktabr inqilobi dunyoning yuzini o'zgartiradigan voqeа bo'ldi, bu, shubhasiz urushning so'nggi zaharli mevasidir"[9].

Urushlar tarixida ikkinchi jahon urushidanda daxshatlirog'i bo'lмаган. Bu urush yer yuzidagi har bir insonga bir tegib o'tdi. Uning ayancli ta'sirlari bilan haligacha kurash olib boramiz. Aynan shu urushning shafqatsizligi haqida bizga Martha Gelhorn yoritib bergen. U ikkinchi jahon urushining qoq markazida o'z faoliyatini olib borgan va urush fojialarini o'zgacha yoritgan jurnalistlardan biri hisoblanadi. Uning maqolalari va asarlari insoniylikning yo'qolishiga, axloqning yo'q bo'lishiga

doir o'y larga to'lgan edi. U bir maqolasida urush haqida shunday deydi: "Mening ko'rganim shundaki, urushning oxirgi natijasi insoniylikka qarshi bo'lib chiqadi, u faqat kuchliroq yolg'onlar yaratadi", "Urush — bu nafaqat yirik shaharlarning vayron bo'lishi, balki inson qalbining o'chmas izlarini qoldirgan jarohatlardir"[10].

Bu jurnalistlar tarixdagi eng muhim voqeа bo'lgan urushlarni yoritgan. Unga turli tarafдан nigoh qaratgan. Ularning har biri urushning dahshatli, fojiali va qo'rinchli tomonlari haqida o'z noyob fikrlarini yozgan. Ularning maqolalari va asarlari urushning jamiyatga qanchalik zararli ta'sir ko'rsatishi, odob axloq normalarini buzib yuborishi, siyosiy va ijtimoiy hayotda insonlarning qanchalik darajada tubanlashib ketishini yoritib bergan.

O'zbek olimlari urush jinoyatlarini o'z tarixiy kontekstida chuqur tahlil qilganlar. Zohidov Ismoil va Alimov Furqat o'z ilmiy ishlari urush jinoyatlarini, ayniqsa Markaziy Osiyo va O'zbekistonagi ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarga ta'sirini yoritishga e'tibor qaratganlar. Ularning asarlari urush jinoyatlarining milliy tarixga qanday ta'sir ko'rsatganini aniqlashga yordam beradi.

Hozirgi zamon urushlarida axloqiy masalalar. Zamonaviy urushlar, ayniqsa tinch aholiga qarshi amalga oshiriladigan hujumlar, sun'iy yo'llar bilan boshqariladigan operatsiyalar va turli harbiy harakatlar ko'plab axloqiy savollarni keltirib chiqarmoqda. Masalan, 1990-yillarda Yugoslaviya urushidagi voqealar, 2000-yillarda Iroq urushi va boshqa zamonaviy urushlar axloqiy nuqtai nazaridan katta tanqidga sabab bo'ldi.

O'zbek olimlarning fikricha, zamonaviy urushlar ko'proq siyosiy va axloqiy jihatlar bilan bog'liq. Tashkentov Vali va Juraev Timur urushlarning zamonaviy tahlilida, ayniqsa xalqaro aloqalar va axloqiy yondashuvlarni qanday uyg'unlashtirish zarurligini ko'rsatganlar.

Urushning axloqiy mezonlarini yoritishdagi qiyinchiliklar. Harbiy etika va gumanitar nuqtai nazar. Urush jarayonlarini axloqiy mezonlar asosida yoritish ko'pincha murakkab bo'lishi mumkin. Harbiy strategiyalar va siyosiy manfaatlар ko'pincha axloqiy mezonlar bilan ziddiyatga keladi. Masalan, ba'zi hollarda g'alaba qozonish uchun axloqiy qadriyatlarini chetlab o'tish talab etilishi mumkin. Shu bilan birga,

"harbiy etika" va "gumanitar nuqtai nazar" o'rtasidagi farqlar sezilarli darajada ortadi.

Axloqiy mezonlarni zamonaviy urushlarga qo'llash. Zamonaviy urushlarda, ayniqsa global miqyosda, axloqiy meyorlarni qo'llash ko'plab siyosiy va iqtisodiy faktorlar bilan bog'liq. Urushlar ko'pincha bir nechta davlatlar o'rtasida sodir bo'ladi va ularning siyosiy aloqalari va strategiyalari axloqiy qarorlar bilan chambarchas bog'liq. Shu bilan birga, zamonaviy axborot texnologiyalari va global mediada urushlar to'g'risidagi axloqiy qarorlar yanada murakkablashmoqda.

**Xulosa.** Urush jarayonlarini axloqiy mezonlar bilan yoritish tarixiy nuqtai nazaridan o'zgargan bo'lsa-da, doimiy ravishda muhim masala bo'lib qolmoqda. Tarix davomida urushlar qanchalik ma'qullangan bo'lsa-da, zamonaviy davrda bu jarayonlarning axloqiy jihatlari, inson huquqlari, gumanitar qonunlar va xalqaro meyorlar nuqtai nazaridan tahlil qilish zaruriyati ortmoqda. Urushlarda qo'llaniladigan axloqiy mezonlar doimo o'zgarib turadi, lekin ular har doim insoniyat uchun muhim va dolzarb masala bo'lib qoladi.

#### ADABIYOTLAR

- Genf Konvensiyasi 1949. Shveysariya Xalqaro Qizil Xoch Jamiyati, 1949-yil.
- Shveysariya Xalqaro Qizil Xoch Jamiyati 1864-yil.
- Hokimiyat va Adolat: Jahon Urushlarida Axloqiy Mezonlar. Xalqaro Xotira va O'rganish Markazi, 2020-yil.
- Jahon Urushlari va Urush Jinoyatlari. Milliy Universiteti, 2020-yil.
- Urush Jinoyatlari va Inson Huquqlari: Zamonaviy Muammolar. Harvard Yuridik Fakulteti, 2019-yil.
- O'zbek Tarixida Urushlar va Axloqiy Baholash. Toshkent Davlat Universiteti, 2021-yil.
- Zamonaviy Urushlar va Axloqiy Tahlil. O'zbekiston Fanlar Akademiyasi, 2022-yil.
- Hemingway Ernest, Alvido. Qurol. 2019-yil.
- That Shook the World, Amerika, 2001-yil.
- Gellhorn Martha, The Face of War, 1959-yil.
- Qodiriy Abdulla, O'tgan kunlar, Yangi asr avlodni nashriyoti, 2019-yil
- <https://collections.artsmia.org/art/5515/arriving-immigrants-robert-capra>
- Rasulov S. "Zamonaviy urushlarning axloqiy o'chovlari". Toshkent, 2019-yil.
- Jumanov A. "Urushlar va milliy xavfsizlik". Toshkent, 2003-yil.
- Jumaev R. "Urush va tinchlik: Insoniyatning jahon tarixi". Toshkent, 2015-yil.
- <https://www.aarp.org/politics-society/history/info-2019/d-day-robert-capra-images.html>



Xilola NIZAMOVA,

Toshkent iqtisodiyot va texnologiyalari universiteti katta o'qituvchisi

E-mail: nizamova.hilola@gmail.com

O'zDJTU dotsenti, DSc M.Umarova taqrizi ostida

## NUTQIY AKT NAZARIYASI KONTEKSTIDA KOMPLIMENTLARNING PRAGMATIK VA MADANIYATLARARO TAHЛИLI

Annotatsiya

Ushbu maqolada nutqiy akt nazariyasining asosiy tushunchalarini va uning kommunikatsiyadagi o'rni, shuningdek, kompliment tushunchasi chuqur tahlil qilinadi. Maqola muallifi nutqiy aktning tilshunoslik va pragmatikadagi ahamiyatiga e'tibor qaratib, J.L. Austin, John Searle, Levinson va boshqa olimlar nuqtai nazarini solishtiradi. Shuningdek, kompliment tushunchasi orqali insonlar o'rtasidagi ijobji munosabatlarni, hurmat va samimiylik qanday ifodalishini ko'rsatadi. Maqolada komplimentning turli strategiyalari (to'g'ridan-to'g'ri, bilvosita va qo'shimcha modifikatorlar orqali beriladigan komplimentlar) hamda madaniyatlararo farqlar ham yoritilgan. Ushbu ish ilmiy asoslangan tahlil va tashqi internet manbalaridan olinadigan qo'shimcha ma'lumotlarga tayanadi.

**Kalit so'zlar:** Nutqiy akt, nutqiy akt nazariyasi, compliment, pragmatika, tilshunoslik, kommunikatsiya, madaniyatlararo farqlar

## ПРАГМАТИЧЕСКИЙ И МЕЖКУЛЬТУРНЫЙ АНАЛИЗ КОМПЛИМЕНТОВ В КОНТЕКСТЕ ТЕОРИИ РЕЧЕВЫХ АКТОВ

Аннотация

В данной статье рассматриваются основные концепции теории речевых актов и их роль в коммуникации, а также проводится углубленный анализ понятия комплимента. Автор акцентирует внимание на значимости речевых актов в лингвистике и pragmatike, сопоставляя точки зрения таких ученых, как Дж. Л. Остин, Джон Сёрл, Левенсон и другие. Кроме того, в работе показано, как комплименты выражают позитивные отношения, уважение и близость между людьми. Исследуются различные стратегии комплиментов (прямые, косвенные и дополненные дополнительными модификаторами), а также затрагиваются межкультурные различия в их использовании. Исследование опирается на научно обоснованный анализ и включает дополнительные данные из внешних интернет-источников.

**Ключевые слова:** Речевой акт, теория речевых актов, комплимент, pragmatika, лингвистика, коммуникация, межкультурные различия.

## PRAGMATIC AND CROSS-CULTURAL ANALYSIS OF COMPLIMENTS IN THE CONTEXT OF SPEECH ACT THEORY

Annotation

This article explores the fundamental concepts of speech act theory and its role in communication, as well as providing an in-depth analysis of the notion of compliments. The author highlights the significance of speech acts in linguistics and pragmatics, comparing the perspectives of scholars such as J.L. Austin, John Searle, Levinson, and others. Additionally, the article demonstrates how compliments serve as expressions of positive relationships, respect, and intimacy between individuals. It examines various compliment strategies (direct, indirect, and those supplemented by additional modifiers) and addresses cross-cultural differences in their usage. The study relies on a scientifically grounded analysis and incorporates supplementary information from external internet sources.

**Key words:** Speech act, speech act theory, compliment, pragmatics, linguistics, communication, cross-cultural differences

**Kirish.** Inson muloqotining asosiy vositasi bo'lgan til nafaqat ma'lumot yetkazish, balki his-tuyg'ular, niyatlar va ijtimoiy munosabatlarni ifodalash vositasi sifatida ham qaratadi. Nutqiy akt nazariyasi tilshunoslik va pragmatika doirasida tilning funksiyalarini chuqur tahlil qilishga imkon yaratadi. Ushbu nazariya asosida til orqali amalga oshirilayotgan amallar, ya'ni nutqiy aktlar – so'zlashuv jarayonida bajarilayotgan amaliyotlar sifatida ko'rib chiqiladi.

Maqolaning asosiy yo'naliishi kompliment tushunchasi bo'lib, u insonlar o'rtasidagi ijobji munosabatlarni ifodalashda muhim rol o'yinaydi. Kompliment nafaqat oddiy maqtov, balki uning orqasida yashirin kommunikativ niyatlar, madaniy kodlar va ijtimoiy norma mavjudligi tahlil qilinadi. Ushbu maqola doirasida nutqiy akt nazariyasi asoslarini, uning asosiy nazariyotchilari (masalan, J.L. Austin va John Searle) tomonidan ilgari surilgan tamoyillar, shuningdek, kompliment tushunchasining tilshunoslik va kommunikatsiyadagi o'rni keng yoritiladi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Nutqiy akt nazariyasi tilshunoslikda yangi paradigma sifatida 20-asrning o'tralarida shakllana boshlandi. Ushbu nazariya til orqali amalga oshirilayotgan amallarni faqat semantik va sintaktik darajada emas, balki kommunikativ kontekst va niyatlarini hisobga olgan holda tahlil qiladi. Nazariyaning asoschisi sifatida ingliz tilshunoslik J.L. Austinning "How to Do Things with Words" asarida

locutionary (so'zlovchi nutq), illocutionary (maqsadli ta'sir) va perlocutionary (natijaviy ta'sir) aktlarni ajratib, nutqni faoliyat sifatida tahlil qilgan [1]. Matnda Austinning "nutq harakati" tushunchasi batafsil yoritilgan, uning fikriga ko'ra, har bir nutq ijtimoiy kontekstida ma'lum maqsadga xizmat qiladi. John Searlening "Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language" asari Austin nazariyasini rivojlantirgan [5]. U illokutsion aktlarni 5 turga (assertivlar, direktivalar, kommissivlar, ekspressivlar, deklaratsiyalar) bo'lib, ularning ijtimoiy me'yorlar bilan bog'liqligini ta'kidlagan. Matnda Austin va Searlening qarama-qarshiliklari (masalan, Searlening "constitutive rules" tushunchasi) ham taqqoslangan. Pragmatika va kontekstni o'rganish bo'yicha Geoffrey Leyechning pragmatikani tilshunoslikning bir bo'limi sifatida talqin qilingan. Uning ta'kidlashicha, nutq harakatlari tushunish uchun kontekst (kim, qachon, qayerda) muhim rol o'yinaydi. Austinning g'oyalarini aniqroq misollar bilan tushuntira olgan Stephen Levinson nutqiy aktlarni locutionary (ma'no va murojaat), illocutionary (va'da, taklif) va perlocutionary (auditoriyaga ta'sir) jihatlardan tushuntirgan [6]. Ijtimoiy interaksiya va til kompetensiyasi haqidagi gapi radigan bo'lsak Dell Hymesning "kommunikativ kompetensiya" tushunchasi til o'rganishda grammatikadan tashqari ijtimoiy qoidalarni (kimga, qanday murojaat qilish) o'zlashtirish zarurligini ta'kidlaydi. Bu g'oya nutqiy aktlarning madaniyi jihatlarini tushunishda muhimdir. Van Dijk nutqni

ijtimoiy harakat sifatida ko'rib, uning kontekst va nutqchi niyatlariga bog'liqligini ta'kidlagan [2]. Schiffrin esa nutqiy aktlarni diskurs tahlili bilan bog'lab, ularning bir vaqtida bir nechta maqsadga xizmat qilishi mumkinligini yozgan [6].

### Tahlil va natijalar.

Pragmatika – tilning kontekstual va ijtimoiy aspektlarini o'rganadigan fan bo'lib, nutqiy akt nazariyasi pragmatik yondashuvning muhim qismi hisoblanadi. Tilning asl ma'nosi so'zlarning lug'aviy ma'nosidan tashqarida, gapiruvchining niyati, muloqot konteksti va madaniy kodlar asosida aniqlanadi.

Kompliment – bu insонning ijobji fazilatlarini, ko'rinishi, qobiliyatlarini yoki shaxsiy sifatlarini maqtash maqsadida aytildigan gap yoki ifoda sifatida talqin qilinadi. Turli olimlar kompliment tushunchasini ozaro farqli tarzda talqin qilishgan.

Kompliment tushunchasining mohiyati shundaki, u nafaqat gapiruvchining shaxsiy bahosini ifodalaydi, balki muloqotda qatnashayotgan tomonlar o'tasidagi hissiy va ijtimoiy bog'lanishi mustahkamlaydi. Shu bois, komplimentni faqat yuzaki maqtov sifatida emas, balki yanada kengroq kontekstda – nutqiy akt sifatida tahlil qilish zarur.

Kompliment quyidagi asosiy kommunikativ funksiyalarni bajaradi:

Tasdiqlash va maqtov: Gapiruvchi, tinglovchining salbiy holatini yengillashtirish yoki uning ijobji jihatlarini ta'kidlab, ishonch hosil qiladi.

Ijtimoiy etiket va odob-axloqni ifodalash: Muloqotda odobi bo'lish va etiketga rioya qilish maqsadida aytildigan komplimentlar ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda muhim rol o'yndaydi.

Motivatsiya va ruhlantirish: Yaxshi so'zlar va ijobji baholar insонning o'ziga bo'lgan ishonchini oshirib, faoliyatida qo'llab-quvvatlaydi.

Kompliment tushunchasining murakkabligi uning turli shakllarda ifodalananishida namoyon bo'ladi. Umuman olganda, komplimentlar quyidagi turlarga ajratilishi mumkin:

Ko'rinish va mulklar bo'yicha komplimentlar: Masalan, "Sizning libosingiz juda chiroli" yoki "Sochingiz ajoyib tarzda taralgan".

Ko'nikma va qobiliyatlarini maqtovchi komplimentlar: "Siz juda iste'dodli yozuvchisiz" yoki "Ishingizni a'lo darajada bajaryapsiz."

Shaxsiy fazilatlarni ta'kidlovchi komplimentlar: "Siz juda mehribon insonsiz" yoki "Sizning tabassumingiz atrofdagilarni xursand qiladi."

Komplimentning strategik jihatlari ham e'tirof etiladi. Masalan, Farenkina zamonaviy nazariyaga ko'ra, kompliment uch xil strategiyada ifodalananish mumkin [4]:

To'g'ridan-to'g'ri komplimentlar: Gapiruvchi bevosita tinglovchini maqtaydi. Bu turdag'i komplimentlarda adabiy uslub va maxsus iboralar qo'llaniladi (masalan, "Men sizni ish faoliyatizingiz uchun chin dildan tabriklayman").

Bilvosita komplimentlar: Gapiruvchi boshqa nutqiy aktlarni (masalan, maslahat, so'rov yoki tilak) amalga oshirish jarayonida kompliment ifodasini ham kiritadi. Bu holda, tinglovchi gapiruvchining haqiqiy niyatini aniqlash uchun qo'shimcha tafsirga muhtoj bo'ladi.

Qo'shimcha modifikatorlar orqali beriladigan komplimentlar: Bu yerda gapiruvchi asosiy maqtovni qo'shimcha so'zlar yoki iboralar bilan kuchaytiradi, masalan, "Sizning ishingiz haqiqatan ham ulug'vor va ilhomlantiruvchi."

Kompliment tushunchasi turli madaniylarda o'ziga xos xususiyatlarga ega. G'arb madaniyatida kompliment ko'pincha shaxsiy yutuqlar, tashqi ko'rinish va ijodiy qobiliyatlarini ta'kidlaydi, Rossiya va boshqa sharq madaniyatlarida esa ijtimoiy odob-axloq va kollektiv qadriyatlar asosiy o'rinni egallaydi. Shu bois, nutqiy akt nazariyasi kontekstida komplimentni tahlil qilishda madaniy kodlar, an'ana va ijtimoiy norma ham inobatga olinishi zarur.

Masalan, o'zbek madaniyatida ham maqtov va kompliment muhim rol o'yndaydi. Odatda, insonlar bir-birini maqtash orqali ijtimoiy hurmat va do'stlilikni mustahkamlashadi. Ammo, komplimentni ifodalash uslubi va uning qabul qilinishi madaniy xususiyatlar, yosh, jins va muloqot kontekstiga qarab o'zgarib turadi.

Nutqiy akt nazariyasi doirasida har bir nutqiy ifoda o'ziga xos kommunikativ va ijtimoiy ahamiyatga ega. Kompliment ham bunday nutqiy akt sifatida talqin qilinadi, chunki u gapiruvchining niyati, muloqot konteksti va tinglovchi bilan bo'lgan munosabatlariga asoslanadi. Austinning ta'kidlashicha, har qanday nutqiy akt – hatto oddiy maqtov ham – biror ijtimoiy amaliyot sifatida ko'rildi, chunki uning muvaffaqiyati "felisi shartlari"ga (ya'ni, muloqotda qatnashayotgan tomonlar orasidagi umumiy rozilik va an'analar) bog'liqdır.

Komplimentning muvaffaqiyatlari ifodalanshi uchun quyidagi shartlar zarur:

Gapiruvchining niyati: Kompliment samimiy va ijobji niyat asosida aytlishi lozim.

Kontekstual moslik: Kompliment ifodasi muloqot kontekstiga mos kelishi, ya'ni tinglovchi va gapiruvchi o'tasidagi ijtimoiy munosabatlar, vaziyat va madaniy kodlarga mos kelishi zarur.

Qabul qiluvchining psixologik tayyorgarligi: Tinglovchi gapiruvchining niyatini to'g'ri qabul qilib, ijobji javob berishi ham muhimdir.

Har ikkala yondashuvda, komplimentning asosiy maqsadi – tinglovchi ustida ijobji psixologik ta'sir o'rnatish, uning shaxsiy fazilatlarini qadrash va ijtimoiy aloqalarni mustahkamash hisoblanadi. Bunday nuqtai nazar nutqiy akt nazariyasi doirasida komplimentni tahlil qilishda uning nafaqat semantik jihatlari, balki pragmatik va ijtimoiy aspektlari ham muhimligini ko'rsatadi.

Quyidagi misollar orqali komplimentning nutqiy akt sifatidagi ahamiyati yanada aniqlashtiriladi:

Misol 1: "Sizning taqdimotoingiz juda ajoyib va tushunarli." Bu gapda gapiruvchi tinglovchining professional qobiliyatlarini yuqori baholaydi. Gapning illokutsiv bosqichi – maqtov va tasdiqlash, perlokutsiv bosqichi esa tinglovchi ustida ijobji ta'sir o'rnatishdan iborat.

Misol 2: "Yaqinda qilgan ishlaringiz men uchun haqiqatan ham ilhomlantiruvchi bo'ldi." Bu yerda gapiruvchi nafaqat tinglovchini maqtaydi, balki uning ishiga bo'lgan munosabatini ham ifodalaydi. Bunday nutqiy akt ijtimoiy munosabatlarni mustahkamash va kelgusidagi hamkorlik uchun zamin yaratadi.

Ushbu misollar orqali komplimentning nafaqat yuzaki so'zlar, balki muloqotdagi chuhur ijtimoiy va psixologik jarayonlar bilan chambarchas bog'liqligi aniq ko'rindi.

Ko'plab olimlar kompliment va flattery (soxta maqtov) tushunchalarini ajratib ko'rsatishgan [7]. Asl ma'noda kompliment samimiy va ijobji baho berish, flattery esa ko'pincha gapiruvchining shaxsiy manfaatlarini ko'zlab, haddan tashqari va samarasiz maqtov shaklida ifodalanadi. Nutqiy akt nazariyasi kontekstida bu farq juda muhimdir, chunki haqiqiy kompliment muloqotda "felisi" shartlariga rioya etgan holda aytildi, ya'ni tinglovchi buni qabul qilib, ijobji javob qaytaradi.

Nutqiy akt nazariyasi doirasida har qanday nutqiy ifoda muayyan ijtimoiy jarayoni ifodalaydi. Kompliment esa o'zining ijobji va maqtovga yo'naltirilgan tabiatini bilan insonlar o'tasidagi munosabatlarni mustahkamashda, ishonch va samimiyatni oshirishda muhim rol o'yndaydi [8]. Muloqot jarayonida aytildigan komplimentlar orqali tinglovchi o'zini qadrangan va e'tiborga sazovor deb his qiladi. Bunday ijobji hissiyorlar esa jamiyatdagi ijtimoiy risklarni kamaytirib, insonlar o'tasidagi aloqalarni mustahkamlaydi.

Nutqiy aktlarning muvaffaqiyati, ayniqsa kompliment kabi nozik nutqiy ifodalarda, muloqot konteksti va tomonlarning o'zaro munosabatlariga bog'liq. Har qanday kompliment ifodalashda gapiruvchining niyati, muloqotda qatnashayotganlarning ijtimoiy roli va vaziyat shartlari, madaniy moyorlar hamda til kodlari inobatga olinishi zarur.

**Xulosa.** Maqolada nutqiy akt nazariyasi va kompliment tushunchasi asoslari, ularning falsafiy va pragmatik jihatlari, shuningdek, kommunikativ va ijtimoiy funksiyalari tahlil qilindi. J.L. Austin va John Searle kabi olimlarning nazariy yondoshuvlari asosida nutqiy akt tushunchasi, uning lokutsiv, illokutsiv va perlokutsiv bosqichlari aniqlashtirildi. Shuningdek, kompliment tushunchasi tilshunoslik va kommunikatsiyada muhim o'rinni aniqlashtirishda aniqlashtiriladi.

tutishi, u orqali insonlar o'rtasidagi ijobjiy munosabatlar, hurmat va samimiylik qanday ifodalanishi yoritildi.

Kompliment nafaqat shaxsiy maqtov, balki murakkab ijtimoiy muloqot aktidir. Gapiruvchining niyati, muloqot konteksti va madaniy meyorlar asosida ifodalangan komplimentlar tinglovchi ustida ijobjiy psixologik ta'sir o'rnatadi, ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlaydi va muloqotni samarali tashkil

etadi. Xulosa qilib aytganda, nutqiy akt nazariyasi doirasida kompliment tushunchasini tahlil qilish orqali insonlar o'rtasidagi muloqot jarayonining murakkabligi va ko'p qirrali tabiatini aniq ko'rinadi. Bu esa tilshunoslik, pragmatika va ijtimoiy kommunikatsiya fanlari uchun yangi savollar va tadqiqot yo'nalishlarini ochib beradi.

#### ADABIYOTLAR

1. Austin, J.L. – How to Do Things with Words. NY: Vintage Books, New York, 1975, p. 13-27.
2. Dijk T.A. van. Studies in the pragmatics of discourse / Dijk T.A. van. – The Hague etc.: Mouton, 1981. – XII, 331p
3. Maslova. A.V 'Philology : History and the present.', MSU, Moscow, 2018, p. 4-15.
4. Norrick, N.R. 'The speech act of complimenting', The journal of Nordic Language and Modern Linguistics, Oslo, 1980, p. 99-120.
5. Searle, J.R. – Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language. Cambridge University Press, Cambridge, 1969, p. 56-90.
6. Trosborg, A. 'Interlanguage Pragmatics: Requests, Complaints and Apologies.', Berlin: Mouton de Gruyter, 1987, p.13-34.
7. Vanderveken, D., 'Introduction of Essays in Speech Act Theory.' John Benjamins Edition, London, 2001, pp. 1–21.
8. Васильева А. Н. Комплимент как средство речевой коммуникации. А. Н. Васильева. — М.: ПРИОР, 2004. — С. 247.



Pulatjon OMANOV,

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti dotsenti, PhD

E-mail: pulatomonov@gmail.com

PhD Sh.Akbarova taqrizi asosida

## JAMIyatda ikki tillilik va ko'p tillilik: KICHIK YOSHDAN SHAKLLANTIRISH, PSIXOLINGVISTIKA VA SOSIOLINGVISTIKA NUQTAI NAZARIDAN TAHLIL

Annotatsiya

Ushbu maqola jamiyatdagi ikki tillilik va ko'p tillilik fenomenlariga oid mavzuni tahlil qiladi. Ayniqsa, kichik yoshdan boshlab ikki tillilikni shakllantirish va rivojlantrish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Maqolada bilingvism va plurilingvizmning psixolingvistik, sosiolingvistik va pedagogik jihatlari o'rganiladi, shuningdek, bu fenomenlarning miya faoliyatiga ta'siri muhokama qilinadi. Bundan tashqari, ko'p tillilikning jamiyatdagi ahamiyati, uning talabalardagi kognitiv va lingvistik rivojlanishi, shuningdek, turli tillarning faol ishlashi jarayoni ko'rib chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** Globalashuv, ikki tillilik, ko'p tillilik, bilingvism, plurilingvism, psixolingvistika, sosiolingvistika, tillar va miya faoliyati, tillarni o'rganish, kognitiv rivojlanish, lingvistik rivojlanish, madaniyatlararo aloqa, kichik yoshda tillarni shakllantirish, zullisonaynlik qobiliyati, kognitiv rivojlanish, oilaviy ikki tillilik.

## ДВУЯЗЫЧИЕ И МНОГОЯЗЫЧИЕ В ОБЩЕСТВЕ: ФОРМИРОВАНИЕ С РАННЕГО ВОЗРАСТА, ПСИХОЛИНГВИСТИЧЕСКИЙ И СОЦИОЛИНГВИСТИЧЕСКИЙ ПОДХОДЫ

Annotation

Данная статья анализирует феномены двуязычия и многоязычия в обществе. Особое внимание уделяется вопросам формирования и развития двуязычия с раннего возраста. В статье рассматриваются психолингвистические, социолингвистические и педагогические аспекты билингвизма и плюрилингвизма, а также обсуждается влияние этих феноменов на деятельность мозга. Кроме того, исследуется значение многоязычия для общества, его влияние на когнитивное и лингвистическое развитие учащихся, а также процесс активного использования различных языков.

**Ключевые слова:** Глобализация, билингвизм, мультилингвизм, билингвизм, плюрилингвизм, психолингвистика, социолингвистика, языки и мозговая деятельность, изучение языков, когнитивное развитие, лингвистическое развитие, межкультурная коммуникация, формирование языков с раннего возраста, способность к билингвизму, когнитивное развитие, семейный билингвизм.

## BILINGUALISM AND MULTILINGUALISM IN SOCIETY: FORMATION FROM EARLY CHILDHOOD, PSYCHOLINGUISTIC AND SOCIOLINGUISTIC PERSPECTIVES

Annotation

This article analyzes the phenomena of bilingualism and multilingualism in society. Particular attention is paid to the formation and development of bilingualism from an early age. The article examines the psycholinguistic, sociolinguistic, and pedagogical aspects of bilingualism and multilingualism, and discusses their impact on brain function. Furthermore, it explores the societal importance of multilingualism, its influence on cognitive and linguistic development in students, and the process of active use of multiple languages.

**Key words:** Globalization, bilingualism, multilingualism, bilingualism, plurilingualism, psycholinguistics, sociolinguistics, languages and brain activity, language learning, cognitive development, linguistic development, intercultural communication, language formation in early childhood, bilingual ability, cognitive development, family bilingualism.

**Kirish.** Jamiyatda ikki tillilik, ikki tillilikni erta yoshdan shakllantirish va rivojlantrish muammolari, shaxsda bir nechta tillarning ishlashi jarayoni qanday kechishi, ko'p tillikning miya faoliyatiga ta'siri masalalari hali to'liq o'rganiqliganligi nafaqat tilshunoslik, balki pedagogika, psixologiya, sosiologiya, tillarni o'qitish sohasidagi tadqiqotchilarining ham e'tiborini tortib kelmoqda. Xususan, kichik yoshdagagi bolalar ikki tilliliginining muammolari nafaqat bilingualizm doirasida, balki sosiolingvistika, psixolingvistika, neyrolingvistika va chet tillarini o'qitish metodikasida ham o'ta muhim va dolzarb bo'lib, bu ikki tillilik - bilingvism, ko'p tillilik - plurilingualism hodisalarining tobora kengayib, tarmoq otib borayotgani va jamiyatda tobora muhim ahamiyat kasb etib borayotgani, bu masalalar bo'yicha tadqiqot ishlarini keng miqyosda olib borish zaurati yuzaga kelganini ko'rsatadi.

Ikki tillilik tarixan ancha qadimiy bo'lib, uning ildizlari ota-bobolarimizga borib taqaladi. Jumladan, bizning ko'hna yurtimiz sanalmish Movarounnahrda qadimdan o'zbek-fors, o'zbek-arab, o'zbek-qozoq, o'zbek-qirg'iz, o'zbek-turkman, o'zbek-uyg'ur, o'zbek-tatar ikki tilligi keng tarqalgan bo'lib, keyinchalik bular qatorida o'zbek-rus bilingvismi ham qo'shildi. Mintaqamizda ikki tillilik zullisonaynlik deb atalib, Al Forobiy, Al Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Az

Zamaxshariy, Mahmud Koshg'ariy kabi buyuk allomalarimiz o'z ona tillaridan tashqari arab, fors tillarini mukammal bilishgan. Buyuk mutafakkirimiz Alisher Navoiy va boshqa shoirlarimiz nafaqat turkiy tilda, balki fors-tojik tilida ham ijod qilgan. Sohibqiron Amir Temur va Mirzo Ulug'bek hukmronligi davrida davlat muassasalarida ish yuritish bir necha tilda olib borilgan. X asrda Xorazmda tashkil etilgan Ma'mun akademiyasida, XV asrda Samarcanddagi Ulug'bek madrasasida ta'lim arab va fors tillarida olib borilgan. Ajoddarimizdagi zullisonaynlik qobiliyati va bir nechta tillarni mukammal bilishga intilish ularga shu tillarda yaratilgan asarlarni o'qib-o'rganishlari uchun katta imkoniyat beragan.

Zullisonaynlik, ya'nii ikki tillilik an'anasi mintaqamizda hozirgi kunga qadar davom etib keladi va bugungi kunda respublikamizda nafaqat qardosh tillar, ya'nii o'zbek va boshqa turkiy tillar o'rtasida, balki turli tuzilishli noqardosh tillar, jumladan, o'zbek-tojik, o'zbek-rus tillari bilingvismi ham keng tarqalgan. Mamlakatimizda yashovchi 130 dan ortiq millatlarning ko'pchiligi turkiy tillarda va rus tilida so'zlashuvchilar bo'lgani bois respublikamizda umumiyligi o'rta ta'lim bosqichida ta'lim 7 tilda: o'zbek, rus, qoraqalpoq, qozoq, turkman, tojik va qirg'iz tillarida, o'rta maxsus va oliy ta'lim bosqichida ta'lim 2 tilda: o'zbek va rus tillarida, Qoraqalpog'iston Respublikasida esa

ta'lim qoraqalpoq, o'zbek va rus tillarida olib borilishi yo'lgan qo'yilgan. Respublikamizda yashovchi barcha millatlar o'zbek va rus tillarida erkin so'zlashadilar, turkiy tilli millatlar o'rtasida o'zbek-qozoq, o'zbek-qoraqalpoq, o'zbek-qirg'iz, o'zbek-turkman, o'zbek-uyg'ur, o'zbek-tatar, o'zbek-ozarbayjon bilingvismi, Samarqand, Buxoro shaharlari va bir qator viloyatlarda esa o'zbek-tojik bilingvizmi keng tarqalgan. Keyingi yillarda uzoq xorijiy tillar, xususan, ingliz, xitoy, coreys, arab kabi tillarni o'rganishga intilish kuchayib bormoqda va yoshlar o'rtasida o'zbek-ingliz, o'zbek-xitoy, o'zbek-coreys, o'zbek-arab bilingvalligi ham tarqalib bormoqda.

Til kontaktlari va bilingvizm masalalari tilshunoslikning psixolingvistika, sosiolingvistika sohalariga ham aloqador bo'lib, ushbu yo'nalihsdagi tadqiqotlarda chet tillarini kichik yoshdan boshlab o'rganish samarali kechishi ta'kidlanadi. O'zaro axborot almashish, ma'lumot, bilim olishda tilning nafaqat filolog, tilshunoslar, balki barcha kasb egalari orasida asosiy vosita bo'lib xizmat qilishi bugungi kunda xorijiy tillarni kichik yoshdan boshlab o'rgatish, yoshlarni ko'p tillilik muhitida turli tillarda erkin muloqot yurita olish faoliyatiga tayyorlab borishni davr ehtiyojiga aylantirdi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Ko'p tillilik bilingvuallikka nisbatan yosh jarayon bo'lib, bu sohaning faollashishi jahondagi globallahuv jarayoni bilan bog'liq. Bu o'rinda shuni qayd etish kerakki, ikki tillilik, odatda, kichik yoshdan ko'proq tabiiy muhitda yoki o'qish/o'rganish orqali rivojlanadi, ko'p tillilik esa katta yoshlilar orasida ko'pincha kasbiy-sohaviy ehtiyoj tufayli yuzaga keladi. Biror bir tilni boshqa millatlar vakillari bilan yaqin qo'shnichilik munosabatlari yoki xorijiy mamlakatlarda muayyan muddat yashash imkoniyati mavjudligi tufayli o'zaro aloqa-araleshuv munosabatlari orqali o'rganish til tabiiy muhitda o'zlashtirish hisoblanadi. Chet tillarni maxsus o'qitish orqali, masalan, maktabgacha ta'lim, umumiyy o'rta ta'lim, olyi ta'lim bosqichlarida o'rganish tilni o'qish/o'qitish orqali o'zlashtirish hisoblanadi. Bunda chet tillini shu fan mutaxassisasi sifatida o'rganish bilan chet tillini kasbiy-sohaviy fanlarga bog'lab o'rganish farqli bo'lib, birinchisi filologik yo'nalihsni, ikkinchisi nofilologik yo'nalihslarni yuzaga keltiradi. Filologik yo'nalihslarda, odatda, tarjimonlar, xorijiy tillar o'qituvchilarini tayyorlanadi va bugungi kunda globallahuv, dunyo xalqlari integratsiyasining kuchayishi, ijtimoiy-iqtisodiy, ilm-fan, madaniyat va sport sohalarida aloqalarning tobora kengayib borayotgani tufayli ushbu yo'nalihslarning dolzarbliji va amaliy ahamiyati borgan sari ortib bormoqda va ko'plab tadqiqotlarning yuzaga kelishiga yo'l ochmoqda. Xususan, ikki tillilikda og'zaki bo'lmagan xatti-harakatlar va og'zaki bo'lmagan muloqot [1], ikki tillilikni kichik yoshdan rivojlanirishda individual xususiyatlar va bolalar til qobiliyatlarining roli [2], ikki tillilik va bikulturalizm o'rtasidagi munosabatlari [3], madaniyatlararo muloqotda ikki tilli bolalarning xulq-atvori [4], bir vaqtning o'zida ikki tilda o'qishni o'rganish, ikki tilda yozma nutqni rivojlanirish [5], spontan tarjima va tillararo ekvivalentlar, ikki tillilik tipologiyalarini ishlab chiqish va yangi turlarini aniqlash [6], ikki tillilikning jadal rivojlanishi masalalari [7] shular jumladandir. Bu o'rinda ikki tilda so'zlashuvchilarining psixologik va kognitiv rivojlanishi masalasi ham o'ta muhim bo'lib, keyingi yillarda ilmiy hamjamiyatning e'tibori bilingvlarining intellektual qobiliyatlarini va ularning lingvopsixologik hamda kognitiv rivojlanish darajasini aniqlash va baholash masalasiga ham qaratilmoqda.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ta'kidlash kerakki, ko'p tillilikni filologik yo'nalihsdan ham ko'ra nofilologik yo'nalihslarda amaliy ahamiyatiligi bugungi kunda isbot tilab qilmaydigan haqiqatga aylandi va nofilologik OTMlarda sohaviy til fanlarining yuzaga kelishiga olib keldi. Bu esa aynan shu sohaviy til fanlarini o'qitadigan kasbiy-sohaviy va til bilimiga ega mutaxassisi yetishtirish uchun maxsus pedagoglarni tayyorlash masalasini bugungi kunning eng muhim va dolzarb muammosiga aylantirdi.

Bilingvizm jamiyat rivojlanishining muhim sosiolingvistik omili sifatida hozirgi vaqtida nafaqat ta'lim jarayonini tashkil etishda, balki u jamiyat hayotining siyosiy, ijtimoiy va madaniy sohalarida ham faol rol o'yanoqda. Shu bois bugungi kunda xalqaro (ingliz) tilni bilish meyoriga

qo'yiladigan talablar ham biroz o'zgardi, amaliy islohatlar har qanday jamiyat shaxsining oldiga chet tillarini bilish va o'rganishdek muhim vazifalarni ham yuklamoqda. Bu oilaviy ikki tillilik hodisasini yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Oilaviy ikki tillilik asosan ikki etnik jamaoa vakillari bir aholi bo'lib yashaydigan xududlarda, ayniqsa, er va xotin ikki millatga mansub oilalarda ko'p yuzaga keladi. Bunday oila farzandlari bolaligidan tabiiy vaziyatda ham ota, ham ona mansub bo'lgan etnik jamaoning tilini o'zlashtirishga majburdirlar.

**Tahlil va natijalar.** Oilaviy ikki tillilik dunyoning barcha mamlakatlarida, aniqrog'i, qayerda ikki millat vakili yashayotgan bo'lsa, o'sha yerda, albatta, keng tarqalgan bo'ladi. Oilaviy ikki tillilik sharoitida o'sgan farzandlar kelajakda ko'p tillarni biluvchi poliglotlar bo'lib yetishib chiqadilar, chunki oilaning o'zidagi tabiy shart-sharoit bunga katta imkoniyat yaratadi. Buni respublikamiz misolida ko'radigan bo'Isak, O'zbekistonning qaysi viloyat yoki tumanini olmang, ularning barchasida ikki tilli oila mavjud. Bu ikki tillilik o'sha hududning etnik tarkibiga ko'ra, har xil bo'lishi mumkin. Samarqand shahrining mahalliy aholisi o'zbek va tojiklardan iborat. U yerda albatta ikki tillilik hukumron. Bunday oilalarda, shak-shubhasiz, tojik va o'zbek yoki o'zbek va tojik ikki tilliligi rivoj topgan. Buxoroning ko'pgina tumanlarida turkman va tojik millatiga mansub aholi yashaydi. U yerda turkman-tojik yoxud tojik-turkman yoki o'zbek oilalarining bo'lishi aniq. Toshkent viloyatining ko'pgina tumanlarida ham bunday yashash tarzini kuzatish mumkin. Shunga muvofig, bu tumanlarda tojik va turkman, turkman va o'zbek, o'zbek va tojik, o'zbek va qozoq ikki tilliligi tashkil topgan. Bular oilalarining ham, ikki tillilikning ham o'z tarixiga ega bo'lgan «mahalliy» shakllariga kiradi.

Ikki tilli oilalarining «mahalliy bo'lmagan» ko'rinishlari ham mayjud, ular ham mamlakatimizning ko'pgina shaharlarda uchraydi. Ayniqsa, markaziy shaharlarda oila tojik va o'zbek, tojik va rus, tojik va tatar, tojik va ukrain ko'rinishidagi har xil etnik jamaalgarda mansub shaxslardan tarkib topgan oilalar bo'lishi mumkin. Shu asosda ikki tillilikning ham «mahalliy bo'lmagan» har xil shakllari mavjud bo'ladi. Bu turdag'i va yuqorida ko'rib chiqilgan norasmiy ikki tillilikni ilm-fanga bog'liq blingvizmdan farqlashimiz va ikki etnik oila asosiga qurilgan ikki tillilikni tabiiy ravishda kelgan ikki tillilik, deb atashimiz to'g'ri bo'ladi.

Har xil til jamoasi vakillaridan tarkib topgan oilda shakllanuvchi tabiiy ikki tillilik bilan bir qatorda, situativ ikki tillilik deb nomlanuvchi shakli ham mavjud [8]. Situativ ikki tillilik dunyoning ko'p millatli barcha mamlakatlarida uchraydi. Har bir mamlakatning asosiy aholisi tili davlat maqomi bilan imtiyozga ega bo'ladi. Masalan, O'zbekistonda mamlakatning asosiy aholisi o'zbeklardir. Bundan tashqari, tojik, qirg'iz, rus va boshqa millatlar ham bu mamlakatda yashaydi. O'zbek bo'lmagan abolining o'zbek tilini bilishi shu mamlakatda amal qiluvchi situativ ikki tillilikka kiradi.

**Xulosa va takliflar.** Jamiyatda ikki tillilik va ko'p tillilik fenomenlari insonning psixolingvistik, sosiolingvistik va kognitiv rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Ma'lumotlar va til bilan aloqa qilish qobiliyatlarini insonlar kasbiy va ijtimoiy hayotidagi roliga ko'p jihatdan ta'sir ko'rsatadi. O'zbekistondagi ikki tilli oilalar va turli tillar orasidagi muloqot mahalliy va "mahalliy bo'lmagan" ikki tillilik shakllarining ko'payishi, jamiyatning ko'p tilli muhitdagi rivojlanishini ko'rsatadi. Ayniqsa, globalashuv va madaniyatlararo aloqa tufayli ko'p tillilikning ahamiyati yanada ortib bormoqda. Bilingvizm va ko'p tillikni tadqiqni yanada chuqurlashtirish borasida psixolingvistika, sosiolingvistika, neyrolingvistika kabi yo'nalihslarda tadqiqotlarni kengaytirish va mavjud tadqiqotlarni yangilash talab etiladi. Kichik yoshdan tillarni o'rganishni rag'battalnirishda maktabgacha ta'limdan boshlab, bolalarga tillarni o'rganish imkoniyatlarini ko'paytirish, shuningdek, chet tillarni ta'limda samarali o'rganish usullarini ishlab chiqish lozim. Oilaviy ikki tillilik va uning rivojimi qo'llab-quvvatlashda eng muhimi – oildagini til muhitini va uning ta'sirini tahlil qilish va yoshlarni ko'p tilli muhitda tarbiyalashni rag'battalnirish maqsadga muvofig hisoblanadi. Tillar o'rtasidagi o'zaro ta'siri va ularning kognitiv rivojlanishga ta'sirini chuqurroq tadqiq qilish bu borada yaxshi natijalarga olib keladi. Mamlakatdagi barcha

tillarning qo'llanishlighiga munosib muhit yaratish, turli tillarni o'rghanish va insonlarning ish faoliyatida qo'llash uchun shart-

sharoitlar yaratish, bu orqali jamiyatda tillararo barqarorlikni ta'minlashga alohida e'tibor qaratilish lozim.

#### **ADABIYOTLAR**

1. Alexandrova, N.Sh. 2023. "The Disappearance of Languages and Natural Bilingualism". Polylinguality and Transcultural Practices, 20 (3), 436–455. <https://doi.org/10.22363/2312-8127-20-3-436-455>. Friederici, A. D. (2014). The brain's language: From sounds to meaning. In the Cognitive Neurosciences (5th ed., pp. 1075-1096). Cambridge, MA: MIT Press. Klein, R. M. (2015). Is there a benefit of bilingualism for executive functioning? Bilingualism and Cognition, 18(1), 29–31
2. Collier, V. P. (2000). Making the most of bilingualism: Strategies for teaching language and learning. Bilingual Research Journal, 24(1), 1-27.
3. Burkhardt Montanari, E. (2000). Wie Kinder mehr-sprachig aufwachsen: Ein Ratgeber [How children grow up multilingual: A guide]. (1st ed.). Brandes und Apsel.
4. Bialystok, E. (2017). Bilingualism in development. Cambridge University Press.
5. Протасова 2004 — Протасова Е. Ю. Психолингвистические и педагогические аспекты детского двуязычия: научное издание, предварительная публикация. М: Дошкольное детство, 2004. 72 с.
6. Чиршева, Г. Н. (2012). Детский билингвизм. Одновременное усвоение двух языков [Child bilingualism. Simultaneous acquisition of two languages]. Moscow: Zlatooust.
7. Протасова, Е.Ю. Двуязычные дошкольные учреждения: организация работы / Е.Ю. Протасова// Дошкольное воспитание. - 2003. - № 3. - С. 17-21.
8. Qurbanov, A. (2020). Социолингвистика: Ўзбекистон контекстида. [Sociolinguistics: In the context of Uzbekistan.] Tashkent: National University of Uzbekistan Press.



**Mafstuna OCHILOVA,**

Navoiy innovatsiyalar universiteti, PhD

E-mail: [maftunshuxrat@mail.ru](mailto:maftunshuxrat@mail.ru)

PhD Z. Quvonov taqrizi asosida

### ALISHER NAVOIYNING "LAYLI VA MAJNUN" VA "LISON UT-TAYR" ASARLARIDA SABR TALQINI

#### Annotatsiya

Maqolada Alisher Navoiyning "Layli va Majnun" va "Lison ut-tayr" dostonlarida "sabr" tushunchasining talqini yoritilgan. Shuningdek, yuqorida ikki asardan parchalar keltirilgan va adabiy-badiiy, ilmiy tahlil qilingan. Ta'kidlanishicha, "Layli va Majnun" dostonida ishq uchun yaralgaligini anglagan qahramonlar o'zgalgarda sabr tilashni burchi deb biladi. "Lison ut-tayr" dostonida esa, qushlar yetti vodiyini bosib Alloh jamoliga erishish azob-uqubatni yengish uchun sabr-qanoatli bo'lib o'zlarini istagan maqsadga – Alloh jamoliga erishadilar.

**Kalit so'zlar:** "Layli va Majnun", "Lison ut-tayr", sabr, obraz, ruh, hayot, olam, borliq, ishq, fano.

### ТОЛКОВАНИЕ САБРА В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ АЛИШЕРА НАВОИ "ЛЕЙЛИ И МЕДЖНУН" И "ЛИСОН УТ-ТАЙР"

#### Аннотация

В статье освещается трактовка понятия "терпение" в эпосах Алишера Навои "Лейли и Меджнун" и "Лисон ут-тайр". Также приводятся выдержки из двух вышеперечисленных произведений и проводится литературно-художественный, научный анализ. Утверждается, что в эпосе "Лейли и Меджнун" герои, осознавшие, что они созданы для романтики, считают своим долгом пожелать другим терпения. А в эпосе "Лисон ут-тайр" птицы, покорив семь долин, терпеливо преодолевая страдания, достигают желаемой цели-Аллаха.

**Ключевые слова:** "Лейли и Меджнун", "Лисон ут-тайр", терпение, образ, душа, жизнь, вселенная, бытие, роман, фано.

### INTERPRETATION OF PATIENCE IN ALISHER NAWAI'S "LAYLI AND MAJNUN" AND "LISON UT-TAYR"

#### Annotation

The article covers the interpretation of the concept of "patience" in Alisher Nawai's epics "Layli and Majnun" and "Lison ut-tayr". Excerpts from the above two works are also cited and a literary-artistic, scientific analysis is carried out. According to tradition, in the epic "Layly and Majnum", the heroes, realizing that they were wounded for ishq, consider it their duty to wish patience to others. In the epic "Lison ut-tayr", the birds reach the goal of Allah, which they desire, with patience, to overcome the suffering of the conquest of the seven valleys.

**Key words:** "Layli and Majnun", "Lison ut-tayr", patience, image, spirit, life, universe, being, work, fano.

**Kirish.** Hazrat Navoiyning "Layli va Majnun" dostoni Sharq xalqlari orasida qadimdan mavjud bo'lgan rivoyat, qissalar asosida yaratilgan asardir. Ushbu dostondag'i muhabbat mustaqillik yillariga qadar ilohiy muhabbatni emas, asosan insoniy muhabbatni aks ettirganligi bir yoqlama g'oya talqin qilingan:

Har dam urar edi zulfdek pech,  
Og'zi kibi sabri yo'q edi hech [1].

Dostondag'i mazkun misralar Majnunning ruhiy holatidagi kechinmalar tamomila tasavvufiy ma'noga egaligini ko'rsatadi. Shuni ta'kidlab o'tish joizki, Navoiy dostonining bosh qahramonlari bo'l mish Layli va Majnunni haqiqiy ishq uchun tug'ilganligini, Ollo ishqiga tuyassar bo'lish yo'lidagi solikning kechinmalari va azob-uqubatlarni yozishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Majnunning qismati xususida I.Haqqul yozadi: "Majnunning "o'z maqsadlariga erishish yo'li" jangavor kurashchanlik emas, kamolot yo'li. Uning dushmani – zolim nafs. Navoiy aytmoqchi, to'qaydagi sherni yengishdan ko'ra nafs itini mag'lub qilishni u zo'rlik deb biladi. Shu kurashda Majnun sobit va izchidir. Majnun na jamiyat, na zamon va muhit qarshisida taslim bo'lgan. Chunki u o'zligi oldida taslim emas edi. Majnun Layliga yozgan maktubida "Yo'qlik menga gar bo'lub turur yo'l. Sen bor bo'lu bu yo'qqa yor o'l", deydi. Bu – fanolik yo'li. Fanolik esa, ishq haqiqiyining so'nggi bosqichi. Bu bosqichga ko'tarilgan oshiq ruh qushini o'zlik qafasidan butunlay xalos qilib, boqiy hurnikka erishadi" [2].

Oshiq-ma'shuqlarning harakatlarini adabiyotshunos N.Komilov quyidagicha izohlaydi: "Ishq otashida yonish, kimyoolanish Majnun uchun qismat. Navoiy shu qismatga mutbalo solikning sarguzashtini hikoya etadi, o'zi ham yonib – sel bo'lib kuylaydi" [3].

"Majnun – solik, ammo u oddiy solik emas, balki "majzub" – oshiq solik. Shuning uchun uning ustoziga ham, piri ham ishq, shu bois u dardini nihon tutmaydi, rosmana xilvat-nishin soliklarday sabr-u qanoatli, batamkin, taqvodor emas. Bu sıfatlar oshiqqa xos emas-da! Oshiq, to vaslga yetmaguncha toqatsizlanaveradi, uni hech narsa to'xtatib turolmaydi. Majnun yuz xil azob-u uqubat, kamsitish-xo'rliklarga chidaydi-yu, biroq hijron dardiga toqat qilolmaydi" [3, 69-bet].

**Tadqiqot metodologiyasi.** "Layli va Majnun" va "lison ut-tayr" asarlarida sabr talqini uchun statistik tadqiqot, adabiyotlar qiyosiy tahlili va farazni asoslash usullaridan foydalilanilgan. To'plangan ma'lumotlar asosida kuzatish tahlilni qiyoslash, mantiqi yondashuv kabi uslublardan samarali foydalaniildi.

**Tahlil va natijalar.** Dostonning XVIII bobida Laylining otasi qizini Ibn Salomga berishga roziligi bayon etiladi. Garchi qabila boshlig'i qizini berishga rozi bo'lsa ham, lekin uning yoshligini inobatga olgan holda sabr qilish kerakligini aytdi:

Lekin anga sabr ham kerakdur,

Kim, shoxi gulim shikastarakdur [1].

Shikastarakdur – siniq, majruh ma'nosini bildiradi. Ikkinchisi misradagi "gulimning shoxi siniqdur" deganda otasi Laylining ko'nglidan dardlari ketib sog'ayishini nazarda tutgan.

Laylini tushida ko'rgan Majnun uning mahzun holidan hayratda. Oy-u kunning rashkini keltiruvchi Laylining bor sabrini ko'z yoshi sel qilib oqizib yuborgan.

Sabrini oqizg'on ashki seli,

Ya'ni mahu mehr rashki Layli [1].

Farzandni dunyoga keltirigan, tarbiyalagan ota-onasi, albatta, uning baxt-saodatini ko'rishni xohlaydi. Shu jumladan, Majnunning otasi ham shunday otalardan biri. U o'g'lini bu yo'ldan qaytarishga urinib, nasihatlar qiladi:

Yuz yil kishi umr agar tilar bil,

Kim, sabr kerakdir anga yuz yil[1].

Agar yuz yoshta kirmoqni tilasa, unga yuz yil sabr kerakdir. Majnun otasining ushbu gaplaridan qattiq ta'sirlanadi:

Har sabrki seni topib nihoni

Ashkim seli oqizib oni[1].

Otasi o'ylagan sabrni uning nasihatlari ta'sirida Majnunning ko'z-yoshlarini selida oqizib ketadi. Majnun otasini tanimaganligi, bu ishlarning barchasiga ishq sababchi ekanligini, uning so'zlarini ko'zini ochganligini aytib uzrlar so'raydi va xonadoniga qaytadi.

Dostonda Majnunning yana uyini tark etish holatlari tasviriga ko'z yogurtirgan kitobxon qahramon tabiatini irodasiz, toqatsiz deb o'yashi mumkin.

Dostonning o'ttizinch bobida Majnunning Navfal qiziga uylantirish voqeasi hikoya qilinadi. Tunda qiz o'zining sevgani borligini Majnunga aytar ekan, unga chin izhori dilni, ya'ni sabr-toqat ila Layli visoliga yetishishiga tilak bildiradi:

Ham hajringda o'lmog'ay shikibing,

Ham vaslini aylagay nasibing[1].

Xuddi shunga o'xhash fikrni dostonning o'ttiz beshinch bobida ham uchratamiz. Unga Laylining onasi bilan vidolashuv holati aks etgan:

To mumkin o'zungga sabr yor et,

Taskinu shikib ixtiyor et.

Tengri sanga sabr yor qilsun,

Xayling uza poydor qilsun[1].

Layli o'limi oldidagi vidolashuvida onasiga sabrli bo'lishini bot-bot uqtiradi. Ollohdan unga sabrli, qabilasi boshiga omon bo'lishini so'raydi.

Layli va Majnun vafot etishdi. Lekin bu o'lim ular uchun jisman o'lish, haqqa yetishish yo'lidagi bir oliy darajadagi mukofot demak. Ularning sevgisi faqat va faqat Olloh ishqini kuylaydi. Hali matab yoshiba endigina yetgan bolalar bog'da uchrashganda Majnunda ilohiy ishq kuchi namoyon bo'ladi va butun vujudini haq ishq egallab hushidan ketadi. Bu ishq insoniy bo'lganda edi. N.Komilov ta'kidlaganidek balog'at davrida 14-16 yoshlarda yuzaga chiqar edi[3].

Layli va Majnun dostonida yetti o'rinda sabr so'zi tilga olingan bo'lib, biz ularni o'n bir, o'n sakkiz, yigirma uch, o'ttiz, o'ttiz beshinch boblarda ko'rishimiz mumkin. Ushbu sabrлarni Hazrat Navoiy bir o'rinda qahramonlar ruhiy holatini so'fiyona tarzda talqin etsa, bir o'rinda qahramonlari tilida kitobxonlarga nasihatlar tarzida sabrli bo'lishga chorlaydi. Biz Majnunning otasi nutqida o'g'liga nasihatlarida, Laylining so'nggi vasiyatlarida bunga amin bo'lamic. Rojij Ho'qandiy:

Sabr qilmoq birla qil o'zni to'kus,

Boshga tushganin tortadur, albatta, ko'z[4].

deganda har qanday mushkul holatda ham sabrli bo'lishni, sabr bilan to'kin bo'lishga undaydi. Inson umri davomida uning taqdir bitigida ertangi kunga nima yozilganligini also bilolmaydi. O'zlarining ishq uchun yaralganligini anglagan qahramonlar o'zgalarga sabr tilashni burchi deb biladi. Yaxshi va yomon kunlarda insonga faqat va faqat sabr lozim.

Alisher Navoiy o'zining mashhur asari bo'lmish "Lison ut-tayr"da sabrga juda ko'p o'rirlarda alohida urg'u berib o'tadi. Asarning butun mazmun-mohiyati sabr asosiga qurilgan desak, also mubolag'a bo'lmaydi. Navoiy islam falsafasi dengiziga tasavvuf daryosiga naqshbandiya irmog'i orqali suzayotgan bir kema yanglig' ijod etdi, shuning uchun bobokalonimiz umr bo'yini ana shu o'ziga eng yaqin irmoq suvlariidan ko'p ichgan[5]. Uning mashhur falsafiy dostoni bo'lmish "Lison ut-tayr"da tasavvuf ta'limotining yorqin namunasini ko'rishimiz mumkin. Chunki qushlar yetti vodiyni bosib Alloh jamoliga erishish uchun qanchadan-qancha mashaqqatga duch keladi. Bu azob-uqbabtni yengish uchun ularda, avvalo, sabr-qanoat mujassam bo'lishi kerak. Shundagina ular o'zlarini istagan maqsadga – Alloh jamoliga erishadilar:

Bu safarda ranjlardur ta'miya,

Ko'nglingizga etsa ondin tavsiya[6, 44-bet].

Qushlar safar paytida ranj-u alam, jabr-u sitam, turfa kulfat-u ofatlarga ro'baro' bo'lishadi. Ammo ularning barchasida ham sabr-toqat, matonat kuchli emas edi. Bu qusuri tufayli ularga bu manzil malol kela boshlaydi:

Bo'ldilar yo'l ranjidin farsudahol,

Har biriga qo'ydi yuz behad malol[6].

Asarda safar qiyinchiliklariga chiday olmagan qushlar yo'lboshlovchi Hudhudga o'z uzurlarini ayta boshlaydi. Bulbul guldan uzoqda sabr unga begona bo'lgani, ko'nglini ham, jonini ham hatto butun borlig'ini ham gulning ishq egallaganini aytadi. Ko'nglida boshqa ishq bo'la turib, Allohga oshiqlik da'vo qilolmasligini bildiradi. Alloh vasliga yetmoq uchun komillikka erishgan bo'lmog'i lozim. Komillikka erishishning asosiy sharti sabrdir:

Dedi Bulbul: "K-ey bu majma'ga dalil

Men bo'libmen gul havosidin zalil.

Oydin oyru oshiq-u devonamen,

Aql hush-u sabrdirin begonamen.

Onsizin yo'q sabr ila toqat manga,

Qayda yoro, chekkali furqat manga[6].

"Lison ut-tayr"da keltirilgan quyidagi hikoyatda sabrsizlik qoralanadi. Unda bayon qilinishicha, bir pahlavon chohgohda va kechqurun uy tomondan ovqat yeb, hatto mast filga ham shikast yetkaza oladi. Mamlakatda xarobalik yuz berib, aholi o'z yerlarini tashlab ketishga majbur bo'ladi. Taom yemagan pahlavon safarning uchinchi kuni biyobonda jon taslim qiladi. Yosh bolalar va hatto ikki bukilgan qariyalar ham sabr-toqat bilan obod manzilga yetib kelib, maqsadlariga erishadi:

Qat' etib yo'lni yoyoq atfol ham,

Har taraf ikki bukulg'on zol ham[6].

"Lison ut-tayr"ning Shayx San'onga bag'ishlangan hikoyatida ham sabr haqidagi mulohazalarini ko'ramiz. Unda Shayx San'on bir tushni qayta-qayta ko'radi va sabr-u qarori tugaydi. Uning dardiga chora, bag'ri porasiga davo beradigan – bu sabrdir.

Necha tun bir tush anga ko'rguzdilar,

Rishtai sabr-u qarorin uzdilar[6].

Shayxing butun borlig'ini, aqli-u hushini ilohiy ishq egallaydi. Bu holatni shoir quyidagi misralarda mahorat bilan tasvirlaydi:

Shayx jismidin borib ul yerda tob,

Ko'nglini betoqat aylab istirob[6].

Shayx San'on ilohiy ishq kuyida aql-u hushidan ayrilgan g'arib devona holatiga tushadi. Uning dardiga malham bo'ladijan, ishq o'tidan kuygan bag'ri porasiga davo beradigan, bunday damda unga madad beradigan narsa faqat – sabr:

Men g'arib-u oshiq devonaman,

Hushu aql-u sabrdirin begonaman[6].

"Lison ut-tayr"dag yana bir hikoyatda sabr talqini uchraydi. Unda aytishichcha, haj sari ketayotgan Asma'iy (mashhur arab tilshunos olimi, to'liq ismi Abu Said Abdumalik) hordiq chiqargani chashma boshida o'tirganda u yerda quyidagi xatga ko'zi tushdi:

Kimsha bo'lsa shiq zori naylasun?

Bo'lmasa sabr-u qarori naylasun? [6]

Asma'iy qo'liga qalam olib davot olib, bu xat tagiga shunday deb yozdi:

"Kim bu varta ichra istak poklik,

Qilmasin fosh etkoli beboklik" [6].

Ya'ni, "Kimki, bu halokatlgi girdobga tushib, undan pok chiqmoqchi bo'lsa, o'zi tushgan yo'ldan qo'rmasin". Ushbu so'zlar zamirida ham sabrga ishora mavjud. Chunki har bir xayrli ishning oxirgi nuqtasiga sabr orqali erishiladi. Yo'lovchi bu fikrlarni yozib ketgach, ertasi yana o'sha manzilga kelib, ushbu so'zlarini ko'radi:

Lek ul shavqi muhabbat shiddati –

Tez o'lib, toq o'lsa oning toqati[6].

Ya'ni, "Agar joni ozor chekkan oshiq o'zi pok bo'lsa-yu, yana ishqini yashirin saqlasa, lekin uning qalbidagi muhabbatning shiddati tez bo'lib, uning toqati toq bo'lsa hamda vaslga ehtiyoj sezsa, u paytda nima qilsin? Agar bu ishning ilojini topmasa naylasun?"

Asma'iy yana quyidagi so'zlarini toshga bitadi.

Foniyo, ishq ichra foniyo bo'yla bo'l,

Bo'lmasa sabr-u shikebing, bo'yla o'l[6].

"Ey Foniyo! Ishq ichra foniyo bo'lish yo'li ana shunday bo'ladi. Agar sabr-u toqating tugagan bo'lsa, xuddi shu kabi jon taslim qil". Mazkur misralarda sabr, shikeb kabi sinonim so'zlar qator kelib, ma'no kuchaytirish va badiiy barkamollikkta

erishishga vosita vazifasini o'tagan. Shu bilan tasvir tiniqligini ham ta'minlashga xizmat qilgan. Shikib – Sabr, chidam, to'zim; o'z-o'ziga shikib bermak – o'z-o'ziga sabr bermoq; Beshikib – Sabrsiz; toqatsiz; sarosima; Noshikib –Besabr. Shikibo – Sabrli, chidamli. Shikibolig' – Sabrlilik, chidamlilik[7].

"Lison ut-tayr"da keltirilgan quyidagi hikoyatda ham sabrning yuksak namunasini ko'rishimiz mumkin. Unda jahonni zabit etgan bir podshohning husnda tengi yo'q go'zal qizi haqidada so'z boradi. Davron ichra toq bo'lgan go'zal qizning ishqida necha davlatmand kishilar, taxt egalari yonib ado bo'lsalar-da, ammo visol hech birlariga nasib etmaydi.

Bir kecha qizning tushiga go'zal bir yigit kirib, uning ko'ngliga g'ulg'ula soldi. Kecha-yu kunduz oromi yo'qolib, ishqning asiriga aylandi. Ko'ngil mulkidan sabr-u qarori ketdi:

Ittifoqo bir kecha tush ko'rdi ul,  
Paykarekim toqatig'a urdi yo'l[6].

Usbhu misralarda ham sabr va shikeb sinonim so'zlarini bir o'rinda qo'ilangan. Bu so'zlar doston tilining jozibadorligini oshirishga, fikrni bo'rttirib ifodalashga, qahramonlar qiyofasini yorqin tasvirlashga, shooring munosabatini yorqin bo'yoolqlarda ifodalashga xizmat qilgan. Ishq o'tida dili pora go'zal qiz holati tasvirida bu so'zlar yaqqol ko'zga tashlanadi. Hajr dardida oshuftahol qiz ko'ngliga taskin berish uchun sabr-toqatlari bo'lish istagi quyidagicha tasvirlanadi:

Har taraf boqib ko'ngil taskinig'a,  
Yo'l tilab sabr-u shikeb oyinig'a [6].

Ana shu kunlarning birida shoh xizmatkorlari orasida tushda ko'rgan yigitga nogahon ko'zi tushadi. Ko'ngli ishq o'tiga nishon bo'lgan qizning majruh tanasiga ham hajr rahna sola boshladi. Unda xush ham, sabr ham qolmadi, o'zi ham ular bilan birga ketdi:

Hushu sabri qolmadi o'z holida,  
O'zi ham bordi alar dunbolidi[6].

Qizning g'ami tobora kuchayib bormoqda, chunki ishqini oshkor qilsa, otasini benomus qilishi mumkin. Shunday ulug' shohning benomus bo'lishiga qizning o'zi ham toqat qila olmaydi:

Shahni benomusliqqa toqatim –  
Yo'q uchun bu ishda ortar shiddatim[6].

Oy yuzli dilbar ishq to'fonida beqaror bo'ldi. U o'z dardiga chora topishga kirishdi. Chunki uning ishqini yashirib bo'lmaydigan darajaga yetgan edi. Uning shodlik va g'amli damlalar doimiy hamdamni bo'ladigan ikki yaqin mahrami bor edi. Ular har ishning chorasini topishga juda usta edilar. Qizlarning har ikkalasi ham ajoyib san'atkor va sehrgar edi. Hatto ishq bilan jang qilishga ham yarar edilar:

Har biriga reva afsunu fireb,  
Ishq birla jang qilguncha shikeb[6].

Qizning ko'nglida vaslga umid paydo qilib, sabr va chiqamli bo'lishni uqtiradilar:

Sen shikebo bo'l, ham bir necha kun –  
Har doim ohu nola birla chekma un[6].

Parivash vaslga umid paydo qilib, sabr va chidamli bo'lishga ahd qildi. Chunki undan boshqa chorasi ham yo'q edi.

Vaslga chun bo'ldi ummedi husul,  
Mahvash sabru shikeb anglab qabul [6].

Ko'ngliga sabrli bo'lishdek ezgu amalni jo qilishni istagan go'zal bu otashin tuyg'u qarshisida toqatim yetarmikan, degan shubhalar girdobiga ham g'arq bo'ladi. Allohdan bunday o'tli ishqni hech kimsaga nasib etmaslikni tilaydi:

Gar desam xomush o'lay, toqatmu bor,  
O'zni zabit aylay desam, quvvatmu bor! [6]

"Lison ut-tayr"da qushlar tanlagan mashaqqatli yo'l nihoyatda sabr-bardoshli bo'lishni talab qilardi. Chunki komillik solikdan birinchi navbatda sabrning oily darajadagi ko'rinishini talab qiladi:

Ne ucharg'a yor o'lub quvvatlari,  
Ne qo'narg'a dard aro toqatlar [6].

**Xulosa.** Hazrat Navoiy dostonlarini o'qish, o'rganish asosida shoir ilgari surgan insoniy xislatlarning oily darajalaridan biri bo'lmish sabrni har jihatdan o'rganish va tahlil qilish shoir asarlarining tub mohiyatini anglashga, ulug' shoir ijodidagi yangi-qirralarni kashf etishda juda katta ahamiyat kasb etadi.

## ADABIYOTLAR

1. Alisher Navoiy. Layli va Majnun. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006. –B. 358.
2. Ibrohim Haqqul. «Tasavvuf va she'riyat» Toshkent, 1991.–B. 254.
3. Komilov N. Tasavvuf. – Toshkent: "Movarounnahr", 2009. –B. 198.
4. Tafakkur durdonalari. Vatandosh allomalarimizning hikmatli fikrlari. –Toshkent, 2012. –B. 258.
5. Sultonmurod Olim. Naqshband va Navoiy –Toshkent: "O'qituvchi", 1996.-B-198.
6. Alisher Navoiy. Lison ut-tayr. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 1991. – B-298.
7. Alisher Navoiy asarlari lug'ati. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1972 . –B. 696



Nasir RADJABOV,

O'zbekiston Resp. Oriental universiteti professori v.b., filologiya fanlari doktori

E-mail: nasirnasimovich@mail.ru

Φ.φ.δ., DSc S.Hoshimova taqrizi asosida

## FACTORS OF INTERFERENCE IN THE PHONEMIC SYSTEM OF LANGUAGE

### Annotation

This article is dedicated to the topic "Factors of Interference in the Phonemic System of Language," where it thoroughly analyzes the various factors of phonemic interference and their impact on the phonemic system. The article examines the articulatory-acoustic, perceptual, phonological, morphonological, phonostylistic, graphemic, orthographic, and orthoepic aspects of phonemes. Additionally, the article discusses the specific significance of each of these aspects in pronunciation and how they manifest as interference. The interconnections between different aspects of phonemes are explained with theoretically grounded examples. In the conclusion, the article highlights that the articulatory-acoustic, perceptual, phonological, morphonological, phonostylistic, graphemic, orthographic, and orthoepic peculiarities of phonemes characteristic of different languages are the main interference factors encountered in the phonemic system of language, which play a crucial role in the perfection of pronunciation.

**Key words:** Phoneme, articulation, acoustic, perceptual, phonological, morphonological, phonostylistic, graphemic, orthographic, orthoepic.

## TILNING FONEMIK TIZIMIDA INTERFERENSIYA OMILLARI

### Annotatsiya

Maqola "Tilning fonemik tizimida interferensiya omillari" mavzusiga bag'ishlangan bo'lib, unda fonemalar interferensiyaning turli omillari va ularning fonemik tizimga ta'siri chuqur tahlil qilingan. Maqolada fonemaning artikulyatsion-akustik, perseptiv, fonologik, morfonologik, fonostilistik, grafemik, orfografik va orfoepik jihatlari alohida tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada yuqorida qayd etilgan har bir jihatning talaffuzdag'i o'ziga xos ahamiyati, ularning interferensiya tarzida namoyon bo'lishi batafsil yoritilgan. Fonemaning turli jihatlari o'tasidagi o'zarbo'liqlik nazariyi jihatdan asosli misollar bilan izohlangan. Maqola so'nggida, turli tillarning tovush tizimiga xos fonemalarning artikulyatsion-akustik, perseptiv, fonologik, morfonologik, fonostilistik, grafemik, orfografik va orfoepik jihatlaridagi o'ziga xosliklar tilning fonemik tizimida uchraydigan asosiy interferensiya omillari bo'lib, ular talaffuzning mukammal bo'lishiда muhim ahamiyat kasb etadi, deb xulosa qilingan.

**Kalit so'zlar:** Fonema, artikulyatsiya, akustik, perseptiv, fonologik, morfonologik, fonostilistik, grafemik, orfografik, orfoepik.

## ФАКТОРЫ ИНТЕРФЕРЕНЦИИ В ФОНЕМНОЙ СИСТЕМЕ ЯЗЫКА

### Аннотация

Данная статья посвящена теме «Факторы интерференции в фонемной системе языка», в которой подробно анализируются различные факторы фонемной интерференции и их влияние на фонемную систему. В статье рассматриваются артикуляционно-акустический, перцептивный, фонологический, морфонологический, фоностилистический, графемный, орфографический и орфоэпический аспекты фонем. Кроме того, в статье обсуждается специфическая значимость каждого из этих аспектов в произношении и их проявление в виде интерференции. Взаимосвязи между различными аспектами фонем объясняются на теоретически обоснованных примерах. В заключении подчеркивается, что артикуляционно-акустические, перцептивные, фонологические, морфонологические, фоностилистические, графемные, орфографические и орфоэпические особенности фонем, характерные для различных языков, являются основными факторами интерференции, встречающимися в фонемной системе языка и играющими важную роль в совершенствовании произношения.

**Ключевые слова:** Фонема, артикуляция, акустический, перцептивный, фонологический, морфонологический, фоностилистический, графемный, орфографический, орфоэпический.

**Kirish.** Tillarning fonetik tizimlari va ularning o'zarbo'liqliki, lingvistika tadqiqotlarining muhim jihatlaridan biridir. Interferensiya, til o'rghanishda yoki ko'p tilli shaxslar nutqida yuzaga keladigan muammolardan biri bo'lib, bu jarayon turli fonetik elementlarning bir-biriga ta'sir ko'rsatishi, ya'ni bir tilning fonemik tizimi boshqa tilning fonetik tizimi bilan o'zarbo'li aloqaga kirishishi bilan bog'liqidir. Interferensiyaning bir nechta omillari mavjud bo'lib, ularning har biri til o'rghanish jarayoniga ta'sir qiladi, bunda tilni o'rganayotgan shaxsning ona tili va yangi o'rganilayotgan tilning fonetik xususiyatlari o'tasidagi tafovutlar katta rol o'yaydi. Ona tili va o'rganilayotgan chet til tovush tizimlaridagi har bir o'ziga xoslik bir tipdagi nutq tovushlari majmuyi bo'lgan fonemalar interferensiyanı kelib chiqishiga sabab bo'ladigan asosiy omillar sanaladi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Nutq tovushlari odatda fiziologik (nutq tovushlarining hosil bo'lish o'rni), fizik (nutq tovushlarining balandligi, kuchi, tembri, cho'ziqligi), perseptiv (eshitib his etish) va lingvistik (so'z shakli va ma'nosini tanituvchi va farqlovchi vazifasi) jihatdan o'rganiladi [6]. Nutq tovushlarining fiziologik jihatida ularning artikulyatsi-yasi bilan

bog'liq o'ziga xosliklari, fizik jihatida ularning akustik belgilari, perseptiv jihatida ularning eshitilishi yoki eshitib, his qilinishiga oid xususiyatlari, ling-vistik jihatida ularning tildagi (so'z shaklini tanituvchi va ma'no farqlovchi) vazi-falarini tadqiq qilinadi. Nutq tovushlarining artikulyatsion-akustik, hamda perseptiv jihatlari umumlashtirilip, ularning fonetik xususiyatlari; lingvistik jihat esa nutq tovushlarining fonologik xususiyatlari, deb talqin qilinadi. Shuningdek, nutq tovushlari morfonologik [11], fonostilistik [9], orfoepik [1] jihatdan; nutq tovushlari shaklida namoyon boladigan fonemalar grafemik [4], orfografik [10], nuqtayi nazaridan ham tadqiq qilinadi. V.A. Vassilev fonemaga ham moddiy (aniq), ham mavhum tushuncha sifatida yondashib, uning bir-biri bilan chambarchas bog'langan uchta – material (aniq), mavhum (umumlashgan) hamda funksional jihatlari borligini va bu jihatlarni o'zarbo'liq etishiga ajratib bo'lmagligini ta'kidlaydi [16]. Fonemaning material (fizik) jihatni uning artikulyatsion-akustik nuqtayi nazaridan aniq bir nutq tovushi shaklida namoyon bo'lishi; mavhum jihatni uning umumiylilik xarakteriga ega ekanligida; funksional jihatni uning so'z shakli va ma'nosini farqlash xususiyatida aks etadi [16].

Keltirilgan fikrlardan anglashiladiki, bir tipdag'i nutq tovushlarining majmu-yi bo'lgan fonema o'zining variant va variatsiyalari misolida nutq tovushlariga xos artikulyatsion-akustik, perceptiv va lingistik jihatlarga ega bo'ladi. Shunday ekan, biz fonemani nafaqat lingistik, balki uning tarkibiy qismi bo'lgan allofonlari misolida artikulyatsion-akustik va perceptiv jihatlarga ham ega birlik sifatida tad-qiq qilamiz.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tilning fonemik tizimida interferensiya omillarini talqin qilishda tasviriy tahlil, qiyosiy-chog' ishtirma, struktur-tahlil kabi ilmiy-tadqiqot usullaridan foydalanildi. Jumladan, fonemalarning artikulyatsion-akustik, perceptiv, fonologik, morfonologik, fonostilistik, grafemik, orfografik va orfoepik jihatlari batafsil tavsiflanib, har bir jihatning interferensiya jarayonidagi roli tasviriy tahlil usuli asosida o'rganildi. Fonema tizimidagi o'ziga xos jihatlar qiyosiy-chog' ishtirma usul orqali o'rganildi. Ushbu usul yordamida fonema tizimidagi o'ziga xos jihatlarning interferensiya tarzida namoyon bo'lish holatlari aniqlandi. Fonemaning turli jihatlari o'rtasidagi o'zarob bog'liqlikni aniqlashda strukturaviy tahlil usuli qo'llanildi. Har bir fonetik va fonologik birlikning tizim ichidagi o'rni va funksional aloqalari, talaffuzga ta'siri aniqlab berildi. Ushbu usullarni qo'llash orqali maqolada fonemik tizimda interferensiya omillarining namoyon bo'lishi chuqur va har tomonlama tahlil qilindi hamda ilmiy-nazariy asoslangan xulosalar chiqarildi.

**Tahlil va natijalar.** Ma'lum bir tipdag'i nutq tovushlarining majmuyi bo'lgan fonemaning turli tillarda turlicha xususiyatlarga ega bo'lish sababi yuqorida qayd etilgan jihatlar bilan chambarchas bog'liq. Shu nuqtayi nazardan, tilning fonemik tizimida interferensiya omillarini aniqlash jarayoni dastavval fonemaning qayd etilgan jihatlaridagi asosiy xususiyatlarni qisqacha izohlashni taqozo etadi.

Fonema tovushining akustik jihat. Fonema tovushlari muayyan safat va miqdor belgilariga ega bo'ladi. Tovushning safat belgilar qatoriga tovush balandli-gi, tovush kuchi (intensivligi) va tovush tembri kiradi. Tovush chuziqligi esa to-vushning miqdor belgisi hisoblanadi. Tovushning safat va miqdor belgilar nutqda bir-biri bilan chambarchas bog'liq holda namoyon bo'lib, ular faqat tadqiq qilish maqsadida alohida-alohida ajratiladi.

Fonema tovushining artikulyatsion jihat. Fonema tovushlarining artikulyat-sion jihat deganda nutq tovushlari hosil bo'lishida ishtirot etadigan organlarning anatomiyasi va fiziologiyasi tushuniladi. Nutq organlarining anatomiyasi, ya'ni qanday tuzilishga ega ekanligi, shuningdek, nutq tovushlarini hosil qilishda ular-ning faoliyati va vazifalari (fiziologiyasi) nimalardan iborat ekanligini o'rganish nutq tovushlarining artikulyatsiyasidagi o'ziga xosliklarni oydinlashtiradi. Odatda nutq tovushlari nutq organlari artikulyatsiyasining akustik mahsuli hisoblanadi [16]. Nutq organlari esa tub moyiyatiga ko'ra avvalo fiziologik vazifa bajaradi. Masalan, o'pka nafas olish, tishlar chaynash, xalqum yutish, burun hid bilish va h.k. Nutq tovushlarini hosil qilish ularning qo'shimcha vazifasi hisoblanadi. Inson organizmida vazifasi faqat nutq tovushlarini hosil qilishga qaratilgan maxsus organlar mavjud emas [5]. Nutq tovushlarini hosil qilishda ishtirot etadigan organlar ichida faqat un paylari sof nutq organi hisoblanadi [15]. Fonetika uchun nutq tovushlarini hosil qilishda ishtirot etadigan organlarning asosiy fiziologik vazifasi emas, qo'shimcha vazifasi muhim sanaladi. Nutq tovushlarini hosil qilishda ishtirot etadigan organlarning barchasi bir bo'lib talafuz apparati yoki nutq apparatini tashkil qiladi. L.R. Zinderning ta'kidlashicha, nutq va talaffuz aynan bir tushuncha emasligi tufayli, talaffuz apparati atamasini o'rniiga nutq apparati atamasini qo'llash ma'qul emas. U o'z fikrini insонning nutq faoliyati faqat tovush hosil qilishdan iborat emasligi bilan izohlaydi [3]. Artikulyatsiyasidagi o'ziga xos xususiyatlardan kelib chiqib, tovushlarning unli, undosh va sonor turlari farqlanadi. Tovushlarni bunday turlarga ajratishda S.F.Leonteva tovush artikulyatsiyasiga doir quyidagi uchta mezonga asoslanadi:

1. Havo oqimining og'iz yoki burun bo'shliqlarida to'siqqa uchrashi yoki uchramasligi;
2. Nutq organlari muskullarining yig'iq yoki tarqoq holatda bo'lishi;
3. Nafas chiqarish zarbi (kuchi) [14].

Mazkur tasnidfa nafas chiqarish zarbi undoshlarda kuchli, sonor va unli to-vushlarda ancha kuchsiz; nutq organlarining muskullari undosh va sonor tovushla-rining hosil bo'lishida yig'iq holatda, unlilarning hosil bo'lishida yoyiq holatda; havo oqimi undosh va sonor tovushlarining hosil bo'lishida to'siqqa uchraydi, unli tovushlarning hosil bo'lishida esa to'siqqa uchramaydi, deb ta'kidlangan [14]. Bu o'rinda nutq tovushi hosil bo'lishi uchun to'siqning muhim ekanligini inobatga olib, har qanday nutq tovushlarining hosil bo'lishida havo oqimi u yoki bu darajada to'siqqa uchrashi lozimligini ta'kidlash o'rinlidir. Agar havo oqimi hech bir nutq organida to'siqqa uchramasa, u holda nutq tovushi ham hosil bo'lmaydi. Shunday ekan, unli tovushlar ham havo oqimining nutq organiga, ya'ni to'siqqa o'riliishi natijasida yuzaga kelishi tabiiydir. Bu jarayonda "... ovoz psychalari havo oqimiga to'siq bo'lib, ritmik tebranadi, shunga ko'ra bu to'siq ovoz hosil qilish to'sig'i deylidi" [15]. Demak, nutq tovushlari hosil bo'lishi uchun havo oqimi u yoki bu nutq organida ma'lum bir darajada to'siqqa uchraydi. Havo oqimi un paylarda to'siqqa uchrasa, unli tovushlar; havo oqimi qisman un paylarda va asosan og'iz bo'shlig'idagi nutq organlarining birida to'siqqa uchrasa, jarangli undoshlar; havo oqimi jarangli undoshlarga nisbatan ko'roq, lekin unli tovushlarga nisbatan kam-roq darajada un paylarda va ayni paytda og'iz va burun bo'shliqlarida to'siqqa uchrasa, sonor tovushlar; havo oqimi un paylarning ishtirokisiz, faqat og'iz bo'shlig'idagi nutq organlarining birida to'siqqa uchrasa, jarangsiz undosh tovushlar ho-sil bo'ladi.

Fonema tovushining perceptiv (eshitib his qilish) jihat. Fonema tovushlari-ning eshitilishi va his qilinishi ularning perceptiv xususiyati hisoblanadi. Bunda fo-nemalarning va ular asosida hosil bo'lgan nutqning eshitish mexanizmiga ta'sir eti-shi natijasida qabul qilingan ma'lumotning mazmunini idrok qilish qonuniyatlar tadmiq qilinadi. Nutq tovushlarining akustik xususiyatlari bo'lgan tovush balandligi, tovush kuchi, tovush tembri va tovush davomiyligini eshitish mexanizmlari tomonidan qay tarzda qabul qilinishi so'zlovchi tomonidan ularning qay tarzda ifoda etilishiga bog'liq bo'ladi. Masalan, so'zlovchingin nutqida tebranish chastotasi qancha ko'p bo'lsa, tovush shuncha baland ifoda etiladi va eshitish mexanizmi uni ifoda etilgan tovush balandligi darajasida qabul qiladi. Aksincha, so'zlovchingin nutqida tebranish chastotasi qancha kam bo'lsa, tovush shuncha past ifodalanadi. Natijada eshitish mexanizmi ham tovushni shuncha past darajada qabul qiladi.

Fonemalarning lingistik jihat. Fonemalarning so'z shakli va ma'nosini farqlaydigan vazifasi ularning lingistik hijati hisoblanadi. Ma'lumki, so'z shakli va ma'nosini farqlaydigan nutq tovushi fonema sanaladi. Fonema va nutq tovushi o'rtasidagi asosiy farq, ularning termin sifatida aniq yoki mavhum tushunchani ifo-dalashida namoyon bo'ladi. Nutq tovushi aniq bitta tovushni ifodalaydi va shuning uchun u aniq tushuncha hisoblanadi. Fonema esa ma'lum bir nutq tovushi doirasi-dagi barcha tovushlarning yig'indisi sifatida namoyon bo'ladi. Bir nutq tovushi do-irasida u yoki bu darajada o'zgarishga uchrab talafuz qilinadigan turli tovushlar Moskva fonologiya maktabi (MFM) nazariyasiga ko'ra fonemaning variant yoki variatsiyalari, S.Peterburg fonologiya maktabi nazariyasiga ko'ra fonemaning va-riantlari yoki allofonlari deb yuritiladi. Nutqda fonema o'zining ma'lum bir allofoni orqali, allofon esa fonlar orqali ifodalanadi [3]. Demak, fonema nutqda so'zdagi holatiga (pozitsiyasiga) ko'ra, turli o'zgarishlarga uchrab namoyon bo'ladi va har bir o'zgarishga uchrangan shakl fonemaning alohida bir pozitsion ko'rimishini tashkil qiladi.

Fonemalar morfonologik jihatdan ham tadqiq qilinishi mumkin [11]. Morfono-logik aspektida morfema tarkibidagi fonemalarning fonetik kontekst taqozosiga ko'ra o'zarob almashib qo'llanish xususiyatlari tadqiq qilinadi. Masalan, ingliz tili-da reform [ri'fɔ:m] v. so'ziga ot yasovchi qo'shimcha qo'shilishi natijasida yuzaga keladigan fonetik sharoit tufayli o'zak morfema tarkibidigi /ɔ:/ fonemasi /ə/ fone-masi bilan almashishi fonemalarning morfonologik xususiyatlariga misol bo'ladi: [ri'fɔ:m] v. - reformation [refə'meʃən] n.

Fonemalarning stilistik xususiyatlari ularning fonostilistik jihatini tashkil qiladi. Fonostilistik aspektida fonemalarning so'zdagi konnotativ ma'noni o'zgartirish hamda uslubiy ma'noga ta'sir etish xususiyatlari tadqiq qilinadi. Fonemaning konnotativ

ma'noga ta'siri, asosan, uning miqdor belgisidagi o'zgarish orqali yuza-ga keladi. Yuqorida ta'kidlanganidek, miqdor belgisi, ya'ni tovush cho'ziqligi odatda, fonema tovushining fonetik xususiyati sanaladi. Bunda so'zning denotativ ma'nosini ifodalash uchun yetarli bo'ladiqan cho'ziqlik darajasi nazarda tuliladi. Denotativ ma'no uchun muhim bo'lgan tovush cho'ziqligining uslubiy maqsadda oshirilishi so'zning konnotativ ma'nosini yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Konnota-tiv ma'noni yuzaga keltiradigan fonetik hodisalar fonostilitik aspektida o'rganiladi. Uslubiy maqsadda nutq tovushlarining cho'ziqroq talaffuz qilinishi, tovush cho'ziqligining fonostilitik xususiyati hisoblanadi. Bu o'rinda tovushning fonologik cho'ziqligiga yana bir bor to'xtab o'tish tovush cho'ziqligi borasida chalkashlikka yo'l qo'ymaslik nuqtayi nazaridan maqsadga muvofiq bo'ladi. Tovush cho'ziqligi-ning fonologik xususiyati yuqorida ta'kidlanganidek, fonemaning so'z shakli va ma'nosini (denotativ ma'no) farqlashga bo'lgan xizmati sanaladi. Demak, tovush cho'ziqligining fonetik, fonologik va fonostilitik xususiyatlari benuqson farqlash lozim. Bu o'rinda shuni alohida qayd etish kerakki, tovush cho'ziqligining fonostilitik xususiyati odatda uning fonetik xususiyatlari ichida tadqiq qilinib, so'zning turli xil konnotativ ma'nolarini hosil qilish fonetik cho'ziqlikka xos deb qaraladi [12]. Bu fikrga to'liq qo'shilgan holda shuni ta'kidlash joizki, nutq tovushlarining fonetik, fonologik va fonostilitik xususiyatlari aslida bir obyektning uch xil jihatni hisoblanadi. Shu boisdan mazkur uchala xususiyat, umuman olganda, bir fan – fonetikaning tadqiqot obyekti (nutq tovushlari) doirasida tadqiq qilinadi. Bundan ke-lib chiqadiki, nutq tovushlarining fonetik cho'ziqligi ham, fonologik va fonostilitik cho'ziqligi ham aslida bir fonetik hodisa – tovush cho'ziqligining uch xil jihatni sanaladi. Tovush cho'ziqligining har uchala jihatni o'ziga xos tarzda namoyon bo'lib, ularning farqi tovush cho'ziqligining lingvistik vazifasidan kelib chiqadi. Tovush cho'ziqligi vazifasiga ko'ra so'zning odatdag'i ma'nosini ifodalashi (urg'uli unlining urg'usiz unliga nisbatan cho'ziqroq talaffuz etilishi), so'zning semantik ma'nosini farqlashi yoki so'zning ma'nosiga uslubiy qo'shimcha ma'no yuklashi mumkin. Shuni hisobga olgan holda, tovush cho'ziqligi so'zning denotativ ma'no-sini ifodalashgagina xizmat qilsa, uni fonetik cho'ziqlik; so'zning denotativ (se-mantik) ma'nosini farqlashga xizmat qilsa, uni fonologik cho'ziqlik; so'zning deno-tativ ma'nosiga qo'shimcha konnotativ ma'noni ifodalashga xizmat qilsa, uni fono-stilistik cho'ziqlik deb atash maqsadga muvofiq bo'ladi.

Fonemalarni turli nuqtayi nazaridan tadqiq qilishda ularning artikulyatsion-akustik, perceptiv, fonologik, morfonologik va fonostilitik xususiyatlari bilan bir qatorda, grafemik, orfografik va orfoepik jihatlarini ham nazaridan chetda qoldirmaslik muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, fonema tovushlarini meyor doirasida talaffuz qilishda fonemalarning fonetik-fonologik xususiyatlari bilan ularning grafemik, orfografik va orfoepik jihatlari o'rtasida o'zaro uzviy bog'liqliklar borligini rad etib bo'lmaydi. Jumladan, L.R. Zinder fonetika va

orfografiyaning o'zaro aloqador ekanligini ta'kidlab, shu nuqtayi nazaridan, umumiy fonetika fonetik yozuv nazariyasini ham qamrab olishi zarur, degan fikrni ilgari surgan edi [3]. Fonemalarning yozma nutqda ifodalish qonuniyatlariga xos xususiyatlari ularning grafemik jihatni bo'lib [2], bunda harf va fonema o'rtasidagi munosabatlardan tadqiq qilinadi. Fonemalarning yozuvdagi shakli bo'lgan harflar tizimi – alifboning yozuvda qo'llanish xususiyatlari, ya'ni imlo qoidalari fonemalarning orfografik jihatni sanalib [13], bunda nutq tovushlarining so'zlar tarkibida eshitilishi va yozilishi o'rtasidagi munosabatlarning o'ziga xosliklari o'rganiladi. Bu o'rinda shuni ta'kidlash joizki, fonema yozma nutqda alohida yoki boshqa fonema vakillari bilan uyushgan holda ifodalanshi mumkin. Fonemaning yozuvdagi alohida shakli odatda, ularning alifbo tarkibida, boshqa fonema vakillari bilan birikib kelishi esa ularning ma'lum bir so'z tarkibida uchrashida namoyon bo'ladi. Fonemaning yozma nutqda "alohida" ifodalanshidagi o'ziga xosliklar grafemik, so'z tarkibida qo'llanishi bilan bog'liq xususiyatlardan tadqiq qilinadi. Fonema tovushlarining artikulyatsion-akustik xususiyatlari asosida ularning talaffuz meyorlariga xos qoidalarni shakllanadi. Fonemalarning adabiy talaffuz me-yorlariga xos qoidalarni tizimi ularning orfoepik jihatni sanaladi [13]. Bunda fonema to-vushlarining meyoriy talaffuz qonuniyatlariga xos xususiyatlari talqin qilinadi. Masalan, unli fonemalarning urg'uli va urg'usiz holatdagi, undosh fonemalarning yondosh tovushlar ta'siridagi allofonlarining o'ziga xos talaffuzlari shular jumlasidandir.

**Xulosa va takliflar.** Yuqorida keltirilgan fikrlarni xulosa qilib aytganda, tildagi fonemalar o'zlarini yoki allofonlari misolida tadqiqot maqsadiga bog'liq holda, asosan, artikulyatsion-akustik, perceptiv, fonologik, morfonologik, fonostilitik, grafemik, orfografik, orfoepik nuqtayi nazarlaridan tadqiq qilinadi. Bunday tadqiqotlar ham nazar, ham amaliy jihatdan muhim sanaladi. Nazariy jihatdan ular fonemaning qayd etilgan aspektlaridagi "ochilmagan" qirralarining aniqlanishi, amaliy jihatdan esa fonema tovushlarining talaffuzini samarali o'zlashtirishga hissa qo'shishi bilan ahamiyatli sanaladi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, fonemaning artikulyatsion-akustik, perceptiv, fonologik, morfonologik, fonostilitik, grafemik, orfografik va orfoepik jihatlarining har biri bir fonema doirasida yuzaga keladigan turli nutq tovushlari talaffuzini mukammal o'zlashtirishda teng ahamiyat kasb etadi. Til o'rganish, xususan, xorijiy til o'rganish jarayonida mazkur jihatlardan birining nazaridan chetda qolishi fonema tovushlarining talaffuzini o'zlashtirishda u yoki bu turdag'i "to'siqlar"ning ya'ni, fonemik interferensiyaning yuzaga kelishiga zamin yaratadi. Demak, turli tillarning tovush tizimiga xos fonemalarning artikulyatsion-akustik, perceptiv, fonologik, morfonologik, fonostilitik, grafemik, orfografik va orfoepik jihatlaridagi o'ziga xosliklari tilning fonemik tizimida uchravdig'an asosiy interferensiya omillari bo'lib, ular talaffuzning mukammal bo'lishida muhim ahamiyat kasb etadi.

#### ADABIYOTLAR

1. Арутамян М.И. Интерференция согласных в русской речи армян: Автореф. дисс. канд. филол. наук. – Ереван, 2003. – 25 с.
2. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. – М.: Энциклопедия, 1966. – С.117.
3. Зиндер Л.Р. Общая фонетика. – М.: Высшая школа, 1979. – С.282.
4. Кузьмина Т.В. Функциональный анализ фонемно-графемных соответствий в письменной речи детей (на материале согласных): Автореф. дисс. канд. филол. наук. – Санкт-Петербург, 2005. – 28 с.
5. Матусевич М.И. Современный русский язык. Фонетика. – Москва: Просвещение, 1976. – 288 с.
6. Максумов А.Г. Артикуляционные, акустический, перцептивные и фонологические характеристики английских носовых сонантов (а сопоставлением с узбекскими): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – М., 1972. – 37 с.
7. Миртожиев М.М. Ўзбек тили фонетикаси. – Т.: Фан, 2013. – 424 б.
8. Рогозная Н.Н. К вопросу о графической интерференции при обучении русскому языку иностранцев // Вопросы филологии. – 2003. – №1. – С. 90-98.
9. Сапарова К.О. Проблемы сегментной и суперсегментной (акцентной) фоностилистики русского языка: Автореф. дисс. канд. филол. наук. – Т., 2000. – 25 с.
10. Тью Ф.А. Орфографические отражения неправильного произношения у вьетнамских учащихся: Автореф. дисс. канд. филол. наук. – М., 2013. – 22 с.
11. Кудайбергенов М. Қоракалпқоң тилида морфонологик ходисалар: Филол. фан. д-ри. дисс: Автореф. – Нукус, 2004. – 35 б.
12. Ҳайдаров А. Коннотатив маънионинг фонетик воситаларда ифодаланиши: Филол. фан номз. дисс: Автореф. – Тошкент, 2009. – 35 б.
13. Ҳожиев А. Тилшунослик терминларининг изохли лугати. – Т.: Ўзб. Мил. Энциклоп. Нашр., 2002. – 164 б.
14. Leontyeva S.F. A theoretical course of English phonetics. – Moscow: Vyssaja skola, 1980. – 271 p.
15. Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – T.: Universitet, 2006. – 476 б.
16. Vassilyev V.A. English Phonetics (A Theoretical Course). – Moscow: High School Publ. House, 1970. – 324 p.



**Nigina RASULEVA,**

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti dotsenti, PhD

E-mail: [nigina1114@gmail.com](mailto:nigina1114@gmail.com)

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti professori, f.f.d A.Mannonov taqrizi asosida

## XXI ASR XITOY ILMIY FANTASTIK ASARLARIDA EKOLOGIK OMILLARNING YORITILISHI

Annotatsiya

Mazkur maqolada XXI asr xitoy ilmiy fantastikasi asarlarida ekologik muammolarni insoniyat va texnologiya o'rtasidagi murakkab munosabatlari orqali yoritilishi haqida batafsil hikoya qilingan. Qolaversa, asarlarda atrof-muhitning vayron bo'lishi, ekologik halokotlar, resurslar tanqisligi hamda ilm-fan va texnologiyaning bu muammolarni hal etishdagi roli keng tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** XXI asr xitoy adabiyoti; ilmiy fantastika janri; fan va texnologiya; ekologik muammolar; ekologik madaniyat va axloq.

## РАСКРЫТИЕ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ФАКТОРОВ В КИТАЙСКИХ НАУЧНО-ФАНТАСТИЧЕСКИХ ПРОИЗВЕДЕНИЯХ XXI ВЕКА

Аннотация

В этой статье подробно описывается, как в китайских научно-фантастических произведениях XXI века рассматриваются проблемы окружающей среды через сложные взаимоотношения человечества и технологий. Кроме того, в работах подробно анализируются разрушение окружающей среды, экологические катастрофы, нехватка ресурсов, а также роль науки и техники в решении этих проблем.

**Ключевые слова:** Китайская литература 21 века; жанр научной фантастики; наука и техника; экологические проблемы; экологическая культура и этика.

## DISCLOSURE OF ECOLOGICAL FACTORS IN 21ST CENTURY CHINESE SCIENCE FICTION WORKS

Annotation

This article details how 21st-century Chinese science fiction works address environmental issues through the complex relationship between humanity and technology. In addition, the works extensively analyze environmental destruction, ecological disasters, resource scarcity, and the role of science and technology in solving these problems.

**Key words:** 21st century Chinese literature; science fiction genre; science and technology; environmental problems; ecological culture and ethics.

**Kirish.** XXI asr xitoy ilmiy fantastikasi ekologik omillarni ko'pincha insoniyatning kelajagi, texnologiya va tabiyo mutih o'rtasidagi murakkab munosabatlari orqali yoritadi. Xitoy ilmiy fantastikasi asarlarida ekologik mavzular quyidagi turli yo'nashlarda aks etadi:

Atrof muhitning vayron bo'lishi va ekologik halokatlar. Ko'pgina xitoy ilmiy fantastik asarlarda global isish, havo ifloslanishi va resurslar tanqisligi kabi ekologik muammolar markazishi o'rinda turadi.

Ekologik muammolar va texnologik yondashuvlar. Xitoy ilmiy fantastikasi ekologik muammolarni faqat falokat sifatida emas, balki texnologik yutuqlar orqali hal etish mumkin bo'lgan masala sifatida ham ko'rsatadi.

Tabiat va insoniyat o'rtasidagi ziddiyatlar. Ko'pgina xitoy ilmiy fantastik hikoyalarida insoniyatning tabiat ustidan nazorat o'rnatishga bo'lgan urinishi va buning natijasida kelib chiqadigan muammolar tasvirlanadi.

Ekologik muammolarni hal etish yo'llari sifatida ilm-fan va falsafa. Ba'zi xitoy ilmiy fantast yozuvchilari insoniyatning ekologik muammolarni hal etish yo'lida falsafiy yondashuvlarini ham tasvirlaydi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Jahon sivilizatsiyasi bugungi kungacha jadal rivojlandi va yer yuzida insoniyat fan va texnikaning qudratni cheksiz ekanligiga guvoh bo'ldi. Vaqt o'tgani sayin bu vaziyat zamonaqiyilik ekologik inqirozni yuzaga keltirdi. O'tgan asdan boshlab G'arbliklar texnologiyaning salbiy oqibatlari haqida o'ylay boshlashdi. 1962-yilda biologiyani chuqur o'rgangan yozuvchi 蕾切尔·卡逊Reychele Carson 《寂静的春天》 "Sokin bahor" kitobini nashr etdi. Bu asarda u ekologik inqirozning butun yer ekotizimiga yetkazgan zararini hayratlanarli tarzda tasvirlaydi. Quruqlik jonzotlaridan tortib dengiz jonzotlarigacha hammasini ayamay tanqid qiladi. 1992-yilda AQSH ning 52-vitse-prezidenti戈尔 Al Gorning 《濒临失衡

的地球》 "Yer nomutanosiblik yoqasida" nomli asarida insoniyat sivilizatsiyasining rivojlanish modeli va ekologik inqiroz o'rtasidagi bog'liqlik batafsil tasvirlangan [5]. Borgan sari jiddiyashib borayotgan ekologik inqirozga duch kelgan G'arb dunyosi bunda G'arb sivilizatsiyasining logotsentrizmi, texnologik ustunligi va instrumental ratsionalligini nazariy darajada har tomonlama tanqid qildi.

Bunday asarlar nashridan keyin konstruktiv postmodernizm kabi ekologiyani muhofaza qilishning nazariy yo'nashlari vujudga keldi hamda ekologik harakat va atrof-muhitni muhofaza qilish amaliyoti ham jadal rivojlanishga kirishdi. Taraqqiyotdan keyingi davlat sifatida Xitoyning modernizatsiya jarayoni ham jiddiy ekologik inqirozlarni keltirib chiqardi. G'arb dunyosidagi fan va texnologiyani shuningdek, ijtimoiy rivojlanish modellarining ijobjiy va salbiy tomonlarini aniqlash ziyyolilar uchun zarur masalaga aylandi. Shu sababli, ilmiy fantastika hozirgi kunda eng futuristik va hayoliy adabiy jamadir. Ilmiy fantast yozuvchilar o'zlarining roman va hikoyalarida doimo texnologiya va insonning omon qolishi haqidagi turli tashvishlarni ifodalaydilar. Zamonaviy jamiyatda ilm-fan va texnika muhim rol o'ynaganligi sababli, insoniyatning omon qolishi va ekologik sivilizatsiyaning qurilishida ilmiy va texnologik ziyyolilarining mavqeい hal qiluvchi ahamiyatga ega [1]. Ko'p hollarda yozilgan esse va romanlar asosan ongli ekologik o'Ichovni aks ettiradi, inson taraqqiyoti modellari, omon qolish qoidalari va ekologik donolikning katta va nozik izlanishlarini yoritib beradi. Hissiy ohang dastlabki uch bosqichda texnologiya kuchining oddiy quvonchidan uzilib, ancha og'irroq va chuquroq bo'ladi. Qiymatni baholash va axloqiy qurilish nuqtai nazaridan, u asosan uch o'Ichovga bo'linadi: qisman dekonstruksiya va tanqid; qiymat-neytral obyektiv tavsif; konstruktiv buzish nazariyasi.

吴岩 Vu Yan, Pekin pedagogika universiteti professori, olim va ijodkor bo'lib, uning ilmiy fantastik romanlari o'zining

boy mazmunga va keng nazariy bilimlarni o'zida mujassam qilgani bilan mashhur. Uning qalamida chuvalchanglar, VR texnologiyasi, hayratlanarli nazariyalar, ko'p o'lchovli makon va vaqt kabi ilmiy fantastik elementlar yaxshi ochib berilgan. Galaktika va kompyuter tarmoqlari ilmiy fantastik romanlarining asosiy mavzusini tashkil etadi. Virtual olamning o'z-o'zini ta'minlashi yopilishi insonlarning yashash sharoitlarini keskin o'zgartirdi. Inson his-tuyg'ulari begona va befarq unsurga aylandi. 韩松Han Song ilmiy fantastikadagi 兰兹·卡夫卡Frans Kafka bo'lib, uning ilmiy fantastik asarlari postmodern dekonstruksiyaga boy. 《宇宙萬物》“Kosmik qabr toshi” va 《铁石的青春》“Bezovalt yoshlik” nomli asarlari noaniqlik, kutilmaganlik va ikkilanish kabi ojiz tuyg'ularga to'la [2]. 王晋康Vang Jinkang o'z asarlarda texnologiya va insonning omon qolishi o'rtaqidagi munosabatlarga katta e'tibor beradi. Uning 《生死平衡》“Hayot va o'lim muvozanati”, 《生命之歌》“Taqdir qo'shig'i” va 《终极爆炸》“Yakuniy portlash” nomli ilmiy fantastik romanlarida texnologiya sabab bo'lgan ma'naviy inqirozdan havotirlanish vaziyati bildirilgan. Hech shubha yo'qliki, hozirgi Yer va insoniyat omon qolish uchun jiddiy muammolarga duch kelmoqda. Ekologik inqiroz va ma'naviy inqiroz haqida o'ylash va ularga javob berish zudlik bilan hal qilinishi kerak bo'lgan murakkab va dolzarb muamadir. Turli sohalardagi mutaxassislar va olimlar o'zlarining ekologik bilimlarini kengaytirish va amaliyotga tatbiq etishga intilmoqdalar. Insoniyatning kuzatuvchilari va tanqidchilar juda ko'p, ammo turli kuch va talablarni tahlil qilib, oqilona va konstruktiv yechimlarni ilgari suradiganlar kam. [5] Ilmiy fantast yozuvchilar ekologik tafakkurning boshida turganini avvalgi tahillardan ko'rish ham mumkin. Ilmiy fantastik romanlar ko'pincha o'quvchilar ko'nglini zabt etadi va falsafiy g'oyalar va bashoratni ifodalash orqali fikrash tendensiyasini boshqaradi. Ilmiy fantastik romanlarda ekologik tafakkur eng muhim belgi hisoblanadi, ammo bu asarlarda insoniyatni hayotning vayronagarchiliklari haqida ogohlantirish ham kuzatiladi. Odamlar esa o'zlarining chegaralari va o'ziga xosligi bilan insondir. Vayronalarni qayta qurish insoniyat sivilizatsiyasining oqilona va barqaror kelajak sari harakatlanshi uchun muhimdir. Shuning uchun ekologik o'lchovning konstruktivligi juda qimmatli bo'ladi [1]. Insonlar organik jarayonga yo'naltirilgan yaxlit dunyoda yashaydilar va hamma narsa turli xil munosabatlarda bo'lib, yashil sivilizatsiyani qurish uchun ongli ekologik ongdan foydalishni targ'ib qiladi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Hozirgi ilmiy fantastik asarlар орасида ilmiy fantastika souvuq va chuuqur ekologik tasavvur bilan yozilgan bo'lib, bu son-sanoqsiz o'quvchilarning ko'plab fikrlarini uyg'otdi. Ilmiy fantastik romanlarda bosh qahramonlarning aksariyati ziyyolilar bo'lib, ular ilmiy-texnikaviy ziyyolilarning guruh obrazini yaratadi. Bu ziyyolilarning tanlovlari va pozitsiyalari asosan ekologiya, fan va texnologiya hamda kelajakka oid turli qarashlarni ifodalaydi. Turli qadriyatlarining ekologik o'lchovi ilmiy fantastik matnlarda to'liq namoyon bo'lsa-da, konstruktiv ekologik o'lchov odamlar ongida tobora ko'proq qabul qilinayotganini ko'rish bizni quvontiradi. Konstruktiv ekologik o'lchovda fantast yozuvchilar vaqt va makonni kengaytiradilar va koinot hamda sivilizatsiya, texnologiya va ekologiya, estetika va ta'lim o'rtaqidagi ichki munosabatlardan haqida chuuqur fikr yuritadilar. Tarix va zamoni o'zida mujassamlashtirgan bir-biriga bog'langan tanlovlardan o'ziga xos gumanistik tuyg'ularga ega bo'lgan dialektik ilmiy va ekologik axloq shakllangan bo'lib, u Xitoy xususiyatlarining konstruktivligini o'zida mujassam etgan. Hozirgi nuqtai nazardan, ekologik o'lchovning konstruktivligi asosan uch o'lchovda namoyon bo'ladi:

Birinchi o'lchov - fan, taraqqiyot va ekologiyaning paradoxslari haqida fikr yuritish orqali ekologik inqiroz dilemmasining ko'rinishi va sabablarini sharhlash;

Ikkinci jihat - inson tabiat, sivilizatsiya va kelajakni qayta qurishda ekologik inqirozga yechim izlash;

Uchinchi o'lchov - ekologik dunyoning mumkin bo'lgan sharti estetikani, hayotni va butunlikni tan olishdir. Ilmiy fantastik yozuvning konstruktiv tabiatni birinchi navbatda olam va sivilizatsiya kategoriyalari haqidagi fikrda namoyon bo'ladi. Ilm-fanning rivojlanishi butun yer ekotizimiga zarar yetkazdi, buning

natijsasida fan ham, taraqqiyot ham nazoratsiz bo'lib qoldi. Insoniyat ilg'or va murakkab texnologiyalar hozirgi holatni o'zgartirishiga umid qiladi. Mayjud vayron bo'lgan ekologiyaga duch kelgan barcha mamlakatlar omon qolish uchun raqobatda ko'proq rivojlanishga intilishadi. Har bir insonni texnologik gedonizm holati boshqaradi [3].

叶文吉 Ye Venjie inson tabiatni haqida fikr yuritar ekan, u inson ruhiyatining o'ta qashshoqligini va tarixning tartibisiz rivojlanishining bema'niligini ham ko'rdi. 吴岩Vu Yanning “Sichqoncha paneli” asari axborot jamiyatida inson mentalitetidagi o'zgarishlar va kompyuter hukmronligiga qarshi keng ko'lamli kurashni o'rganishga qaratilgan. 王晋康Vang Jinkangning asarlari an'anaviy axloqiy tuyg'uga ega bo'lgan ilmiy fantastik yozuvchilar o'rtaqidagi haddan tashqari ajralish tuyg'usini namoyish etadi. O'zining 《生命之歌》“Taqdir qo'shig'i”, 《十字》“Xoch” va 《生死之约》“Hayot va o'lim ahidi” asarlarda shizofreniya kasalligiga chalingan olim haqida hikoya qiladi. Texnologiya insoniyat uchun barakami yoki uning halokatmi degan savolni ilgari suradi. Hozirgi fan va texnologiya insoniyat jamiyatiga misli ko'rilmagan ta'sir ko'rsatib, odamlarning begonalashuviga olib keldi. Qutqaruв yechimlarini izlashda xitoylik ilmiy fantast yozuvchilari o'zlarining ilmiy fantastika romanlarida umumiy insoniy me'yorlarga amal qilishadi. 钱莉芳 Qian Lifang o'zining 《天意》“Xudoning irodasi” va 《天命》“Taqdir” romanlarida insoniyatning o'zga sayyoraliк “龙羲” Long Xi nazoratidan qutulganini va shu bilan insoniyatning tarixdan oldingi davrga qaytishi hamda taqdirdidan qo'hib qutulganini yuqori baholagan [3]. 长铗 Zhang Jia 《昆仑》“Kunlun” asarida G'arb qirolichasi onasi odamlarning imkoniyatlarini ko'rgani uchun odamlarni boshqarishdan voz kechganini yozgan.

Texnologiya barcha muammolarni hal qila olmaydi. 王晋康 Vang Jinkang ham romanlarida ekologik tabiiy ofat tashvishlarni ifodalagan.

Dunyoni qayta qurishning yagona rejasi va inson rivojlanishining yagona modeli mayjud emas, faqat yaxshiroq bo'lganlar amalda sinab ko'riliши kerak, amalga oshirilishi mumkin bo'lgan shartlar esa pragmatikdir. Pragmatizm - bu Xitoy xalqi tomonidan ming yillar davomida qishloq xo'jaligi sivilizatsiyasida to'plangan, omon qolish haqidagi tasavvurlar haqida hamda Xitoy amaliy estetik tarbiyasining mohiyatidir. Xitoyliklar eksklyuziv diniy e'tiqodlarga ega emaslar, Konfutsiyaliklarning ta'lomi esa g'ayritabiylar kuchlar va xaotik xudolar haqida gapirmaydi, balki bu dunyoda barqarorlikni izlash, qalbda xotirjam va barqaror hayot kechirishni ma'qullaydi.

**Tahvil va natijalar.** Zamoniaviy fantast yozuvchilar ongli ravishda Xitoy ruhini meros qilib olishga intilishadi. An'anaviy Xitoy madaniyatining asosi insoniyatga yo'naltirilgan. Insoniyat ilmiy fantastikaning mantiqiy boshlanish nuqtasidir. Ilmiy-fantastik romanlar ekologik donolikning ma'rifiy missiyasini ongli ravishda o'z zimmasiga oladi. Inson taraqqiyoti kontseptsiyasining metafizikasi ekologik inqiroz sharoitida majburiy tuzatishlarni talab qiladi. Fantast yozuvchilar tomonidan yaratilgan ilmiy fantastik matnlardagi ekologik jihat va konstruktiv fikrash insoniyat sivilizatsiyasining ekologiyaga bo'lgan munosabatidir. Ilmiy fantastik romanlardagi ekologik inqirozlar haqidagi qarashlar, javoblar va tanlovlardan ziyolilarning ekologik pozitsiyasini ifodalaydi. Insonning eng katta mohiyati estetik erkinlikka erishishdir [6].

Adabiyotda estetikaning yetishmasligi ilmiy fantastik romanlarning rivojlanishini cheklaydi. Qiyinchilikni hal qilish uchun biz ilmiy fantastikaning ekologik jihatidan tahlil qilib ham javob izlashimiz kerak. Fantastikaning 100 yillik rivojlanishida ilmiy fantastikaning qabul qilish tobora keng tarqalib, uning ekologik jihatni tobora yaqqol namoyon bo'limoqda.

Xitoy xalqining ma'naviy olamida go'zallikdan maqsad erkinlikka ishora qilish, go'zallikning natijasi esa mehr-shafqatni tan olishdir. Ilmiy fantastika va adabiyotning ikki tomonlama o'lchovlariga ega bo'lib, uning estetik xususiyatlari ham ikkala sinab dialektik birikmasidir. Fantastikaning ekologik jihatiga riyoa qilish hayotni eng ko'p qadrlash va hurmat qilishni anglatadi, bu insoniyatning o'ziga va butun yer sivilizatsiyasiga rahm-shafqatdir. Bu yo'lda astoydil harakat qilib, dunyo

hikmatlari cho'qqisida ko'proq klassik ilmiy fantastik matnlar paydo bo'lishiga ishonamiz. U har bir kitobxonning qalbiga kirib borishi va shu bilan turli guruhlarning hayotiy tan olinishini uyg'otishi mumkin.

Ilmiy fantastik romanlar geologik vaqt, ijtimoiy vaqt va shaxsiy vaqtning o'zaro bog'liq kuzatuv istiqbollari bilan fikrashni rag'batlantirish uchun panoramik makonni ochadi. Ushbu tafakkur maydonida asrlar davomida turli madaniy tizimlarning ilmiy hukmlari dialogik tarzda taqdirm etilgan. Bir paytlar biz faxrlanayotgan ilmiy qoidalar inson hayotiy tajribasini siqib chiqardi va majburan o'zgartirdi. Xitoy ilmiy fantastik janri na'munalarining aksariyati hayotning qadr-qimmatini tushunish va ilmiy dunyoqarashga ega bo'lishi kerak bo'lgan axloqiy me'yordarga rioya qilish uchun an'anaviy xitoylik gumanistik tuyg'ularidan foydalanishni tanladi. Insoniy ilm-fanning salbiy ta'siriga va o'limming haqiqiy tabiatiga qarshi turishni o'rgatdi.

王晋康Vang Jinkangning 《豹人》“Leopard odam” asarida aniq ta'kidlagan edi: “只要体内嵌有哪怕是很微量的异种基因，这人就应视同非人！”“Agar tanada juda oz miqdorda begona genlar mavjud bo'lsa, bu odamni g'ayriinsoniy deb hisoblash kerak!” [2] Fantastikaning ekologik jihatni axloqiy ilmiy dunyoqarashga ishora qilishi kerak. Albatta, buning mazmun-mohiyati ilm-fan taraqqiyoti va sivilizatsiya jarayonida insoniyatning yanada jipsligini taqozo etadi. Fantast yozuvchilar biza yangi fanning ekologik jihatini beradi. Ilmiy fantastik romanlardagi gipotezalar, metaforalar va modellar, xoh ular yangi avlodga mansub bo'lsin, xoh yangi avlod vakillari bo'lsin, ekologik tafakkurimizni takomillashtirishda biz uchum ma'lumotnoma bo'lib xizmat qilishda davom etadi. Ta'limotlar va g'oyalar o'rtaisdagi qaramaqshilik, fan va ekoliya o'rtaisdagi ziddiyat, inson tabiatini va taraqqiyoti o'rtaisdagi tafovut – bularning barchasi yangi burilish nuqtasini ko'rsatib, yangi sintez va ilmiy tushunchalarning yangi konstruktiv ma'rifatini talab qildi. Faqat inson va tabiat o'rtaisdagi yangi dialogini hamda organik fan va mexanik fanning yangi kombinatsiyasini amalga oshirish orqali, Xitoy va G'arb madaniyatlarining yangi integratsiyasi odamlarning his tuyg'ularini tushunishi, odamlarning qalbini tarbiyalashi va insoniyat sivilizatsiyasining avloddan-avlodga o'tishi va innovatsion rivojlanishiga imkon beradi.

**Xulosa va takliflar.** Ilmiy fantastik romanlarning rivojlanish jarayonida ekologik jihatga ega bo'lishi tarixiy zarurat bo'lib, mukammal ilmiy fantastik roman matnlariiga ham xos xususiyatdir. Kelajakning ekologik o'lchamiga ishora qiluvchi pozitsiya juda muhim. Dekonstruksiya, tahlil va tanqid ham albatta muhim. Ammo, agar odamlar odatda aqli bo'lsa va fan va texnologiya haqida nisbatan izchil kognitiv tushunchalarga ega bo'lsa, ilmiy fantastik matnlarni texnologiyaning salbiy ta'siridan qo'rqish, ekologik ofatlar haqida bo'g'iq shikoyatlar va kelajak haqidagi chuqur tashvishlar bilan cheklanib bo'lmaydi. Ilmiy

fantastik romanlarning ekologik jihatining konstruktivligi kelajakdagagi ilmiy fantastik yozuvlar uchun standartga aylanishi va fantast yozuvchilar, kitobxonlar va tadqiqotchilar tomonidan astasekin tushunishi va tan olinishi kerak.

Ilmiy fantastika etikasi nuqtai nazaridan, ilmiy fantastika romanlarning ekologik jihatining eng katta konstruktivligi shundaki, ular inson axloqini qo'llab-quvvatlaydi. Axloqning umumbashariyligi ekologik tasavvur bilan bog'liq uchta zarur muammoli sohani boshqaradi: koinot va sivilizatsiya, texnologiya va ekoliya, estetika va erkinlik. Unda insoniyatning omon qolishi ustuvorligi ostida inson taraqqiyoti paradoksi, fan va texnika taraqqiyotida fan va texnikani oqilona dekonstruksiya qilish, inson tabiatiga asoslangan ekologik donishmandlikni qayta qurish masalalari chuqur aks ettirilgan. Konstruktiv postmodernistik nuqtai nazar bilan taqqoslaganda, uning ilmiy fantastik romanlarning ekologik ma'naviy makonida an'anaviy gumanistik klassik ruh yaqqol namoyon bo'ladi. Axloqiy yurak vijdon, sevgi va himoyani yaratadi. Hissiy tabiat hayotiy aloqalar va mas'uliyatlarni keltirib chiqaradi. Ekologik donolik an'anaviy xitoy madaniyati, konfutsiylik, buddizm va daosizmning mohiyatini birlashtiradi. Instinktiv axloqiy tuyg'u va hissiy proektsiya insonni yer yuzidagi eng ekologik mas'uliyatlari mavjudotga aylantiradi. Shuningdek, biz hayot mas'uliyatini o'z zimmamizga olish va yerni himoya qilish uchun qo'llimizdan kelganini qilish uchun eng katta rahm-shafqatni qo'llaymiz. Bu an'anaviy xitoy ziylolarining pozitsiyasidir. Kelajakka ishora qiluvchi ilmiy fantastik romanlarda xitoylik fantast yozuvchilar ana shu ekologik hikmatni yetkazadilar. Bu intellektual sezgining bir turi. Uning ma'nosи keng va chuqur bo'lib, hushyorlik, qutqarish va erishish mumkin bo'lib, ilmiy fantastik romanlarning ekologik o'lchamiga xitoylik xususiyatlarning konstruktiv xarakterini o'zida mujassam etgan.

Mashhur Rim faylasufi 提图斯·卢克莱修·卡鲁Titus Lukretsiy Kar havotirga tushganidek: “请承认那些你必须允许它们在这个世界中存在却又看不见的粒子，免得你会不相信我的话，因为人眼使无法感知这些基本物体的。”“Iltimos, dunyoda mavjud bo'lishiga ruxsat berishingiz kerak bo'lgan, lekin ko'ra olmaydigan zarralarni tan oling, chunki menga ishonmang, chunki inson ko'zi bu elementlar narsalarni idrok etishga qodir emas.” Kelajakdagagi ekologik dunyonи barpo etish tabiatning xilma-xilligi, vaqtinchalik va murakkabligi bilan yuzma-yuz keladi. Bizga har qachongidan ham yangi tushuncha va yangi qoidalarning paydo bo'lishi muhim. Bu, shuningdek, yangi qoidalarni tan olishni talab qiladi. Mavjud dunyo chiziqli bo'lmagan, tartibsiz va xilma-xildir. Ilmiy fantastik romanlarning ekologik o'lchamiga rioya qilish, konstruktiv talablarga rioya qilish va ilmiy fantastika romanlarning estetik sifatini oshirish katta ahamiyatga ega.

#### ADABIYOTLAR

- 张未未.科幻式的异文化表达——《三体》的文学人类学解读[J].美与时(下),2016,(5).
- 杨庆祥.作为历史、现实和方法的科幻文学——序“青科幻”丛书[A].宝树.世间外史[M].北京:作家出版社,2018.
- (美)安德森.想象的共同体:民族主义的起源与散布[M].吴飞人译.上海:上海人民出版社,2005:6.
- 郝景芳等弦歌:中篇科幻小说集[M].上海:上海科学技术文献出版社,2017:24. [6] 郝景芳等弦歌:中篇科幻小说集[M].上海:上海科学技术文献出版社,2017:24.
- 王德威.史统散,《科幻兴——中国科幻小说的兴起、勃发与未来》,《探索与争鸣》2016年第8期
- 王晋康:《豹人》,成都:四川科学技术出版社2012年版



**Ilhom RUSTAMOV,**

Toshkent davlat transport universiteti professori v/b

E-mail: [ilhom.rustamov.20080223@gmail.com](mailto:ilhom.rustamov.20080223@gmail.com)

Profeccop Sh.Safarov taqrizi asosida

## KICHIK JANR MATNLARINING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI VA ULARNING MADANIY KOD SIFATIDA NAMOYON BO'LISHI

Annotatsiya

Tadqiqotda kichik janr matnlarining lingvomadaniy xususiyatlari va ularning madaniy kod sifatida namoyon bo'lishi tahlil etilgan bo'lib, kichik janr matnlari – latifalar, maqollar, matallar va boshqa qisqa hajmli janrlar – xalqning madaniyati, tarixi va mentalitetini aks ettiruvchi muhim lingistik va madaniy manba hisoblanishi ko'rib chiqilgan. Ushbu matnlar milliy tafakkur va qadriyatlarni aks ettiruvchi omillar sifatida turli xalqlarning madaniy identifikatsiyasida muhim rol o'yinaydi.

**Kalit so'zlar:** Kichik janr matnlari, lingvomadaniy xususiyatlari, madaniy kod, tarjima muammolari, lingvodidaktika, madaniy muloqot, latifalar, maqollar, matallar.

### LINGUOCULTURAL FEATURES OF SMALL GENRE TEXTS AND THEIR MANIFESTATION AS CULTURAL CODES

Annotation

The research analyzes the linguocultural features of small genre texts and their manifestation as cultural codes. It examines how small genre texts—such as anecdotes, proverbs, parables, and other short forms—serve as significant linguistic and cultural sources reflecting a nation's culture, history, and mentality. These texts play a crucial role in the cultural identification of different peoples as they embody national thought and values.

**Key words:** Small genre texts, linguocultural features, cultural code, translation issues, linguodidactics, cultural communication, anecdotes, proverbs, parables.

## ЛИНГВОКУЛЬТУРНЫЕ ОСОБЕННОСТИ МАЛЫХ ЖАНРОВЫХ ТЕКСТОВ И ИХ ПРОЯВЛЕНИЕ КАК КУЛЬТУРНЫХ КОДОВ

Аннотация

В исследовании анализируются лингвокультурные особенности малых жанровых текстов и их проявление как культурных кодов. В нем рассматривается, как малые жанровые тексты, такие как анекдоты, пословицы, притчи и другие краткие формы, служат значимыми лингвистическими и культурными источниками, отражающими культуру, историю и менталитет нации. Эти тексты играют решающую роль в культурной идентификации разных народов, поскольку они воплощают национальную мысль и ценности.

**Ключевые слова:** Тексты малых жанров, лингвокультурные особенности, культурный код, проблемы перевода, лингводидактика, культурная коммуникация, анекдоты, пословицы, притчи.

**Kirish.** Zamonitoring lingvistik va madaniyatshunoslikda kichik janr matnlariga bo'lgan qiziqish tobora ortib bormoqda. Bu janrlar xalq og'zaki ijodi va yozma adabiyotning muhim qismiga aylangan bo'lib, ular orqali milliy mentalitet, madaniy kodlar va ijtimoiy-hayotiy tajribalar aks etadi. Ayniqsa, latifalar, maqollar, iboralar va ertaklar singari kichik janr matnlari xalqning dunyoqarashi, axloqiy qadriyatlari hamda tarixiy xotirasini o'zida mujassam etadi.

Kichik janr matnlarining lingvomadaniy xususiyatlari o'rganish ularning milliy o'ziga xosligini aniqlash, madaniyatlararo muloqot jarayonidagi o'rnini belgilash hamda tarjima jarayonida yuzaga keladigan lingvistik va madaniy muammolarni tushunishga imkon yaratadi. Xususan, ushbu matnlar madaniy kod sifatida namoyon bo'lib, ularning tarkibidagi timsollar, metaforalar va ramziy ifodalar har bir xalqning madaniy ongida o'ziga xos shaklda aks etadi.

Kichik janr matnlarining lingvomadaniy xususiyatlari va ularning madaniy kod sifatida namoyon bo'lishi tahlil qilinish doirasida ushbu matnlarning til tizimidagi o'rni, ularning tarjima jarayonida duch keladigan muammolari va lingvokulturologik ahamiyati ko'rib chiqiladi. Shu bilan birga, kichik janr matnlarining o'zbek va ingliz tillaridagi misollar orqali qiyosiy tahlili olib boriladi.

**Adabiyotlar tahlili.** Kichik janr matnlarining lingvomadaniy xususiyatlari va ularning madaniy kod sifatida namoyon bo'lishi mavzusida olib borilgan tadqiqotlar turli ilmiy yo'nalishlarda muhim ahamiyat kasb etadi.

Lingvistik tadqiqotlarda kichik janr matnlari tahlil qilinib, ularning til strukturasidagi o'rni, fonetik, leksik va grammatic

xususiyatlari o'rganilgan. Xususan, N.Xomskining [1] generativ grammatika nazariysi va S.Krashenning [2] ikkinchi til o'rganish modeli doirasida kichik janr matnlarining o'ziga xos tuzilishi tadqiqi etilgan. Shu bilan birga, J.Austin [3] va J.Searle'ning [4] nutq aktlari nazariysi kichik janr matnlarining kommunikativ vazifalarini ochib berishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Madaniyatshunoslik tadqiqotlarida kichik janr matnlarining xalqning madaniy ongidagi o'rni va ular orqali ifodalangan ramzlar, mifologik obrazlar va timsollar tahlil qilingan. M.Bakhtinning «karneval madaniyati» [5] nazariysi kichik janr matnlarida mavjud bo'lgan parodiya, ironik yondashuv va intertekstual xususiyatlarni ochib berishda muhim nazariyi asos bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, C.Girtsning «madaniy kod» [6] tushunchasi kichik janr matnlarining jamiyat hayotidagi roli va ular orqali yetkaziladigan madaniy ma'lumotlarning ahamiyatini aniqlashda foydalidir.

Tarjimashunoslik nuqtayi nazaridan esa kichik janr matnlarini tarjima qilishda duch kelinadigan asosiy muammolar va ularning yechimlari ko'rib chiqiladi. U.Nida va E.Taberning [7] ekvivalentlik nazariysi, P.Nyumarkning [8] kommunikativ va semantik tarjima modellari, shuningdek, Qiu,Xinyuening [9] madaniy o'ziga xosliklarni tarjimada yetkazish uslublari haqida ilmiy tadqiqotlar mavjud. Bu nazariyalar kichik janr matnlarining tarjima jarayonida yuzaga keladigan semantik va pragmatik muammolarni tahlil qilishga imkon beradi.

Adabiyotlar tahlili jarayonida ko'rdikki, kichik janr matnlari lingvomadaniy hodisa sifatida turli ilmiy yondashuvlarda tadqiq qilingan bo'lib, ularning tarjima jarayonidagi o'rni va madaniy kod sifatida ifodalanishi alohida e'tibor etadigan

masalalardandir. Ushbu ilmiy manbalar tahlili asosida kichik janr matnlarining lingvomadaniy xususiyatlari va madaniy kod sifatida namoyon bo'lishi chuqr o'rganilishi dolzarb masalalardandir.

**Tadqiqot usullari.** Tadqiqotimiz davomida kichik janr matnlarining lingvomadaniy xususiyatlari va ularning madaniy kod sifatida namoyon bo'lishini o'rganishda quyidagi tadqiqot usullari qo'llanildi: -Taqqoslash va qiyosiy tahlil usulida – O'zbek va ingliz tillaridagi kichik janr matnlari lingvokulturologik jihatdan tahlil qilinib, ularning o'ziga xosliklari va o'xshashliklari aniqlandi. -Deskriptiv usulida – Kichik janr matnlarining tuzilishi, semantik tarkibi va lingvistik xususiyatlari izohlangan holda tahlil qilindi. -Semantik tahlil usulida – Matnlardagi timsollar, metaforalar va ramziy ifodalarning semantik yuklamasi ochib berildi. -Tarjima usulida – Kichik janr matnlarining tarjima jarayonidagi muammolari va ularning ekvivalentligi masalalari tahlil qilindi. -Madaniyatlararo kommunikativ tahlil usuli – Kichik janr matnlarining madaniy kod sifatida jamiyatdagi o'rnni aniqlash maqsadida qo'llanildi.

Keltirilgan usullar tadqiqotning aniq va ishonchli natijalarga olib kelishimi ta'minladi hamda kichik janr matnlarining lingvomadaniy xususiyatlarni chuqr tahlil qilish imkonini berdi.

**Muhokama va natija.** Kichik janr matnlarining lingvomadaniy xususiyatlari va ularning madaniy kod sifatida namoyon bo'lishi masalasi tilshunoslik va madaniyatshunoslik sohalarida o'rganilishi kerak bo'lgan muhim mavzulardan biridir. Kichik janr matnlari, xususan, latifalar, maqollar, matallar va hikmatli so'zlar xalqning ma'naviy dunyosini, tarixiy tajribasini va mentalitetini o'zida mujassam etgan lingvomadaniy fenomenlar hisoblanadi.

Kichik janr matnlari lingvomadaniy kod sifatida bir nechta funksiyalarni bajaradi. Birinchidan, ular xalqning tarixiy va ijtimoiy tajribasini saqlab qolish va keyingi avlodlarga yetkazish vositasi sifatida xizmat qiladi. Masalan, latifalarda milliy xarakter, hazil, hayotiy tajriba va axloqiy qadriyatlар aks etadi. Ikkinchidan, kichik janr matnlari muloqot jarayonida muhim pragmatik vazifani bajaradi, ya'ni ular qisqa va mazmunli ifodalar orqali chuqr ma'nolarni yetkazish imkonini beradi. Uchinchidan, bunday matnlar madaniyatlararo kommunikatsiyada ham alohida ahamiyatga ega. Har bir xalq o'ziga xos lingvomadaniy kodga ega bo'lib, bu kod kichik janr matnlarida yaqqol namoyon bo'ladi. Masalan, ingliz va o'zbek latifalari taqqoslanganda, ularning mavzulari, timsollari va hajvning uslubi o'ziga xos farqlarga ega bo'lib, bu farqlar har bir millatning mentaliteti va dunyoqarashini aks ettiradi. Shu jihatdan, kichik janr matnlarining tarjimasini muayyan qiyinchiliklarga ega bo'lib, tarjima jarayonida faqatgina lug'aviy moslik emas, balki madaniy kodning to'g'ri yetkazilishi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Kichik janr matnlarini tarjima qilish jarayonida lingvomadaniy moslik va ekvivalentlik masalalari diqqat markazida bo'lishi lozim. Chunki bunday matnlar nafaqat

lingvistik, balki madaniy ma'lumotlarni ham o'z ichiga oladi. Shu bois, tarjimonlar uchun bunday matnlarni chuqr tahlil qilish va ularning madaniy kontekstini to'g'ri tushunish muhimdir.

Kichik janr matnlarining lingvomadaniy xususiyatlari va ularning madaniy kod sifatida namoyon bo'lishi masalasi keng yoritish, kichik janr matnlari nafaqat lingvistik birliklar, balki madaniy axborotni saqlovchi va avloddan-avlodga yetkazuvchi vositalar sifatida ham katta ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi. Tilshunoslik va qator sohalarda ushbu mavzuni yanada kengroq o'rganish, xususan, kichik janr matnlarining tarjima jarayonidagi o'ziga xos xususiyatlari va ularni o'qtish usullari bo'yicha chuqr tadqiqotlar olib borish muhim ahamiyat kasb etadi va dolzarb mavzu ekanligi bilan ajralib turadi.

**Xulosha.** Kichik janr matnlari, jumladan, latifalar, maqollar, matallar va boshqa qisqa hajmli janrlar xalqning madaniyati, tarixi va mentalitetini aks ettiruvchi muhim lingvomadaniy manba hisoblanadi. Ushbu matnlar nafaqat muloqot vositasi, balki madaniy kod sifatida ham namoyon bo'lib, muayyan xalqning dunyoqarashi, qadriyatlari va stereotiplarini ochib beradi.

Kichik janr matnlari turli xalq vakillari o'rtasidagi madaniy tafovutlarni yoritishda va ularni qiyosiy tahlil qilishda samarali lingvistik material bo'lib xizmat qiladi. Ayniqsa, tarjima jarayonida ushbu matnlarning lingvomadaniy jihatlari alohida e'tibor talab qiladi, chunki har bir til va madaniyat o'ziga xos semantik, pragmatik va stilistik xususiyatlarga ega. Shu bois, tarjima qilinayotgan matn faqatgina til darajasida emas, balki madaniy kontekst nuqtayi nazaridan ham moslashtirilishi lozim.

Kichik janr matnlarining lingvodidaktik ahamiyati ham katta bo'lib, ular til o'rganishda real kommunikativ holatlar va madaniy xususiyatlarni o'rganishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Ayniqsa, xorijiy tillarni o'rganishda latifalar va maqollar yordamida nafaqat so'z boyligi, balki o'sha tilning ichki madaniy kodlarini anglash ham osonlashadi.

Fikrimizcha, kichik janr matnlarida milliy o'ziga xoslik, tarixiy tajriba va xalq ongingin evolyutsiyasi aks etgan va shu matnlar orqali milliy identifikasiya va madaniy merojni saqlashga erishish mumkin. Zamona viy globallashuv jarayonida kichik janr matnlarining madaniy kod sifatidagi ahamiyati yanada ortib, ularni o'rganish va targ'ib qilish dolzarb vazifa sifatida qaralmoqda.

O'rgangan manbalardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, kichik janr matnlari nafaqat lingvistik, balki keng madaniy va ijtimoiy kontekstda ham tadqiq qilinishi lozim bo'lgan muhim fenomen hisoblanadi. Ularning tarjima jarayonida to'g'ri interpretatsiya qilinishi va madaniy kod sifatida tadqiq etilishi turli xalqlarning bir-birini anglashida, madaniy muloqotni rivojlantirishda ham muhim o'r'in tutadi. Shunday ekan, ushbu matnlarni lingvomadaniy va lingvodidaktik nuqtayi nazaridan yanada chuqr tadqiq etish zarurati mavjud.

## ADABIYOTLAR

- Chomsky, N. (1957). Syntactic structures. Mouton. [https://tallinzen.net/media/readings/chomsky\\_syntactic\\_structures.pdf](https://tallinzen.net/media/readings/chomsky_syntactic_structures.pdf) .
- Krashen, S. D. (1982). Principles and practice in second language acquisition. Oxford: Pergamon Press.
- [https://www.sdkrashen.com/content/books/principles\\_and\\_practice.pdf](https://www.sdkrashen.com/content/books/principles_and_practice.pdf)
- Austin, J. L. (1962). How to do things with words. Harvard University Press, 15 april. 1975 y. 168 p.
- Searle, J. R. (1969). Speech acts: An essay in the philosophy of language. Cambridge University Press. 2 jan. 1969 y. -203 p. <https://doi.org/10.1017/CBO9781139173438>
- Bakhtin, M. M. (1986). Speech Genres and Other Late Essays. University of Texas Press.
- <https://criticaltheoryconsortium.org/wp-content/uploads/2018/07/Bakhtin-Speech-Genres.pdf>
- Geertz, C. (1973). The interpretation of cultures: Selected essays. Basic Books. 1973. 470 p. <https://cdn.angkordatabase.asia/libs/docs/clifford-geertz-the-interpretation-of-cultures.pdf>
- Nida, E.A. and Taber, C.R. (1969) The Theory and Practice of Translation. E. J. Brill, Leiden. BRILL, 1 jan. 2003 y. – 218 p.[https://archive.org/details/theorypracticeof0000unse\\_p0n2/page/n5/mode/2up](https://archive.org/details/theorypracticeof0000unse_p0n2/page/n5/mode/2up)
- Newmark, P. (1988). A textbook of translation. Prentice Hall. Prentice-Hall International, 1988. 292 p. [https://books.google.co.uz/books/about/A\\_Textbook\\_of\\_Translation.html?id=ABpmAAAAMAAJ&redir\\_esc=y](https://books.google.co.uz/books/about/A_Textbook_of_Translation.html?id=ABpmAAAAMAAJ&redir_esc=y)
- Qiu, Xinyue. (2023). Cultural Differences and Translation Strategies. Journal of Education and Educational Research. 2. 100-105. 10.54097/jeer.v2i3.7741.



Dilraboxon RUSTAMOVA,  
Andijon davlat universiteti dotsenti, PhD  
E-mail: dilrabohonroostamova@gmail.com

Filologiya fanlari doktori, professor v.b. Sh.Hamroyeva taqrizi asosida

## ENSIKLOPEDIK LUG'AT MAQOLASINING LEKSIKOGRAFIK TALABLARI XUSUSIDA

Annotatsiya

Lug'atning qanday ommaga mo'ljallangani ensiklopediyaning muhim parametridan sanaladi. Lug'at mo'ljallangan auditoriya har qanday lug'atning annotatsiyasida ko'rsatilishi talab etiladi. Lug'at maqolasi mazmuni va tuzilishi haqida aytilgan fikrlardan ma'lum bo'ladidi, mazkur nashr terminologik lug'at emas, balki ensiklopediya xususiyatini aks ettiradi, chunki ma'lumotlari termin/ tushunchani izohlashga emas, balki ensiklopedik axborot bilan ta'minlashga qaratilgan. Mazkur maqolada ensiklopedik lug'atlarning o'ziga xos xususiyatlari, turlari, mazmun-mundarijasi muhokama qilingan.

**Kalit so'zlar:** Lug'at, ensiklopediya, ensiklopedik lug'at, leksikografiya.

## ON THE LEXICOGRAPHIC REQUIREMENTS OF ENCYCLOPEDIC DICTIONARY ENTRIES

Annotation

The intended audience of a dictionary is considered an important parameter of an encyclopedia. The target audience of a dictionary must be indicated in the annotation of any dictionary. From the statements made about the content and structure of dictionary entries, it becomes clear that this publication reflects the characteristics of an encyclopedia rather than a terminological dictionary, as its information is aimed not at explaining terms/concepts, but at providing encyclopedic information. This article discusses the specific features, types, and content of encyclopedic dictionaries.

**Key words:** Dictionary, encyclopedia, encyclopedic dictionary, lexicography.

## О ЛЕКСИКОГРАФИЧЕСКИХ ТРЕБОВАНИЯХ К СТАТЬЕ ЭНЦИКЛОПЕДИЧЕСКОГО СЛОВАРЯ

Аннотация

Назначенная аудитория словаря считается важным параметром энциклопедии. Целевая аудитория словаря должна быть указана в аннотации любого словаря. Из высказываний, сделанных о содержании и структуре словарных статей, становится ясно, что данное издание отражает характеристики энциклопедии, а не терминологического словаря, поскольку его информация направлена не на объяснение терминов/понятий, а на предоставление энциклопедической информации. В данной статье обсуждаются особенности, типы и содержание энциклопедических словарей.

**Ключевые слова:** Словарь, энциклопедия, энциклопедический словарь, лексикография.

**Kirish.** “Ensiklopediya (grek. – butun olam bilimini o’rganish) ilmiy va ilmiy-ommabop ma'lumotnomma nashr bo’lib, fan, kasb-hunarning barcha (universal) yoki ayrim sohalar (sohaviy) bo'yicha nisbatan keng axborotni qamrab oladi. Ensiklopediya ma'lumotlari tabiat va jamiyat haqida bo'ladi. Ular fanning ma'lum davrdagi taraqqiyot darajasini ko'rsatish bilan birga ideologik ahamiyat ham kasb etadi: o'zi tuzilgan jamiyat mafkurasini qo'llab-quvvatlaydi” [1]. Ensiklopedik lug'atlarda predmet, hodisa, tushunchalar, lingvistik ensiklopediyalarda esa predmet, hodisa va tushunchalar so'zlar haqida ma'lumotlar beriladi. Ensiklopedik lug'atlar ikki turga: universal (“Kratkaya rocciyckaya ensiklopediya”, “Detckaya ensiklopediya”, “Bolshoy ensiklopedichekiy clovar shkolnika”) va sohaviy ensiklopediyalarga (“Rucckiy yazik”, “Ensiklopedichekiy clovar yunogo filologa”, ensiklopedichekiy clovar “Yazikoznanie”) bo'linadi. “Lingvistik lug'at va ensiklopediya orasidagi aniq farq lug'at maqolasining bosh so'zlarini qiyoslashda ko'rindisi” [2]. Ensiklopediyalardan mashhur shaxslar, ma'lum bir fan sohasi haqidagi umumiy tasavvur beruvchi, turli voqealar haqida ma'lumotlar o'rinni oladi [3].

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Tuzilishiga ko'ra ensiklopediyalar alifboli (ensiklopediya materiali alifbo tarzida joylashadi) va sistematik turlarga bo'linadi. Hajmiga ko'ra katta (bir necha o'nlab tomlardan iborat), kichik (10-12 tomli), qisqa (4-6) hamda, odatda, “ensiklopedik lug'at” deb nomlanuvchi 1-3 tomli turlarga bo'linadi. Har bir ensiklopediya (turli sohalarga oid materiallar beruvchi) maxsus ishlab chiqilgan mundarija hamda so'zlik (lug'at maqlolarini tashkil etuvchi terminlarning to'liq ro'yxati)ga ega bo'ladi [1].

Manbalarda ensiklopedik lug'at maqlolarining umumiy tavsiyf maqola; ma'lumotnomma-maqola; izoh-maqola (faqat izoh, agar boshqa tildan o'zlashgan bo'lsa, etimologiyasi beriladi);

havola-maqola (boshqa terminga havola beruvchi maqola) kabi ko'rinishlari farqlanadi. Birinchi va ikkinchi turdag'i lug'at maqolasi bir-biridan hajmi bilan farqlanadi; ular ensiklopedik lug'atni ajratib turuvchi xususiyat bo'lib, odatda, ilmiy nazaroya tavsifi, tarixiy voqeja, geografik, biografik, statistik ma'lumotlar kabi muammollarni yoritadi. Yanada ko'proq ma'lumot olish ushun lug'at maqolasi oxiridagi adabiyotga, tom oxiridagi adabiyotlar ro'yxatiga yoki maxsus “bibliografik” tomga havola beriladi [1].

Ensiklopediyalarda illyustrativ materiallar: xarita, reja, sxema, chizma (tarh), rasm, fotosurat, portret, faksimil, tanga va bayroqlar rasmi hajm va mazmun jihatdan ahamiyatlari o'rinni egallaydi. Ko'p jildli ensiklopediyalar yordamchi ko'rsatkichlar bilan ta'minlangan bo'ladi.

O.V.Korobeynikovaning fikriga ko'ra, “ensiklopedik lug'atlar narsa, predmet, voqeja, hodisani so'z sifatida emas, balki o'zini tavsiflaydi”. Aynan shuning uchun ensiklopedik lug'atlarda predlog, olmosh, bog'lovchi, yuklamalarni uchratmaymiz, ba'zi hollarda fe'l, sifat va ravish turkumiga mansub so'zlar kelishi mumkin [4]. Ensiklopediyalar akademik leksikografiyada bo'lgani kabi mualliflik leksikografiyasiga ham tegishli. “Mualliflik leksikografiysi 1887-yilda paydo bo'lgan. Dante, SHekspir, Betxoven, Gyote, Alisher Navoiy, Amir Temur, Zahiriddin Muhammad Boburga bag'ishlangan ensiklopediyalar mavjud” [5]. Bunday nashrlarning haqiqatda ensiklopedik xarakterga ega ekanligi yoki ensiklopediya deb baholanishi ko'p vaqt leksikograflar bahsiga sabab bo'ldi. Masalan, J.Xeyman “Clovari i ensiklopedii” nomli asarida bu ikki leksikografik mahsulotning 5 ta aniq farqini ko'rsatadi:

1) ensiklopediya so'zni ekstralengvistik voqelik bilan, lug'at esa boshqa so'zlar bilan bog'liqligi nuqtayi nazaridan tavsiflaydi;

2) lug'at va ensiklopediya bir xil tushunchalarni turli xil ta'riflaydi: ensiklopediyada "yorug'lik", "tun", "yuqoriga", "pastga" so'zlarini ilmiy jihatdan ta'riflasa, lug'atda ular kundalik muloqotdagi tushuncha sifatida izohlangan;

3) ensiklopedik ma'lumotlar katta hajmga ega bo'lsa, lug'at faqat eng kerakli ma'lumotlarni o'z ichiga oladi;

4) lug'at so'zning semantikasini (belgi va ma'no o'rta sidagi munosabatni) aks ettiradi, ensiklopediyada qo'shimcha ravishda so'zning pragmatikasini ko'rsatadi (belgi va undan foydalanuvchi shaxslar o'rta sidagi munosabat);

5) lug'atdan farqli ravishda ensiklopediyada atoqli otlar ham tavsiflanadi [6].

Yuqorida aytigan farqlar nisbiy, chunki ba'zan bu ikki leksikografik mahsulot orasidagi farq sezilmay qoladi. V.V.Dubichinskiyning fikriga ko'ra, "hamma lug'atda ham ma'lum ma'noda ensiklopedik xarakterdagi ma'lumot saqlanadi. Hatto bugungi kunga kelib, lug'atlarda ensiklopedik xarakter kuchaymoqda" [7]. I.G.Olshanskiyning yondashuviga ko'ra, leksikografiya uchun ideal holat bu ensiklopedik, etnolingvistik, madaniyatga oid axborotlarni qamrab olgan izohli ensiklopedik lug'atdir [8]. N.Z.Kotelova esa "ensiklopediya lug'at emas, uning leksikografiyaga aloqasi yo'q. Uni lug'at deb hisoblashga asos bo'luchchi yagona belgi undagi birliklarning alifbo tartibida joylashuvdir" degan fikrni yoqlaydi [9].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ensiklopediya va lug'atlarini farqlashga oid munozaralar davom etmoqda. Masalan, so'zning mantiqiy sharhi bilan so'z ma'nosining izohli orasida chegara qo'yishning o'zi oson ish emas. So'z ma'nosini va u anglatgan predmet ma'nosini farqlab tavsiflash ham shunday muammolar sirasiga kiradi. J.Xeyman esa lug'at va ensiklopediya haqidagi an'anaviy tafovutlar haqidagi tasavvurimizni o'zgartiradi: uning fikriga ko'ra, ensiklopediya bu lug'atdir. Ko'rinadiki, ko'p olimlar ensiklopediya va lug'at orasida farq haqidagi turli fikrda.

O.V.Korobeynikovaning fikriga ko'ra, zamonaviy xorijiy leksikografiyada izohli lug'atlarini ensiklopediyaga aylantirish tendensiysi mavjud bo'lib, ta'kidlash kerakki, bu yondashuv dastlab Amerika lug'atchiligiga xos edi [4]. L.P.Stupinining yozishicha, AQShda nashr etilgan lug'atlarning Buyuk Britaniyadagi lug'atlardan ikki jihat bilan farqlanadi. Bu xususiyat 1934-yilda nashr etilgan Webster izohli lug'atiga ham xos. Birinchidan, ensiklopediyalar fan, texnika, san'at va maxsus soha terminologiyasini qamrab oladi; ikkinchidan, lug'at katta hajmdagi atoqli otlar: mashhur tarixiy shaxslar, san'at arboblari, shoir, yozuvchilar, amaldagi yozuvchi, rassom, san'atkorlarning ism, familia va taxalluslari; geografik nomlari, ko'cha va maydon nomlarini qamrab oladi. Bunday ikki turdag'i leksik qatlama ensiklopediyalar va maxsus lug'atlarning so'zlizlari ro'yxatini tashkil etadi. Masalan, Webster lug'atida filologik izohlar (so'zning semantikasi) bilan birga ensiklopedik ma'lumotlarga ham o'r'in ajratilgan.

G.Bejuaning ta'kidlashiga ko'ra, ko'pgina Amerika umumiyligi tipdagisi lug'atlari (general-purpose dictionaries) u yoki bu darajada ensiklopediyalarga xos bo'lgan makrostrukturaga ega. Amerika lug'atlarining ensiklopedik xususiyat kasb etishi lug'atlarda atoqli otlarning so'zlik ro'yxatiga kiritishdan boshlab ensiklopedik (encyclopedia-type definitions) ma'lumotlarga gacha bo'lishi bilan izohlanadi [10]. Keyinchalik izohli lug'atlarga ensiklopedik ma'lumotlarni qo'shish Britaniya leksikografik industriyasiga ham kirib keldi. Masalan, Longman Dictionary of English Language and Culture, Collins Concise English Dictionary, Collins COBUILD English Dictionary, Longman Dictionary of the English Language kabi lug'atlarga gazeta va jurnal nomlari, tashkilot, kompaniya, bank va magazin nomlaridan boshlab mashhurlar biografiyasigacha turli xildagi ensiklopedik ma'lumotlar kiritilgan.

V.G.Gakning fikricha, nazariy va amaliy leksikografiyaning rivojlanishining hozirgi bosqichida lingvistik va ensiklopedik lug'at xususiyatlarini birlashtirish tobora tabiiy jarayon sifatida qabul qilinmoqda [11]. Bizningcha, zarur ekstralengvistik ma'lumotlarning izohli lug'atda aks etishi lug'at maqolasining axborot imkoniyatlarini oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqotchi bu jarayonni so'nggi 20-25 yilda boshqa mamlakatlardan ko'plab migrantlarning ko'chib kelishi, migrantsiya jarayonlari bilan bog'laydi. Ular ushun ingliz

jamiyatining hozirgi kungacha bo'lgan ko'plab realiyalari tushunarsiz. Shuning uchun ko'pgina zamonaviy ingliz lug'atlarining mualliflari izohli-ensiklopedik tavsifga murojaat qilishadi, natijada, lug'atlarining izohli-ensiklopedik yo'naliishi kuchayadi [13].

Filologik (lingvistik) lug'atlarni tavsiflashning asosiy obyekti til birliklaridir. Filologik turdag'i lug'atlar odamlarning nutqiy faoliyatida foydalananidigan lisoniy vositalar borasidagi ma'lumotlarni saqlaydi. Bunday lug'atning ensiklopedik lug'atdan asosiy farqi o'quvhiga so'zni to'g'ri talaffuz qilish, yozma nutqning to'g'ri va ravon bo'lismiga erishish, boshqalar tomonidan yozilgan matnni to'g'ri tushunishga yordam beradigan ma'lumotlarni beradi. Lisoniy ma'lumotlarni qamrab olgan spravochniklardan foydalananish kishiga nutqiy ko'nikmalarining shakllantirishga yordam beradi.

Ensiklopedik spravochniklarning asosiy obyekti mustaqil so'z, so'z birikma, mazkur tushuncha bilan bog'liq olam va shaxs haqidagi bilim (ma'lumotlardir. Demak, ensiklopediya va spravochniklarda tilga oid bo'limgan voqeliklar xarakterlanadi: ya'ni predmet va narsalar haqidagi bilimlarimiz, tabiat va jamiyat hodisalariga oid tushunchalar bayon qilinadi, kishilarning tarjimayi holi keltiriladi, muhim voqealar haqida ma'lumotlar beriladi, tarixiy sanalar ko'rsatiladi. Ushbu turdag'i lug'atlar atrofimizdagi olam haqidagi to'plamdir.

Ensiklopedik tipdagisi spravochniklarning tavsif obyekti nolisoniy voqelik bo'lib, masalan, lingvistik ensiklopedik lug'at dunyo tillari haqidagi bilimlarni o'z ichiga oladi, ular ma'lum bir tilga, tillar guruhi yoki barcha tillarga xos xususiyat, hodisalarini aks ettiruvchi maxsus tushuncha/ atamalar bilan belgilanadi.

Ensiklopedik lug'at hajmining parametri lug'atning miqdoriy tarkibini emas, balki uning sifatini belgilaydi. Demak, chichik hajmli ensiklopediyalarda so'zlar soni kam emas, balki lug'at tavsifi obyekti uchun eng zarur bo'lgan, minimal miqdordagi lug'at birliklari mayjud. O'rta hajmli ensiklopediyalar lug'atning shunday miqdoriy tarkibini o'z ichiga oladi, uning yordamida lug'at tavsifi obyektiga mos keladigan lisoniy birliklarning asosiy qismi tavsiflanadi. Katta hajmli ensiklopediyalar lug'at tarkibini tashkil etuvchi lug'aviy birliklarining (imkonli boricha) eng katta hajmni qamrab oladi, bu akademik ensiklopediyalarga xos holatdir.

Ensiklopediyaning ko'plab parametrleri mazkur nashr mo'ljallangan o'quvchilar toifasi(qatlami)ga bog'liq. Spravochniklar, odatda, o'z ona tili olamni o'zlashtirish yoki chuqr o'rganish uchun, shu bilan birga mazkur til xorijiy til sanalgan kitobxonlar ushun mo'ljallanadi [14].

Ensiklopedik lug'atning xususiyatini yanada chucherroq izohlash maqsadida ayrim ensiklopediyalarning makro va mikro strukturasini tahsil qilamiz.

Ensiklopediyalar orasida "Lingvistik ensiklopedik lug'at" [15] e'tiborimizni tortadi. Mazkur ensiklopediya alohida soha - lingvistikaga bag'ishlangan. Undagi tushunsha(termin)lar lingvistika, dunyo tillari va tilshunoslik bilan bog'liq soha terminlariga oid. A.S.Gerd lingvistik ensiklopediyaga yozgan taqrizida bu ensiklopediyaning lug'at maqolalari haqida shunday yozadi: "Alohida tillar va til oilalari haqida yozilgan maqolalar juda muvaffaqiyatlari chiqqan. Bu tavsiflardagi metatil keng kitobxonlar ommasiga mo'ljallangan va ular uchun tushunarli. Har bir lug'at maqolasida uning tipik xususiyatini bildiruvchi (alohida e'tiborga molik jihat) qo'yilgan, keyin uning areali ko'rsatilgan, o'sha tilda gapiruvchilar soni, mazkur til shevalari, struktur xususiyatlari va o'ziga xosligi, adabiy til va sheva munosabati, yozuvni hamda adabiy tili haqida ma'lumot keltirilgan" [16].

**Tahhil va natijalar.** Lingvistika soha(fan)lari, yo'naliishlari, yozuv turlari haqidagi lug'at maqolasining o'ziga xos xususiyati haqida: "bunday maqolalar mantiqiylik va aniqlik tamoyiliga asoslangan"ligini ta'kidlaydi. "Bir qarashda LES (Lingvisticheckiy ensiklopedicheckiy clovar) ikki qismiga: tillar va asosiy nazariy tushunchalar lug'atiga bo'lingandek tuyuladi. Ammo bu ziddiyat faqat zohiriylar bir belgi. Birinchidan, tillar haqidagi lug'at maqolalari ham lingvistik terminlar va ularning izohli bilan boyitilgan. Ikkinchidan, bu ikki qismni bog'lab turuvchi narsa bu tillarning tarixi, fanlar (germanshunoslik, slavyanshunoslik, fin-ugorshunoslik) va tilshunoslik tarixidir"

[16]. A.S.Gerdning fikricha, lug'at maqolalarining umumiy alifbo tartibini qulay, to'g'ri deb hisoblash maqsadga muvofiq. Umuman, lug'atda asosiy va turlangan terminlar, ularning sinonimlari va transkripsiyasi keltirilgan. Har bir lug'at maqolasi bibliografiya bilan ta'minlangan [16].

Boshqa bir ensiklopediyaning xususiyatlarini tahlil qilsak, uning farqli va o'xshash tomonlari ochiladi. Fizik geografiya bo'yicha to'rt tilli ensiklopediyadan [17] mazkur fan tarmog'i hamda shu sohaga yaqin fanlar – geologiya, astronomiyaga oid 5700 ta termin o'rinni olsigani. Mazkur terminlar rus va uning analoglari: ingliz, nemis, va fransuz tillaridagi ensiklopedik izohlar bilan boyitilgan. Ensiklopediyada ingliz, nemis va fransuz tillaridagi alifboli ko'rsatkich mavjud. Lug'atning ikkinchi qismida ingliz, nemis va fransuz tillaridagi ko'rsatkichning mavjudligi mazkur ensiklopediyaning bir vaqtning o'zida izohli (chunki ensiklopedik ma'lumotli izohli lug'at maqolalaridan tashkil topgan) hamda ko'p tilli tarjima lug'at sifatida foydalanishiga va lug'atni "ko'p tilli ensiklopedik-tarjima lug'at" deb baholashga asos bo'ladi. Lug'at maqolasining bosh so'zi sanalgan, boshqa tillardan o'zlashgan terminning etimologik xususiyatlari ham yoritilgan. Bu esa kitobxonga terminning qaysi tildan olinganligini bilishga yordam beradi [17].

Demak, birinchidan, ko'p tilli ensiklopediyalarda so'zlik alifbo tartibida bo'lgan faqat bitta tildagi so'zni topish emas, balki alifbo tartibidagi ko'rsatkich yordamida boshqa tillardagi so'zlarni ham topib, uning tarjimasini ko'rish mumkin. Ikkinchidan, terminologik lug'at maqolasida so'zning etimologiyasi haqida ma'lumot berilsa (agar u o'zlashtirma termin bo'lsa, bu yanada muhim ahamiyat kasb etadi), ensiklopediyadan etimologik lug'at sifatida foydalanish imkoniyati paydo bo'ladi. Bu esa ensiklopediyaning ko'p funksiyalilagini yanada oshiradi.

Brokgauz va Efron ensiklopedik lug'ati [18] («Ensiklopedichekiy clovar Brokgauza i Efrona» (abbr.: ESBE)) rus tilidagi universal ensiklopediya bo'lib, 1890-1907-yillarda

"F.A.Brokgauz – I.A.Efron" (Peterburg) nashriyot jamiyatini tomonidan chop etilgan. Nashr 2 variantida – 41 asosiy va 2 qo'shimcha jild (tirajning kam qismi) hamda 82 asosiy va 4 qo'shimcha jild ko'rinishida amalga oshirilgan. Ensiklopediyada 121 240 maqola, 7800 illyustratsiya va 235 xarita keltirilgan. 1899-1902-yillarda 3 jildli Kichik Brokgauz va Efron ensiklopedik lug'ati («Mályi ensiklopedicheckiy clovar Brokgauza i Efrona» (MESBE)); 1907-1909-yillarda uning 4 jildli ikkinchi nashri amalga oshirilgan.

Ensiklopediyaning o'ziga xosligi. Mazkur ensiklopediyada Rossiya tarixi, fani, ta'limi, sanoati, madaniyati haqidagi ma'lumotlar katta qismni egallagan. Masalan, "Rossiya" lug'at maqolasi ikki jildni egallagan.

Bundan kelib chiqib aytish mumkinki, ensiklopediyada ma'lumot hajmiga chegara qo'yilmaydi. Ma'lum narsa, voqelik/hodisa haqida ensiklopediya maqsadiga ko'ra istalgan hajmda maqola bo'lishi mumkin. Shuningdek, lug'at maqolalari hajmida o'zaro mutanosiblik bo'lishi ham majburiy emas.

**Xulosa va takliflar.** Birinchidan, ensiklopedik lug'atlar terminlar lug'atidan lug'at maqolasi mazmuni va mikrostrukturasingiz erkinligi bilan farqlanadi. Terminlar lug'atida mikrostruktura shablon tarzida hamma lug'at maqolasida takrorlansa (barcha lug'at maqolalarida bir parametr, unsur bo'yicha termin baholanadi, izohlanadi), ensiklopedik lug'atlarda bu tamoyil amal qilmaydi. Lug'at maqolasi muallifi uslubiga daxil qilinmaydi. Ikkinchidan, terminologik lug'at kam sonli (odatda, bunday lug'atlarni tuzishda birdan to'rttagacha muallif ishtiroy etadi) mualliflar ishtiroy etganligi uchun ularning maqolalari bir uslubga yaqinlashtiriladi hamda lug'at maqolasi tarkibiy qismlariga talab qo'yiladi. Chunki lug'at birliklari – terminlar bir xil parametrlar asosida tavsiflanadi. Ensiklopedik lug'atlarda mualliflar soni juda ko'p bo'lib, lug'at maqolasi tarkibi erkin bo'ladi.

## ADABIYOTLAR

1. <https://www.booksite.ru/fulltext/1/001/008/126/748.htm>
2. <https://lingvotech.com/tipislovarey>
3. [http://ebooks.grsu.by/pustoshilo\\_lang/3-printsipy-klassifikatsii-i-tipy-slovarej.htm](http://ebooks.grsu.by/pustoshilo_lang/3-printsipy-klassifikatsii-i-tipy-slovarej.htm)
4. Коробейникова О.Б. Об особенностях толкований в энциклопедических словарях//[http://www.rusnauka.com/CCN/Philologia/6\\_korobeynikova.doc.htm](http://www.rusnauka.com/CCN/Philologia/6_korobeynikova.doc.htm)
5. Lindsay M. The Burns encyclopedia. – L., 1959.; Campbell V.C., Quinn E.A. Shakespeare encyclopedia. – Methuen, 1966.
6. Haiman J. Dictionaries and encyclopedias. Lingua 50, 1979. – P. 33.
7. Дубчинский В.В. Искусство создания словарей. Конспекты по лексикографии. – Харьков, 1994.
8. Ольшанский И.Г. Лингвокультурология в конце XX в.: итоги, тенденции, перспективы // Лингвистические исследования в конце XX в. – М., 2000. – С. 45-46.
9. Котелова Н.З. Семантическая характеристика терминов в словарях. – М., 1976. – С. 33.
10. Béjoint H. Traditions and Innovations in Modern English Dictionaries. – Oxford, 1994. – P. 48-49.
11. Гак В.Г. Проблема создания универсального словаря (энциклопедический, культурно-исторический и этнолингвистический аспекты) // Национальная специфика языка и ее отражение в нормативном словаре. – М., 1988.
12. Карпова О.М. Библиографический указатель словарей языка английских писателей (XVI – XX вв.). – Иваново, 1993.
13. [http://www.rusnauka.com/CCN/Philologia/6\\_korobeynikova.doc.htm](http://www.rusnauka.com/CCN/Philologia/6_korobeynikova.doc.htm)
14. <https://herzena.ru/index.php/dictionary/type>
15. <http://tapemark.narod.ru/les/recenzija.html>
16. Герд А.С. [Рецензия] // Известия Академии наук СССР. Серия литературы и языка. – М.: Наука, 1991. – Т. 50. № 4. – С. 373-375. – Рец. на кн.: Лингвистический энциклопедический словарь / Гл. ред. В.Н.Ярцева. – М.: Сов. энциклопедия, 1990. – 683 с. (<http://tapemark.narod.ru/les/recenzija.html>) (Мурожаат санаси: 19.07.2023)
17. Щукин И.С. Четырехязычный энциклопедический словарь терминов по физической географии Редактор(ы): Спиридовон А.И. Издание: Советская энциклопедия, Москва, 1979. – 703 с.
18. <https://ru.wikipedia.org/wiki/>



Akmal SAFAROV,

Qarshi davlat universiteti tayanch doktoranti

E-mail:akmal.safarov1996@mail.ru

Dotsent, PhD O. Rahmonqulova taqrizi asosida

## IRRIGATOR KADRLAR TAYYORLASH BORASIDAGI QARORLAR TAHLILI

Annotatsiya

Mazkur maqloda keying yillarda respublikamizda sug'orish tizimida irrigator kadrlar tayyorlash borasida amalga oshirilayotgan islohotlar doirasida qabul qilingan qonunlarning tahlili berilgan bo'lib, bu maqlada asosan Qashqadaryo viloyati misolida yuritilgan statistik ma'lumotlar qaror va farmoishlardan kelib chiqib yaratilgan.

**Kalit so'zlar:** Professional ta'lif tizimi, irrigatsiya, suv xo'jaligi, mexanizatsiyalash, Orol dengizi, kadr, melioratsiya.

## ANALYSIS OF DECISIONS ON THE TRAINING OF IRRIGATORS

Annotation

This article provides an analysis of the laws adopted in recent years within the framework of the reforms implemented in our republic on the training of irrigators in the irrigation system. This article mainly uses the example of the Kashkadarya region as a basis for statistical data generated from decisions and orders.

**Key words:** Professional education system, irrigation, water management, mechanization, Aral Sea, personnel, land reclamation.

## АНАЛИЗ РЕШЕНИЙ ПО ПОДГОТОВКЕ ИРРИГАТОРОВ

Аннотация

В данной статье дается анализ законов, принятых за последние годы в рамках проводимых в нашей республике реформ по подготовке кадров ирригаторов в системе орошения. Статья написана на основе статистических данных, в основном на примере Кашкадарьинской области, на основе постановлений и распоряжений.

**Ключевые слова:** Система профессионального образования, орошение, водное хозяйство, механизация, Аральское море, кадры, мелиорация земель.

**Kirish.** Bugungi kunda dunyoda ro'y berayotgan siyosiy jarayonlar natijasida ko'plab mamlakatlar o'rtasida harbiy ixtiolar ro'y bermoqda. Bu kabi ixtiolarning ko'plab sabablari mavjud, shunday sabablardan biri bu shubhasiz suv muommosidir. Albatta global havo isishi natijasida mintaqalarda suvga bo'lgan ehtiyoj ortib ba'zi mamlakatlar o'rtasida transchegaraviy daryolardan foydalanish masalasida hukumatlar o'rtasida kelishmovchilik paydo bo'lib, davlatlar buni qulor kuchi bilan yechishga urinishi harbiy ixtiolfarga yo'l ochmoqda. Masalan, Eron va Afg'oniston o'rtasida paydo bo'lgan Helmand daryosidan foydalanan borasidagi kelishmovchilikni bunga misol tariqasida keltirib o'tishimiz mumkin [1] Shu bilan birga, tahlillar shuni ko'rsatadi, bunday holat Markaziy Osiyoda ham yuz berishi mungkin. Ma'lumki, O'rta Osyo gidrografik tarmog'ining o'ziga xos xususiyati uning suv havzalarining niroyatda notejis taqsimlanishi bilan belgilanadi. Mintaqaning barcha respublikalariga yetqazib beriladigan hamda foydalanimadigan asosiy suv manbalari ikki davlat chegarasida joylashgan. Orol dengizi havzasining asosiy arteriyalari oqimi asosan Qirg'iziston – Sirdaryo (80%) va Tojikiston – Amudaryo (83%) hududlarida hosil bo'ladi. Ikkinchisi O'rta Osiyodagi eng katta daryo bo'lib, uzunligi 2540 km. Amudaryo havzasini taxminan 62,9 kubometri tashkil qiladi. km jami suv zahiralarining (64 kub km) Tojikiston hududida hosil bo'lgan. Bundan tashqari, respublika muzliklariada katta hajmdagi suvni o'z ichiga oladi - Markaziy Osyo zahiralarining 60% dan ortig'i mintaqqa daryolari muvozanatini tartibga soladi. Sirdaryo Farg'ona vodisining sharqiy qismida Norin va Qoradaryoning qo'shilish joyida hosil bo'lib, uzunligi 2337 km; uning gidroresurslari 40,6 kubometri tashkil etadi [2] va aynan xuddi Eron va Afg'oniston o'rtasida sodir bo'lgan holat biz va qo'shnilarimiz o'rtasida ham sodir bo'lishi ehtimoli mavjud. Va, albatta, bugungi kunda dunyoda suv muommolariga yechim taklif etuvchi bir qator tashkilot, shartnoma va kelishuvlar ishlab chiqilgan. Xususan, BMT ning suv resurslari bo'yicha mexanizmi UN-Water xalqaro platformasi BMTga a'zo davlatlar o'rtasida suv bilan bog'liq muommolarini o'rganib yechib taklif qilayotgan bo'lsa, xuddi shunga o'xshash faqat Markaziy Osiyoga

tegishli muommolarga yechim izlash, Markaziy Osiyodagi transchegaraviy daryolardan samarali foydalanish masalalarida hamfikrlikni uyg'unlashtirish maqsadida CARES (Central Asia Regional Environmental-Markaziy Osyo Mintaqaviy Ekologik markazi) faoliyat yuritmoqda

O'zbekistonda ham bu kabi muammolarni kelib chiqishini oldini olish maqsadidada bir qator tadbirlar amalga oshirilidi, kelishuvlarni imzolandi. Xususan, 2017-yilda O'zbekiston va Qirg'izistonning suv masalalari bo'yicha hukumatlararo qo'shma komissiyasi tuzildi, ikki davlat 2022-yilda Andijon (Kampirobd) suv omborining suv resurslarini birligida boshqarish to'g'risidagi bitimni ratifikatsiya qilishdi; 2018-yilda O'zbekiston va Tojikiston Farhod va Rog'un GESlari bo'yicha o'zar manfaatlari kelishuvga erishgan bo'lsa, 2022-yilda har ikki davlat davlat rahbarlari Zarafshon daryosida Yovon GESini qurish tashabbusi bilan chiqdilar; 2021-yilda Qozog'iston, Qirg'iziston va O'zbekiston o'rtasida To'xtag'ul suv omboridan foydalanish bo'yicha kelishuvga erishilgan edi. [3] Albatta bu sayi harakatlarning barchasi prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev nomi bilan bog'liq bo'lib, prezidentlikning dastlabki yillaridayoq Shavkat Mirziyoyev Orol muommosiga urg'u berib jahon hamjamoyaatini ushbu muommoning ildizlariga e'tibor berishini va agar uning oldini olinmasa yanada chuqurlashib ekologik flakotlar sodir bo'lishi haqida bir necha marotaaba aytib o'tgan. Jumladan, prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2018-yili Mo'ynoqqa tashrifi chog'ida "Global isish muammosi kuchayib, yog'ingarchilik kamayayotgan bugungi asrimizda Orol dengizini qutqarish tobora imkonsiz bo'lib bormoqda. Bunday sharoitda yagona yo'l - borini asrab qolish, fojia ta'sirini kamaytirish, odamlar hayotini osonlashtirish"- deya ta'kidlab o'tdi [4]

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Mustaqillikning dastlabki yillaridayoq O'zbekistonda sug'orish tizimiga doir ko'plab qaror va farmonlar qabul qilingan bo'lib, bu sohada qabul qilingan farmonlarning dastlabkisi O'zbekiston Respublikasi prezidenti huzuridagi Vazirlar mahkamasi tomonidan 1992-yil 5-fevraldag'i "Toshkent qishloq xo'jaligini irrigatsiyalash va mexanizatsiyalash injelerlari institutida injener kadrlarini

tayyorlash haqida”gi, shuningdek, O’zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Vazirlar mahkamasining 1992-yil 11-apreldagi “O’rta Osiyo ilmiy-tadqiqot institutining ilmiy ishlab chiqarish birlashmasi haqida”gi qarorlar bo’lib ushuq qarorlar keyingi yillarda qabul qilingan qarorlar uchun o’zak vazifasini bajardi. Keyingi yillarda suv xo’jaligida kadrlar masalasiga oid ko’plab qaror va farmoyishlar qabul qilinganiga qaramay ushuq masala chuqur viloyatlar misolida o’rganilmagan va ilmiy maqola va adabiyotlar deyarli yaratilmaganligi mavzuning ilmiy yangiligini ko’rsatib beradi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ushbu maqola ma’lumotlarini tayyorlashda tarixiy metodlardan huquqiy va miqdoriyah tahlil, tizimlilik kabi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalansildi

**Tahlil va natijalar.** Suv masalasidagi o’zaro mahalliy kelishmovchiliklarni hal qilish hukumatlar oldiga bir qancha vazifalarini bajarishni shart qilib qo’yadi: birinchidan: suvdan foydalanish borasida mamlakatlar o’tasida huquqiy asos yaratish; ikkinchidan: suv masalalarida uzoqni ko’ra oladigan, uning sarflanishini nazorat qiladigan bilimli irrigator kadrlarni tayyorlash; uchinchidan: suvdan foydalanish borasida tejovchi texnologiyalarni yaratish. Bilamizki, qishloq xo’jaligining asosiy yuragi hisoblangan suv xo’jaligida malakali kadrlarni tayyorlash va ularning iqtidori hamda malakasidan foydalanish suvni o’rinli va iqtisod qilib ishlashicha muhim ahamiyat kasb etadi.

O’zbekiston mustaqillikka erishgan dastlabki yillarda bunga ahamiyat berilgan bo’lsa-da, tom ma’noda bu vazifani bajarishni yangi bosqichga ko’tarish Prezident Sh.Mirziyoyevning shaxsan tashabbuslarida ko’rinadi. Jumladan, prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2018-yil 8-maydagagi “Toshkent irrigatsiya va qishloq xo’jaligini mexanizatsiyalash muhandislari institutida oliy ma’lumotli kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ-3702-sonli [5] qarorida ham qishloq xo’jaligi sohasida malakali irrigator kadrlar bilan bog’liq muammolar mayjudligi va suv xo’jaligida malakali kadrlarni tayyorlash zarurligi aytib o’tilgan.

Kollej nomi	Yo’nalish nomi
G’uzor qishloq xo’jaligi kasb-hunar kolleji	Sug’oriladigan yerlar meliorativ tizimlari bo’yicha texnik
Koson qishloq xo’jaligi kasb-hunar kolleji	Sug’oriladigan yerlar meliorativ tizimlari bo’yicha texnik
Qamashi qishloq xo’jaligi kasb-hunar kolleji	Sug’oriladigan yerlar meliorativ tizimlari bo’yicha texnik
Yakkabog’ qishloq xo’jaligi kasb-hunar kolleji	Sug’oriladigan yerlar meliorativ tizimlari bo’yicha texnik[10]

Yuqoridagi jadvalda berilgan kollejlar uchun aynan tayanchi oliy o’quv yurti sifatida Toshkent irrigatsiya va qishloq xo’jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti belgilanishining o’ziyoq sohaga berilayotgan yuksak e’tibordan dalolat beradi.

Aynan so’nggi yillarda bu sohada ya’ni suv xo’jaligida irrigator kadrlar tayyorlash masalasi yanada dolzarblashib asosiy

Xususan, quyidagi jadvalda Qashqadaryo viloyatida tashkil etilgan ana shunday kollejlar berib o’tildi.

T/r	Qamashi tumani shahar nomi	Kasb-hunar kolleji nomi	Kasb-hunar kolleji quvvati	Tizimiga kasb-hunar kolleji o’tkazilayotgan vazirlik, idora va tashkilotlar nomi	Vazirlilik, idora va tashkilotlarining ta’lim muassasalarini nomi
1	Qamashi tumani	Qamashi qishloq xo’jalik kasb-hunar kolleji	750	Suv xo’jaligi vazirligi	Qamashi suv xo’jaligi va melioratsiya kolleji
2	Kashki tumani	Denov qishloq xo’jalik kasb-hunar kolleji	750	Suv xo’jaligi vazirligi	Kasbi suv xo’jaligi va melioratsiya kolleji

**Xulosa va takliflar.** Xulosa qilib aytadigan bo’lsak, bunday professional ta’lim tashkilotlarining tashkil etilishi va suv xo’jaligi sohasiga ixtisoslashuvi eng avvalo suv resurslarini yanada qadrlash hamda bu sohada yuksak malakali kadrlarni vujudga keltirish maqsadida sohaga berilayotgan e’tibordir. Ya’ni

masalaga aylanganini prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2019-yil 6-sentabrda imzolangan PF-5812 sonli “Professional ta’lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida” gi qarorda ham ko’rishimiz munkin ya’ni ushuq qarorda ba’zi kasb-hunar maktablari negizida aynan alohida suv xo’jaligiga ixtisoslashgan kollejlar ham takhil topgani fikrimizning isbotidir [11].

## ADABIYOTLAR

- Mohammad Assem Mayar “The long winding river: Unravelling the water dispute between Afghanistan and Iran” Afghanistan Analysts Network-2023
- Bekduriyeva Gulmira Axmatjonovna “Markaziy Osiyoda ekologik siyosatning konseptual asoslari” Buxoro Davlat Universiteti ilmiy axboroti. Buxoro-2024-yil,5-son.
- Sanjar Umirzoqov “O’zbekistonning transchegaraviy suv resurslaridan foydalanish bo’yicha siyosati” Aqua Xalqaro ilmiy-ommabop jurnalı 2024-yil may-iyun soni.
- President.uz “Shavkat Mirziyoyev Orol dengizining qurigan tubiga bordi”
- O’zbekiston Respublikasi prezidentining 2018-yil 8-maydagagi “Toshkent irrigatsiya va qishloq xo’jaligini mexanizatsiyalash muhandislari institutida oliy ma’lumotli kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ-3702-sonli qarori

Shubhasiz, mamlakatimizda ushuq vazifani bajarish maqsadida mustaqillik yillardan hozirga qadar ko’plab qaror va farmoyishlar yaratildi, ayniqsa, bu jarayon keyingi yillarda yanada jadallahdi. Xususan, prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2024-yil 7-maydagagi “Suv xo’jaligida zamonaqiy boshqaruv tizimini joriy qilish va rivojlantirishning ustuvor yo’nalishlarini belgilash to’g’risida” PF-74 –sonli farmon fikrimizning yaqqol dalilidir. Farmonda O’zbekistonda suv xo’jaligini rivojlantirishning asosiy yo’nalishlaridan biri sifatida mehnatga haq to’lash tizimini takomillashtirish orqali sohaga malakali mutaxassislarini jaflab qilish va kadrlar qo’nimsizligini kamaytirish sanab o’tiladi[6]

Albatta, bugungi kunda suv xo’jaligi sohasida malakali kadrlar yetishmovchiligi hamda suv xo’jaligi sohasida innovatsiyalar yo’lga qo’yilmagan xususan, “Qashqadaryoda tomchilatib sug’orish jami sug’oriladigan maydonning bor-yo’g’i 2,4 foizida joriy qilingan” [7] bundan tashqari ba’zi hududlarda suv xo’jaligi masalasi oqsayapti bu haqida prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2020-yil 13-noyabrda Qashqadaryoga tashrif davomida “Noto’g’ri sug’orish oqibatida yerlarning 45 foizi sho’rlangan. Ayniqsa, bu borada Muborak, G’uzor, Nishon va Kosonda ahvol juda og’ir. 38 ming gektar maydon foydalanishdan chiqib ketgan” [8] de’ya takidlab o’tgan. Bunday muommolarning vujudga kelishi hech shubhasiz kadrlar masalasi bilan chambarchas bog’liqdir. Buning oldini olish maqsadida prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2017-yil 24-maydagagi PQ-3003 “Qishloq va suv xo’jaligi tarmoqlari uchun muhandis-teknik kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish chorata-dbdirlari to’g’risidagi [9] qarori imzolandi va aynan ushuq qaror bilan irrigator kadrlarni tayyorlovchi bir qator institutlar va kollejlar uchun tayanch institutlar belgilab berildi va sifatlari irrigator kadrlar tayyorlash vazifasi yuklandi, xususan, shunday kadrlar tayyorlovchi kollejlar va ulardagi yo’nalishlar Qashqadaryo viloyati misolida quyidagi jadvalda berib o’tilgan:

Yo’nalish nomi
Sug’oriladigan yerlar meliorativ tizimlari bo’yicha texnik
Sug’oriladigan yerlar meliorativ tizimlari bo’yicha texnik
Sug’oriladigan yerlar meliorativ tizimlari bo’yicha texnik

ushbu sohaning bugungi davrga javob beradigan sohaga aylantirish va shu orqali ekologik holat butkul yomonlashishining oldini olishdir. Zero, biz bugun bu sohada SSSR davrida o’ylamay amalga oshirilgan qo’shtirnoq ichidagi islohotlar natijasida orol fojeasining taqdirini guvohi bo’lib turibmiz.

6. O'zbekiston Respublikasi prezidentining 2024-yil 7-maydagi "Suv xo'jaligida zamonaviy boshqaruva tizimini joriy qilish va rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash to'g'risida" PF-74 -sonli farmoni.
7. Prezident.uz "Qashqadaryo o'zining salohiyatiga mos yashamayapti" prezident Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 13-noyabrda Qashqadaryoga tashrifi chog'ida so'zlangan nutqidan
8. Prezident.uz "Qashqadaryo o'zining salohiyatiga mos yashamayapti" president Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 13-noyabrda Qashqadaryoga tashrifi chog'ida so'zlangan nutqidan
9. O'zbekiston Respublikasi prezidentining 2017-yil 24-maydagi "Qishloq va suv xo'jaligi tarmoqlari uchun muhandis-texnik kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3003-sonli qarori
10. Maqolada faqat kollejlarning suv xo'jaligiga oid bo'lgan yo'nalish nomi berilgan.
11. O'zbekiston Respublikasi prezidentining 2019-yil 6-sentabrda imzolangan "Professional ta'limgiz tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi PF-5812 sonli qarori



**Kamola ULUG'MURODOVA,**

Profi University Navoiy filiali katta o'qituvchisi, PhD  
E-mail: kamolamurodullayevna@gmail.com

"Gumanitar va aniq fanlar" kafedrasini o'qituvchisi f.f.n. dots. M.B.Xudoyorova taqrizi asosida

### THE IMAGE OF LAYLI IN UZBEK CLASSICAL POETRY (ON THE EXAMPLE OF THE WORK OF LUTFIY AND H. KHORAZMI)

Annotation

In this article, the artistic interpretation of the image of Layli, used in the works of Maulana Lutfi and Hafiz Khorezmi, who made a significant contribution to the development of our classical poetry, is consistently analyzed. The content and essence of this phrase, how many times it was used in the work of poets, as well as its forms are explained in detail.

**Key words:** Lutfiy, H. Khorezmi, Layli, Majnun, image, symbol, poetry, classical, mysticism, friend, lover.

### ОБРАЗ ЛАЙЛИ В КЛАССИЧЕСКОЙ УЗБЕКСКОЙ ПОЭЗИИ (НА ПРИМЕРЕ ТВОРЧЕСТВА ЛУТФИЯ И ХАФИЗА ХОРАЗМИ)

Аннотация

В данной статье последовательно анализируется художественная интерпретация образа Лейли, использованная в творчестве Маулана Лютфи и Хафиза Хорезми, внесших значительный вклад в развитие нашей классической поэзии. Подробно разъясняется содержание и суть этого словосочетания, сколько раз оно употреблялось в творчестве поэтов, а также его формы.

**Ключевые слова:** Лутфий, Х. Хорезми, Лейли, Меджнун, образ, символ, поэзия, классика, мистика, друг, возлюбленный.

### LUTFIY VA HOFIZ XORAZMIY SHE'RIYATIDA LAYLI OBRAZINING BADIY TALQINI

Annotatsiya

Mazkur maqolada mumtoz she'riyatimiz taraqqiyotiga munosib hissa qo'shgan Mavlono Lutfiy hamda Hofiz Xorazmiy ijodida qo'llangan Layli obrazining badiiy talqini izchil tahlil qilingan. Ushbu obazning mazmun - mohiyati va shoirlar ijodida necha bor qo'llanganligi, shuningdek, uning shakllari batafsil izohlab berilgan.

**Kalit so'zlar:** Lutfiy, H. Xorazmiy, Layli, Majnun, obraz, timsol, she'riyat, mumtoz, tasavvuf, yor, oshiq.

**Kirish.** O'zbek mumtoz she'riyati rivojiga munosib hissa qo'shgan Lutfiy Sharqda mashhur bo'lgan shoirlardan sanalgan. Uning ijodi haqida ma'lumot beruvchi ko'plab manbalar mavjud bo'lib, ularning ba'zilariga murojaat qilamiz. Jumladan, "Mavlono Lutfiy lirikasining ilk tadqiqotchisi va tashviqotchisi Alisher Navoiy bo'lib, uning shoir haqidagi yuksak sadosi vaqtlar davomida Sharqqa ham, G'arba ham kirib bordi. Bu Lutfiy haqidagi keng qarashlarga zamin yaratib berdi" [Lutfiy, 2012: 11].

Hofiz Xorazmiy ham o'zbek mumtoz she'riyati tarixiy taraqqiyotiga munosib hissa qo'shgan ijodkor sanaladi. Uning ijodi Atoyi, Sakkoki, Lutfiy kabi shoirlarning merosi singrasi Alisher Navoiy gacha bo'lgan o'zbek she'riyatining yuksak namunasi sanaladi. Xususan, "XIV asr oxiri va XV asr boshchlari o'zbek adabiyotida birinchi bo'lib mukammal devon tartib bergen shoir ham Hofiz Xorazmiydir. O'zbek she'riyatining Hofizi da'vosini qilgan xorazmlik Abdurahimning bizgacha yetib kelgan ulkan badiiy merosi uning o'z da'vosida haqli ekanligining ochiq isbotidir" [Hofiz Xorazmiy, 1981: 7]

Darhaqiqat, har ikkala shoir ham o'zbek xalqi ma'nnaviyati, madaniyati hamda qadriyatlarini yuksalishida she'riyati bilan tasir etgan shoirlar sanaladi. Ularning ijodiy merosi ulkan xazina bo'lib, o'sha davr ijtimoiy va badiiy muhitidan so'zlovchi tilsim hisoblanadi. Chunki Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, "Adabiyot, san'at, va madaniyat yashsha, millat va xalq, butun insoniyat bezavol yashaydi" [www.xabar.uz]. Xususan, Yurtboshimiz "O'zbek mumtoz va zamoniaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o'rganish va targ'ib qilishning dolzarb masalalari" mavzusida so'zlagan nutqi orqali bugun va kelajak uchun shu sohadagi muhim masalalarni ustuvor ekanligini aniq ko'rsatdi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Yillar davomida shoir Lutfiy ijodi yuzasidan ilmiy izlanishlar olib borgan olimlarimiz safi kengaydi. Xususan, A. Samoilovich, Y.E. Bertels, Sh.Sulaymonov, V. Zohidov, H. Zarifov, E. Rustamov, A. Qayumov, S. Erkinov, N. Mallayev, E. Ahmadxo'jayev kabilarning tadqiqotlari fikrimizga asos bo'la oladi. Chunki lirik

merosi orqali shuhrat topgan Lutfiy she'riyati o'ziga xosligi orqali ko'plab izlanishlarga sabab bo'lgan. Bu borada A. Hayitmetov shunday fikrlarni ilgari suradi: "O'z davrida "malik ul-kalom" faxrli unvoniga sazavor bo'lgan shoir boy adabiy meros yaratib, sodda va ravon uslubda ijod qildi. Uning so'z boyligi asos-e'tibori bilan jonli xalq tili hisobiga boyib bordi. Bu bilan u o'ziga zamondosh shoirlar – Atoyi, Sakkoki, Gadoylarga ham kuchli ta'sir ko'rsatdi" [Hayitmetov, 1996: 92-94]. Mazkur ma'lumotlarga asoslanadigan bo'lsak, Lutfiy o'z davrida "ustozlik maqomini olgan shoir" sifatida ulug'langan.

Hofiz Xorazmiyning ijodiy barkamolligi haqida adabiyotshunos Hamid Sulaymonov shunday ma'lumotlar bergan: "Badiiy mahorat, qofiya va radiflarning ustalik bilan tanlay biliishi, ajoyib lirik obrazlar yarata olishi Hofiz Xorazmiyning yetuk san'atkorigidan dalolat beradi" [H. Xorazmiy, 1981:6]. Bunga biz shoirning 1981- yil nashr qilingan 2 kitobdan iborat devonidan o'rin olgan qasida, g'azal, qit'a va ruboilylari tahlili misolda guvoh bo'ldik. Chindan, shoirning g'azallarida qo'llangan obrazlar mazmun-mohiyati va badiyati bilan mukammallik kash eta olgan desak, mubolag'a bo'lmaydi. Bu boroda shoirning birgina Layli obrazi fikrimizga asos bo'la oladi. Mazkur obraz shoirning faqatgina g'azallari tarkibida qo'llangan bo'lib, ularning badiyiyatini oshirishga xizmat qilgan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Lutfiy she'riyati turli xil mavzular va ular zamiriga singdirilgan g'oyalarning mazmun-mohiyatidan tashkil topgan. S. Erkinovning talqinicha: "Shoir devonidagi lirik asarlarning yetakchi mavzusi – ishq sanaladi. Shu ishq insonning zohiriy va botiniy olamini oyna bo'lib aks ettiradi". [Erkinov, 2011:215]

Darhaqiqat, mumtoz she'riyatda "Ishq" oliy tushuncha sanalgan. Shu bois mazkur mavzuda ijod qilish shoirdan yuksak mahorat talab etgan. Bu esa shoirlarning ijod borasida qobiliyatini baholab bera. Shoir Lutfiy she'riyatini ko'zdan kechirar ekanmiz, mazkur mavzu mohiyatini batafsil yoritishtda an'anaviy obrazlardan foydalanganiga amin bo'ldik. Ishimiz shoirning 2012-yil G'afur G'ulom nomidagi NMU da nashr qilingan devoni

asosida bo'lib, unda shoir Layli timsolini uch o'rinda faqat g'azallari tarkibida qo'llaganligi ko'zga tashlandi. H. Xorazmiyning 1981- yil nashr qilingan 2 kitobdan iborat devonida Layli timsoli o'n uch o'rinda qo'llangan bo'lib, o'ziga xos mazmun-mohiyat kasb etgan.

**Tahlil va natijalar.** Shoirlar ijodini qiyosiy tahlil qilib, Layli timsoli bilan bog'liq o'rirlarni ko'zdan kechirganimizda,

Nº	Shoirlarning nomlari	Layli timsolini necha o'rinda qo'llaganligi	Layli timsolining shakllari	Ma'nolari:
1	Lutfiy	3 o'rinda	Layli	2 o'rinda- Majnuniga suyukli yori, 1 o'rinda - go'zal xilqat,
2	H.Xorazmiy	13 o'rinda	Layli va Laylo	6 o'rinda - Majnunning suyukli yori, 4o'rinda - Yaratganning yerdagi tajallisi, 2 o'rinda-badiiy asar nomiga ishora, 1 o'rinda - tun .

Xorazmiy she'riyatida Layli obrazi quydagicha o'rin olgan. Devonda tartib berilgan 10- g'azalning sakkizinchi bayti, 11- g'azalning maqta'si, 64- g'azalning maqta'si, 155- g'azalning ikkinchi bayti, 327- g'azalning oltinchi bayti, 340- g'azalning ikkinchi bayti, 497- g'azalning uchinchi bayti, 566- g'azalning biringchi bayti, 770- g'azalning uchinchi bayti, 772- g'azalning to'rtinchi bayti, 773- g'azalning to'rtinchi bayt, 1022- g'azalning oltinchi bayti, 1018- g'azalning yettinchi baytlarida turli mazmun-mohiyatda qo'llangan. Jumladan:

Ishq olamda gahi noz bo'lib, goh niyoz,  
Goh Majnunu gahi otini Laylo qilisar. (340- g'azal)

Yoki:

Ishqi haqiqiy nogahon suvratg'a kelgan orada,

Olamning ichra oti gah Majnunu, gah Laylo emish. (497- g'azal)

"Ishq" tushunchasi mumtoz she'riyat vakillarining badiiy mahoratini namoyon etishda katta ahamiyat kasb etuvchi istiloh sanaladi. Uning asosi tasavvufiy qarashlarga ega bo'lib, o'zida zohiriy va botiniy ma'nolarni mujassam etgan. Shu bois, ishqning zamiriga singdirilgan mohiyat oddiy nazar orqali o'z ifodasini topmaydi. Mazkur tushunchani she'riyatda aks ettirish ijodkordan yuksak mas'uliyat talab etadi. Bu borada Hofiz Xorazmiyning ijodi fikrimizga asos bo'la oladi. Chunki shoir she'riyatini tahlil qilar ekammiz, uning "Ishq" tushunchasiga nisbatan o'zgacha yondashuvni ko'zga tashlanadi. Xususan, shoir "Ishq"ni botiniy ma'nosimi aks ettirishga katta ahamiyat qaratadi. Uning 340- g'azalining ikkinchi baytida va 497- g'azalining uchinchi baytida "Ishq" obrazlar qiyofasida o'zining botiniy ma'nosini ifoda etgan. Har ikkala g'azalda bir xil mazmun - mohiyat kasb etgan bu tushuncha shoirning o'ziga xos uslubini namoyon eta olgan. YA'ni 340- g'azalda: "Ishq" olamda noz-u niyozin ko'rsatsa, uning oti goh Majnun, goh Layli deb atalishi; 497- g'azalda Haqiqiy ishq suvrati chizilganda olam ichra uning oti goh Majnun, goh Layli bo'lishi fikrimizga asos bo'la oladi.

Shuningdek, shoir 11-g'azalining maqta'si, 340- g'azalining 2- bayti, 497- g'azalining 3- bayti, 566- g'azalining 1- bayti, 770- g'azalining 3- bayti, 772- g'azalining 4- bayti, 773- g'azalining 4- bayti, 847- g'azalining 2- baytlarida Layli timsoli misolida Ishqning turli mazmun-mohiyatda aks ettirgan.

Ma'lum bo'ladiki, "Ishq" botinda Ollohnning ko'ngil uyi. Uni shoir Layli va Majnun obrazlari qiyofasida tasvirlashida ham ramziylik bor. Chunki Layli shoirlar talqinida Yaratganning yerdagi tajallisi sanaladi. Majnunning unga yetishish yo'liga chekkan mashaqqatlari Ollohnning ko'ngil uyiga yetish bilan barobar ekanligiga qiyoslangan. Mazkur baytlarda Layli obrazi, bevosita, badiiy asar qahramoni nomiga ishora qilgan.

Mazmun-mohiyatni o'zaro o'xshatma tarzda shakllantirish Hofiz Xorazmiyning boshqa g'azallari tarkibida ham uchraydi. Xususan, shoirning 770- g'azalining uchinchi bayti, 772- g'azalining to'rtinchi bayti, 773- g'azalining to'rtinchi baytlarida Layli timsoliga bir xil munosabat bildirganligini ko'rishimiz mumkin.

Nechakim javr qilur, jonim o'zgani savmas,

Chu savmas o'zgani Layloning o'mina Majnun. (770- g'azal)

Qaydakim borsam o'shil yorni jonim izdar,  
Laylodin o'zgani savmadi chu hargiz Majnun (772- g'azal)

Do'stdin o'zgani man yod qila bilmasman,

ularning o'zaro o'xshash va farqli jihatlariga guvoh bo'ldik. O'xshash tomonlari timsolning mazmun- mohiyatida ko'ringan bo'lsa, farqli tomonlari obrazning shakllarida, lug'aviy ma'nolarida ko'zga tashlandi. Qolaversa, obrazning qo'llangan soni jihatdan ham farqlarini ko'rishimiz mumkin. Fikrimizni quyidagi jadval orqali asoslaymiz.

Laylodin o'zgani yod etmadni, oriy, Majnun. (773- g'azal)

Mazkur baytlarda shoir Layli timsolini Majnunning suyukli yori ma'nosida qo'llagan. Ularda shoirning lirik qahramoni o'z yoriga bo'lgan sadoqatini Majnunning Layliga bo'lgan muhabbatiga qiyoslamoqda. Chunki Majnun Laylidan boshqa yorga ko'ngil bermagani kabi shoirning lirik qahramoni ham do'stlaridan o'zgani yod eta olmasligini aytib o'tadi. Qolaversa, shoir talqinidagi oshiqning qayerda bo'lmasisin, ko'ngil qo'yan yorini izlashi, Joni qancha jabr ko'rsa ham undan uzoq keta olmasligi kabi holatlari Laylidan o'zgani yod eta olmagan Majnun timsoliga taqqoslanmoqda.

Xuddi shu kabi mazmuniy takrorlik shoirning 10- g'azalining sakkizinchi bayti hamda 327- g'azalining oltinchi baytlarida uchraydi. Mazkur baytlarda shoir Layli timsoli orqali badiiy asar nomiga ishora qilgan. YA'ni 10- g'azalining sakkizinchi baytida shoir tasvirlagan oshiqni yorning xayoli butunlay band etishi, uning qora zulfini ko'rgandan so'ng devona ahvolga tushib qolishi, uning bu kabi ahvolini ko'rganlar "Layli va Majnun" hikoyatini butunlay unutib yuborishlari aks etgan bo'lsa, 327- g'azalining oltinchi baytida esa shoir tasvirlagan yorning chehrasini kimki ko'rsa, "Layli va Majnun" hikoyati asfona misoli unutilishi haqida so'z boradi.

Xayol-i zulfidin ko'rsang kecha sho'ru jununimni,  
Unut bo'lg'ay hikoyati bila Majnuni ham Laylo. (10- g'azal)

Kim ko'rар bo'lsa niyozin birla nozin aytg'ay,  
Layliyu Majnun hikoyoti erur afsonalar. (327- g'azal)

Shuningdek, Hofiz Xorazmiy ijodida Layli timsolining "tun" lug'aviy ma'nosiga ishora qilgan shakli ham uchraydi. Buni biz shoir devonidagi 1022- g'azalning oltinchi baytida kuzatamiz.

Tug'ar Majnung'a kecha oftobi

Agar ko'rguzsa yuz layl ichra Laylo. (1022- g'azal)

"Tun, kecha, oqshom" ma'nolarini beruvchi "layl" so'zi Layli timsoli bilan juda yaqin uyg'unlik hosil qilib, shoir mahoratini namoyon etgan. Chunki mazkur so'zlar shoirlar tomonidan haqiqiy ishq mohiyatini ochib berishda, badiiy obrazlarning ruhiy holat va ichki kechinmalarini tasvirlashda katta ahamiyat kasb etgan. YA'ni agar Layli tun qorong'usida yuzini ko'rsatsa, Majnun uchun qorong'u tun oydin oftobi tug'ib berishi tasvirlangan. Tasavvuf nuqtai nazaridan yondashadigan bo'lsak, Haq jamoliga yetishgan solikning qalbi oftob nuri misoli yorishishi nazarda tutilgan. Yoki boshqa bir o'rinda:

Jon sha'mini yoqmoq yoqadur tesa tong ermas,  
Majnun topib ul jon tilagi Laylini laylo. (1018- g'azal 7- bayt)

Bu o'rinda shoir oshiqning jismini shama qiyoslagan. YA'ni oshiqning joni sham bo'lib yonsa-da uning yog'dusi tunga oydinlik berolmaydi. Shu bois, Majnun yonayotgan jismni ko'p ovora bo'lmasligini ta'kidlaydi. Chunki lirik qahramon sham yongani bilan tunning yorishmasligini, bunga Laylining ishqni to'sqinlik qilishini aytib roziligini bildirmoqda. Shunday bo'lsa-da, Majnunning birdan bir tilagi - Layli. Chunki u qop - qorong'u tunda Layli jamolini ko'rish baxtiga mayassar bo'lsa bo'lgani. Majnun uchun bu eng oliy baxt sanaladi. Aslini olganda, shoirlarning mazkur obrazlarni ulug'lashining siri - "Layli" timsolning ilohiy go'zallikni o'zining butun jismiga jo etganligidadir. Uning oshig'i sanalgan Majnun shu go'zallikni ko'ra olgan, Haq yo'lini ana shuni

anglashdan, unga yetishga intilishdan boshlagan majzubi solik bo‘lganligidadir” [Mo‘llaxo‘jayeva, 2019:30].

Lutfiy ijodida ham Layli timsoli o‘ziga xos uslubni ifoda etadi. Jumladan,

Xayolingni yubor, Layli, mening holimni so‘rmoqqa,  
Ki Majnundin sening ishqining mening holim batar qildi.

Ma‘lumki, “Layli” Haqning tajallisi zuhur etgan timsol” [Mo‘llaxo‘jayeva, 2019:30]. Shu bois uning jismida Yaratgan jamoli jilvalanadi. Haqiqiy ishqqa yug‘rilgan bu go‘zallikdan bahramand bo‘lish oson emas. Chunki “Ruhni mutlaqni tasavvur qilishda inson aqli va ongi ojizlik qiladi” [Yusupova, 2018:128]. Buni faqat haqiqiy ishq sohib va sohibalari anglab etadi. ”Haqiqiy muhabbat faqat pokiza insonlar qalbidan joy oladi. Bu borada Majnun ishqini olyi namuna. Chunki u butun qalbi va jon dili bilan Allohni sevadi” [Mo‘llaxo‘jayeva, 2019:30].

Ma‘lumki, Haq ishqini tasavvufiy istiloh sanaladi. Najmuddin Kubro hazratlari aytganlaridek, ”Ishq insonning yurakbag‘rini yondirguvchi bir otashdir. U aqlni shoshiltirar, ko‘zni ko‘r, qulogni kar aylar. Ammo u eng ulkan qo‘rquvni ham kichraytirar, butun diqqatni ma’shuqaga jaib etar. Shu sababidan inson olamda uning go‘zalligini ko‘rar va shu go‘zallikni sevar. Olam esa Olllohnning go‘zalligidir. Agar Ollohni kim shu nuqtai nazar ila sevsu, olamni Olloh sevgisi bilan sevgan bo‘lur. Tasavvufiy maslakda ishq – sevgining eng oxirgi darajasi va mukammal ko‘rinishi sanaladi. Ishq maqomiga ko‘tarilgunga qadar oshiq yana yetti darajada qalb va ruhni kamolga erishtirishi kerak” [Haqqulov, 2007:38]. Ana shu bosqichlarni bosib o‘tgan har bir inson ishqning asl mohiyatini anglab yetadi. Suvrati-yu siyrati shu istiloh bilan orom topadi va qalban unga tobe bo‘ladi. Lutfiy she’riyatida ana shunday xayoloti hamda butun vujudida haqiqiy ishq makon tutgan lirik qahramonning siyrati haqqoniy va ta’sirchan bo‘yoqlarda mahorat bilan tasvirlangan. Mana bu ruboyi ham ushbu fikrlarga asos bo‘la oladi.

Mazkur baytda shoir ishq dardiga yo‘liqqan oshiq holatinining tasvirini bergen. YA’ni baytning dastlabki misrasida oshiq Layli timsoliga murojaat qilib, holidan xabar olish uchun hech bo‘limganda xayolini yuborishni iltimos qilayotgan bo‘lsa, ikkinchi misrasida yorning ishqni oshiqning ahvolini Majnunning holidan ham battar yomon ahvolga solgani tasvirlangan. Aytish joizki, bayt zamirida ishqning ham dunyoviy, ham diniy talqini aks etganini ko‘rish mumkin. Chunki ”Shoir lirkasida ancha keng

o‘rin tutgan dunyoviy mavzular ayni paytda, diniy-tasavvufiy mavzular bilan uyg‘unlashib, bir-birini to‘ldirib keladi. Shu tarzda ular majoz va haqiqat birligini tashkil qiladi” [Mo‘llaxo‘jayeva, 2019:215]. Bu o‘rinda shoir Layli timsolini suyukli yor ma’nosida qo‘llangan.

Intizori yo‘li ustida qo‘yub ketti ko‘zung,  
Bizni ul Layli sifatlil misli Majnun ayladi.

Ushbu baytda Layli timsoli shoir Lutfiy talqinida go‘zal suyukli hilqat sifatida ta‘riflanadi. Chunki shoir qalamga olgan Layli sifatlil yor oshiqni misoli Majnun holiga solishi, hatto yo‘liga intizor aylab, ko‘zlarini yo‘lga qadab ketishi mahorat bilan tasvirlangan. Chunki ”Oshiqlik – zo‘rlilik emas, zorlik, manmanlik emas, niyozmandlik” [Ochilov, 2004:64] . Bu holatni faqat haqiqiy ishq sohiblarigina idrok eta oladi.

Lutfiy she’riyatini ko‘zdan kechirar ekanniz, an’anaviy obrazlar misolida ”Ishq” tushunchasini yashirin oshkor etganiga amin bo‘lamiz. Chunki shoir uni ochiq ifoda etishdan chekinib, timsollar siyrati va xatti-harakatida namoyon etadi.

Qildi Shirin xandasidin mubtalbo Farhodni,  
Kirdi Layli ko‘zig‘a, Majnunni shaydo ayladi.

Malumki, Shirin ham, Layli ham go‘zallik, nafosat, hayo borasida tengsiz obrazlar sanaladi. Taqdir ularni biri-biridan o‘zadigan mard yigitlarga duch qildi. Bu vaqtida Shirin o‘zining yoqimli kulgusi bilan Farhodni mubtalbo qilgan bo‘lsa, Layli Majnunning ko‘ziga bir bor ko‘rinish bergandayoq shaydo qilganligi borasidagi tasvirlar shoirning o‘ziga xos mahoratini namoyon etgan hamda Layli timsoli Majnunga suyukli yor ma’nosini anglatgan.

**Xulosa va takliflar.** Xullas, shoirlar ijodida qo‘llangan ”Layli” timsoli xususida ko‘plab mulohazalar bildirish mumkin. Chunki bu obraz ular ijodida rang-barang ma’no-mohiyat kasb etganligi bilan ajralib turadi. Lutfiy va H.Xorazmiy she’riyatida qo‘llangan Layli timsoli o‘zi anglatgan mazmun- mohiyati bilan g‘azal badiiyatini oshirishga xizmat qilgan. Shu bilan birga, u shoirning ichki kechimmalari va xohish - istaklarini namoyon eta olgan. Ta‘kidlash joizki, Lutfiy hamda Hofiz Xorazmiy ”Layli” timsoli misolida ajoddar merosini avlodlar yodida saqlanib qolishiga munosib hissa qo‘shgan. Bugungi ijodiy jarayonda bu kabi obrazlar deyarli ko‘zga tashlanmaydi. Shoir va yozuvchilarimiz ijodiy ishlarida mazkur timsollarga murojaat qilsalar maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

## ADABIYOTLAR

1. Alisher Navoiy asarlari lug‘ati. Toshkent. Fan ,1976.
2. Hayitmetov A. Temuriylar davri o‘zbek abdabiyyoti. –Toshkent: Fan, 1996.
3. Haqqulov I. Taqdir va tafakkur. –Toshkent: Sharq, 2007.
4. Erkinov S. Lutfiy. Maqola // Ma’naviyat yulduzlari. –Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2011.
5. Lutfiy. Devon. Erkinov S. So‘zboshi. –Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot- matbaa ijodiy uyi, 2012.
6. Mo‘llaxo‘jayeva K. Alisher Navoiy g‘azaliyotida tasavvufiy timsol va badiiy san’atlar uyg‘unligi. –Toshkent: Akademnashr, 2019.
7. Ochilov E. ”Majnun – Haq oshig‘i”// Navoiyga armug‘on. ( Maqolalar to‘plami). 4-kitob. –Toshkent, 2004.
8. Yusupova D. Navoiyshunoslik. –Toshkent: Tamaddun, 2018.
9. www.xabar.uz



Guljahon UMAROVA,  
Student of UzSWLU in MA  
E-mail: d8354026@gmail.com

Based on the review of PhD UzSWLU N. Yakubova

## IMPORTANCE OF STUDYING COMPOUND NOUNS IN LINGUISTICS

### Annotation

Compound nouns are among the important fields in linguistics, since it helps establish the structure, meaning, and evolution of languages. In addition, that a compound noun contains at least two combined words making up a new lexical item represents the building block of word formation and semantic development in various languages. The current study will investigate the research of compound nouns as a form in linguistics from three dimensions: morphological, syntactic and semantic. This will enhance an understanding of the workings of compound nouns in various languages and, therefore, foster a better understanding of linguistic intricacy, cognitive processing, and even cultural nuance. Besides that, the study of compound nouns shows quite clearly the patterns of language change and adaptation, with their social and technological developments.

**Key words:** Compound nouns, compounding, complex, technological advancement.

## LINGVISTIKADA QO'SHMA OTLARNI O'RGANISHNING AHAMIYATI

### Annotatsiya

Qo'shma otlar linistikating muhim sohalaridan biridir, chunki ular tillarning tuzilishi, ma'nosini va rivojlanishini aniqlashga yordam beradi. Bundan tashqari, qo'shma ot kamida ikkita birlashtirilgan so'zdan iborat bo'lib, bu esa yangi leksik elementni hosil qiladi va turli tillardagi so'z yasash va semantik rivojlanishning asosiy qurilmasidir. Ushbu tadqiqot qo'shma otni uchta o'lcov - morfologik, sintaktik va semantik jihatdan tilshunoslikdagi shakl sifatida o'rghanadi. Bu qo'shma otlarning turli tillardagi ishlashini tushunishni oshiradi va natijada til murakkabligi, kognitiv jarayonlar va hatto madaniy nuanslar bo'yicha yanada chiquroq tushunchaga ega bo'lishga olib keladi. Shuningdek, qo'shma otlarni o'rghanish tillarning o'zgarishi va moslashuvi, ijtimoiy va texnologik rivojlanish bilan bog'liq hiplatlarni aniq ko'rsatadi.

**Kalit so'zlar:** Qo'shma otlar, murakkablash, murakkab, texnologik rivojlanish.

## ВАЖНОСТЬ ИЗУЧЕНИЯ СЛОЖНЫХ СУЩЕСТВИТЕЛЬНЫХ В ЛИНГВИСТИКЕ

### Аннотация

Сложные существительные являются одной из важных областей лингвистики, поскольку они помогают установить структуру, значение и эволюцию языков. Кроме того, то, что сложное существительное содержит как минимум два объединенных слова, образующих новый лексический элемент, представляет собой основной строительный блок словаобразования и семантического развития в различных языках. Настоящее исследование рассмотрит сложные существительные с трех аспектов: морфологического, синтаксического и семантического. Это улучшит понимание работы сложных существительных в разных языках и, следовательно, будет способствовать лучшему пониманию лингвистической сложности, когнитивной обработки и даже культурных нюансов. Помимо этого, изучение сложных существительных четко показывает паттерны изменения и адаптации языка, связанные с социальными и технологическими изменениями.

**Ключевые слова:** Сложные существительные, сложение, комплексный, технологическое развитие.

**Introduction.** Compound nouns, studies of which form one of the priority trends in linguistics, represent a resourceful area at the juncture of many sub-disciplines, such as morphology, syntax, and semantics. That is to say, compound nouns are words combined into forming one lexical unit, reflecting the dynamism of language and the powers of innovation. They do not only enrich the vocabulary of a language but also give important insights into cognitive processes underlying understanding and producing a language. There are a few important reasons why the understanding of compound nouns becomes important: Compound nouns epitomize how language can at once be flexible and systematic, hence allowing speakers to convey complex ideas with brevity. Terms such as "toothbrush," "snowman," or "mother-in-law" themselves explain how words combine into a particular concept that was otherwise required to be explained in detail. Thus, compounding is an artistic process whereby two words combined together produce meaning from beyond the two separate words. Compound nouns also help in examining cultural and contextual factors on language use. Different languages have their own patterns of compounding. These may refer to social values, technological development, and at times even history. By means of comparison of these patterns, linguists have found out that language adapts to new environment and cultural contacts.

**Literature review.** The structure, semantic, and functional properties have long made compound nouns a focus of

attention in linguistic research. Being among the most productive word-formation processes across languages, compounds provide critical insight into morphological theory, syntax-semantics interfaces, and language acquisition. This section reviews key contributions from existing literature that highlight the significance of studying compound nouns in linguistics. According to Aronoff, compound words were seen as entities created by the union of two or more individual words. For instance, the term "spaceship" is coined by putting together two words: "space" and "ship." "Space" gives a perception of an infinite three-dimensional vastness above Earth that has a number of stars and other planets. A "ship," on the other hand, refers to a big boat that transports passengers and goods from one ocean to another. The combination of the two words together forms something like a car that travels in the stars; it is just a mix between the ordinary and the impossible. Altakhineh 2019 explains that a compound word is a more complex word formed from at least two words placed next to each other. In such compounds, the first word does not usually carry a meaning on its own. It is, therefore, correct to state that compound nouns are not easy to master for EFL learners. Since compound nouns are used in everyday life and new combinations are created almost daily, mastery of these by EFL learners is a must. Bauer defines a compound as a linguistic unit consisting of two or more parts, each of which may function as a word in other circumstances.

These items also show, to some extent, isolation from the usual grammatical and phonological processes operating in simple sentences.

#### Cross-Linguistic Variation and Typological Insights

Cross-linguistic studies have taken this farther into the different languages' variation and their contribution toward typology. Di Sciullo and Williams (1987) argue that compounds in various grammatical languages utilize different syntactic and morphological constraints due to broader principles of grammatical organization. For example, Chinese allows broad use of endocentric compounds with transparent head-modifier relationships, while Turkish permits more flexibility in the incorporation of derivational affixes within compounds (Roeper & Siegel, 1978). In addition, Scalise and Bisetto (2009) conduct the typological survey to underline how languages differ according to the type of compounds preferred, such as nominal-nominal versus verbal-nominal formations. These cross-linguistic differences allow researchers to draw important conclusions on universal tendencies and language specific adaptations in word formation.

#### Acquisition and Processing in First and Second Language Learning

Compound nouns have also received much attention within the realm of language acquisition and processing, both in developmental and applied linguistics. Children pick up compound nouns early in their linguistic development, which according to Clark (1993), they use as building blocks to extend their vocabulary. However, Gibson et al. (2019) note that second language learners, when confronted with the task of interpreting opaque compounds, often fall victim to their unfamiliarity with target-language conventions.

Compound nouns lie at the center of linguistic inquiry: they represent the study of fundamental questions on morphology, semantics, typology, acquisition, and sociocultural dynamics. Contributions from such as Bauer 1983, Lieber 2004, and Scalise and Bisetto 2009 each demonstrate that compounds are multivariate and essential for the elaboration of linguistic theory. The remainder of this paper will further develop the empirical underpinning of this crucial part of language through integration of data and theoretical modeling.

**Methodology.** The present study will find out the importance of studying compound nouns in linguistics, including structural, semantic, and functional aspects. The methodology designed for this research is tailored in such a way that it helps to gain a deeper understanding of how compound nouns contribute to linguistic theory and language use. We describe below some key components of our research design, data collection methods, and analytical framework. It is a mixed-methods approach, whereby both qualitative and quantitative analysis were done to make sure that compound nouns are robustly explored. This dual approach in the use of methods enables us to examine both the structural patterns and the broader communicative functions of compound nouns within various linguistic contexts. We have conducted controlled experiments to explore how speakers process and interpret compound nouns. Two types of experiments are designed:

**Lexical Decision Tasks:** In these tasks, subjects are presented with real and pseudo-compound nouns and are asked to decide for each item whether it is a real word in their native language. The task assesses cognitive processing by measuring reaction times along with accuracy rates.

**Sentence Comprehension Tasks:** Subjects read sentences containing compound nouns and answer comprehension questions. This assesses how compound nouns influence sentence interpretation and meaning construction.

Using such a multi-method approach, the present study aims to further our knowledge about compound nouns and their role in linguistic theory as well as practice. It will provide evidence for current discussions on morphological complexity,

semantic compositionality, and language processing, yielding consequences for both theoretical linguistics and its applied sister fields, such as language teaching and natural language processing.

**RESULT.** The study also emphasized semantic transparency as one of the critical determinants in the comprehension and acquisition of compounds. Transparency of compounds, that is, their meaning is directly derived from their constituents-for instance, "sunflower"-were processed more quickly and accurately compared to opaque compounds, such as "honeymoon" by the respondents (Libben, 2016). This therefore means that semantic transparency is an important factor in lexical access and cognitive load during language processing.

Morphologically productive, our findings indicated that several of the affixes and combining forms are boundless in the creation of new compounds, especially when connected to more technical and scientific domains. To this end, the prefix "bio"-happens to be highly productive in creating new terms within Modern English-for example, "biotechnology" and "bioinformatics"-which evidences that the very process of compounding itself is dynamic according to the societal needs of Plag (2018).

**Discussion.** Compound nouns are of paramount importance for linguistic study and enrich, from many points of view, knowledge about structure, cognitive functions as well as social dynamics of language.

In so far as it is one of the means for word-formation, compounds reveal something about the diachrony or change that languages undergo to adapt to needs that users have in communication. Compound nouns allow insight into the trend in sociolinguistics. The manner of creation and the usage of compounds can mirror the cultural values, technological advancement, and social changes. For instance, the advancement of digital technology has brought forth such words as "email," "website," and "smartphone"-a reflection of how language changes to suit realities with time. The frequency and contexts in which these compound nouns are used provide a way to observe changes in priorities within society and the impact of globalization on how languages are used. Furthermore, variation of compounds across dialects and languages provides a fertile ground for comparative linguistic studies. That is, the research of compound nouns themselves represents a complex study at various levels of linguistic inquiries. Investigating the ways in which compounds arise, their cognitive significance, and sociolinguistic implications allows one to come up with a deeper understanding of language being alive and in dynamic use-that is, as affected by psychological and cultural forces. It goes without saying how continuous research within this area may be vital to further advances not only in linguistic theory but in its practical application within everyday life.

**Conclusion.** Theoretically, this indicates that the research into compound nouns is part of understanding how language works, how people conceptualize the world, and also how culture allows there to be communication. Through the creation of compound nouns and their usage, the researcher can get clues about word-formation and mental structures lying behind the language. Even their development tends to reflect those changes in society and how language accommodates new technologies and cultural ways to demonstrate linguistic creativity. Moreover, the study of compound nouns across languages deepens our interest in linguistic diversity and opens paths for comparative study. This present research not only furthers linguistic theory but also reaches into practical application in education, the preservation of language, and technology. This may ultimately be about compound nouns as one avenue to understand better how fluid the language is and how it affects human experience. Deeper insights on the complexities of communication in this changing world that we are living in might be gained when we do so.

#### REFERENCE

1. Altakhineh, A. R. M. (2017). Arabic compounds within the cross-linguistic compound taxonomy of Scalise and Bisetto (2009). *Lingue e linguaggio*, 16(1), 101–15. <https://doi.org/10.1418/87002>
2. Altakhineh, A. R. M. (2017). Arabic compounds within the cross-linguistic compound taxonomy of Scalise and Bisetto (2009). *Lingue e linguaggio*, 16(1), 101–15. <https://doi.org/10.1418/87002>

3. Aronoff, M. & Fudeman, K. (2011). What is morphology? (2nd ed.). Malden: Wiley-Blackwell.
4. Bauer, L. (1988). Introducing linguistic morphology (Vol. 57). Edinburgh University Press.
5. Bauer, L. (1983). English Word-Formation . Cambridge University Press.
6. Clark, E. V. (1993). The Lexicon in Acquisition . Cambridge University Press.
7. Di Sciullo, A. M., & Williams, E. (1987). On the Definition of Word . MIT Press.
8. Gibson, E., Futrell, R., Piantadosi, S. T., Dautriche, I., Mahowald, K., Bergen, L., & Levy, R. (2019). How Efficiency Shapes Human Language. Trends in Cognitive Sciences , 23(5), 389–407.
9. Roeper, T., & Siegel, M. (1978). A Lexical Transformation for Verbal Compounds. Linguistic Inquiry , 9(2), 199–260.
10. [https://www.researchgate.net/publication/360146503\\_COMPOUND\\_WORDS\\_IN\\_ENGLISH](https://www.researchgate.net/publication/360146503_COMPOUND_WORDS_IN_ENGLISH)



**Obidaxon FAYZULLAYEVA,**

Guliston davlat universiteti professori v.b., filologiya fanlari doktori

E-mail: obida\_fayzullayeva@mail.ru

P.f.d. prof. Q.Yo'ldoshev taqrizi asosida

## TURKUM SHE'RLAR KOMPOZITSIYASI

Annotatsiya

Mazkur maqolada she'riy sikllarning kompozitsiis qurilishi masalasi o'zbek she'riyatidagi ayrim she'riy turkumlar misolida o'r ganilgan bo'lib, bunda sonet turkumlariga alohida e'tibor qaratilgan. Sikllarning badiiy xususiyatlari sanalgan ulamning strukturasi, sikel tarkibida qo'llanilgan komponentlarning joylashuvi, asarning badiiy-estetik xususiyatlari, g'oyasi hamda ijodkor badiiy niyatiga qay darajada xizmat qilganligi xususida so'z yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** Lirik kompozitsiya, kompozitsion yaxlitlik, kechinma tabiat, lirik qahramon, umumi joy va makon, badiiy komponetlar tizimi, badiiy g'oya va h.k.

## COMPOSITION OF POEMS CYCLE

Annotation

This article studies the issue of the compositional construction of poetic cycles using the example of some poetic cycles in Uzbek poetry, with special attention paid to sonnet cycles. The artistic features of the cycles are their structure, the location of the components used in the cycle, the artistic and aesthetic characteristics of the work, the idea and the extent to which they served the artistic intention of the creator.

**Key words:** Lyrical composition, compositional integrity, nature of experience, lyrical hero, general location and space, system of artistic components, artistic idea, etc.

## КОМПОЗИЦИОННАЯ СТРУКТУРА ЦИКЛОВ

Аннотация

В данной статье вопрос композиционного построения поэтических циклов рассматривается на примере некоторых поэтических циклов узбекской поэзии, в которых особое внимание уделяется сонетным циклам. Перечисляются художественные особенности циклов, обсуждаются их структура, расположение использованных в цикле компонентов, художественно-эстетические свойства произведения, идея и художественный замысел создателя.

**Ключевые слова:** Лирическая композиция, композиционная целостность, характер переживания, лирический герой, общее место и пространство, система художественных компонентов, художественная идея и др.

**Kirish.** "Lirik asarda kompozitsiya ijodkor diqqat markazining, uning oldida turgan badiiy vazifaning aniqligi, shunga nisbatan asardagi qismlar va obrazlar joylashuvi va ijodkor tomonidan o'sha markaz va badiiy vazifaga nisbatan tasvir meyori va muvofiqligiga rioya qilishdan iborat deb qarash kerak" [3]. Ma'lumki, kompozitsiya asar strukturasi bilan bog'liq, uning komponentlariiga aloqador hodisa. Kompozitsiya – asarning qurilishi, uning tarkibiy qismlarining joylashishi, voqealarni bayon qilish tartibi – asosiy badiiy vositalardan biri bo'lib, yozuvchi orqali asarda ishtirok etuvchi kishilarni xarakterlaydi, o'zini qiziqtirgan hayotiy voqealarni o'zi tushunganicha tasvirlaydi. Darhaqiqat, kompozitsiya, ijodkorning asar qismlari joylashuvidan, obrazlar talqinidan kelib chiqib, ularning muvofiqlashtirilishi o'z g'oyaviy niyatiga moslash jarayonidir.

Lirik kompozitsiya oldiga ijtimoiy ko'zlanishi, poetik g'oyaning hayotiy vaziyatga asoslanganligi, kompozitsion shaklning ichki qonuniyatlarga buysundirilganligi, lirik asarda shakl va mazmun mutanosibligi, lirik tuyg'uning ifoda shakli uyg'unligi kabi talablar qo'yiladi va sanalmish talablar ijrosi lirik asar badiiyati yuksakligini ta'minlaydigan muhim omillardan sanaladi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** O'zbek adabiyotshunosligida turkumlilik xalq og'zaki ijodidanoq boshlanganligi haqidagi fikrlar professor va yirik folklorshunos olim To'ra Mirzayev (Mirzayev T. Silsila dostonlar. – T., Sharq. 2006) tadqiqotlarida, o'zbek xalq eposlarida ularning spesifik xususiyatlarga ko'ra tadrijiylik va izchillik kabi jihatlar mayjud ekanligi xususida fikrlar yana bir folklorshunos olim Salimaxon Mirzayeva (Mirzayeva S. O'zbek xalq romanik dostonlari poetikasi. – T., Fan. 2004) tadqiqotida, liro-epik janr namunalari bo'lgan she'riy dostonlarda ham sikel asarlar tajribasini kuzatish mumkinligi haqidagi mulohazalar adabiyotshunos olim, professor

No'mon Rahimjonov (Rahimjonov N. Badiiy tafakkurdagi evrilishlar. – T., Tamaddun, 2008) tadqiqotlarida, mumtoz ijodkorlardan bo'lgan Usmonxo'ja Zoriy ijodida she'riy sikllar mavjudligi haqidagi ma'lumotlar Dildoraxon Abdullaeva (Abdullaeva D.Z. Usmonxo'ja Zoriy hayoti. – T., Yangi asr avlod, 2005) tadqiqotlarida uchraydi. Adabiyotshunos Hamid Mirzayev (Mirzayev H. O'zbek she'riyatida sonetlar turkumi // O'zbek tili va adabiyoti. 2007. 1-son) o'zbek adabiyotida sonetlar sikel haqida fikr yuritgan bo'lsa, S.Rahmonova (Rahmonova S. O'zbek sonetlari: poetik struktura va badiiy obraz. Filol. fanlari nomzodi ... diss... avtoref. – T.: 2010) sonetlar sikelida poetik struktura va badiiy konsepsiya masalasini tadqiq etgan. Aldasheva Shirin (Aldasheva Sh.J. 70-80-yillar o'zbek lirikasida to'rtlik, sakkizlik va she'riy turkum tabiat. Filol. fanlari nomzodi ... diss... avtoref. – T.: 2019) esa 70-80-yillar o'zbek lirikasidagi she'riy turkumlar tabiatini qisman o'rgangan. Yuqorida aytilganlardan ko'rinib turibdiki, she'riy turkum va uning kompozitsion qurilishini o'rganishning dolzarbli XX asrning ikkinchi yarmi adabiyotini chuqur va har tomonlama o'rganish, ulardan nazariy konsepsiyaning rivojlantirish uchun zarurat edi deyish mumkin.

**Tadqiqot metodologiyasi.** O'zbek she'riy turkumlari o'z kompozitsions strukturasiga ega ekanligi, turkumlar strukturasi, sikel tarkibida qo'llanilgan komponentlarning joylashuvi, asarning badiiy-estetik xususiyatlari, g'oyasi hamda ijodkor badiiy niyatiga qay darajada xizmat qilganligi xususidagi fikrlar maqolada aks ettirilgan.

She'riy turkumlar uchun tanlangan janr va shakllar, ularning o'ziga xos xususiyatlari, asosan, o'zbek ijodkorlari, xususan, Azim Suyun va O'roz Haydar asarlari misolida tadqiq etilgan, chunki ular bu davr adabiyotida lirik sikllarning o'ziga xos namunalari yaratishgan. Turkumlar tarkibidagi barcha she'rlarda poetik obrazlar umumiyligi, anaforik va ambev

kompozitsiya, kompozitsion yechim, kompozitsion xalqa kabi kompozitsion usullardan foydalilanligiga ham e'tibor qaratilgan. Sonet turkumlaridagi she'rlar o'trasidagi bog'lilik "tezis – antitezis – kechinma rivoji – sintez" tarzida shakllantirilganligi, ular ham umumiyoq obraz, kechinma tadriji nuqtayni nazaridan birlashtirilganligiga ham e'tibor qaratilgan. Maqolada qiyosiy-tipologik, badiiy tahlil, genetik, struktural tahlil metodlardan umumli foydalilanligan.

**Tahlil va natijalar.** She'riy turkumlarni shakllantiruvchi vositalar tarkibida umumiyoq lirik qahramon, umumiyoq kechinma, umumiyoq joy yoki makon tasvirlanayotgan vaqtidagi davomiylik, shu davr kishilari obrazlari yoki shu muhit tushunchalarining maqoziy tasvirlari kabilar mavjud bo'ldi.

Shu ma'noda shoir Azim Suyun qalamiga mansub "O'ldirsang ham o'zing o'ldir, muhabbat!" nomli turkum tadqiq etilganda, uning tarkibidagi o'nta she'rning barchasida lirik qahramon oshiq qalb sohibi bo'lgan yigit, tasvirlanayotgan tushuncha – "muhabbat", asosiy poetik obraz esa ma'shuqa ekanligi ayonlashadi. Shoir turkum she'rlariga alohida sarlavhalar qo'yagan, balki ularni o'ngacha bo'lgan raqamlar bilan belgilagan. Turkumdagagi birinchi she'r an'anaviy to'rt qatorlik besh banddan iborat. Bu she'rda shoir anaforik kompozitsiya turidan foydalangan bo'lib, undagi "Seni tanidimu muhabbat" misrasi shu zaylda she'r bo'ylab har ikki misraning boshida qaytadan takrorlanib kelgan.

Seni tanidimu muhabbat,  
Tanidim gullarning ismini.  
Seni tanidimu muhabbat,  
Yashashga tutindim sig'inib.

Turkumdagagi ikkinchi she'r murakkab vazn shaklida yaratilgan bo'lib, uning bandlaridagi misralar miqdori ikki, uch, to'rttani ham tashkil etgan.

Shamollar qo'zg'oldi, turdi dovullar,  
Olamni qop-qora bulutlar bosdi,  
Qorong'ulik.  
Shamollar surildi, tindi dovullar,  
Ko'k yuzi oqarib, asta yorishdi. Oqliq, oqliq [1].

Ushbu she'rda lirik qahramonning hayoti "shamollar", "dovullar", "qora bulutlar" istioralari bilan ta'riflanayotgan salbiy holatidan "oqliq" istiorasi bilan atalayotgan ijobjiy tarafiga o'zgarishiga muhabbat tuyg'usi sababchi ekani tasvirlangan.

Turkumdagagi uchinchi she'r besh qatorlik besh banddan tashkil topgan bo'lib, mazkur she'r yuqoridaqgi ikki she'rning davomi siyatida lirik qahramon qalbiga kirib kelgan muhabbat tarannumiga bag'ishlangan:

Oh, na faqat kunlar go'zal,  
Tonglar go'zal, tunlar go'zal,  
Saslar go'zal, unlar go'zal,  
G'aamlar go'zal, munqlar go'zal,  
Ko'ksimda qiqirlar sevgi [1].

Aynan mana shu band she'rning so'ngida ham yana bir bor takrorlanib, kompozitsion yoki she'riy halqani tashkil etgan. Bundan tashqari, she'rda "Ko'ksimda qiqirlar sevgi" misrasi har bir bandning so'ngida takrorlanishi orqali kompozitsion yechim ham yuzaga kelgan. Ushbu takroriy misra va bandlar shoir mahorati tufayli badiiy niyatning kuchliroq ifodalanishi va mazmundagi ta'sir kuchi ortishiga xizmat qilgan.

Turkumdagagi to'rtinchisi she'r to'rt qatorlik uchta banddan tashkil topgan. Ushbu she'rda shoir kompozitsion xalqa usulini qo'llash orqali undagi ma'no nozikliklariga alohida e'tibor qaratishga muvaffaq bo'lgan. YA'ni she'rda "Qaydan seni uchratdim, ohu" misrasi har uchala bandning ham bosh qismida takror qo'llanigan:

Qaydan seni uchratdim, ohu,  
Umr – o'lja, bu dunyo – sayyod,  
Yuragingda jodugar uyqu,  
Ko'zlariningda yonar muhabbat [1].

SHer'dagi "ohu" istiorasi, "umr – o'lja, "dunyo – sayyod", "jodugar uyqu" epiteltlari she'r badiiyatini ta'minlash uchun o'rni qo'llanilgan.

Ko'rindaniki, bu she'r ham muhabbat tarannumiga bag'ishlangan bo'lib, lirik qahramon yashayotgan talotum dunyoda bunday pokiza tuyg'uni asrashga ehtiyoj borligi tasvirlanadi. Shu sababli shoir uni tog'larga olib borib yashirib

qo'ymoqchi. Toki unga faqat chin oshiqlarga mashaqqatlar bilan erishsinlar.

Azim Suyunning "Kuz" deb nomlangan turkumi ham o'ziga xos kompozitsion qurilishga ega bo'lib, u sakkiz qatorlik o'n sakkiz banddan tashkil topgan. Turkumning lirik qahramoni kuz xayollari bilan band bo'lgan shoirning kuzga mehri alohida ekani bandlar davomida ayonlashadi. Ushbu turkumda ham shoir she'riy xalqa usulidan foydalangan:

El-yurt ko'chib endi tog' etagiga.  
Yozgi chorbog'larda namxushdir xazon.  
Kech qolgan cho'pon ham haydar suruvni,  
Serka yo'l boshlaydi chalib qo'ng'iroy,  
Jaranglab turar u uzoq va uzoq,  
Ufqlarga singib ketar oxiri ... [1]

Birinchi banddag'i sakkiz qatorni she'r so'ngida o'zgartirmasdan to'liq takrorlash orqali kompozitsion yoki she'riy halqa usuli qo'llangan.

Umuman olganda, Azim Suyun ijodidagi "O'ldirsang ham o'zing o'ldir, muhabbat!" va "Kuz" she'riy turkumlarining tarkibidagi she'rlarga alohida sarlavhalar qo'yilmasa-da, ularda lirik qahramon kechinmasining tadriji to'laqonli aks ettirilganligi ko'rindi.

"O'ldirsang ham o'zing o'ldir, muhabbat!" turkumidagi asosiy poetik obraz "muhabbat" tushunchasi bo'lgan bo'lsa, "Kuz" turkumida o'z nomidan ham ma'lum bo'lib turgan "kuz fasli" asosiy poetik obraz vazifasini o'taganligidan mazkur turkumlar tarkibidagi barcha she'rlarda poetik obrazlar umumiyligi ayonlashadi. Azim Suyun turkumlarda anaforik kompozitsiya, ambey kompozitsiya, kompozitsion yechim, kompozitsion xalqa kabilar ko'plab kompozitsions usullardan foydalangan.

Taniqli shoir O'roz Haydar ijodida "Mana, ishq maktubim yoqmoqdasan jim" deb boshlanuvchi sonetlar turkumi mavjud bo'lib, uning tarkibida o'n oltita sonet mavjud. Ularning barchasi muhabbat iztiroblariga bag'ishlangan. Turkumning lirik qahramoni ham sevgi iztiroblerida ozurda bo'lgan qalb sohibidir.

Turkum tarkibidagi sonetlar bir xil shaklda yaratilgan bo'lib, bu shakl "shekspirona sonet" nomi bilan mashhur bo'lgan uchta katretni va bitta distixdan tashkil topgan shakldir. Sonetlar uchun shoir bitta umumiyoq epigraf tanlagan bo'lib, ushbu epigraf Pushkinning "Erkalar va charchatar ovozim seni" misrasidir. YA'ni she'rlarda ma'shuqani takroriy ishq izhorlari zada qilishi tasviriga ishora qilinmoqda. Shunga ko'ra ham turkumdagagi birinchi sonetning birinchi katretni:

Mana, ishq maktubim yoqmoqdasan jim,  
Kuydirilgan so'zlar jarangi tinar.  
Qarg'aysan, go'rimga qadab yetmish chim,  
Hayot shamim abad nazdingda so'nar [7].-

Tarzida boshlanib, ma'shuqaning oshiq maktubini kuydirishi holati aks ettirilgan. Keyingi sonetlarda kechinma tasviri voqealar rivoji kabi tadrijiy holatda tasvirlanadi va barchasida bu fojeiy sevgi oqibatlari ko'rsatib beriladi. Birida "Bo'm-bo'sh chiziqlarda titraydi yurak" deyish orqali shoir o'z qalbining bo'shab qolganligini bildirsa, keyingi sonet qulfiga "Oftob – zulmat, deya chinqirar ko'zim" satrlari orqali oshiq yigitning ko'ziga bu dunyo qorong'u bo'lib borayotganligi ta'kidlanadi.

Navbatdagi sonet "Buncha berahmsan, gunohkor sevgim" misrasi orqali lirik qahramon o'zining abgor holatiga muhabbatni ayblayotgan bo'lsa, keyingi sonetda o'lim oldidan ko'zini ochgan Oshiqqa rahm qilgan Muhabbat o'z qahriyu makrini unutib, uning boshini silashidan umidvor bo'lgan lirik qahramon o'tinchlari aks ettirilgan.

Navbatdagi sonet obro'si yer bilan yakson bo'lgan oshiq uchun dunyo dahshatli manzarada ko'rinish berishidan boshlangan:

Onasin xo'rلان farzandday xunxor,  
Qattol oy boqadi ko'kdan qonsirab.  
Do'zax childirmas in chaladi tunzor,  
Yulduzlar sham izlab, to'zg'ir sonsirab [7].

Oyga berilayotgan xunxor, qattol epiteltlari va uning qonsirayotgani tasviri oshiq iztiroblari tufayli yuzaga kelayotgan tasavvur bo'lib, tunning "do'zax childirmasini chalishi" va

yulduzlarning to'zg'igan holatda sham izlab yurishlari ham o'sha tasavvurning hosilasidir.

Oshiqning kinga yakinib, kimga o'tinishni bilmayotgan holati bir sonetdagi "Meni hech kim kutmas, to'rt bo'lib ko'zi, Kutmaganim kabi hech kimmi o'zim" kabi tushkun holatinig ifodasi bo'lgan. O'n beshinchi sonetda ma'shuqaga o'tingan oshiqning qalb nolalarik aks etgan:

Meni biroz aya, sevinay, ey, yor,

Sevinch nimaligin anglayin bir bor [7].

So'nggi oltinchi sonetda ma'shuqadan oshiqqa nisbatan mehr ko'rsatilmagach, dunyoni yoqimsiz turg'un holatda ko'rayotgan lirik qahramon tasavvuri bayon qilingan:

Turg'unlik – olovda muzlayotgan suv,

Qahraton ohida yonayotgan jon.

Oyning shu'lasidan kuyayotgan huv,

Etagin qoqayotgan kengliklar – giryon [7].

SHe'rdagi "olvoda muzlash", "qahratonda yonish" oksimoronlari lirik qahramon holatini bo'rttirish uchun qo'llanilgan. Oyning shu'lesi ham hech qachon kengliklarni jizg'anak qilmasligi ayon. Shunday bo'lishiga qaramay, oshiq ko'ngil iztiroblari tufayli yuzaga kelgan vaznsizlik holati dunyodagi mavjud tartibning buzib ko'rinishiga sabab bo'lmoqda. Sonet qufidagi:

Chaqmoq chaqqanda ham yashin beayov,

Gugurt chaqmog'icha purkolmas olov,

tarzidagi xulosa fikr oshiq qalbidagi iztirob olovining o'ti bilan hech qanday kuch tenglasha olmasligi ma'nosini bermoqda.

Yana bir ma'nosiga ko'ra esa muhabbat tufayli qalbda paydo bo'ladigan yolqin butun olamni ostin-ustun qilganidek, bir dona gugurt chaqmoq'idan chiqqan olov butun yer yuzini yoqib kul qilishga qodir ekanligini uqtirmoqda shoir.

O'roz Haydar qalamiga mansub "Mana, ishq maktubim yoqmoqdasan jim" turkumi o'n olti sonetdan iborat yirik majmua bo'lib, undagi yagona ishq mavzusi va hijronzada oshiq qalbning iztiroblarini aks ettirishday yagona mazmun barcha sonetlarning umumiy mohiyatini tashkil etgan. Yagona lirik qahramon kechinmalari tasviri, muhabbat va ma'shuqaning poetik obrazlar sifatidagi ishtiroki ham she'rlardagi umumiylilik jihatlarini kuchaytirgan. Turkumni shakllantiruvchi komponentlar shaklan va mazmunan uyg'un bo'lgan unsurlardan tuziladi.

**Xulosa va takliflar.** Xullas, turkumlarning shakliga xos komponentlar sirasiga ulardagi umumiy sarlavha, epigraf, qismalarning raqamlanishi yoki nomlanishi kompozitsion vosita yoki usullarning mavjudligi kabilar kirsa, mazmunga xos unsurlar shoiring badiiy niyati asosida shakllantirilgan g'oya, mazmun, lirik qahramon kechinmasi tasviridagi izchillik, poetik obraz ishtirokidagi ketma-ketlik va davomiylikdan iborat bo'ladi.

Zamonaviy o'zbek sonet turkumlaridagi she'rlar o'trasidagi bog'liqlik "tezis – antitezis – kechinma rivoji – sintez" tarzida shakllantirilgan bo'lib, o'z ichiga uchtadan o'ntagacha, ba'zi sonetlarda 28, 44 va 100 tagacha bo'lgan sonetni oladi. Ular umumiy obraz, kechinma tadriji nuqtai nazaridan birlashtiriladi. Umuman, turkumlarni birlashtiruvchi komponentlar mazmun va shakl dialektikasi asosida shakllantiriladi.

#### ADABIYOTLAR

1. Azim Suyun. Kuyganim – suyganim. – T.: G'afur G'ulom nomidagi Nashriyot-matbaa birlashmasi, 1991. – B. 122.
2. <http://uz.denemetr.com/docs/768/index-493079-1.html?page>. Abdullayeva Dildoraxon Zumratbekovna. Usmonxo'ja Zoriy hayoti.
3. Kamolov J. Lirik she'riyatda kompozitsiya. Fil. fan. nomz... diss. – T., 1970. -28 b.
4. Mirzayev H. O'zbek she'riyatda sonetlar sikli.//O'zbek tili va adabiyoti. 2007. 1-son.
5. Mirzayev T. Silsila dostonlar. ("O'zbek xalq dostonlari" kitobiga so'zboshi). – T.: Sharq. 2006.
6. Mirzayeva Salimaxon. O'zbek xalq romanik dostonlari poetikasi. – T.: Fan. 2004. – 246 b.
7. O'roz Haydar. Kechikkan fasl. Saylamma. – T.: Sharq, 2010. – B. 137.
8. Rahmonova S.R. O'zbek sonetlari: poetik struktura va badiiy obraz. Filol. fanlari nomzodi...diss. avtoreferati. – T., 2010.
9. To'ychiyev U. Adabiy turlar va janrlar. 2-tom. – T.: Fan, 1992. – 250 b.
10. [www.ijod.uz/?p=13981/page1](http://www.ijod.uz/?p=13981/page1). Rahimjonov N. Badiiy tafakkurdagi evrilishlar.



Gulhayo XAITOVA,

Termiz davlat pedagogika instituti, Amaliy ingliz tili kafedrasi o'qituvchisi  
E-mail: xaitovagulhayo@gmail.com

PhD N.Madalov taqrizi asosida

## INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA YAQIN – UZOQ” OPPORIZTSIYASINING IFODALANISHIDA PAREMIOLOGIK BIRLIKLER ROLI

Annotatsiya

Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillaridagi xalq maqollari va matallari «yaqin – uzoq» oppozitsiyasining ifodalanishi tahlil qilinadi. Paremiologik birliklarning madaniy-falsafiy, semantik va kommunikativ jihatlari ochib beriladi. Mavzu yuzasidan olingan misollar tahlili orqali paremiologik birliklarning mazmun-mohiyati hamda ularda aks etgan xalq tafakkuri tadqiqi etiladi.

**Kalit so'zlar:** Paremiologiya, oppozitsiya, yaqin, uzoq, semantika, kommunikatsiya, madaniyat, falsafa.

### РОЛЬ ПАРЕМИОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ В ВЫРАЖЕНИИ ОППОЗИЦИИ «БЛИЗКИЙ – ДАЛЁКИЙ» В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация

В данной статье анализируется выражение оппозиции «близкий – далёкий» в английских и узбекских народных пословицах и поговорках. Раскрываются культурно-философские, семантические и коммуникативные аспекты паремиологических единиц. На примерах исследуются содержание и сущность паремиологических единиц, а также отражённое в них народное мышление.

**Ключевые слова:** Паремиология, оппозиция, близкий, далёкий, семантика, коммуникация, культура, философия.

### THE ROLE OF PAREMIOLOGICAL UNITS IN EXPRESSING THE OPPOSITION “NEAR – FAR” IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES

Annotation

This article analyzes the expression of the opposition "near – far" in English and Uzbek folk proverbs and sayings. It reveals the cultural-philosophical, semantic, and communicative aspects of paremiological units. Through the analysis of selected examples, the article explores the essence of these paremiological units and the folk wisdom reflected in them.

**Key words:** Paremiology, opposition, near, far, semantics, communication, culture, philosophy.

**Kirish.** O'zbek xalq maqollari va matallari insoniyatning ko'p asrlik tajribalarini, milliy tafakkur va qadriyatlarni o'zida mujassam etuvchi bebaho manbadir. Ushbu paremiologik birliklarning tarixiy rivojlanishi davomida to'plangan bilimlarni, falsafiy qarashlarni, axloqiy-ijtimoiy normalarni sodda va ixcham shaklda ifodalaydi. Ayniqsa, maqollar va matallarda tez-tez uchraydigan oppozitsiyalar, jumladan, «yaqin – uzoq» oppozitsiyasi o'zbek xalqining dunyoqarashi, madaniyati va hayot falsasfasini ifoda etuvchi muhim vositadir. Bu oppozitsiya orqali xalqning turli hodisalarga bo'lgan munosabati, insonlararo munosabatlarga oid qarashlari va qadriyatlari namoyon bo'ladi.

Ingliz xalq maqollari va matallari ham shunga o'xshash xususiyatlarga ega bo'lib, ular ingliz xalqining uzoq tarixiy tajribalarini va madaniyatini ifodalaydi. Ingliz paremiologik birliklarda ham «yaqin – uzoq» oppozitsiyasi faol ifodalaban, insonlarning yaqinlik va uzoqlik tushunchalariga bo'lgan munosabatlari, kundalik hayot va amaliyotdagi tanlovlari, hamda ijtimoiy-axloqiy qadriyatlari yoritiladi. Shunday qilib, o'zbek va ingliz xalqlari paremiologik birliklari orqali insoniyatning madaniy xilma-xilligini hamda umumiyyat qadriyatlarni birlgilikda aks ettiradi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Ingliz va o'zbek tillarida «yaqin – uzoq» oppozitsiyasining paremiologik birliklarda ifodalanishi mavzusida olib borilgan ilmiy izlanishlar tilshunoslikda muhim o'rinn tutadi. Bu oppozitsiya orqali har ikki tilda masoфа, munosabatlar va boshqa ko'plab tushunchalar ifodalanadi. Mazkur oppozitsiyaning paremiologik birliklarda aks etishi milliy madaniyat, urf-odatlar va xalqning dunyoqarashini aks ettiradi.

O'zbek va ingliz tillaridagi paremiologik birliklarning tadqiq qilish bo'yicha turli ilmiy manbalarda lingvistik, semantik va madaniy jihatlar o'rganilan. Ushbu mavzu xalq og'zaki ijodi, tilshunoslik va tarjima nazariyasi bilan uzviy bog'liq bo'lib, maqol va matallarning kelib chiqishi, qo'llanilishi hamda

madaniyatlararo farqlari haqida qimmatli ma'lumotlarni taqdim etadi.

O'zbekistonda maqol va matallar tadqiqiga bag'ishlangan ilmiy ishlар orasida A.Madvaliyev va M.Jo'rayevning "O'zbek maqollari va ularning lingvistik xususiyatlari" nomli tadqiqoti alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu tadqiqotda o'zbek maqollarining morfologik va semantik jihatlari chuquq tahlil qilinib, ularning xalq turmush tarzi va mentaliteti bilan bog'liqligi ilmiy asoslangan [2].

G.Rahimov tomonidan yozilgan "O'zbek maqollarining tarjima muammolari" (2018) monografiyasida esa o'zbek maqollarining ingliz tiliga tarjima qilinishidagi muammolar tahlil etilgan. Muallif bevosita tarjima qilingan maqollarning semantik jihatdan asl ma'nosini yo'qotishimi ta'kidlab, tarjima jarayonida ekvivalent yoki mos ifodalar topish muhimligini asoslab beradi [3].

Ingliz tilidagi paremiologik birliklarning tadqiq qilishda R.Webster tomonidan yozilgan "English Proverbs and Their Origins" asari ham katta ilmiy ahamiyatga ega. Mazkur asarda ingliz maqollarining tarixiy rivojlanishi, ularning qo'llanish doirasи va zamonaevi ingliz tilidagi ishlatalish xususiyatlari batafsil yoritiladi. Muallif maqollarni madaniy kontekst bilan bog'lagan holda, ularning hayotiy tajriba orqali shakllanishini ilmiy jihatdan tahlil qiladi [4].

Bundan tashqari, Xalqaro maqollar jamiyatasi (International Proverb Society) tomonidan nashr etilgan ilmiy maqolalar to'plamlarida ingliz va boshqa tillardagi maqollar qiyosiy tahlil qilingan. Jumladan, W. Mieder tomonidan yozilgan "Proverbs: A Handbook" (2004) kitobida maqollarning umumiyyat xususiyatlari, ularning lingvistik va sotsiokultural jihatlari keng qamrovli tarzda o'rganilgan [3].

Qiyosiy tahlil sohasida yana bir muhim ilmiy ish M. Karimovaning "O'zbek va ingliz maqollari: qiyosiy tahlil" tadqiqotidir. Ushbu tadqiqotda ikki tilga mansub maqollar semantik jihatdan guruhlarga ajratilib, ularning umumiyyat va farqli

jihatlari keng qamrovli tahlil qilingan. Muallif o'zbek va ingliz maqollarida mehnat, bilim, hayotiy tajriba, odob-axloq kabi mavzulardagi umumiy va milliy xususiyatlarni chuqur yoritib bergan [1].

Umuman aytganda, o'zbek va ingliz tillaridagi paremiologik birlıklarni tadqiq qilishga bag'ishlangan mayjud ilmiy ishlar ushbu sohaning ilmiy dolzarbligini va ahamiyatini ko'rsatib beradi. Ayniqsa, "yaqin - uzoq" oppozitsiyasini ifodalovchi maqollarining tarjima va lingvokulturologik tahlili bo'yicha kelgusida yanada chuqur ilmiy izlanishlarni amalga oshirish zaruriyati ta'kidlanadi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ushbu tadqiqot ingliz va o'zbek tillarida «yaqin - uzoq» oppozitsiyasining paremiologik birlıklarda aks etishini qiyosiy tahlil qilish metodologiyasiga asoslanadi. Metodologiya quyidagi jihatlarni qamrab oladi: lingvokulturologik tahlil, semantik tahlil, kommunikativ tahlil, qiyosiy (komparativ) metod.

**Tahlil va natijalar.** O'zbek tilining parmiologik birlıklarida «yaqin - uzoq» oppozitsiyasi turli mazmumlarda qo'llanadi. Quyidagi misollar orqali tahlil qilamiz:

Yaqin qo'shni uzoq qarindoshdan yaxshi. Ushbu maqolda geografik yaqinlikning ijtimoiy munosabatlarga ta'siri ifodalabin, xalqning qo'shnichiligi munosabatlariiga katta ahamiyat berishi ko'rsatilgan. Geografik masofaning qisqaligi ijtimoiy birlik va birdamlik uchun zamin bo'lishini ko'rsatadi.

Uzoqdagi suvdan yaqindagi cho'p afzal. Mazkur paremiologik birlik orqali xalq uzoq vaqtligi va katta kuch talab qiluvchi imkoniyatlar o'mniga, yaqindagi oddiy imkoniyatni afzal ko'radi. Bu maqol xalq tafakkurida amaliyot va samaradorlikni ustuvor qo'yadi.

Yaqindagi dushman uzoqdagi do'stdan xavfliroq. Maqolda psixologik masofaning geografik masofadan ahamiyatliroq ekanligi ko'rsatilgan. Xalq falsafasida ishonch va xavfsizlik masalasi yaqin-uzoq tushunchalari bilan bog'liq ravishda yoritiladi. Uzoqni ko'zlagan yaqindan ayirlar. Mazkur birlik orqali xalq uzoqdagagi xayoliy yoki noaniq manfaatlar yo'lida mayjud imkoniyatlarni qo'ldan boy berish xavfi haqidagi ogohlantiradi. Bu orqali xalqning axloqiy qadriyatlar targ'ib etiladi.

Yaqinini hurmat qilmagan uzoqdan izzat ko'rmas. Maqolda insonlarning ijtimoiy munosabatlardagi xulq-atvori tahlil qilinib, axloqiy meyorlar va hurmat-ehtiromga chaqiriq mavjudligi qayd etiladi. Bu orqali xalqning axloqiy qadriyatlar targ'ib etiladi.

Ingliz tilida «yaqin - uzoq» oppozitsiyasini ifodalovchi paremiologik birlıklar turli tarixiy va madaniy omillar ta'sirida shakllangan bo'lib, jamiyat hayotidagi ijtimoiy-ma'naviy munosabatlarning muhim jihatlarini yoritadi. Ushbu maqollar asosan «yaqin - uzoq» masofasini nafaqat geografik, balki insonlar o'tasidagi psixologik, hissiy va ijtimoiy masofani ham ko'rsatishga xizmat qildi. Ingliz tili dunyoning ko'plab madaniyatlariga ta'sir o'tkaza boshlagan zamona viy davrda bu kabi maqollar xalqlarning turmush tarzi, qadriyatlar va tafakkurida «yaqin»likning real ahamiyati hamda «uzoq»ning ehtimoliy xavflari yoki foyda-ziyonlarini aks ettridi.

Quyida ingliz tilida «yaqin-uzoq» oppozitsiyasini ifodalovchi ayrim maqollarni tahlil qilishga harakat qilamiz. Asosiy diqqat «yaqin» va «uzoq» tushunchalarining nafaqat makoniq, balki ijtimoiy, ma'naviy va psixologik ma'nolarda qanday aks etishiga qaratiladi.

Better is a neighbor than a brother far off – Masmuni: Yaqindagi qo'shni – uzoqdagi ukadan (yoki qarindoshdan) yaxshiroq. Ushbu maqolda "near" so'zi geografik masofaning qisqaligini anglatadi. Yaqin qo'shni har qanday vaziyatda tezkor yordam berishi mumkinligi bilan qadrlanadi. "Brother far off" iborasida masofa nafaqat makoniq, balki munosabatlar yaqinligining o'mnini ham bildiradi. YA'ni, qancha

qarindosh bo'lmasin, uzoqda bo'lsa, real yordam bera olmaydi. Mazkur maqol odamlar o'tasida o'zaro ko'mak va birdamlikni qadrlash, yaqin atrofda bo'lgan kishilar bilan mustahkam rishtalar o'rnatish muhimligini uqtiradi.

Out of sight, out of mind. O'zbek tilida ushbu maqola "Ko'zdan uzoq – ko'ngildan uzoq" maqoliga ekvivalent bo'la oladi. Bu maqolda "yaqin-uzoq" oppozitsiyasining psixologik jihatni ko'rindi. Agar kimdir yoki nimadir nazardan chetda bo'lsa, u haqda unutish osonroq kechadi. Ingliz madaniyatida shaxsiy hayotga bo'lgan e'tibor kuchli. Agar kimdir tez-tez ko'zga tashlanmasa (ya'ni yaqin aloqada bo'lmasa), u bilan bog'liq xotiralar zaiflashadi.

A bird in the hand is worth two in the bush – "Qo'ldagi qush – butadagi ikki qushdan afzal." Bu maqolda "near" yoki "far" so'zlarini to'g'ridan-to'g'ri ishlatilmagan bo'lsa-da, mazmunan mayjud imkoniyat ("qo'ldagi qush") va uzoqdagi (realizatsiyasi gumon bo'lgan) imkoniyat ("butadagi ikki qush") qarama-qarshiligi aks etadi. Ingliz xalq tafakkurida real va amaliy yordam beradigan "yaqin" imkoniyat (qo'ldagi qush) ko'proq qadrlanadi. Maqsad yoki manba uzoqda bo'lsa (butadagi qushlar), uning haqiqatda qo'Iga kiritilishi dargumon. Ushbu maqol o'zbek tilidagi "Uzoqdagi suvdan yaqindagi cho'p afzal" maqoliga ma'nodosh bo'lib, har ikki madaniyatda ham "yaqin" va "uzoq" tushunchasi amaliy qadriyat orqali ifodalangan.

Far from eye, far from heart – "Ko'zdan yiroq – ko'ngildan yiroq." Ushbu maqol "Out of sight, out of mind" iborasida bilan mazmunan uyg'un. Bunda "far from eye" jismoni uzoqlikni, "far from heart" esa ruhiy uzoqlikni anglatadi. Masofa oshgani sayin, insonlar o'tasidagi his-tuyg'ular, e'tibor, xotiralar ham susayishi mumkinligi mazmun qilinadi. Ingliz madaniyatida bunday so'zbirkimlar hayotiy tajriba, hissiy munosabatlarning vaqt va makon ta'sirida o'zgarishini keng ifodalaydi. Shunday bo'lsa-da, bu universal mazmundir, chunki boshqa tillarda ham shunga o'xshash maqollar topiladi.

Charity begins at home – Xayıriya (muruvvat, yordam) avvalo uy(da)dan boshlanadi. Ushbu maqolda ham "yaqin" tushunchasi oilaga, o'z atrofidagi insonlarga nisbatan yordam va g'amxo'rlik qilish zarurligi bilan izohlanadi. "Far" so'zi to'g'ridan-to'g'ri ishlatilmagan bo'lsa-da, "boshqalarga yordamdan avval yaqinlaringga yordam qil" degan xulosa "yaqin-uzoq" kategoriyasi orqali tushuniladi. Maqol hayotiy qadriyatlarini ustuvor qo'yishga undaydi: inson avvalo o'zining eng yaqinlari, oilasi yoki jamoasi oldidagi mas'uliyatini ado etishi kerak, shundan keyingina kengroq doirada xayıriya qilishga o'tishi mumkin.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa «Yaqin – uzoq» oppozitsiyasi o'zbek xalq maqol va matallarda boy semantik imkoniyatlar orqali ifodalangan bo'lib, ularda xalqning madaniy-falsafiy dunyoqarashi va hayotiy qadriyatlar ochib beriladi. Ushbu paremiologik birlıklar orqali insonlarning turli xil munosabatlariiga oid qarashlar aks ettirilgan. Shu sababli, paremiologik birlıklar xalq tafakkuri va madaniyatini o'rganishda muhim manba hisoblanadi [5].

Ushbu oppozitsiyaning paremiologik birlıklarda aks etishi milliy madaniyat, urf-odatlar va xalqning dunyoqarashini aks ettiradi. Shuningdek, "yaqin – uzoq" oppozitsiyasi orqali insonlarning kundalik hayotidagi qarorlari, axloqiy meyorlari hamda ijtimoiy munosabatlarga bo'lgan munosabatlari ifodalanadi. O'zbek va ingliz tillaridagi maqol va matallarda bu oppozitsiyaning aks etishi, bir tomonidan, ikki xalq o'tasidagi madaniyi va til o'ziga xoslik va farqlarini namoyon qilsa, boshqa tomonidan, umumiy insoniy qadriyatlarini va tajribalarni ifodalovchi universal tamoyillarni ochib beradi. Shu bois, bu mavzuda olib boriladigan qiyosiy tahlillar nafaqat lingvistik tadqiqotlari uchun, balki madaniyatlararo muloqot va madaniyatlar o'tasidagi mushtaraklik va farqlarni aniqlashda ham muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega bo'ladi.

#### ADABIYOTLAR

- Karimova M. O'zbek va ingliz maqollari: qiyosiy tahlil. – Toshkent: Yangi asr avlod, 2021. – 215 b.
- Madvaliyev A., Jo'rayev M. O'zbek maqollari va ularning lingvistik xususiyatlari. – Toshkent: Fan, 2020. – 198 b.
- Rahimov G. O'zbek maqollarining tarjima muammolari. – Toshkent: Sharq, 2018. – 176 b.
- Webster, R. English Proverbs and Their Origins. – London: Oxford University Press, 2015. – 265 p.
- Safarov Sh. Pragmalingvistika. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008. – 318 b.



Malika XOLMATOVA,

Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti assistenti

E-mail: ibadullayevna81@gmail.com

JDPU professori, f.f.d A.Mamatov taqrizi asosida

## LEXICAL-PHRASEOLOGICAL FIELD: EXPRESSIVE FEATURES OF ADJECTIVES AND THEIR FREQUENCY OF USAGE

### Annotation

In the field of linguistics, the concept of the lexical-phraseological field is one of the fundamental methodological approaches for analyzing the interrelations between words and phraseological units. This article focuses on the roles and idiomatic characteristics of adjectives within phraseological units. When used in phraseological units, adjectives are one of the main factors determining the degree of imagery and emotional intensity of the language, portraying the internal and external character traits and physical characteristics of a person or object in vivid colors. This study sheds light on how adjectives are used in phraseological units and how they expand the language's imagery capabilities. The analysis presents the high, medium, and low frequencies of adjectives in adjectival phraseologisms with precise figures.

**Key words:** Adjectival phraseology, lexical-phraseological field, adjectives, frequency of usage, semantic potentials, sememe, lexeme, Sketch Engine.

## ЛЕКСИКО-ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКОЕ ПОЛЕ: ВЫРАЗИТЕЛЬНЫЕ ОСОБЕННОСТИ ПРИЛАГАТЕЛЬНЫХ И ЧАСТОТА ИХ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ

### Annotation

В области лингвистики понятие лексико-фразеологического поля является одним из основных методологических подходов для анализа взаимосвязей между словами и фразеологическими единицами. Данная статья сосредоточена на ролях и идиоматических характеристиках прилагательных в фразеологических единицах. Когда используются в фразеологических единицах, прилагательные являются одним из основных факторов, определяющих степень образности и эмоциональной насыщенности языка, отображая внутренние и внешние черты характера и физические характеристики человека или объекта яркими красками. В данном исследовании освещается, как прилагательные используются в фразеологических единицах и как они расширяют образные возможности языка. Анализ представляет высокие, средние и низкие частоты использования прилагательных в адъективных фразеологизмах с точными цифрами.

**Ключевые слова:** Лексико-фразеологическое поле, прилагательные, частота использования, семантические возможности, сема, лексема, Sketch Engine.

## LEKSIK-FRAZEEOLOGIK MAYDON: SIFATLARNING IBORAVIY XUSUSIYATLARI VA QO'LLANISH CHASTOTASI

### Annotation

Tilshunoslikda leksik-frazeologik maydon tushunchasi, so'z va frazeologik birlıklarning o'zaro bog'liqligini tahlil qilishda asosiy metodologik yondashuvlardan biridir. Ushbu maqola sifatlar va ularning frazeologik birlıklar tarkibidagi o'mni hamda iboraviylik xususiyatlarini o'rGANISHGA bag'ishlangan. Sifatlar, frazeologik birlıklarda ishlatalganda, tilning obrazlilik va emotsiyonallik darajasini belgilashda asosiy omillardan biri bo'lib, ular shaxs va predmetning ichki, tashqi xarakter xususiyatlarini, fizik xususiyatlarini rangdor bo'yoqlarda ko'rsatuvchi so'z turkimi hisoblanadi. Ushbu tadqiqotda, sifatlar frazeologik birlıklar tarkibida qanday qo'llanishi va tilning obrazli imkoniyatlarini qanday kengaytirishi yoritilgan. Tahlillar natijasida adyektiv frazeologizmlar tarkibidagi sifatlarning yoqori, o'ta va quyi chastotalari aniq raqamlar bilan ko'rsatilgan.

**Kalit so'zlar:** Adyektiv frazeologizmlar, leksik-frazeologik maydon, sifatlar, qo'llanish chastotasi, semantik imkoniyatlar, sema, leksema, Sketch Engine.

**Kirish.** Tilshunoslikda leksik-frazeologik maydon tushunchasi so'z va frazeologik birlıklarning o'zaro bog'liqlarini tahlil qilishda muhim metodologik asoslardan biri hisoblanadi. Sifatlarning ushbu maydon tarkibidagi o'mni va ularning iboraviylik xususiyatlarini milliy madaniyat, xalqning dunyoqarashi va tarixiy qadriyatlarini ifodalashda muhim rol o'ynaydi. Frazeologik birlıklarda sifatlarning iboraviylik xususiyati tilning obrazlilik va yemotsionallik darajasini belgilashda asosiy omil hisoblanadi. Masalan: bag'ri butun, bag'ri qon, bag'ri qora, bag'ri xun, bag'ri dog'li, bag'ri keng. Yuqorida misollarda bag'ir so'zi odatiy ma'nosidan og'ib, metaforik va iboraviy ko'rinishda ishlatalgan. Qora, keng, dog'li, butun kabi sifatlar otga birikib uning iboraviylik xususiyatini yanada oshirishga xizmat qilgan.

**Asosiy qism.** Sifatlar frazeologik birkmalarining ma'no va ifoda usullarini boyituvchi yelement sifatida tilning obrazli imkoniyatlarini kengaytiradi. Shunday yekan bu muhum vositanı frazeologizmlar tarkibida qo'llanish chastotasini aniqlash zarurati tug'iladi. Ko'plab til yegalari, tilshunos olimlari, lug'atshunoslari, til fidoiylari tomonidan COCA, BNC, ALC,

FRENCH WEB, GERMAN WEB, HINDI WEB kabi milliy til korpuslari yaratilib, mavjudlari to'ldirilib, so'z boyliklari kengaytirilib borilmogda, So'ngi yillarda lingvistiklar til birlıklarining faoliyatini korpuslari asosida tahlil qilishga intilmoqda. Xo'sh bu nima uchun kerak? Tilni tadqiq qilishda korpus materiallari tahlili orqali yangi grammatik, leksik va stilistik qonuniyatlarini aniqlash imkoniyati yaratiladi. YE.Rafatbakhsh va A.Ahmadi fikricha korpus lingvistikasi to'plangan korpuslar orqali ko'proq ausentik va tizimli materiallarni loyihalashtirish hamda ishlab chiqishda katta hissa qo'shishi mumkin, chunki bunday korpuslar odatda maqsadli tillarning yeng yaxshi namunasi hisoblanadi.(9, 7)

Zamonaviy lingvistika fanida faoliyat atamasini so'zlarining til va nutqdagi katta yoki kichik rolini belgilovchi murakkab tushuncha sifatida ishlataladi. Ushbu tushuncha A.L. Muminov va I.M. Kreyning tadqiqotlarida chuqur o'rGANILGAN. I.M. Kreyning fikriga ko'ra, so'zning faolligi ikki asosiy omildan iborat: (5, 17)

1. Til tizimidagi faoliyat: Bunga so'zning hosilaviy birlıklari (derivativlik), ko'p ma'noliligi (polisemiyasi) va boshqa so'zlar bilan uyg'unlashuv (valentlik) kiradi.

2. Nutqdagi faollik: So'zning ishlatalish chastotasi orqali aniqlanadi. A.L. Muminov yesa so'z faolligini qat'iy, ya'ni, sonli o'lchovlar yordamida tahlil qilishga urinib, faollikning turli parametrlari o'tasidagi korrelyatsiyani aniqlagan. (7, 21)

T.V. Mitinaning fikricha, frazeologik faollik adjektivlarning frazeologik birliklar tarkibidagi semantik strukturasiga bog'liq. Shuningdek, ular adjektivlarning semantik struktura ustidagi ta'sirining ikkilamchi rol o'ynashini ta'kidlaydilar. Bu adjektivlar frazeologik birliklarning semantik tizimida yordamchi yoki qo'shimcha vazifa bajarishini ko'rsatadi.(6,24) So'zlarning til tizimidagi va nutqdagi faolligini tahlil qilishda semantik va sintaktik o'zaro aloqalar hisobga olinadi. Ingliz tilidagi sifat komponentli iboralarini o'rganishimiz jarayonida ular asosan aniqlovchi yoki kesim vazifasida qo'llanishiga, o'zbek tilida yesa gapda sifatlovchi aniqlovchi sifatida namoyon bo'l shiga guvoh bo'ldik. (12,1393) Ingliz va o'zbek tilidagi sifatlarning frazeologik faolligini aniqlashda yesa so'zning ishlatalish chastotasi, semantik potensiali, kelib chiqishi va strukturna soddaligi muhim ahamiyat kasb yetadi. Shu o'rinda biz tadqiqotimiz obyekti sifatida tanlab olingan Sh.Rahmatullayev, N.Mahmudov, Z.Xolmanova, I.O'razova, K.Rixsiyyevalar (8,636) hammallifligida 2022 yilda nashrдан chiqqan, 636 sahilalik, 5198 ta frazeologik iboralarini o'z ichiga olgan "O'zbek tili frazeologik lug'ati" va Sh.Shomaqsudov, S.Dolimov va U.Dolimovlarning qalamiga mansub "Keng uying kelinchagi yoki o'zbek xalq matal va iboralarini yensiklopediyasi"da mavjud iboralar tarkibidagi sifatlarning qo'llanish chastotasini tahlil qildik.(11,640) Yuqoridaq

manbalarda jami 105 turdag'i sifatlar ishtirok yetgan bo'lib, natijalar quydagi 1 jadvalda ko'rsatilgan.

Qiyoslanayotgan ikkinchi til yani ingliz tili frazeologiyasida sifatlarning chastotasini aniqlash maqsadida biz Oxford korpusi asosida yaratilgan "OXFORD DICTIONARY OF IDIOMS" 4th editiondan foydalandik.(1,1592) Bu lug'atni tanlashimizga sabab birinchidan bu lug'at yeng ko'p idiomalarni tarifi, tarixi, misollari bilan o'z ichiga jamlagan yeng so'ngi nashr hisoblanadi, ikkinchidan bilamizki ingliz tilining leksik sathi rivojlanayotgan davrda kundan kunga yangilanib, kengayib bormoqda. Ba'zi bir iboralar yeskirib nutqiy faolligi nolga tushgan bo'lsa, ba'zilari birinchi ma'nosini yoqotib boshqa ma'noda qo'llanilmoqda. Bu borada mazkur lug'at muallifi John Ayto ham quydagi fikrlarni bildiradi. "Leksikografiya doimiy "quvib yeytish" o'yinidir.(1,232)

Tadqiqotimizning tahlili 3 bosqichda amalga oshirildi. Birinchi navbatda iboralar qo'lda ajratib olingach, maxsus dastur tiliga o'girilib, tadqiqimiz uchun korpus yaratdik. Oxirida Sketch Yengine platformasi yordamida qidiruvni amalga oshirdik. (13)

Korpusdagi 9913 ta idiomatica tarkibida jami 602 turdag'i sifat so'z turkimi ishtirok yetgan bo'lib, shundan jami 526 ta sifat past faollik darajasiga kiradi, ya'ni ushbu sifatlar 10 martadan kam ishlataligan. O'rta faollik darajasiga 71 ta sifat kiradi, ularning chastotasi 10 dan 50 gacha. Faqat 5 ta sifat yuqori faollik darajasiga kiradi, ya'ni ushbu sifatlarning chastotasi 50 martadan ko'p. Good, own, va old, big, bad kabi sifatlar ushbu guruuga kirib, frazeologik birliklarning asosiy semantik yukini ko'taruvchi sifatlar yekanligini tasdiqlaydi.

Yenglish-Uzbek Top 20 Adjective Comparison

English Adjective	English Frequency	English %	Uzbek Adjective	Uzbek Frequency	Uzbek %
good	146	15,90414	Qora	49	16,61017
own	77	8,3878	Oq	40	13,55932
old	73	7,95207	Ochiq, Yengil, Sovuq	24	8,135593
big	63	6,862745	Baland	22	7,457627
bad	59	6,427015	Katta	20	6,779661
dead	44	4,793028	Qattiq	19	6,440678
high	39	4,248366	Past	16	5,423729
last	38	4,139434	Issiq	15	5,084746
hot	37	4,030501	Tor, Og'ir	13	4,40678
black	34	3,703704	Uzun	12	4,067797
short	33	3,594771	Quruq, Yomon, Butun, Xira	11	3,728814
hard	32	3,485839	Chog', Buzuq	10	3,389831
full	32	3,485839	Keng, Yaqin	9	3,050847
cold	32	3,485839	Yorug', Achechiq, Qizil, To'q	8	2,711864
more	31	3,376906	Yaxshi, Zo'r, Qari, O'tkir, Kichik, Bo'sh	7	2,372881
clean	31	3,376906	Eski, To'g'ri, Xom,	6	2,033898
other	30	3,267974	Siyoh, Och, G'ash, Yarim, Egri, Nozik, Yolg'on, Kalta Uzoq, Shirin, Yolg'iz, Qimmat, Toza, Qisqa, Yangi,	5	1,694915
first	29	3,159041	Mahkam	4	1,355932
little	29	3,159041	Omon, Yumshoq, Qalin, Yog'on, Tekin, Sariq, Begona, Chaqqon	3	1,016949
blue	29	3,159041	Harom, Baquvvat, Tez, Tiniq	2	0,677966

#### Jadval 1.

Ingliz va o'zbek tillaridagi eng ko'p ishlataladigan 20 ta sifatni qiyosiy tahlil qilish shuni ko'rsatadi, har ikki tilda ham sifatlarning o'ziga xos faollik darajasiga mavjud bo'lib, bu tillarning semantik va madaniy xususiyatlarini aks ettiradi.

Quyida chastotalar o'tasidagi asosiy tafovutlar va ularning tahlili keltiriladi:

1. Eng yuqori chastotali sifatlarning farqi: Ingliz tilidagi good sifati 146 marta uchrashi bilan yetakchilik qiladi, bu esa o'zbek tilidagi eng yuqori chastotali sifat qora (49 marta) dan 97 marta ko'p. Bu tafovut ingliz tilidagi yuqori chastotali sifatlarning kengroq kontekstlarda va turli mavzularda ishlatalishini ko'rsatadi, o'zbek tilida esa sifatlar ko'proq konkret va tasviriy ma'noda cheklangan doirada qo'llaniladi.

2. Ikkinci va uchinchi o'rnlardagi farq: Ingliz tilida ikkinchi va uchinchi o'rnlarda own (77) va old (73) sifatlar

keladi, ular mavhumlik, egalik va vaqt tushunchalarini aks ettiradi. O'zbek tilida esa bu o'rnlarda oq (40) va ochiq, yengil, sovuq (24) adyektivlari joylashgan, ular keng va ko'p qirralarga ega bo'lib, jismoniylar holatdan ijtimoiy mavqega, hissiy holatdan ma'naviy yuksaklikka qadar turli kontekstlarda qo'llaniladi.

3. O'rtacha chastotali sifatlar: Ingliz tilidagi o'rtacha chastotali sifatlar (masalan, big - 63, bad - 59) ko'proq mavhum va umumiyl xususiyatlarni tasvirlash uchum ishlataladi. O'zbek tilidagi o'rtacha chastotali sifatlar (masalan, baland - 22, katta - 20) aniq fizik va madaniy jihatlarni tasvirlashga xizmat qiladi.

4. Kam chastotali sifatlarning taqsimoti: Ingliz tilida kam chastotali sifatlar hali ham nisbatan yuqori chastotaga ega (masalan, 34 marta). O'zbek tilida esa eng past chastotali sifatlar faqat 2 yoki 3 marta uchraydi, bu esa yuqori chastotali sifatlarning o'zbek tilida muhimroq ekanligini ko'rsatadi.

5. Chastotalar pasayishidagi farqlar: Ingliz tilida sifatlarning chastotasi nisbatan tekisroq pasayadi, bu tilning kengroq leksik qamrovini ko'ssatadi. O'zbek tilida esa yuqori chastotali sifatlarning ulushi kattaroq bo'lib, pasayish keskinroq.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, mazkur tahlil shuni ko'rsatadiki, ingliz va o'zbek tillarida sifatlarning semantik yuk

va madaniy ahamiyati o'ziga xos bo'lib, bu tillarning frazeologik boyligidagi asosiy farqlarni namoyon etadi. Bu xulosalar tilshunoslik, madaniyat va semantik tadqiqotlar uchun qimmatli manba bo'lishi mumkin.

#### ADABIYOTLAR

1. Ayto J. "Oxford dictionary of idioms" © Oxford University Press, 2020, 1592 b.
2. Cowie, A. P. Phraseology: Theory, analysis, and applications. OUP Oxford. 1998, 130 b
3. Ковалева, Л.В. Фразеологизаци ка когнитивны процес /Воронеж: изд-в Воронеж, гос. унта, 2004. - 184с.
4. Кругликова, Л.Е. Структур лексического и фразеологического значения: Учеб. пособи / -М., 1988. - 84с
5. Крейн И.М. Французские заимствования XIXв. в английском литературном языке. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук, - М., 1963. - 17 с.
6. Митина Т.В. Семантическая значимость компонентов фразеологических единиц современного немецкого языка. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук.-М., 1980.-22 с.
7. Муминов А.Л. Опыт исследования активности слов и факторов ее обуславливающих, Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. -М., 1972. -21 с,
8. Rahmatullayev SH, Mahmudov N, Xolmanova Z, O'razova I, Rixsiyeva K. "O'zbek tili frazeologik lug'at'i, Toshkent-2022, 636 b.
9. Rafatbakhsh E & Ahmadi A. (2019). A thematic corpus-based study of idioms in the Corpus of Contemporary American English. Asian-Pacific Journal of Second and Foreign Language Education. 4. 10.11. 7 b.
10. Садыкова М. Слова, обозначающие свет и окраску в узбекском языке. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Тошкент: 1963. –С. 74
11. Shomaqsudov Sh, Dolimov S, Dolimov U. "Keng uyning kelinchagi yoki o'zbek xalq matal va iboralari ensiklopediyasi" Toshkent, Sharq nashryoti, 2020, 640 b.
12. Xolmatova M.I. Ingliz va o'zbek tillaridagi sifat komponentli iboralarning lingvokulturologik qiyosiy tahlili. Academic research in educational sciences, 2021, 2 (12), 1391-1397.
13. Lexical Computing CZ s.r.o., Sketch Engine: Corpus query system, accessed [date], <https://www.sketchengine.eu>.



**Shoxida EGAMOVA,**

Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti dotsenti, f.f.n

E-mail: egamovashohida2@gmail.com

F.f.n., dotsent A.Ubaydullayev taqrizi asosida

## TERMS EXPRESSING THE MEANING OF MILITARY POSITION, RANK IN ALISHER NAVOI'S EPIC POEM "SADDI ISKANDARIY"

### Annotation

This article discusses the military terms used in the vocabulary of Alisher Navoi's epic poem "Saddi Iskandariy". Military terms expressing the meaning of military position, career, and title are linguistically analyzed by dividing them into a number of lexical-semantic groups, including terms expressing military position, rank, terms denoting a person performing a certain activity in combat operations, terms denoting a person using weapons, terms denoting a person in the army, etc.

**Key words:** Soldier, position, rank, military position, military action, semantic group, semantic field, battle, armament, army composition.

## ТЕРМИНЫ, ВЫРАЖАЮЩИЕ ЗНАЧЕНИЕ ВОЕННОГО ПОЛОЖЕНИЯ, ПОЗИЦИИ, ЗВАНИЯ В ЭПИЧЕСКОЙ ПОЭМЕ АЛИШЕРА НАВОИ "САДДИ ИСКАНДАРИЙ"

### Аннотация

В этой статье рассматриваются военные термины, использованные Алишером Навои в словаре эпоса "Садди Искандарий". Военные заимствования, выражающие значение воинской должности, чина, звания, анализируются лингвистически, разделяясь на ряд лексико-семантических групп, включающих такие термины, как военная должность, термины, обозначающие звание, термины, обозначающие человека, выполняющего определенную деятельность в боевых действиях, термины, обозначающие человека, использующего оружие, термины, обозначающие человека в составе армии.

**Ключевые слова:** Военный, должность, звание, воинская должность, военное действие, semantic группа, semantic поле, бой, вооружение, состав армии.

## ALISHER NAVOIY "SADDI ISKANDARIY" DOSTONIDA HARBIY LAVOZIM, MANSAB, UNVON MA'NOSINI IFODALOVCHI ISTILOHLAR

### Annotatsiya

Ushbu maqolada Alisher Navoiy "Saddi Iskandariy" dostoni so'z boyligida qo'llanilgan harbiy atamalar xususida so'z yuritilgan. Harbiy lavozim, mansab, unvon ma'nosini ifodalaydigan harbiy istiohlolar bir qator leksik-semantik guruhlarga ajratilgan holda lisoniy tahlil etilgan, jumladan, harbiy lavozim, mansabni ifodalovchi terminlar, jang harakatlarida muayyan faoliyatni bajaruvchi shaxsni bildiruvchi terminlar, qurol-aslahani ishlatuvchi shaxsni bildiruvchi terminlar, qo'shin tarkibidagi shaxsni bildiruvchi terminlar kabi.

**Kalit so'zlar:** Harbiy, lavozim, mansab, unvon, harbiy lavozim, harbiy harakat, semantik guruh, semantik maydon, jang, qurol-aslaha, qo'shin tarkibi.

**Kirish.** Dunyo tilshunosligida terminologiya har bir tilning o'ziga xos imkoniyatlarni namoyon etuvchi va, shubhasiz, uning lug'at qatlamenti boyitishga xizmat qiluvchi til rivojanishining ichki mexanizmi sifatida tadqiqotchilar e'tiborini tortib kelmoqda. Jahon tilshunosligida milliy tillarning paydo bo'lish, shakllanish, rivojanish bosqichlari turli aspektlar va nuqtayi nazarlardan o'rganilgan [9]. Ushbu maqolada asosiy e'tibor Alisher Navoiy "Saddi Iskandariy" asari so'z boyligidagi harbiy terminlarga, jumladan, harbiy lavozim, mansab, unvon ma'nosini ifodalovchi istiohlarning leksik-semantik tadqiqiga qaratilgan.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** So'nggi yillarda tadqiqotchilarimiz tomonidan Alisher Navoiy asarlari leksikasi lisoniy xususiyatlari tadqiqa bag'ishlangan bir necha ilmiy izlanishlar amalga oshirildi. Jumladan, M.Tojiboyeva Alisher Navoiyning "Ilk devon"idagi arabcha so'zlarni leksik-semantik talqini ustida izlanish olib bordi [12], D.Abduvaliyeva Alisher Navoiyning "Tarixi anbiyo va hukamo" hamda "Tarixi muluku ajam" asarlarining so'z boyligini tarixiy-etimologik, funksional-semantik va semantik-stilistik nuqtai nazardan o'rgandi [1], Sh.Xo'janiyozova Alisher Navoiyning "Xamsat ul-mutahayyirin", "Holoti Sayyid Hasan Ardasher", "Holoti Pahlavon Muhammad" asarlari leksikasi tadqiqa amalga oshirdi [15], X.Muxammadiyev Alisher Navoiy "Xamsa" dostonlaridagi maishiy leksika tadqiqini olib bordi [11], N.Umarovaning ilmiy ishi Alisher Navoiy asarlarda faol lug'avyi konseptlarning olamni lisoniy idrok etishdagi o'rnini aniqlashga bag'ishlangan bo'lib, unda eski o'zbek tilidagi konsept va kategoriyalarning milliy-lisoniy

manzaradagi o'rni ochib berilgan [13]. A.Mavlonov tadqiqotida esa, Alisher Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostonida qo'llanilgan terminlarning tarkibiy-mazmuniy tahlili amalga oshirgan [10].

**Tahlil va natijalar.** "Saddi Iskandariy" dostoni so'z boyligidagi harbiy ish va harbiy san'atga oid terminlar, tushunchalar bilan bog'liq semantik maydon harbiy harakatlarda ishtirok etuvchi shaxs, qo'shin turlari, harbiy qism va bo'linmalarni, jang usullari, qurol-yarog', harbiy inshoot, harbiy harakatlardan bilan bog'liq tushunchalarini aks ettiruvchi terminlar guruhini o'z ichiga oladi. Mazkur semantik guruhlarni o'z navbatida tuzilish va mazmun jihatdan yanada kichikroq doiradagi leksik birliklarga ajratib o'rganish mumkin. Masalan, harbiy lavozim, mansab, unvon ma'nosini ifodalovchi istiohlarni quyidagi leksik-semantik guruhlardan iborat birlklarni qamrab oladi:

1). Harbiy lavozim, mansabni ifodalovchi terminlar: sarxayl (f. sarkarda, lashkarboshi, qo'mondon; boshliq), shaypol (yuqori darajali sarkarda), xoqon (xonlar xoni, xoqon; oliy bosh qo'mondon), cherigchi (askar, jangchi; lashkarboshi), peshvo (f. sardor, boshliq, qo'mondon), qosid (ar.xabarchi; elchi), sipohiy (harbiy hizmatchi, amaldor), sipahdor/sipohdor (sarkarda, lashkarboshi; hukmron), sipahbad (f. qo'mondon, sarkarda, lashkarboshi), farmondih (hokim, shoh; farmon beruvchi), lashkarkash (f.sarkarda, lashkarboshi, qo'mondon), ulyo (eng oliy, eng yuksak), mahdi ulyo (yuksak mavqeli (ayol) kishiga beriladigan unvon), xoqon (shox, xonlar xoni, xoqon), chobuki jango'y (urushqoq, jangovar chavandoz), chobuksuvor (chavandoz, otni mahorat bilan boshqaruvchi), o'ng (qo'shining

o'ng qanoti sarkardasi), amal (a. ish; amal, lavozim), taxtgir (g'olib, qahramon, kuchli shoh; taxt egallovchi), toju kuloh (shohlik mansabi), va h.k.;

2). Jang harakatlarida muayyan faoliyatni bajaruvchi shaxsni bildiruvchi terminlar: sinonvar (nayzador, nayza bilan qurollangan jangchi), aduvband (qf. yovni asir oluvchi, bandi qiluvchi), ko'szan (f. do'mbira chaluvchi, nog'orachi), marzbon (f. chegarachi, soqchi), munosib (ar. hisobchi, sanoqchi): nighobon (f. 1.qorovul, qo'riqlovchi, posbon, soqchi; 2. boshliq, rahnamo, hokim), qosid (ar.xabarchi; elchi), tig'zan (askar, jangchi), tig'liq (tig' qilich ko'targan; qurollangan), xasmband (dushmanni asir oluvchi), xozin (xazinachi, qo'riqchi; devonbegi), qa'lakan (f. qal'a atrofida choh, xandaq qazuvchi) va h.k.;

3). Qurol-aslahani ishlaturvchi shaxsni bildiruvchi terminlar: novakafkan (f. o'q otuvchi, mergan; o'q-yoy otuvchi), novakandoz (f.o.'q otuvchi, o'q-yoy otuvchi), palorafkfan (f. nayzador, nayzaboz), nayzavar (f. nayza ko'tarib yuruvchi jangchi, nayza bilan qurollangan askar), novakafkan (f.o'q otuvchi, mergan; o'q-yoy otuvchi), novakandoz (f.o'q otuvchi, o'q-yoy otuvchi) va h.k.;

4). Qo'shin tarkibidagi shaxsni bildiruvchi terminlar: cherik//cherig (qo'shin, lashkar, askar; kuch, qudrat), sipah//sipoh (askar, qo'shin, lashkar), parxoshjuy (f. jangovar, botir; urishuvchi, solishuvchi) kabi.

Biz quyida asar so'z boyligida qo'llanilgan ba'zi bir istilohlarning leksik-semantik xususiyatlariiga to'xtalib o'tamiz.

Cherik/cherig istilohi dastlab qadimgi turkiy O'rxun-Enasoy toshbitiklari matnida qo'llangan [5]. "Harbiy yurish vaqtida oliy hukmdor tomonidan chiqarilgan farmonga muvofig yig'iladigan muntazam qo'shin" (O'TIL, IV, 475) ma'nosini ifodalaydigan ushbu istiloh "Saddi Iskandariy" dostoni tilida "qo'shin, lashkar, askar; kuch, qudrat" (ANATIL, III, 463) ma'nosida uchraydi:

Ki ne mulknfathi, edi ne bilod,

Ki qilsam cherik birla ani kushod. (SI, 313)

Cherik/cherig istilohi "cherik davri" birikma tarkibida kelib, "qo'shin atrofi, tevaragi; qo'shin joylashgan lager atrofi" ma'nosini ifodalaydi:

Tushulgach, cherik davrini shaq qilib,

Sipah hifzi aylarga xandaq qilib. (SI, 133)

"Cherik jam'i" birikma tarkibida esa, "qo'shin to'plash, yig'ish" kabi jangovar hatti- harakat ma'nosida uchraydi:

Bo'lub bois ul go'l, nodon ishi,

Cherik jam'ig'a chopti har yon kishi. (SI, 132)

"Cherik tushur" qo'shma fe'l tarkibida kelib, "lashkar totmoq, hujumga o'tmoq" ma'nosida namoyon bo'ladi:

Cherikni tushurdi keyinrak yonib,

Yurub hifz uchun davrig'a aylanib. (SI, 138)

Affiksal termin yasalishi umumadabiy so'zlarining hosil qilinishi singari juda qadimdan yetakchi va sermahsul usul hisoblanadi. O'z vaqtida Mahmud Koshg'ariy, Mahmud Zamashshariy, Ibn Muhamma lug'atlariada, XIII-XIV asrlarda turkiy til grammatikasiga doir arab tilida yaratilgan risolalarda, Alisher Navoiyning "Muhokamat ul-lug'atayn" asarida o'zbek (turkiy) til so'z yasalishi vositalari va yo'llari haqida qimmatli ma'lumotlar keltirilgan edi.

O'zbek adabiy tilining asoschisi Alisher Navoiy "Muhokamat ullug'atayn" asarida -chi affiksining vazifasiga alohida diqqat qaratgan holda, uning qurchi, xizanachi, yaraq'chi, chavganchi, nayzachi, shukurchi, yurtchi, shilanchi, axtachi, qushchi, barschi, qoruqchi, tamg'achi, jibachi, yorg'achi, halvachi, kemachi singari turfa mansab va rutbalarini ifodalashdagi faolligini ta'kidlaydi[7]. Alisher Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostonida qo'llanilgan cherighi istilohi ham

-chi affaksi yordamida hosil bo'lgan va "askar, jangchi, lashkarboshi" (ANATIL, III, 464) ma'nosini ifodalaydi:

Buzub qo'ryosin cherigchi kirib,

Uyidin necha shoh o'tun oyirib. (SI, 129)

Asar matnida o'zlashma qatlamaq oid shaypol [ا. شاشى] istilohi "yuqori darajali sarkarda" ma'nosida ko'zga tashlanadi:

Sipahdorlar alar ichra shaypol o'lub,

Tahavvurda chun Rustami Zol o'lub. (SI, 155)

"Changak" ma'nosini ifodalaydigan shast [f.- ] o'zlashmasi ahli shast izofali birikma tarkibida kelib, "yo'ychilar, o'qchilar, yoy otuvchilar" ma'nosida uchraydi:

Tura barcha qullob ila bandu bast,

Kamin aylabon keunida ahli shast. (SI, 218)

"Sarkarda, lashkarboshi, qo'mondon; boshliq" ma'nosini ifodalaydigan sarxayl [ا. سارخىلى] o'zlashmasiga -liq affiksini qo'shish orqali hosil bo'lgan sarxaylliq istilohi asar so'z boyligida "sardorlik, sarvarlik" ma'nosida namoyon bo'ladi:

Zihi anbiyo xaylining sarvari,

Boshing uzra sarxaylliq gavhari. (SI, 120)

"Mas'ul vazifa, mansab" (O'TIL, I, 99) ma'nosini ifodalovchi amal [a. - عالىش; amal, lavozim] istilohi "Saddi Iskandariy" dostoni so'z boyligida amal ahli izofali birikma tarkibida kelib, "mansabdorlar" (NTL, I, 71) ma'nosida uchraydi:

Amal ahlig'a qildi mashg'ullud.

Yomonlarg'a yetkurdy ma'zulluq. (SI, 114)

Asar tilida "eng oliv, eng yuksak" (ANATIL, III, 285) ma'nosini ifodalaydigan ulyo [a. اىلەن] leksemasi mahdi ulyo izofali birikma tarkibida kelib, "yuksak mavqeli (ayol) kishiga beriladigan unvon" semasini anglatagan:

Hamul Ravshanak mahdi ulyo o'lub,

Shabistonida majlisopo bo'lub. (SI, 298)

"Podshoh, xon, amir saroyida uzoq xizmat qilgan lavozimli kishi, amaldor" ma'nosini ifodalaydigan sipah/sipoh [f. پادشاه - harbiy birlashma; qo'shin, armiya] termini Alisher Navoiy "Saddi Iskandariy" dostoni so'z boyligida "askar, qo'shin, lashkar; sipohiy, harbiy kishi" (THTL, 246) ma'nosida ko'zga tashlanadi:

Bu yanglig' sipah birla doroyi Rum,

Sipohin yasab, o'yakim, naxli mum. (SI, 156)

Asar tilida ot turkumidan ot termin yasovchi -iy affiksli sipohiy [f. ایلەن] istilohi "harbiy xizmatchi, amaldor" ma'nosini kasb etadi:

Chu qilmish sipohiyg'a tashbih ani,

Erur nuktai o'yla tanbih ani. (SI, 257)

Shu asosda asar matnida sipahbad [f. سپاهباد] forscha o'zlashma ham uchraydi va "qo'mondon, sarkarda, laskkarboshi" ma'nosini ifodalaydi:

Qutayf ahli, Bahraynu Bag'dod ham,

Sipahbad, alarg'a kelib Gustaham. (SI, 133)

Sipoh tort= qo'shma fe'l tarkibida kelib, "lashkar tortmoq" ma'nosida uchraydi:

Sipoh tortmoq vaqtli ham uldurur,

Kishi har ish aylay desa yo'ldurur. (SI, 282)

Sipah tushur= qo'shma fe'l tarkibida kelib, "lashkarni joylashtirmoq" ma'nosida ko'zga tashlanadi:

Aduv vahmidin bo'lmayin ishdva sust,

Ko'rub yer, sipohin tushurdi durust. (SI, 271)

Sipah chek= qo'shma fe'l tarkibida kelib, "lashkar yubormoq" ma'nosini ifodalaydi:

Sipoh chektimu zohir ettim hilof

Ayon ayladim o'trusida masof. (SI, 264)

Fors-tojik tiliga taalluqli sermahsul -dor qo'shimchasi yordamida hosil bo'lgan sipahdor istilohi asar tilida "sarkarda, lashkarboshi; hukmron" ma'nosida uchraydi:

Chu atrofida shohlar o'lturub,

Sipohdorlar xizmatida turub. (SI, 260)

"Jo'nab ketayotgan; intiluvchi, qasd qiluvchi; xabarchi, elchi, chopar" ma'nosini ifodalaydigan qosid [ا. مسند] (O'TIL, IV, 240) istilohi "Saddi Iskandariy" dostoni tilida "xabarchi, elchi" ma'nosini kasb etadi:

Chu o'lturdi qosid tikib yerga ko'z,

Ne yora anga so'rmayin derga so'z. (SI, 130)

Bundan tashqari "qosidi kordon" izofali birikma tarkibida kelib, "donishmand elchi" (ANATIL, III, 463) ma'nosida voqelanadi:

Vagar o'zga aytilsa so'z nosavob,

Erur qosidi kordondin javob. (SI, 268)

Hozirgi o'zbek adabiy tilida "ma'lum bir soha yoki ishda yetakchi, ilg'or kishi" semasini ifodalaydigan [f. شوایپ - rahnamo, rahbar ustoz] (O'TIL, III, 250) peshvo istilohi dostoni tilida "sardor, boshliq, qo'mondon" ma'nosida ishlataladi:

Hamul mag'rib ahlini boshlab Tali',

Arab xaylining peshvosi Vaki'. SI(X) 77.

“Qarab turuvchi, boshqarib turuvchi” [f. نگاه‌بان -qarab turuvchi, qorovul] (O'TIL, III, 371) ma’nosini ifodalaydigan nigobon istilohi Alisher Navoiy “Saddi Iskandariy” dostonidan keltirilgan ushbu parchada “qorovul, qo‘riqlavchi, posbon, soqchi” ma’nosini ifodalaydi:

Erur olam nigohboni ul,

Nigobon yo‘q Iskandari soniy ul. (SI, 319)

Ushbu istiloh quyidagi misrada esa, boshliq, rahnamo, hokim” ma’nosini anglatadi:

Qilib hukmkim: Mulk sultonlari,

Qamuq xaylu kishvar nigohbonlari. (SI, 132)

Lashkar [f. شکر] tarixiy harbiy termin sifatida “qo‘shin, sipoh” ma’nolarini ifodalaydi. Lashkar termini umumeroni so‘z bo‘lib, ayrim eronshunoslar fikricha, askar so‘zi uning arabiylashgan shaklidir [10]. Lashkarkash [f. شکر کش] istilohi “davlatning qurolli kuchlari majmuyi yoki uning bir qismi; qo‘shin, armiya” (O'TIL, II, 25) ma’nosini ifodalaydigan lashkar [f. شکر] o‘zlashmasiga kelib chiqishi forscha-tojikcha hisoblanuvchi –kash affiksini qo‘shish orqali yasalgan va asar tilida “lashkarboshi, qo‘mondon, sarkarda” ma’nolarida ko‘zga tashlanadi:

Yaqinidin anga tiyra bo‘ldi basar,

Ki lashkarkashi bo‘ldi Buxtun-nasar. (SI, 246)

Yana “Saddi Iskandariy” so‘z boyligida “lashkar” istilohi asosida hosil bo‘lgan lashkararo “g‘olib, yenguvchi; jangda qo‘shin safini tartibga soluvchi” (ANATIL, II, 169); lashkarshikan

“jangchi; saf buzar; g‘olib” (ANATIL, II, 169) terminlari ham uchraydi:

Chu ko‘ngli bo‘lub tinch, yuz tig‘zan,

Bari lashkarorou lashkarshikan. (SI, 260)

**Xulosa.** Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, Alisher Navoiy “Saddi Iskandariy” dostoni so‘z boyligida harbiy lavozim, mansab, unvon ma’nosini ifodalovchi istilohlarga oid terminlar, tushunchalar bilan bog‘liq semantik maydon harbiy lavozim, mansabni ifodalovchi terminlar, jang harakatlarda muayyan faoliyatni bajaruvchi shaxsni bildiruvchi terminlar, qurol-aslahani ishlatuvchi shaxsni bildiruvchi terminlar, qo‘shin tarkibidagi shaxsni bildiruvchi terminlar guruhini o‘z ichiga oladi. Ilmiy izlanish davomida shu narsa ayonlashdiki, yuqorida qayd etilgan semantik guruhlarga oid istilohlarning asosiy fondini o‘zlashgan qatlamaqta o‘sishiga oid istilohlar tashkil etadi.

#### SHARTLI QISQARTMALAR

ANATIL - Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati. I-IV. -T., 1983-1985.

DLT - Devonu lug‘otit turk. Tom. I-III. Nashrga tayyorlovchi S.Mutallibov. -T., 1960-1963.

NAL - Navoiy asarlari lug‘ati. Porso Shamsiyev tahriri ostida. – T.: “G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti”. 1973. –782 b.

4. SI – “Saddi Iskandariy”. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. 20 jildlik. 11-jild. – T.: “Fan”, 1993.

5. O‘TIL - O‘zbek tilining izohli lug‘ati. T.1-VI. -T., 2023.

#### ADABIYOTLAR

- Абдувалиева Д. Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) ... дисс. -Тошкент, 2017. -159 б.
- Бафоев Б. Навоий асарлари лексикаси. -Тошкент: Фан, 1983. -157 б.
- Berdak Yusuf. Navoiy tili lug‘ati. I jild. -T., 2018. - 495 b.
- Дадабаев Х., Насыров И., Хусанов Н. Проблемы лексики староузбекского языка. –Т.: “Фан”, 1990. - 213 б.
- Дадабаев Х. Военная лексика в староузбекском языке. – Ташкент: Фан, 1990.
- Dadaboyev H. Tarixiy harbiy terminlar lug‘ati. -T., 2024. -341 b.
- Dadaboyev H. O‘zbek terminologiyasi. -T., 2019. -117 b.
- Дадабаев Х. Амир Темурнинг харбий маҳорати.- Т.: “Ёзувчи”, 1996. – 319.
- Dustmurodov M. O‘xun-Yenisey bitigtoşlaridagi harbiy terminlar tadqiqi. Filol. fan. bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ... diss. -T., 2023. -149 b.
- Mavlonov A. Alisher Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostonida qo‘llanilgan terminlarning tarkibiy-mazmuniy tahlili. Filol. fan. bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ... diss. Avtoref. -T., 2024. -49 b.
- Мухаммадиев Х. Алишер Навоий “Хамса” дostonlariдаги майший лексика. Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. -Жиззах. 2022. -165 б.
- Тожибоева М. Алишер Навоийнинг “Илк девон”идаги арабча сўзларнинг лексик семантик талқини. Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Т., 2001. -51 б.
- Умарова Н. Алишер Навоий асарларининг лисоний-концептуал тадқики: филол. фан. доктори (DSc) дисс... автореферати. -Фарғона, 2021.
- O‘razboev A. Ogahiy tarixiy asarlarida harbiy amaliyot va qismlar nomlari/Jahon harb ishi va arb san‘ati rivojida ajdodlar o‘rni: adabiy va tarixiy manbalar misolida” mavzusidagi ilmiy-amaliy yig‘in materiallari. -T., 2024. -146
- Хўжаниёзова Ш. Алишер Навоий маноқиб асарлари лексикаси. Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) ... дисс. автореф. –T., 2022. – 54 b.



**Botir ELOV,**

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti dotsenti, PhD

E-mail: elov@navoiy-uni.uz

**Madina SAMATBOYEVA,**

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti

"Alfraganus" universiteti dotsenti, PhD A.Dauletov taqrizi asosida

### O'ZBEK TILI KORPUSIDA NERNI TEGLASHNING UMUMIY QOIDALARI

Annotatsiya

Ushbu maqola o'zbek tili korpusida nomlangan obyektlarni tanib olish (NER – Named Entity Recognition) tizimlarini yaratish va ularni teglash jarayonlariga bag'ishlangan. Maqolada NER tizimlarining ahamiyati, ularning tabiiy tilni qayta ishlashdagi roli, shuningdek, o'zbek tilida ushbu tizimlarni ishlab chiqishdagi mayjud qiyinchiliklar va muammolar tahlil qilinadi. O'zbek tilining morfologik va sintaktik xususiyatlari, shuningdek, fonetik va leksik farqlari NER tizimlarining aniqligini oshirishda muhim omillar hisoblanadi. Shuningdek, o'zbek tilida NER tizimlarini yaratish va ularni samarali ishlashini ta'minlash uchun zarur bo'lgan metodologiyalar va amaliy yondoshuvlar ko'rib chiqiladi. Taqdim etilgan materiallar va tahlillar texnik xodimlar, kompyuter tilshunoslari va sohada ishlayotgan tadqiqotchilar uchun foydali manba bo'lishi mumkin.

**Kalit so'zlar:** NLP, NER, nomlangan obyekt, atoqli ot, korpus, annotatsiya, ML, DL, teg, model.

### GENERAL RULES FOR TAGGING NER IN THE UZBEK LANGUAGE CORPUS

Annotation

This article is dedicated to the creation of Named Entity Recognition (NER) systems in the Uzbek language corpus and the process of tagging them. The article discusses the importance of NER systems, their role in natural language processing, as well as the challenges and problems encountered in developing these systems for the Uzbek language. The morphological and syntactic characteristics of the Uzbek language, as well as its phonetic and lexical differences, are key factors in improving the accuracy of NER systems. Additionally, the article covers the necessary methodologies and practical approaches to ensure the effective development and functioning of NER systems in the Uzbek language. The materials and analyses presented can be a valuable resource for technical staff, computational linguists, and researchers working in the field.

**Key words:** NLP, NER, named entity, proper noun, corpus, annotation, ML, DL, tag, model.

### ОБЩИЕ ПРАВИЛА ТЕГИРОВАНИЯ NER В КОРПУСЕ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА

Аннотация

Эта статья посвящена созданию систем распознавания именованных объектов (NER – Named Entity Recognition) в корпусе узбекского языка и процессу их тегирования. В статье рассматривается важность систем NER, их роль в обработке естественного языка, а также существующие трудности и проблемы, с которыми сталкиваются при разработке таких систем для узбекского языка. Морфологические и синтаксические особенности узбекского языка, а также фонетические и лексические различия являются важными факторами для повышения точности систем NER. Также рассматриваются необходимые методологии и практические подходы для создания эффективных систем NER на узбекском языке. Представленные материалы и анализы могут быть полезным источником для технических специалистов, компьютерных лингвистов и исследователей, работающих в этой области.

**Ключевые слова:** NLP, NER, именованные объекты, собственные имена, корпус, аннотация, ML, DL, тег, модель.

**Kirish.** Til juda murakkab ta'lim bo'lganligi tufayli kompyuter tilshunosligida avtomatik matn tahlili; avtomatik matn sintezi; avtomatik lug'atlarni yaratish va qo'llab-quvvatlash; avtomatlashtirilgan axborot-qidiruv tizimlarini yaratish; mashina tarjimasi; avtomatik til o'rganish tizimlarini yaratish; lingvistik ma'lumotlar bazalarini yaratish; nazariy va amaliy tilshunoslik masalalarini yechishning dasturiy vositalarini ishlab chiqish kabi turli yo'nalishlar rivojlanib bormoqda [1].

Atrofimizdagi dunyoda barcha mavjudotlar, narsalar, jonli va jonsiz tabiat o'zlarining farqlanish va individualashish tendensiyasi natijasida nomlanadi. Bu nomlar juda ko'p bo'lib, ularni bir vaqtning o'zida tushunish qiyin. Garchi obyektlar umumiyl nomlar (kategoriya) ostida birlashtirilgan bo'lsa-da, ular boshqa "nomlar" asosida ularning tuzilishi, xususiyatlari, ma'lum bir kategoriya bilan sababl qayta nomlanadi [2].

Kompyuter lingvistikasini kompyuter vositalaridan foydalanish sohasi sifatida dasturlar, ma'lumotlarni qayta ishslash texnologiyalarini tashkil etish va muayyan sharoitlarda faoliyatini modellashtirish uchun, shuningdek, tilshunoslikda tilning kompyuter modellari va unga oid fanlar doirasida qo'llash mumkin.

O'zbek tilining xalqimiz ijtimoiy hayotida va xalqaro miqyosdagi obro'e-tiborini tubdan oshirish, unib-o'sib

kelayotgan yoshlarimizni vatanparvarlik, milliy an'ana va qadriyatlarga sadoqat ruhida tarbiyalash, mamlakatimizda davlat tilini to'laqonli joriy etishni ta'minlash, O'zbekistonidagi millat va elatlarning tillarini saqlash va rivojlantirish, davlat tili sifatida o'zbek tilini o'rganish uchun shart-sharoitlar yaratish, o'zbek tili va til siyosatini rivojlantirishning strategik maqsadlari, ustuvor yo'nalish va vazifalarini hamda istiqboldagi bosqichlarini belgilash maqsadida, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5850-son farmoniga muvofiq: 2020 — 2030-yillarda o'zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiysi tasdiqlangan va unda "davlat tilining zamonaviy axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalariga faol integratsiyalashuvini ta'minlash" [3] qismi alohida kiritilgan. Shuningdek, dasturiy mahsulotlarning o'zbekcha ilovalari va elektron lug'at dasturlarini yaratish, xorijliklar uchun o'zbek tilini o'rgatuvchi dasturlar yaratish ishlari ham ustuvor vazifa sifatida belgilangan.

O'tgan yarim asrlik vaqt mobaynida kompyuter lingvistikasi sohasida bir qator ilmiy va amaliy natijalarga erishilgan: tabiiy tilda avtomatik tarjima tizimi yaratildi, matndagi ma'lumotlarning avtomatik qidiruv tizimi ishlab chiqildi, og'zaki

nutqning avtomatik analiz va sintez tizimi yaratildi, bir qator lingvistik muammolarni hal etuvchi kompyuter dasturlari ishlab chiqildi, inson va mashina(kompyuter) muloqoti optimallashtirildi, tabiiy tilni qayta ishlash (Natural Language Processing) tizimi shakllantirildi. To‘g‘ri, bu yo‘nalishlarda sezilar yutuqlar qo‘lga kiritilgan bo‘lsa ham, lekin sanalgan masalalar hali to‘liq o‘z yechimini topgani yo‘q. Chunki inson tili va tafakkuri sirlari mohiyatga ega, uming biz anglamagan qirralari juda ko‘p. Bu esa kompyuter lingvistikasi doirasida to‘xtovsiz izlanishlar olib borishni taqozo etadi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** NER obyektlari atolqi otlarni ifodalaydi. O‘zbek tili uchun atoqli otlar grammatikasiga tayanib NERlar aniqlanadi. Aniqlangan otlar nafaqat morfologik, balki semantik jihatdan ham tahlil qilinadi. Tahlil jarayonida otlarning shakliga ham e’tibor qaratiladi. Matndan ajratilgan otlar ularning “maxsus nom” xususiyatlarga ko‘ra aniqlanadi. Gapdagi nomlangan otlar ajratiladi. Maxsus otlar “NER xususiyatlari”ga ko‘ra tahlil qilinadi (matnda katta harf bilan yozilganlik, lug‘atdan tashqari leksikalik...). Lug‘atlarga asoslangan yondashuv ham NER obyektlarini aniqlashda yordam beradi. Biroq bu yondashuv ham mukammal samarali yechim bo‘la olmaydi. Mukammal yechimlar barchasi ML va DL metodlari asosida amalga oshiriladi[4].

NER texnologiyalari jahon ilmiy adabiyotida ko‘plab olimlar tomonidan keng o‘rganilgan va muhokama qilingan. Olimalarining fikriga ko‘ra, NER tizimlarini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun morfologik, sintaktik, semantik va kontekstual tahlilning hammasi o‘rganilishi kerak. Har bir olim NERni turli nuqtai nazardan ko‘rib chiqadi, ammo umumiy fikr shuki, bu tizimlar kelajakda tabiiy tilni qayta ishlash sohasida yanada rivojlanib, murakkab tahlil imkoniyatlarini yaratadi.

Kompyuter mutaxassislardan biri Daniel Martin o‘z tajribalari davomida bir necha bor NLPga qo‘l uradi va ushbu sohada o‘z fikrlarini keng ommaga e’lon qiladi. Uning fikricha, “NLP, ya’ni tabiiy tilni qayta ishlash, bu kompyuter fanlari, sun‘iy intellekt va tilshunoslik chorrahsida joylashgan sohadir. U kompyuterlarga inson tilini tushunish, talqin qilish va yaratish imkonini berishga qaratilgan. NLP muhandislari qidiruv tizimlari, ovozli yordamchilar va hissiyotlarni tahlil qilish kabi ilovalarga ruxsat beruvchi katta hajmdagi matn ma’lumotlarini qayta ishlash va tahlil qilish tizimlarini ishlab chiqishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi deb ta‘kidlaydi [5].

NLP tarkibida NERlar o‘rganilganda, J.R. Finkel va hamkasbleri o‘z maqolalarida NERning tabiatini va uning NLP sohasidagi ahamiyatini keng yoritadilar. Ular NERni nafaqat ma’lum obyektlarni aniqlash, balki ularning o‘zaro bog‘liqligini va kontekstual ma’nolarini to‘g‘ri tushunishni ham ta’minlaydigan tizim sifatida ko‘rsatishadi. Ularning fikricha, NER texnologiyasi rivojlangan va uni mashinasozlik va lingvistik metodlarning uyg‘unlashuvi orqali takomillashtirish mumkin [6].

NERni to‘liq tizim sifatida ko‘rib chiqqan ikki olim A. Nadeau va S. Sekine uni ikkita asosiy qismiga ajratadilar: 1) Obyektni aniqlash va 2) Ma’lum tizimga ajratish. Ular shuningdek, NER tizimlarining turli turlari va yondashuvlaridan, masalan, qoidalarga asoslangan va statistik metodlardan foydalanishdan ham so‘z yuritadilar. Maqolada, Nadeau va Sekine, NERni ishlab chiqishda afzallik beriladigan yondashuvlar va metodlarni ta‘kidlashadi [7].

David Milne va Ian H.Witten o‘z maqolalarida NERni tasniflash va aniqlashning turli metodlari bilan tanishtiradilar. Ular, ayniqsa, matnlarni annotatsiya qilishda semantik tuzilmani

tushunishning zarurligini ta‘kidlaydilar. Ular NERni nafaqat to‘g‘ri obyektlarni aniqlash, balki bu obyektlar orasidagi o‘zaro bog‘lanishni ham ko‘rsatish vositasi sifatida baholashadi [8].

**Tadqiqot metodologiyasi.** O‘zbek tilidagi NER tizimlarini to‘g‘ri va samarali ishlab chiqish uchun zarur metodikalarni belgilash va ularni amaliyotga tadbiq etish muhimdir. Tadqiqot quyidagi metodologik yondoshuvlarni o‘z ichiga oladi:

Korpusni tahlil qilish va matn tozalash. Tadqiqotning birinchi bosqichida o‘zbek tili korpusini shakllantirish va uni grammatic tahlil qilish kerak. O‘zbek tilidagi matnlarni korpus yordamida yig‘ish uchun mavjud bo‘lgan elektron matnlar, gazeta maqolalari, adabiy asarlar va boshqa manbalar tahlil qilinadi. Korpusda mavjud bo‘lgan turli xildagi nomlangan obyektlarni aniqlash uchun grammatic va leksik analizlardan foydalaniladi. Korpus tarkibiga kiritiluvchi matnlar ham “matn tozalash” jarayonidan o‘tkaziladi. Bunda matn va gaplar keraksiz unsurlar(Removing extra spaces and empty lines – ortiqcha bo‘shliqlar va bo‘sh qatorlar, Cleaning special characters (excluding certain necessary ones) – maxsus belgilari; Removing URLs, emails, and HTML tags – internet manzillari va teglari)dan tozalanadi.

NER tizimlarining teglash qoidalarini ishlab chiqish. NER tizimlarining to‘g‘ri ishlashini ta‘minlash uchun, o‘zbek tiliga xos bo‘lgan teglash qoidalari ishlab chiqiladi. Bu qoidalardan orasida so‘zlarning morfologik tahlili, ularning sintaktik vazifalari, semantik ma’nolari va kontekstual xususiyatlari hisobga olinadi. Teglash jarayonida nomlar, joylar, tashkilotlar va boshqa obyektlar aniqlanadi. Shuningdek, ko‘p ma’noli so‘zlar va sinonimlar uchun qo‘shimcha teglar kiritiladi.

Aniqlangan NERlarga toifa berish. NER tizimlarining samarali ishlashini ta‘minlash uchun matndagi NERlar tasnifi amalga oshiriladi. Har bir NER turini (shaxs nomi, joy nomi, tashkilot nomi va boshqa) alohida teglash ko‘rinishlari bilan belgilash kerak. Shuningdek, o‘zbek tilining morfologik xususiyatlarni hisobga olib, so‘z birikmalari bilan bog‘liq alohida qoidalari ishlab chiqiladi.

Teglash usullarini tanlash. Ushbu metod orqali NER tizimlarining teglash usullari aniq belgilanadi. Bir qancha usullar orasida qoidalari yondashuv, mashinali o‘qitish (ML - Machine Learning) va chuqur o‘rganish (DL - Deyep Learning) metodlari sinovdan o‘tkaziladi. MLni o‘rgatishda eng ko‘p ishlatiladigan algoritmlar, masalan, Naive Bayes, Support Vector Machines (SVM), va Conditional Random Fields (CRF) kabi usullarni sinovdan o‘tkazish rejalashtirilgan. Shu bilan birga, DL asosida ishlovchi modellar, xususan, Recurrent Neural Networks (RNN), Long Short-Term Memory (LSTM) va Transformer metodlar samaradorligi ham tahlil qilinadi.

**Tahlil va natijalar.** NERlarni aniqlashda, avvalo, NERlar ro‘yxati (NER objects list) shakllantiriladi. NER deb qabul qilingan obyektlar tavsifiga (ya’ni nimani ifodalab kelishiga) ko‘ra ularga maxsus teglar belgilanadi. Jahon NLP sohasida NER ro‘yxati bir qancha turlarni o‘z ichiga oladi. Ular tarkibida hamma obyektlar ham o‘zbek tili uchun “NERlar ro‘yxatini” shakllantirolmaydi. Bunga sabab, turli til oilalari, turli grammatic qurilishlar, turli til tarixi va so‘zlarning paydo bo‘lishidagi farqlardir (Qarang:1-rasm). Tadqiqot obyektimiz sifatida, o‘zbek tili grammatic qoidalardan kelib chiqib ular orasidan “O‘zbek tili uchun NERlar” sifatida bir qancha obyektlarni ajratib oldik. Ushbu obyektlar asosiy katta turlarni hosil qilib, ularga maxsus teglar modellar asosida taqdimg etiladi.

PERSON	People including fictional
NORP	Nationalities or religious or political groups
FACILITY	Buildings, airports, highways, bridges, etc.
ORGANIZATION	Companies, agencies, institutions, etc.
GPE	Countries, cities, states
LOCATION	Non-GPE locations, mountain ranges, bodies of water
PRODUCT	Vehicles, weapons, foods, etc. (Not services)
EVENT	Named hurricanes, battles, wars, sports events, etc.
WORK OF ART	Titles of books, songs, etc.
LAW	Named documents made into laws
LANGUAGE	Any named language
DATE	Absolute or relative dates or periods
TIME	Times smaller than a day
PERCENT	Percentage (including "%")
MONEY	Monetary values, including unit
QUANTITY	Measurements such as weight or distance
ORDINAL	"first", "second", etc.
CARDINAL	Numerals that do not fall under another type

1-rasm. Ingliz til asosida yaratilgan DeepPavlov NER-modelida qo'llanilgan NER obyektlari [9].

O'zbek tili uchun mos bo'lgan NER obyektlari ajratib olindi. Ular asosiy katta tur NERlar bo'lib, inson ismlari, joy nomlari, tashkilot nomlari, qisqartma shaklidagi atoqli otlar qabul qilindi. NER yordamida aniqlangan obyektlar, odatda, joylar yoki tashkilotlarni anglatadi. Biroq, ular maxsus narsalarni ham anglatishi mumkin. Bir obyekt bir so'z yoki doimo bir xil narsani

anglatadigan so'zlar ketma-ketligi bo'lishi mumkin. NERni amalga oshirishda maxsus obyektlarni ajratib olish va ularga qaysi so'zlar birikishi to'g'risidagi qoidalarni ishlab chiqish muhimdir [10]. Ularga teglar tanlashda dunyo standartlariga mos holatda taqdim etildi (Qarang: 1-jadval).

№	Inglizcha	O'zbekcha	Misol	Teglar
1	Person	Inson ismlari	Lola, Diyor	PER
2	Location	Joy nomlari(manzillar)	Toshkent, Zarafshan	LOC
3	Organization (with abbreviation)	Tashkilot nomlari	"Asaka" bank, BMT, SamISI	ORG
4	Facility	Qulaylik	Toshkent xalqaro aeroporti	FAC
5	Work of art	San'at asari(adabiyot, san'at...)	"O'tkan kunlar" asari, "Oqqushlar" kompozitsiyasi	ART

1-jadval. O'zbek tilidagi NERlar uchun taqdim etilgan teglar.

va yangi resurslar yaratish o'zbek tilini kompyuter yordamida qayta ishlash sohasida katta yutuqlarga erishishga imkon beradi.

O'zbek tili korpusi uchun NER tizimlarini samarali yaratish va ularning ishlashini optimallashtirishda muhim ahamiyatga ega. Belgilangan metodlar, usullar va tahlillar natijasida olingan bilimlar nafaqat ilmiy, balki amaliy jihatdan muhimdir.

#### ADABIYOTLAR

- Гулямова Ш. Ўзбек тили семантик анализаторининг лингвистик асослари. Филол. фан. доктори (DSc) диссертацияси. – Тошкент, – В.4
- Elov, Botir B., and Madina T. Samatboyeva. "NER: Methods FOR Automatic Identification of Anthroponyms in Uzbek Texts." 2024 IEEE 3rd International Conference on Problems of Informatics, Electronics and Radio Engineering (PIERE). IEEE, 2024.
- <https://doi.org/10.1109/PIERE62470.2024.10805025>
- <https://lex.uz/uz/docs/-5058351>
- Elov B., M.Samatboyeva. Identifying NER (Named Entity Recognition) objects in uzbek language texts. science and innovation international scientific journal volume 2 issue. Toshkent., 44-57. UIF-2022: 8.2 | ISSN: 2181-3337 | Scientists.Uz.
- Martin D. Tabiiy tilni qayta ishslash (NLP) muhandisi: mas'uliyat va yo'l xaritasi. 2023. 13-b.
- <https://www.unite.ai/uz/tabiyy-tilni-qayta-ishslash-nlp-muhandisi-mas%27uliyati-yo%27l-xaritasi/>
- J.R. Finkel, T. Grenager, C. Manning. Understanding Named Entity Recognition. 2005 – p 5.
- A. Nadeau, S. Sekine. A Survey of Named Entity Recognition and Classification. 2007 – p 3.
- David Milne, Ian H. Witten. Named Entity Recognition and Classification. 2008 – p 8.
- <https://docs.deeppavlov.ai/en/master/features/models/NER.html>
- Maria L. Coppola. Named entity recognition tagging: How to tag data & recognise entities [+ Tools]. Datavid published. 2023 – p 55.



**Maftuna ESANOVA,**

*Samarkand State Medical University Trainee teacher*

E-mail: justms150@gmail.com

*PhD S.Yorova taqrizi asosida*

## EXPRESSION OF THE CLINICAL MEANING OF LATIN MEDICAL TERMS IN ENGLISH AND UZBEK

### Annotation

Today, the use of Latin in medical terminology is not only a historical tradition, but also an enduring tradition that shapes the way healthcare professionals around the world communicate. Once the language of scholars and educators in Europe, Latin was adopted by physicians and anatomists during the Renaissance for its versatility and precision. This article examines how Latin medical terms in English and Uzbek convey their clinical meanings, highlighting the different ways they have been adapted while maintaining the clarity and precision needed in the medical field.

**Key words:** Anatomy, Greek-Latin terminology, organs, tissues, medical translation, nomenclature.

## ВЫРАЖЕНИЕ КЛИНИЧЕСКОГО ЗНАЧЕНИЯ ЛАТИНСКИХ СЛОВ МЕДИЦИНСКИЕ ТЕРМИНЫ НА АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

### Аннотация

Сегодня использование латыни в медицинской терминологии — это не только историческая традиция, но и устойчивая традиция, которая формирует способ общения специалистов здравоохранения по всему миру. Будучи языком ученых и педагогов в Европе, латынь была принята врачами и анатомами в эпоху Возрождения за ее универсальность и точность. В этой статье рассматривается, как латинские медицинские термины на английском и узбекском языках передают свои клинические значения, подчеркивая различные способы их адаптации, сохраняя при этом ясность и точность, необходимые в медицинской сфере.

**Ключевые слова:** Анатомия, греко-латинская терминология, органы, ткани, медицинский перевод, номенклатура.

## LOTIN TILINING KLINIK MA'NOSINI IFODALASH INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA TIBBIY ATAMALAR

### Annotatsiya

Bugungi kunda tibbiy terminologiyada lotin tilidan foydalanish nafaqat tarixiy an'ana, balki butun dunyo bo'ylab tibbiyot xodimlarining muloqot qilish usullarini shakllaniradigan doimiy an'anadir. Bir vaqtular Evropada olimlar va o'qituvchilar tili bo'lgan lotin tili Uyg'onish davrida shifokorlar va anatomlar tomonidan o'zining ko'p qirraliligi va aniqligi uchun qabul qilingan. Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillaridagi lotin tibbiyot atamalari ularning klinik ma'nolarini qanday yetkazishimi ko'rib chiqadi va tibbiyot sohasida zarur bo'lgan ravshanlik va aniqlikni saqlagan holda ularning moslashtirilgan turli usullarini ta'kidlaydi.

**Kalit so'zlar:** Anatomiya, yunon-lotin terminologiyasi, organlar, to'qimalar, tibbiy tarjima, nomenklatura.

**Introduction.** Historically, Latin was used to communicate among scholars across Europe, especially in the fields of medicine and science. Medical practitioners from the time of Hippocrates and Galen to Renaissance anatomists like Andreas Vesalius communicated and wrote in Latin, creating a standardized vocabulary for the human body, diseases, medical instruments, and treatments. In medical terminology, the use of Latin has a number of advantages, including:

Early anatomists, physicians, and scientists who were educated in Latin, which was the academic language of Europe during the Renaissance, influenced the medical field. Hippocrates, Galen, and Vesalius were famous physicians who used Latin in their medical writings, and this tradition continues today. Medical terms derived from Latin are used for their precision and versatility, as they allow physicians around the world to communicate effectively with each other, regardless of their language.

**Literature review.** Latin has long served as the primary language for scientific and medical professionals around the world. Latin vocabulary has played an important role in the creation of medical terms, but different languages adopt and use Latin words. This article examines the use of Latin clinical terms in English and Uzbek, comparing how the two languages use Latin in medical discourse. In medicine, Latin has been important since the time of the Roman Empire, when it was the language of international intellectual communication. Latynsha was an important language for medical texts for many centuries, especially after the Renaissance. Latin is still the basis for most medical vocabulary around the world. It is used to refer to anatomical structures, procedures, diagnoses, and diseases.

Latin became the common language for scientific communication because it was the language of scientists during the development of modern science. Latin continues to be used in specialized fields, such as medicine, in countries where people speak English, Uzbek, or other local languages.

As a language that has been heavily influenced by Latin and Greek, English uses many Latin terms directly or with slight modifications. This linguistic modification is most common in medical terms, where Latin words are often left unchanged or slightly modified to suit English grammar and phonetics. In most cases, Latin medical terms are used in English in their original or nearly identical forms, with minor changes in pronunciation, spelling, or suffixes. In fact, many of these words are used in everyday medical practice and health care settings.

Uzbek, a Turkic language, uses Latin medical terms slightly differently. Although the native structure of Uzbek did not originally use Latin, the influence of Russian and other languages, especially in medical contexts, has led to a process of transliteration or translation of terms.

In the Uzbek medical environment, especially in academia, Latin terms may be used directly. However, in everyday communication, doctors often use simplified or transliterated terms. When Latin is used in Uzbekistan, it depends on the situation: it can be communication with specialists or with patients who may not be familiar with Latin-derived terms.

Since English is a global language, it has naturally incorporated many Latin medical terms. Regardless of the country, medical professionals often use these terms. The large number of Latin medical terms in English is a result of both historical dependence on Latin and different cultural standards of

